Атмосфера напряжённости и конфликтных семейных ситуации действует на ребёнка резко отрицательно. Дом перестаёт быть для него опорой, он теряет чувство безопасности, исчезает тот источник, которым была для него семья, когда в ней царила эмоциональная связь родителей, когда они и мир их ценностей были примером для подражания. Нарушение такой стабильности семейной системы может привести ребёнка, особенно в подростковом и юношеском возрасте, к поискам опоры вне дома. В таком состоянии дети легче поддаются внешним влияниям, так как стремятся к разрядке внутреннего напряжения. В частности, у детей которых родители являются жертвами торговли людьми, сталкиваются с неправильным типом семейного воспитания, может формироваться слишком раннее, чрезмерное стремление к автономии, независимости от родителей, самостоятельности, что, в свою очередь, может приводить к дальнейшим конфликтам в семье. У детей с нездоровой, нефункциональной индивидуализацией свойственны обособленность, уход в себя, импульсивное поведение, отторжение от семьи и общественных норм и потенциальная склонность к суициду.

Заключение. При этом надо помнить, что чем длительнее по времени отсутствия одного из родителей в семье, тем сильнее их отрицательное влияние на ребёнка, что препятствует развитию автономии и индивидуализации – которое является одним из основных аспектов личностного развития ребёнка – может нарушаться в условиях кризиса семьи у жертв торговли людьми.

Литература:

1. Абрамова Г.С. Возрастная психология: Учебник для студентов вузов.- М.: Академический Проект, 2001.
2. Авдеева Н.А. Взаимоотношения подростка в семье // Воспитание школьников. – 2005.– №7. - с. 17–22
3. Габидуллина Р.Ф. Отцы глазами детей: Для бесед с родителями // Воспитание школьников. – 2004. – №10. - с. 47–48
4. Гершиганов Т.М. О культуре семейных отношений // Воспитание школьников. – 2001.– №3. – с. 25–27
5. Махмудова Д.А. Речь при эмоциональном напряжении. Вестник интегративной психологии. 2022год. Выпуск 26 стр.140
6. Торговля людьми. Социокриминалогический анализ / Под общей ред. Е.В. Тюрюкановой и Л.Д. Ерохиной. М.: Академия, 2002. - С. 165-186.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

O‘QITUVCHINING KASBIY PEDAGOGIK KOMPETENTLIGI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

*Fayzieva Umida Asadovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti*

Maqolada pedagogik kompetentlikning tuzilishi va mohiyati, uni rivojlantirish funksiyalari, pedagogik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishning ilg‘or metod, shakl va vositalari kabi masalalar yoritilgan

***Kalit so‘zlar:** o‘qituvchi, kompetentlik, pedagogik kompetentlik, qobiliyat, bilim, o‘qituvchi, kompetensiya, ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik.*

ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ УЧИТЕЛЯ И ПУТИ ЕЁ ПОВЫШЕНИЯ

В статье рассматриваются структура и сущность педагогической компетентности, функции её развития, перспективные методы, формы и средства формирования и развития педагогической компетентности.

***Ключевые слова:** учитель, компетентность, педагогическая компетентность, умение, знание, педагог, компетенция, социальная компетентность, специальная компетентность.*

PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL COMPETENCE OF A TEACHER AND WAYS TO INCREASE IT

The article discusses the structure and essence of pedagogical competence, the functions of its development, promising methods, forms and means of formation and development of pedagogical competence.

***Key words:** teacher, competence, pedagogical competence, skill, knowledge, teacher, competence, social competence, special competence.*

Kirish. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimida ijodkor, mustaqil harakat faoliyatiga ega bo‘lgan, pedagogik jarayonni to‘g‘ri tashkil eta oladigan, o‘zining kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalari asosida yangicha o‘qitish shakli, metod va vositalarini izlab topib, amaliyotga joriy etadigan malakali mutaxassislarni tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Milliy ta‘lim tizimining integratsiyasi magistratura bosqichida tahsil olayotgan bo‘ljak mutaxassislarni tayyorlashda umumjahon ta‘lim tizimi tendensiyalari talablarini, xususan magistrlarni o‘z yondashuvlariga o‘zgartirishlar kiritish hamda o‘quv, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish shakllarini qaytadan ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Bugungi kunga kelib, respublikamizda milliy ta‘lim tizimining huquqiy asoslarini shakllantirish uchun keng sharoit yaratildi. O‘z navbatida, islohotlar ta‘lim tuzilmasi va mazmun-mohiyatini takomillashtirish imkonini berdi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, «Biz ta‘lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz» [1].

Asosiy qism. Hozirgi davrda ta‘lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, oliy ta‘lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovatsion ta‘lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va maqsadli yo‘naltirish oliy ta‘lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi. Ta‘lim – jamiyatni isloh qilish va uni tashqi dunyo uchun yanada ochiq hamda yangi texnologiya va bilimlarga yo‘naltirilgan jamiyatga aylantirishning asosiy omilidir. U nafaqat jamiyatning rivojlanish istiqboli, balki har bir insonning alohida faoliyatini oldindan aniqlaydi va belgilaydi.

Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetentlikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta‘limining asosiy sharti bo‘lib hisoblanadi. Bu talab o‘qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir. Bugungi kunda dunyo ta‘limini yangilashning asosiy yo‘nalishi ta‘lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, pedagogik faoliyatni yaxlit tizimli ko‘ra olish, unda tizimli faoliyat ko‘rsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal yeta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir.

Kasbiy tayyorgarlik natijasi “kasbiy kompetentlik” tushunchasi yordamida aniq va to‘liq tasvirlanishi mumkin.

Kasbiy kompetentlik integral xususiyatga yegadir. U pedagogik faoliyat jarayonida paydo bo‘ladigan vaziyatlarda kasbiy muammolar va kasbiy topshiriqlarni hal yeta olish *qobiliyati* va *tayyorlik* darajasi bo‘lib, bilim, ko‘nikma, malaka, kasbiy va hayotiy tajribani, qadriyatlar va madaniyatni ishga solishni nazarda tutadi.

“*Qobiliyat*” bu o‘rinda “moyillik”, “ko‘nikma” ma‘nosida tushuniladi va yaxlit olganda qobiliyat muayyan faoliyat sohasini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish va bajarishda asqotadigan shaxsiy sifat bo‘lib hisoblanadi.

“*Tayyorlik*” atamasi bu o‘rinda, avvalo, mustaqil faoliyatga va zarur bo‘lganda, ijodiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorlik ma‘nosida qo‘llanilgan.

“*Kompetensiya*” deganda ega (lotincha *compete* – erishaman, muvofiqman, mos kelaman) kishi egallagan muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar majmui tushuniladi. Kompetensiya, shuningdek, muayyan vazifani bajarish uchun biror shaxs yoki tashkilotga berilgan vakolat va huquq ma‘nosida ham qo‘llaniladi.

Kompetentlilik va kompetensiya so‘zlari bir-biri bilan bog‘liq va biri ikkinchisini taqozo etadigan tushunchalar sanaladi. Shunga ko‘ra, kasbiy kompetensiya o‘zida bir qator kompetentlik va kompetensiyalarni mujassamlashtiradi. Zero, yetarli darajada kasbiy kompetensiyasi rivojlanmagan va keng doiradagi kompetensiyaga ega bo‘lmagan mutaxassis o‘z lavozim vazifalarini muvaffaqiyatli bajara olmaydi. *Kompetentli* deb muayyan bir sohaga oid ma‘lumotga yega bo‘lgan va shu sohaga xos kompetensiyalarni egallagan kishiga aytiladi.

“Kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalarining farqi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- *kompetensiya* – davlat ixtiyorida bo‘lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo‘lib, u o‘quvchi (ishchi)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan ta‘limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladi;

- *kompetentlilik* – bu o‘quvchi (ishchi) tomonidan egallangan xos kompetensiya bo‘lib, kishining muayyan sohada egallagan shaxsiy sifatleri, muayyan sohada orttirilgan tajriba.

Ta‘limiy kopetensiyalar shunisi bilan farqlanadiki, ular o‘quvchi faoliyatini kelajakda to‘laqonli hayot kechirishi (faoliyat ko‘rsatishi) uchun modellashtiradi. Ma‘lum yoshgacha, davrgacha inson biror bir kompetensiyani namoyon eta olmaydi, ammo bu kompetensiyani shakllantirmaslik kerak degani yemas. Bunday holatda ta‘limiy kompetensiyalar haqida, ya‘ni o‘zaro bog‘liq mazmun yo‘nalishlari, bilim, ko‘nikma, malakalar, borliqda mavjud voqeliklarga munosabat nuqtayi nazaridan faoliyat tajribasida ifodalangan, ham shaxsiy, ham ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ta‘limiy tayyorgarlik to‘g‘risida gap boradi.[8]

Kompetentlilik har doim faoliyatda namoyon bo‘ladi. Mutaxassisning kasbiy kompetentligi professional topshiriqlarni bajarish davomida namoyon bo‘ladi. Bunda kasbiy kompetentlik namoyon bo‘ladigan kontekstni ko‘rish muhim bo‘lib hisoblanadi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra kompetentlilik tabiati shundayki, u insoniy qadriyatlar bilan, ya‘ni muayyan turdagi faoliyatga nisbatan chuqur shaxsiy qiziquvchanlik sharoitida namoyon bo‘ladi. Amaliyotda shaxsiy qadriyat darajasida ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyat mazmuni aniq natija (mahsulot) yoki xulq-atvor shakli ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. XXI asrda mutaxassis kompetentligini anglash insonning integrativ va analitik qobiliyatlari rivojlanganligiga asoslanishi lozim. Ijtimoiy taraqqiyot dinamikasi pedagogik faoliyat insonning kasb karyerasi davrida to‘la aniqlanmaganligini nazarda tutadi hamda uzluksiz tayyorgarlikni, o‘z kasbiy kompetentligini doimiy oshirib borishni talab etadi.

Kompetentlilikning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

1. Kompetentlilik faoliyatl bilan bog‘liq tushuncha bo‘lib, ma‘lum bir sohaga oid bilim, ko‘nikma, malakalar bilan uyg‘unlashgan umumiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab etadi.

2. Kompetentlilik muayyan vaziyatda o‘zini xolis baholagan holda yo‘l tanlay olish ko‘nikmalarida namoyon bo‘ladi.

Kasbiy tayyorgarlikka kasbiy rivojlanish deb qaraydigan bo‘lsak, bo‘lajak pedagogik faoliyat tajribasini egallash deganda kompetentli mutaxassisning istiqbol sari intiluvchan, o‘zgarishlarni oldindan ko‘rib biladigan, doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘nalganligi nazarda tutiladi. Tayanch, bazaviy va maxsus kompetensiyalar majmui kasbiy kompetentlik mazmunini tashkil yetadi.

Tayanch kompetensiyalar istalgan pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lib, hozirgi davrda shaxsning yerishgan muvaffaqiyatlari bilan bog‘liq. Tayanch kompetensiyalar bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ular yeng avvalo, axborotlarga ishlov berish asosida professional topshiriqlarni bajara olish qobiliyati; kommunikatsiya, shuningdek, chet tilida muloqot qila olish; fuqarolik jamiyatida shaxsning ijtimoiy-huquqiy xulq-atvori asoslarida namoyon bo‘ladi.

Bazaviy kompetensiyalar muayyan pedagogik faoliyatning (pedagogik, boshqaruv v.b) o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi.

Maxsus kompetensiyalar pedagogik faoliyatning aniq predmetli yoki tor sohasini ifodalaydi. Maxsus kompetensiyalarga muayyan pedagogik faoliyat sohasida *tayanch* va *bazaviy* kompetensiyalarning amalda qo'llanilishi sifatida qarash mumkin. Kompetentlikning uchala turi ham o'zaro bog'liq va birgalikda rivojlanadi. Shuningdek, faoliyatni individual uslubini shakllantiradi, mutaxassisning yaxlit obrazini yaratadi va pirovard natijada kasbiy kompetentlikning yaxlit ko'rinishini hosil qiladi.

Tayanch, bazaviy va maxsus kompetensiyalar o'zaro uyg'un ravishda hayotiy muhim turli darajadagi va murakkablikdagi topshiriqlarni hal etishda namoyon bo'ladi.

Pedagoglarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning umumiy maqsadi – pedagoglarning muayyan sohadagi kasbiy pedagogik faoliyatida umumiy ilmiy, kasbiy pedagogik va maxsus kompetensiyalari rivojlanish jarayonini aniqlash.

Kasbiy kompetentlikning bir nechta **rivojlanish bosqichlari mavjud:**

1- bosqich. Bo'lajak pedagogik faoliyat kontekstida *tayanch* kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiy-gumanitar bilimlar, jumladan, pedagogika sohasi mutaxassisi ishini tahlil qilish natijasida shunday turdagi faoliyat uchun xos bo'lgan *tayanch kompetensiyalarni* ajratish imkonini berdi. Bular quyidagilar:

1) konseptual – kasbiy-pedagogik faoliyatning nazariy asoslarini tushunish, pedagogika sohasiga oid umumiy, falsafiy va metodologik yondashuvlarni yegallash;

2) instrumental – pedagogik metodlar va malakalarga ega bo'lish;

3) axloqiy qadriyatli – pedagoglik ishining qabul qilingan me'yorlari, ma'naviy qadriyatlari, uning missionerlik va insonparvar yo'nalganligi, pedagogning ijtimoiy mas'uliyati, jamiyatning taraqqiyoti uchun pedagogik faoliyatning ahamiyati, bolalikni va alohida bir insonning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;

4) integrativ – nazariya va amaliyotni, ularning axloqiy-metodologik tarkibini pedagogik muammolarni hal etishda uyg'unlashtira olish qobiliyati;

5) kontekstual – pedagogik faoliyat amalga oshiriladigan ijtimoiy, madaniy, tashkiliy muhitni tushunish, pedagogik jarayonda individuallikni namoyon etishning o'ziga xosligi;

6) adaptatsiyali – pedagogik jarayonlarning ziddiyatlarini, ijtimoiy-pedagogik o'zgarishlar xarakterini, voqea-hodisalar va odamlar xulq-atvorining o'zgaruvchanligini oldindan ko'ra olish, ularning hammasiga tayyor bo'lish qobiliyati;

7) kommunikativ – zamonaviy axborot oqimlaridan, shaxslararo kommunikatsiyaning yozma va og'zaki vositalaridan samarali foydalana olish, turli ijtimoiy-rolli pedagogik pozitsiyalarda dialogik muloqot qila olish, turli xil odamlarning o'ziga xosligi, pozitsiyasi va fikrlarini qabul qila olish ko'nikmalari.

2-bosqichda – ta'lim oluvchilarning kasbiy-professional topshiriqlarga “sho'ng'ish” jarayoni kechadi. Bu topshiriqlarni hal etish usullarni egallash orqali shakllantirilgan tayanch kompetensiyalar asosida *bazaviy kompetensiyalar* hosil qilinadi. Bu bosqichda bazaviy va tayanch kompetensiyalarning o'zaro singishi (integratsiyasi) ro'y beradi.

3-bosqichda – bazaviy kompetensiyaning tayanch va maxsus kompetensiya bilan o'zaro chambarchas bog'liq integratsiyasi amalga oshiriladi. Shundan so'ng *maxsus kompetensiyalarning* rivojlanish jarayoni kecha boshlaydi.

Pedagogning maxsus kompetensiyalari rivojlanish jarayoni ish tajribasi va o'quv topshiriqlarini bajarish, ijodiy ish va loyihalarning o'zaro uyg'unligi, pedagogik tadqiqotlar olib borish orqali kechadi.

Yaxlit olganda bazaviy kompetensiyalar zamonaviy pedagogik faoliyat asosiy topshiriqlarni tushunish, tayanch kompetensiyalar esa shu topshiriqlarni yechish algoritimiga o'tishni nazarda tutadi. Maxsus kompetensiyalar esa alohida bir mutaxassisning pedagogik faoliyati misolida bazaviy va tayanch kompetensiyalarning qo'llanilishini ko'rsatadi.

Pedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga o'tish sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- jamiyatda o'zgarishlarning intensivligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atining yuqoriligi;
- ijtimoiy va kasbiy axborot oqimining uzluksiz o'sib borishi;
- shaxs talablari hamda yuqori malakali kadrlarga bo'lgan jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'limni modernizatsiyalash vazifalari;

- zamonaviy odam, mutaxassisning hayotiy faoliyati davomida turli topshiriqlarni hal etishga nisbatan faollik, mustaqillik, tayyorliligiga nisbatan talab ortganligi.

Umuman, pedagogik tayyorgarlikka kompetensiyali yondashuvning o'ziga xos farqlanuvchi tomoni ta'lim jarayonining kasbiy-pedagogik topshiriqlarni hal etishda aniq (moddiylashtirilgan va subyektiv) natijaga erishishga yo'nalganligi bilan belgilanadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi.

Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma‘lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo yetadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma‘lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi

Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini-o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi.

Pedagogning mutaxassis sifatida:

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;
- pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish;
- ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tatbiq etish;
- kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;
- salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo‘lida olib boradigan amaliy harakati uning o‘z ustida ishlashini ifodalaydi.

Xulosa. Pedagoglarning o‘z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo‘l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. Modelda o‘z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd yetiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal yetilishi navbatdagi bosqichga o‘tish imkonini beradi. Ma‘lum bosqich vazifalari hal etilgach, pedagog bu holatni alohida bandda qayd etadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi - inson manfaatlarini ta‘minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston”, 2017.
2. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.
3. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
4. Муслимов Н. и др. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари //Т.: Сано стандарт. – 2015.
5. Жураев Б. Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса // Научные школы. Молодёжь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.
6. Ходжаев Б. К., Жураев Б. Т. Повышение нравственно-эстетической культуры слушателей института повышения квалификации работников народного образования //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1217-1222.
7. Tojiboeva G. R., Pulatova D. T. Pedagogik kompetentlik: nazariya va amaliyot //Academic research in educational sciences. – 2020. – №. 3. – С. 209-215.
8. Краевский В.В., Хуторский А.В. Основы обучения. Дидактика и методика. – М., 2007. – С. 135.

ANALYSIS OF COMPUTER SIMULATION MODELS IN INCLUSIVE EDUCATION ON
LEGAL APPROACH TO LEARNING PROCESS

Amonov Adkham Kamolovich,

*Samarkand Branch of Tashkent State University of Economics,
Docent of the "Digital Economy and Information Technologies"*

adkham1972@gmail.com

Eshimov Rahmon Rustamovich,

*Samarkand Branch of Tashkent State University of Economics,
Docent of the "Digital Economy and Information Technologies"*

eshimovr@mail.ru

Abstract:

Background. This article presents an analysis of research works of foreign and CIS countries and Uzbekistan on the use of information and communication technologies (ICT) in education, as well as the effectiveness of the use of computer modeling technology in the educational process.

Method: In this article, the study of the effectiveness of experimental technologies on the formation of children for special education in the continuous education system of teachers is discussed.

Result: Multimedia electronic textbooks provide the following convenient opportunities for practical training in specialized training rooms:

- using computer support, carry out a large number of tasks, analyze solutions and graphic interpretations;
- the participation of a teacher as a leader and consultant, as well as conducting classes with a computer in the form of independent work;
- prompt and effective control of students' knowledge by the teacher with the help of a computer.
- provision by the teacher, at will, of small in volume, but important in composition, materials in theoretical and practical classes;
- providing students with the opportunity to independently solve problems that can be studied in the framework of extracurricular activities;
- freeing the teacher from such complex tasks as checking homework, various calculations and tests;
- makes it possible to individualize the work of students, especially on homework and tests.

Conclusion. Taking these considerations into account, remote teaching of existing presentations and lectures using computer technologies will allow students to repeat lessons for students who did not complete them on time. During the lesson, the teacher must make the lesson interesting with different methods, as well as on the basis of pedagogical and information technologies.

Key words: information and communication technologies, mass media, inclusive education, computer technologies, modeling technologies.

Introduction: Today, in the public education system, there are 86 specialized schools and 21 boarding schools for students with disabilities in physical or mental development, where more than 20,610 students receive education. In addition, more than 13,437 students with physical or mental disabilities and need long-term treatment are receiving education at home [1].

Education of children and adolescents in need of special assistance in our republic, taking into account their types of disabilities and their degrees, in the following 8 areas of special education:

- blind children;
- visually impaired;
- children with hearing impairment;
- hearing impaired children;
- children with intellectual disabilities;
- children with damage to the supporting organs;
- children with speech defects;
- activities are being conducted on children with severe behavior.

At this point, the decision PQ-5218 of the President of the Republic of Uzbekistan dated August 9, 2021 "On measures to introduce a fundamentally updated system of raising orphans and children deprived of parental care" also shows that young people with limited opportunities are highly valued in our country.

According to the President's decision, "Mehribonlik" houses, Children's towns, family orphanages and Children's houses (educational institutions) of the Ministry of Health system were attached to the National Guard.

In the conducted scientific research, the condition of education of children with damage to the 8 categories of basic movement organs and children with hearing impairment was studied. As the first basis for the education of youth with disabilities in Uzbekistan, the Republican Education Center developed the "Measure-Measure Plan for the Development of the Open Education System for Children with Special Needs in the Republic of Uzbekistan". In this plan, the following organizational principles of inclusion of children with special needs in the special system are highlighted in the program:

- preparing public consciousness for inclusive education through public information;
- creation of an information bank about children in need of special assistance in the republic;
- issues of development and provision of various educational methodical literatures, didactic tools for children with all types of disabilities, specially and individually in families.

Main part: In the concept of development of the system of public education of the Republic of Uzbekistan until 2030, priority tasks such as "creating information and communication technologies for modern textbooks, educational manuals, and multimedia applications" have been defined.

Information communication technologies are methods of information processing with various technical and software devices. It is primarily computers with the necessary software and telecommunications equipment on which data is stored.

The introduction of information and communication technologies in the education of young people with disabilities leads to a more effective learning of students.

It would not be a mistake to say that the introduction of computer technologies not only into the field of production, but also into the education system has brought significant achievements in science. The introduction of software tools of computer technologies into the education of young people with disabilities creates an opportunity to learn from existing subjects.

According to studies, the diseases of children who need individual education at home are listed below and they are:

1. Rheumatism (active phase).
2. Pancarditis and endomyocarditis.
3. Congenital heart disease (level of subcompensation and decompensation).
4. Severe tetrad Fallo's disease.
5. Chronic pneumonia, with bronchial deformation, severe form of bronchiectasis.
6. Chronic pneumonia is a severe type of bronchiectasis disease, complicated by bronchial enlargement and right-sided heart failure.
7. Severe form of bronchial asthma (if there are attacks several times a week or every day).
8. Chronic nephritis (nephrotic syndrome)
9. Chronic diffuse glomerulonephritis
10. Chronic pyelonephritis (exacerbation)
11. Myopathy
12. Support after remission of poliomyelitis - impairment of locomotor organs.
13. Celiac disease, severe type, with complications.
14. Liver cirrhosis is divided into types.

Development of education of disabled youth is one of the priority tasks facing our country. Today, scientists from foreign and CIS countries and Uzbekistan have conducted scientific research on the content, perspective, and application of information and communication technologies (ICT) to education of disabled youth.

For example, Wozniak Irina Vladimirovna in her dissertation "Formirovanie gotovnosti pedagogov k inklyuzivnomu obrazovaniyu detey v sisteme povyshenia kvalifikatsii" expressed an opinion on the formation of teachers' preparation for special education of children in the continuous education system [2].

In this dissertation, the study of the effectiveness of experimental technologies on the formation of children for special education in the continuous education system of teachers is discussed [2].

"Inklyuzivnoe obrazovanie" by T.N. Guseva. In the manual "Vypusk 1" the issues of practical work in the field of special education are considered. Initial experiences on promotion of educational processes of disabled youth directly in different administrative districts of Moscow city [3].

T. V. Lisovskaya drew attention to the need to teach and identify not only the "negative" but also the "positive" aspects of a child with special needs, based on them and take into account potential abilities, and organize educational activities. He left a great legacy in the field of correctional pedagogy [5].

In the article "Problema otkrytosti v inklyuzivnom obrazovanii" by D.V. Bukharov, he analyzes the problem of designing the educational system of disabled youth, taking into account the implementation of the principles of flexibility, freedom and openness. At the same time, a description of the author's technology in designing a mixed-type inclusive education model is given [4].

A.V. Voronov, T.I. Moroz, S.I. Pugach, Y.L. Zagumenov's educational manual entitled "Scientific-methodical and personnel support development of inclusive education" about the existence of youth education (self-improvement, self-development) and the continuous process of educational development that takes into account that all children are individuals with different educational needs is reflected [11].

Based on the above ideas, it is necessary to pay attention to the following in order to develop the education of young people with limited opportunities:

- to support the decisions of UNESCO and other international organizations to ensure social integration;
- to contribute to the improvement of national legislation in accordance with international standards in order to create equal conditions for quality education;
- preparation for obtaining the status of equality of children regardless of the characteristics of the society;
- passing through a skill-oriented approach to the development of the potential of each person;
- diversifying the content of school education that meets the requirements of all categories of students;
- the use of information technologies and the development of distance education to ensure equal access to quality education for everyone;
- training teachers to work in special education.

Organization of distance learning of young people with disabilities in physical movement provides a comprehensive service in acquiring knowledge from subjects. A number of works have been carried out by MDX and Uzbek scientists regarding the wide implementation of distance education in the education of young people with limited opportunities.

A.A. Andreev's research work is devoted to the organization of distance education in higher educational institutions and their didactic foundations, and it contains scientific conclusions about what should be the didactic materials provided to students during distance education [8].

In the monograph "Theory and practice of distance education" created by A.A. Abduqadirov, A.Kh. Pardaevlar, the emergence, formation, implementation, perspectives and teaching-methodical tools of distance education are described in detail. It contains practical recommendations on the creation of educational and methodological materials and its implementation in the organization of distance education [6].

D. Saifurov's research work is devoted to the scientific and methodological foundations of distance education in the system of vocational college teachers' training and retraining, and issues of distance education organization and management are described in the system [10].

E. S. Polat's research work is focused on the pedagogical issues of organizing distance education, and the contents of didactic systems and pedagogical technologies used in distance education are covered [9].

N.N. Gorbachev expressed his opinion on the development of the elements of the program complex of the automated information system in distance education in the scientific research work entitled "Model and method of management of electronic educational information resources for distance learning of the disabled", and the three main functions of information communication technologies: compensatory, didactic, communicative brought up. The main types of ICT tools serve to fulfill several functions in the educational process of young people with disabilities. They are: standard technologies, existing data formats, auxiliary technologies [12].

Taking these considerations into account, remote teaching of existing presentations and lectures using computer technologies will allow students to repeat lessons for students who did not complete them on time.

Foreign scholars Mudite Reigase in the project work "ICT - an effective tool in building an inclusive society" shows that ICT has a great impact on many aspects of social life, including education, training and employment. At the same time, it is an important tool especially for people who have special needs and face various limitations due to their health...

Mark C. Weber, J.D. In the scientific article "Inclusive Education in the United States and Internationally: Challenges and Response", it is a difficult task to attract young people with damage to the supporting organs to independent home education, it is said about the research conducted in the United States of America on the introduction of education of disabled youth in special schools. The research paper

concludes that integrated education and inclusion are the main goals, and more attention should be paid to the implementation of the education of young people with disabilities.

Abdyvasieva A.A., Barsanaeva Dj.S., Zadorozhnaya N.P. and others in the training manual for teachers on "Together School: Managing the Educational Environment in a Multicultural Society" discussed inclusion and diversity, safe learning, strengthening friendships with the school and neighborhood, classroom management strategies, working with individual students.

B.V. Selyuk's scientific article "Ispolzovanie computera na lektsiyax po fizike" examines the use of computer technology as a technical means of teaching in physics class. In the educational process, the opinions about the incomparable role of interactive whiteboards, computers and projectors and the ability to create text and graphics, animations and video clips, and presentations in Microsoft Office Power Point were expressed.

Computer-based modeling technology improves the quality of the educational process. With the help of technical means, it is possible to increase the volume of educational materials given to students, to introduce modern science achievements. Until recently, film and television as technical teaching tools were considered a major breakthrough in the educational system. But now computer-based modeling is gaining importance in the educational process. Similarly, computer-based simulation modeling is important in the educational system. In terms of application, computer-based modeling and simulation modeling perform similar tasks. That is, the manifestation of the internal and external properties of the object (the educational process is meant) is shown by means of imitation.

Conclusion. From the above points, it is advisable to create the possibility of computer modeling in the creation of computer imitation models in Physics for specialized boarding schools, using step by step three directions of the methodology of computer modeling. In this regard, the use of technical means, the creation of computer imitation models and the effective application to the educational process is an urgent task. In this regard, it is advisable to carry out the creation of a new generation of educational and methodological materials for educational institutions, electronic textbooks, didactic materials based on innovative technologies.

References:

1. Uzbekistan Republican Presidential 2019 April 29 “Uzbekiston Republican Khalq Talimi Tizimini 2030 Yilgacha rivozhlantirish concept blue tasdiqlash tKrrisida”gi PF-5712-son Farmoni.
2. Wozniak I.V. “Forming the readiness of teachers for inclusive education of children in the system of advanced training”// dissertation for the degree of candidate of pedagogical sciences. Belgorod State Institute of Art and Culture. -Belgorod. 2017.
3. T.N. Gusevaning “Inclusive education. Issue 1”. Edited by Mark Vaughan. Bristol, UK, Science editor Natalia Borisova. -M.:
4. Bukharov D.V. "The problem of openness in inclusive education" Career guidance for people with disabilities and persons with disabilities in the system of multilevel education: organizational and methodological aspects. Materials of the All-Russian scientific-practical conference. November 18, 2016 / Compiled by: Bairamov V.D., Orekhovskaya N.A. -M.: MGGEU, 2016. - 847 p.
5. Lisovskaya T.V. "Electronic educational and methodological complexes for organizing the process of teaching children with intellectual disabilities, as a new resource for inclusive education." Sat. materials of the II International Scientific and Practical Conference "Inclusive Education: Practice, Research, Methodology". / Rev. ed. Alekhina S.V. -M.: MGPPU, 2013.
6. Abdukodirov A.A., Pardaev A.Kh. Masofali ykitish nazariyasi va amaliyati. Monograph. -T.: Fan, 2009. - 146 b.
7. Tailokov N.I. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun ykuv adabiyotlarni yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari (Informatics kursi misolid): Dis. ... ped. fanl. doc. -T.: 2006. - 278 b.
8. Andreev A.A. Didactic foundations of distance learning in higher educational institutions. Dis. ... doc. ped. Sciences. -M.: MESI, 2004. www.iet.mesi.ru.
9. Distance learning. Tutorial / Under. ed. Polat E.S. -M.: 1998.
10. Sayfurov D. Kasb-khunar collezhlar ykituvchilari malakasini oshirish va kaita tayorlash tizimida masofadan ykitishning ilmiy-uslubiy asoslari: Ped. fan. nom. ... dis. abstract. - T.: TDPU, 2005. - 24 b.
11. Voronov A.V., Moroz T.I., Pugach S.I., Zagumennov Yu.L. "Scientific-methodical and personnel support for the development of inclusive education." UNESCO International Bureau of Education. Community of Practice for Curriculum Development in the CIS. "Resource Materials on Inclusive Education and Education for Sustainable Development". 2009.
12. N. N. Gorbachev S. N. Malchenko. “Information and communication support of inclusive education: from experience”.



OLIV TA'LIM TIZIMIDA OILA VA KASB MUVOZANATINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jalilov Hafiz Naimovich,
*Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi bosh mutaxassisi*

Garchi Yevropa olimlari tomonidan oliy ta'lim tizimida oila va kasb muvozanati mavzusida ko'plab tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, bu mavzuda Osiyoda, asosan Markaziy Osiyoda ilmiy ishlar juda ham kam. Shuni inobatga olgan holda, ushbu tadqiqotning maqsadi sifatida O'zbekistonning Oliy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarning oila va kasb muvozanatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish etib belgilandi. Tadqiqotda O'zbekistonning uchta davlat oliy ta'lim muassasasi bo'yicha 18 nafar professor-o'qituvchilarning “qualitative” tadqiqot usulidan olingan ma'lumotlardan foydalanilgan. Ushbu maqolada ana shular haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: oila va kasb muvozanati, oliy ta'lim muassasasi, professor-o'qituvchilar, ish stressi, ish samaradorligi

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ БАЛАНСА СЕМЬИ И КАРЬЕРЫ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Несмотря на то, что европейскими учёными проведено множество исследований на тему баланса семьи и карьеры в системе высшего образования, научных работ на эту тему в Азии, в основном в Центральной Азии, очень мало. Учитывая это, целью настоящего исследования является изучение социально-психологических особенностей семейно-профессионального баланса профессорско-преподавательского состава, работающих в системе высшего образования Узбекистана. В исследовании использованы данные, полученные методом «качественного» исследования 18 профессоров и преподавателей трёх государственных высших учебных заведений Узбекистана.

Ключевые слова: баланс семьи и карьеры, высшее учебное заведение, профессорско-преподавательский состав, стресс на работе, эффективность труда.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FAMILY AND CAREER BALANCE IN HIGHER EDUCATION SYSTEM

Although many studies have been conducted by European scientists on the topic of work-life balance in the higher education system, there are very few scientific works on this topic in Asia, mainly in Central Asia. Taking this into account, the purpose of this study was to study the socio-psychological characteristics of work-life balance of professors and teachers working in the higher education system of Uzbekistan. The research used the data obtained from the qualitative research method of 18 professors and teachers of three state higher education institutions of Uzbekistan.

Key words: Work-life balance, University, professors and teachers, work stress, job performance

Kirish

Hozirgi kunda oila va kasb muvozanati professor-o'qituvchilarga qo'yiladigan talablarning kuchayishi tufayli oliy ta'limdagi ko'plab akademik mutaxassislar uchun muammoga aylandi. Fakultet a'zolari ko'pincha akademik kasbda muvozanatni saqlash uchun akademik va shaxsiy hayotlarini muvozanatlash uchun kurashadilar. Kaliforniya universiteti taqiqoti natijasiga ko'ra, professor-o'qituvchi ayollarning 72 foizi va erkaklarning 60 foizi o'zlarining oila va kasb nomutanosibligidan aziyat chekishgan (Stecy et al., 2011). Institutsional reytinglarni solishtirganda esa, o'qituvchilarning 73 foizi, dotsentlarning 74 foizi va professorlarning 60 foizi oila va kasb muvozanatining yo'qligi tufayli o'zlarini charchaganliklarini aytishgan (Stecy et al., 2011). Konseptual jihatdan oila va kasb muvozanati ish va uy vazifalarini bajarish uchun vaqtni muvozanatlash qobiliyati sifatida belgilanadi (Mazerolle, 2018). Hozirgi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, oila va kasb muvozanatiga erishish nafaqat qiyin, balki professor-o'qituvchilar orasida salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bothwell tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, universitet professor-o'qituvchilarining 40 foizi

dam olish va bayram kunlarida ham ishlashlarini inobatga olgan holda haftasiga 60 yoki undan ko'proq soat ishlaydi va bu professor-o'qituvchilarning stress va depressiya kabi ruhiy salomatlik bilan bog'liq yomon natijalardan aziyat chekishga olib kelgan (Bothwell, 2018). Fakultet a'zolarining ish yukining ortishi va professor-o'qituvchilarning ko'p soat ishlashlari ko'pincha oila va kasb muvozanatining yomonlashishiga olib keladi, va bu o'z navbatida ularda stressning kuchayishiga (Senthilkumar et al., 2012) va ruhiy zo'rqiqlashga olib keladi (Zábrodská et al., 2018). Natijada, oila va kasb muvozanatining yo'qligi professor-o'qituvchilarning ishdan qoniqlash hissini, mehnat unumdorligini pasaytirishga salbiy ta'sir qiladi, va akademiklarning kasbni tark etishiga olib kelishi mumkin (Kinman & Jones, 2008).

Adabiyotlar tahlili

Oila va kasb muvozanati insonning ish va oilaviy rollardagi samaradorligi va qoniqlash darajasi uning hayotiy ustuvorliklariga qanchalik mos kelishini anglatadi (Grinxaus & Pauell, 2006). Shuningdek, Kumar va Janakiram (2017) Oila va kasb muvozanati bu ish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatlar bir-biriga mos kelishi va shaxsning hozirgi hayotiy ustuvorliklarida o'sishga yordam beradigan individual tushunchadir deb ta'kidlaydilar. Bundan tashqari oila va kasb muvozanati, shaxsning o'z mehnat majburiyatlarini, shuningdek, kasb va oilaviy majburiyatlarini bajarish qobiliyati sifatida nazarda tutilgan (Rao, 2017).

Yillar davomida turli tadqiqot kontekstlarida professor-o'qituvchilarning oila va kasb muvozanati bilan bog'liq doimiy tashvish mavjud (Catano et al., 2010). Bu turli mamlakat olimlari va ta'lim sohasi mutaxassislari o'rtasida bir nechta bahslarga sabab bo'ldi (Nizam & Kam, 2018). Masalan, Winefield va hamkasblari tadqiqotlarida (2018), oila va kasb muvozanatining yo'qligi professor-o'qituvchilarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi, kamsitish, ishdan norozilik, rollar to'qnashuvi va oilaviy mojarolarga duchor bo'lishga olib kelishi aniqlandi. Shuningdek, Coetzee va Rothmann (2005) ta'kidlashicha, haddan tashqari ko'p ish ko'pchilik professor-o'qituvchilarda yuqori darajadagi stressni keltirib chiqaradi va ular ko'pincha bu negativ holatlarni ish joyidan o'z uylariga o'tkazadilar, bu esa oilaviy inqirozga va oxir-oqibat turmush qurganlarning ajralishiga, turmush qurmaganlarning esa doimiy agressiya va izolyatsiya holatlarga tushishlariga olib keladi. Professor-o'qituvchilar orasida oila va kasb muvozanatiga erisha olmaslik ularning kasbiy madaniyati bilan bog'liq bo'lib, u uzoqroq ishlash va ish joyidagi moslashuvchanlikni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda qualitative tadqiqot usulidan foydalangan. Qualitative usul ijtimoiy fanga asoslanadi va odamlarning fikrlari va xatti-harakatlarining sabablarini o'rganishga harakat qiladi. Creswell (1998) ta'kidlashicha, qualitative tadqiqot usuli tabiiy muhitda tadqiqot olib borish orqali ijtimoiy va insoniy muammolarni o'rganadi va ishtirokchilarning hayotiy tajribalarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistondagi uchta davlat oliy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan 18 ta professor-o'qituvchilar tanlangan. Ma'lumotlar “semi-structured interviews” metodi orqali to'plangan. Oltita ochiq savollar va qo'shimcha savollar, masalan, “Siz buni qanday tushunasiz?”, “Siz buni qanday aniqlagan bo'lardingiz?” va “Bu haqda bir oz ko'proq gapirib bera olasizmi ...?” bilan qo'llanildi. Intervyu ishtirokchilarning afzal ko'rgan vaqti va Zoom dasturidan foydalangan holda o'tkazildi. Intervyular 20 dan 30 daqiqagacha davom etdi. Barcha intervyular ishtirokchilarning roziligi bilan yozib olindi, shundan so'ng u Microsoft Word dasturiga ko'chirildi, anonimlashtirildi va ma'lumotlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilish uchun ikki marta ko'rib chiqildi.

Tadqiqot natijalari

Umuman olganda, bizning topilmalarimiz ma'lumotlarni kodlash jarayonida aniqlangan uchta (Uzoq ish soatlari va og'ir ish yuki, ishdagi stress, ish joyi va oila a'zolarining qo'llab-quvvatlashi) mavzulariga asoslangan.

Uzoq ish soatlari va og'ir ish yuki

Respondentlarning ko'p qismi (87 foizi) ular uzoq ish soatlariga duch kelayotganliklarini aytishdi. Ular bu ish soatlari ularning o'qituvchilik va ma'muriy ishlarni o'z ichiga olishini, ta'kidladilar. Respondentlarning ko'pchiligi, shuningdek, ish yuki qanchalik og'ir bo'lsa, tugallanmagan ish keyingi kun yoki haftaga o'tkazilmasligini ta'minlash uchun ish vaqti shunchalik uzoqroq bo'lishini ta'kidladilar. Respondentlarning katta qismi kuniga 10 dan 12 soatgacha va kechki darslar uchun belgilangan kunlarda ko'proq soat ishlashlarini bildirishdi. Qayd etilgan javoblar orasida:

“Bizning taxminiylashish soatimiz haftasiga 40 soatni tashkil qiladi, lekin biz ertalab soat 8:30 da ishni boshlab ishimiz taxminan soat 18 yoki 20 gacha davom etadi” (Katta o'qituvchi, OTM – A)

Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, respondentlarning 71 foizi kunning ko'p qismini ishda o'tkazishadi. Ularning fikricha, oliy o'quv yurtlarida talab qilinadigan yoki xohlaganidan ko'proq vaqt ishlash madaniyati bor, ammo juda ko'p ish qilish kerak, ularni bajarish uchun vaqt yo'q yoki kam.

Shunga o'xshash dalillar Husin et al., (2018) va Lester (2015) tadqiqotlarida ham isbotlangan, ularning ta'kidlashicha uzoq ish soati va ko'p ish yuki oliy ta'limda faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarda

kasb va oila muvozanatini saqlashga negativ ta'sir o'tkazadi. Bundan tashqari, bizning topilmalarimiz shuni ko'rsatadiki, erkak respondentlarning katta qismi kunning asosiy qismini ishda o'tkazadi, bu ularning oilalariga va shaxsiy manfaatlariga bag'ishlangan vaqtni keskin qisqartirishga olib keladi, bu esa kasb va oilaviy nizoga olib keladi. Bu natija Winefield et al., (2018) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda ham o'z aksini topgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, turmush qurgan ayol respondentlarning yarmi ish kunlari qizg'in va dam olish vaqti yetarli emasligi bois xuddi shunday holatda ekanliklarini bildirishdi. Biroq, umumiy ish samaradorligi kamayib borayotganiga qaramay, respondentlarning yarmi ushbu ish yuklari natijasida o'z-o'zini yaxshilash borligiga ishonishlarini ta'kidlashdi. Shunday qilib, ortiqcha ish yukining ta'siriga (ijobiy va salbiy) qaramasdan, ba'zi professor-o'qituvchilar uzoq ish soati va ortiqcha ishlashning bir nechta afzalliklari borligini bildirishdi.

Ishdagi stress

Respondentlardan oila va kasb muvozanatining ularning ishdagi samaradorligiga ta'siri haqidagi shaxsiy fikrlari so'raldi. Ko'pchilik (91,4 foiz) o'zlarining asosiy motivatsiyasi bo'lgan o'qituvchilikka bo'lgan ishtiyoqi, shuningdek yuqori maosh tufayli og'ir ish yukini yengishga qodirligini ta'kidladilar. Bundan tashqari, ular yuqori darajadagi stressni boshdan kechirishlarini ta'kidladilar. Masalan, respondentlardan biri shunday fikr bildirdi:

“Stress juda ko'p. Shaxs sifatida qanchalik samarali bo'lishingizdan qat'iy nazar, uzoq vaqt shunday davom eta olmaysiz [...] shuning uchun oila va kasb muvozanatining samaradorlikka ta'siri juda katta [...] deyarli hamma stress ostida ishlamoqda” Agar mening muassasam ish yukimni kamaytirish va ko'proq moslashuvchanlikni taklif qilish haqida o'ylamasa, men erta nafaqaga chiqish haqida o'ylayapman, chunki menga ishdan ko'ra mening sog'ligim muhimroqdir ” (Professor, OTM – B)

Bizning topilmalarimiz Kirk va Napier (2008) tadqiqoti bilan tasdiqlanadi, unda BAA ta'lim sohasidagi professor-o'qituvchilar o'rtasidagi stress darajasi ish tashlashning oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Xuddi shunday, g'arbiy mintaqadagi ko'plab boshqa tadqiqotlar ish stressi va oila va kasb muvozanati o'rtasida sezilarli salbiy munosabatlar mavjudligini ta'kidlaydi (Ren & Caudle, 2020).

Ish joyi va oila a'zolarining qo'llab-quvvatlashi

Respondentlardan ish joyi va oila a'zolarining qo'llab-quvvatlashi bilan bog'liq tajribalari haqida so'raldi. Ularning 81 foizi oila a'zolari (xususan, turmush o'rtog'i) tomonidan ko'proq qo'llab-quvvatlanayotganini ta'kidlagan bo'lsa-da, faqat 34 foizi ularni hamkasblari, bo'lim rahbarlari va yuqori rahbariyat qo'llab-quvvatlashini ta'kidlashdi. Berilgan javoblardan biz professor-o'qituvchilar ish joyidagi qo'llab-quvvatlashga nisbatan uydin ko'proq yordam olishlarini kuzatdik. Quyida ularning ayrim javoblari keltirilgan:

“Men ish joyidagi hamkasblarimdan deyarli yordam olmayman [...], ularni ayblay olmayman, chunki hammamizda katta ish yuki bor. Xotinim har doim qo'llab-quvvatlaydi, lekin ba'zida ish juda qizg'in bo'lib ketadi va men o'z majburiyatlarimni bajara olmay qolaman, bu esa ba'zida oramizda kelishmovchilikka olib keladi. Ishdan ko'ra uydin ko'proq yordam olaman deb o'ylayman” (dotsent, OTM – C).

Tadqiqotimizda ma'lum bo'ldiki, ish yukining ko'pligi professor-o'qituvchilarning individual yondoshuviga olib keladi, va buning natijasida ular kasbdoshlariga yordam berish uchun vaqt topa olmaydilar. Ishtirokchilar tashkiliy yordamga tayanishdan ko'ra, ular uydin ko'proq yordam olishlari ma'lum bo'ladi. Shunday qilib, ular o'zlarining kasbiy faoliyatdagi salbiy tajribadan oilaviy ijobiy tajribaga o'tishga muvaffaq bo'lishadi, bu kompetatsiya nazariyasini qo'llab-quvvatlaydi (Zedeck & Mosier, 1990).

Tadqiqot ishining kamchiliklari va keyingi tadqiqotchilarga tavsiyalar

Tadqiqot ishimiz bir nechta kamchiliklardan iborat. Birinchidan, ushbu tadqiqotda O'zbekistondagi Oliy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarning oila va kasb muvozanati o'rganishda faqat bitta (qualitative) metodidan foydalanildi. Kelajakdagi tadqiqotlar, professor-o'qituvchilarning oila va kasb muvozanati yaxshiroq o'rganishi uchun ikkala (qualitative va quantitative) metoddan foylanishlari kerak. Ikkinchidan, bu tadqiqot ishi faqat O'zbekistondagi davlat oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarni o'rgandi, kejakdagi tadqiqotlar davlat va xususiy oliy ta'lim professor-o'qituvchilarni o'rganishi kerak. Bundan tashqari, intervyu o'tkazish vositasi sifatida virtual tizimlardan (Zoom) foydalanish tadqiqotning yana bir potensial kamchiligidir. Bunday tizimlar tadqiqot etikasi, og'zaki bo'lmagan belgilar va tadqiqotchi-ishtirokchi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, shuning uchun bundan muammolarni bartaraf etish uchun keyingi tadqiqotlar yuzma-yuz intervyudan foydalanishi tavsiya etiladi.

Oliy ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar

Ushbu tadqiqot natijalari oliy ta'lim rektorlari, oliy ta'lim muassasalarida ishlaydiganlar va o'z vaqtlari va kuchlarini o'z xodimlari uchun oila va kasb muvozanatini ta'minlashga sarflaydigan boshqa tashkilotlar uchun bir qator tavsiyalar beradi. Ushbu tavsiyalar professor-o'qituvchilarni saqlab qolish va ularni qo'llab-

quvvatlash tizimlarini ta'minlash muhimligini yoritish uchun muhimdir. Professor-o'qituvchilarga oila va kasb muvozanatini saqlashda yordam berish uchun kafedralar, dekanatlar va universitetlar darajasida ijtimoiy va resurs yordamini ta'minlash zarurati eng muhim natija hisoblanadi. Professor-o'qituvchilarni yetarli darajada qo'llab-quvvatlamalik yoki "boshqa topshiriqlar" shaklida qo'shimcha mas'uliyat yuklash ortiqcha stressni keltirib chiqarishi, ishlab chiqarishni kamaytirishi va oxir-oqibat kelajak avlodni tarbiyalashga ishtiyoqi bor professor-o'qituvchilarning ishdan ketishiga olib kelishi mumkin. Universitetlar oila va kasb siyosatini ishlab chiqishda oila va kasb sharoitlariga e'tibor berishlari tavsiya etiladi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida ishlaydigan professor-o'qituvchilar oila va kasb muvozanatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot savollari oliy ta'lim sohasidagi xodimlarning oila va kasb muvozanatini o'rganishga qaratilgan savollardan iborat. Ushbu tadqiqotning dalillari shuni ko'rsatdiki, oliy o'quv yurtlaridagi professor-o'qituvchilarning oila va kasb muvozanati bilan bog'liq muammolar bor va uni hal qilish kerak. Birinchidan, uzoq ish soatlari oila va kasb nomutanosiblikning asosiy ko'rsatkichi bo'lib, oilaviy majburiyatlarga bir qancha salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki professor-o'qituvchilar o'z majburiyatlaridan tashqari ishlaganliklarini da'vo qilishdi. Ikkinchidan, o'rganish kontekstidagi oila va kasb ziddiyatining darajasini hisobga olgan holda, professor-o'qituvchilarning ish samaradorligiga ta'sir darajasi ko'pincha salbiy bo'ladi. Oilaviy qo'llab-quvvatlash ish joyidagi yordamga qaraganda yuqori, ammo buning aksi bo'lishi kerak, chunki professor-o'qituvchilar uydan ko'ra ko'proq vaqtini ishda o'tkazadilar.

Adabiyotlar:

1. Bothwell, E. (2018). Work-life balance survey 2018: Long hours take their toll on academics. <https://www.timeshighereducation.com/features/work-life-balance-survey-2018-long-hours-take-theirtoll-academics>
2. Catano, V. M., Francis, L., Haines, T., Kirpalani, H., Shannon, H., Stringer, B., & Lozanski, L. (2010). Occupational stress in Canadian universities: A national survey. *International Journal of Stress Management*, 17, 232-258.
3. Coetzee, S.E. & Rothmann, S. (2005). Occupational stress, organisational commitment and illhealth of employees at a higher education institution in South Africa. *South African Journal of Industrial Psychology*, 31, 47-54.
4. Creswell, J. W. (1998). *Qualitative inquiry and research design: Choosing among five traditions*. Thousand Oaks, CA: SAGE Publications
5. Greenhaus, J. H., & Powell, G. N. (2006). When work and family are allies: A theory of workfamily enrichment. *The Academy of Man Marital Statement Review*, 31(1), 72-92.
6. Husin, N. A., Ghazali, A. S. M., Abdullah, N., & Bin Abdul Hadi, M. I. (2018). Work-life balance of Malaysian lecturers. *Australian Academy of Business and Economics Review*, 4(1), 43- 49.
7. Kinman, G., & Jones, F. (2008). Effort-reward imbalance, over-commitment and work-life conflict: Testing an expanded model. *Journal of Managerial Psychology*, 23(3), 236-251. <https://doi.org/10.1108/02683940810861365>
8. Kirk, D., & Napier, D. (2008). The transformation of higher education in the UAE: Issues, implications and intercultural dimensions. In, J. Zajda, H. Daun, and L. J. Saha. (Eds.) *Nation-building, identity and citizenship education: Cross cultural perspectives* (pp. 131- 142). Springer.
9. Kumar, V., & Janakiram, B. (2017). Theories of work life balance – a conceptual review. *International Research Journal of Management and Commerce*, 4(9), 184-192.
10. Lester, J. (2015). Cultures of work-life balance in higher education: A case of fragmentation. *Journal of Diversity in Higher Education*, 8(3), 139-156.
11. Mazerolle, S. M. (2018). Work-life balance in higher education for women: Perspectives of athletic training faculty. *Athletic Training Education Journal*, 13(3), 248-258. <https://doi.org/10.4085/1303248>
12. Nizam, I., & Kam, C. (2018). The determinants of work-life balance in the event industry of Malaysia. *International Journal of Management, Accounting and Economics*, 5(3), 141- 168.
13. Rao, I. (2017). Work-life balance for sustainable human development: Cultural intelligence as enabler. *Journal of Human Behavior in the Social Environment*, 27(7), 706-713.
14. Ren, X., & Caudle, D. J. (2020). Balancing academia and family life: The gendered strains and struggles between the UK and China compared. *Gender in Management*, 35(2), 141-165. doi:10.1108/GM-06-2019-0093

15. Senthilkumar, K. G., Chandrakumaramangalam, S., & Manivannan, L. (2012). An empirical study on teaching professionals' work-life balance in higher learning institutions with special reference to Namakkal District, Tamilnadu. *Bonfring International Journal of Industrial Engineering and Management Science*, 2(3), 38- 41. <https://doi.org/10.9756/BIJAIP.1389>
16. Stacy, A., Sheldon, Z., Goulden, M., & Frasch, K. (2011). Report on the University of California, Berkeley Faculty Climate Survey. http://vpaafw.chance.berkeley.edu/Images/Faculty_Climate_Survey_Report_2011.pdf
17. Winefield, H., Boyd, C., & Winefield, A. H. (2018). Work-family conflict and well-being in university employees. *The Journal of Psychology: Interdisciplinary and Applied*, 148(6), 683-697.
18. Záborská, K., Mudrák, J., Šolcová, I., Květon, P., Blatný, M., & Machovcová, K. (2018). Burnout among university faculty: The central role of work-family conflict. *Education Psychology*, 38(6), 800-819. <https://doi.org/10.1080/01443410.2017.1340590>
19. Zedeck, S., & Mosier, K. (1990). Work in the family and employing organization. *American Psychologist*, 45, 240-251.

TEKNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Karimova Mahbuba Nutfullayevna

Buxoro davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti,
“Elektronika va texnologiya” kafedrası dotsenti.

misis.makhbuba@mail.ru

Maqolada texnologiya darslarida o‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalar elementlari bo‘lgan ta‘limning interfaol metodlaridan foydalanish xususida mulohaza yuritilgan. O‘quvchilarning kreativligini shakllantirish jarayonida o‘quvchilarning ijobiy va salbiy, sodda va murakkab bo‘lgan xulq-atvorlarini ko‘rish mumkin, shuning uchun ham o‘qituvchining vazifasi har bir o‘quvchidagi ijodkorlik fazilatini chuqur anglab, ularni kundalik hayotda amal qilishlariga erishishda ko‘maklashishi lozim. Har bir o‘quvchida ijodkorlikning o‘ziga xos fazilatlarining shakllanish darajasini nazorat qilish o‘qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki buning natijasida o‘quvchilarda tashabbuskorlik, halollik va intizomlilik kabi xislatlar shakllanadi.

Ma‘lumki, har bir pedagogik davr o‘zining texnologiyalar avlodini yaratgan. Ta‘lim texnologiyalarining birinchi avlodi an‘anaviy metodikalardan, ikkinchi va uchinchi esa modul-blok hamda yaxlit blok o‘qitish tizimi, to‘rtinchi avlod integral texnologiyalardan iborat bo‘lgan.

Noan‘anaviy dars shakli asosida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyasi borasida ma‘lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, dars, interfaol pedagogik texnologiyalar, ta‘lim mazmuni, ijodiy qobiliyat, taqdimot, bilish, anglash, baholash.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

В статье рассматривается использование интерактивных методов обучения с элементами педагогических технологий в формировании творческих способностей учащихся на уроках технологии. В процессе формирования творческих способностей учащихся можно увидеть положительное и отрицательное, простое и сложное поведение учащихся, поэтому задача педагога состоит в том, чтобы глубоко понять качества творчества в каждом ученике и добиться от них действия в повседневной жизни. Основная задача педагога – контролировать уровень сформированности уникальных качеств творчества у каждого ученика. В результате этого у студентов формируются такие качества, как инициативность, честность и дисциплинированность.

Известно, что каждая педагогическая эпоха создавала своё поколение технологий. Первое поколение образовательных технологий состояло из традиционных методов, второе и третье поколение состояло из модульно-блочных и интегрированно-блочных систем обучения, четвёртое поколение состояло из интегрированных технологий.

Дана информация об образовательной технологии, направленной на формирование творческих способностей учащихся на основе нетрадиционной формы уроков.

Ключевые слова: технология, урок, интерактивные педагогические технологии, учебный контент, творческая способность, представление, знание, понимание, оценка.

MODERN METHODS OF FORMING STUDENTS' CREATIVE SKILLS IN TECHNOLOGY LESSONS

The article discusses the use of interactive teaching methods with elements of pedagogical technologies in the formation of students' creative abilities in technology lessons. In the process of forming the creative abilities of students, one can see the positive and negative, simple and complex behavior of students, so the task of the teacher is to deeply understand the qualities of creativity in each student and get them to act in everyday life. The main task of the teacher is to control the level of formation of the unique qualities of creativity in each student. As a result, students develop such qualities as initiative, honesty and discipline.

It is known that each pedagogical era created its own generation of technologies. The first generation of educational technologies consisted of traditional methods, the second and third generation consisted of modular-block and integrated-block learning systems, the fourth generation consisted of integrated technologies.

Information is given about the educational technology aimed at the formation of students' creative abilities on the basis of non-traditional forms of lessons.

Ключевые слова: технология, урок, интерактивные педагогические технологии, учебный контент, творческая способность, представление, знание, понимание, оценка.

Kirish. Axborot oqimi keskin ortgan, turli yangiliklar hayotimizga shitob bilan kirib kelayotgan davrda mustaqil tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, yangiliklarni o'rganishga doim tayyor bo'lgan, hamkorlikdan cho'chimaydigan, muloqotga erkin kirisha oladigan shaxsni tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi bo'lishi kerak va bu borada ta'limda yangi texnologiyalarning qo'llanishiga yo'l ochilishiga erishish yo'lidagi to'g'ri qadamdir.

Hozirgi kunda yangi texnologiya elementi bo'lgan interfaol usullardan keng foydalanilmoqda. Shunday ekan, o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda kasb tanlash izchilligini takomillashtirish bilan bir qatorda mehnat ta'limi va tarbiyasi jarayonida ijodkorlik fazilatlarini shakllantirishga e'tiborni qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda 1-jadvalda «ijod» so'zining lug'aviy ma'nosi keltirilgan.

1-jadval. «Ijod» so'zining lug'aviy ma'nolari

Ijod; ijodkor; ijodkorlik		
O'zbek tili izohli lug'atida	Falsafa izohli lug'atida	Pedagogik atamalar izohli lug'atida
Ijod – yaratish, kashf etish; vujudga keltirish: 1. Badiiy, ilmiy, san'atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish; yaratuvchilik faoliyati. 2. Yaratuvchilik faoliyati mahsuli, samarasi	Ijod – insonning yangilik yaratishga qaratilgan konstruktiv faoliyati. Ijod bir necha ko'rinishga ega bo'ladi: ilmiy, badiiy, texnik va boshqalar. Ijod fan, texnika va madaniyatni boyitadi, bilimni rivojlantiradi	Ijod – o'quvchi va talabaning yaratuvchanligi, kashfiyoti; mustaqil yaratuvchanlik
Ijodkor – ijod etuvchi, yuzaga keltiruvchi; yaratilgan narsa egasi		Ijodkor – ijod xususiyatiga ega bo'lgan o'quvchi
Ijodkorlik – ijodkor ishi, ijodkorga xos faoliyat, yaratuvchilik		Ijodkorlik – yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratish bilan natijalangan faoliyat turi

Asosiy qism. O'quvchilarning ijodiy faoliyatlari, malakalari badiiy adabiyotlarni idrok etish, san'at asarlari, musiqa, tasviriy san'at, arxitektura, teatr, kino, qo'g'irchoq san'ati, voqelikka estetik munosabatlari, estetik didlarida ko'proq ko'zga tashlanadi va shular orqali o'quvchilarda mehnatda ijodkorlik malakalari hosil bo'ladi, shakllanadi va rivojlanadi. Bularsiz o'quvchilar kreativligini tasavvur qilish qiyin.

O'quvchilarning kreativligini shakllantirish jarayonida o'quvchilarning ijobiy va salbiy, sodda va murakkab bo'lgan xulq-atvorlarini ko'rish mumkin, shuning uchun ham o'qituvchining vazifasi har bir o'quvchidagi ijodkorlik fazilatini chuqur anglab, ularni kundalik hayotda amal qilishlariga erishishda ko'maklashishi lozim.

Har bir o'quvchida ijodkorlikning o'ziga xos fazilatlarining shakllanish darajasini nazorat qilish o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki buning natijasida o'quvchilarda tashabbuskorlik, halollik va intizomlilik kabi xislatlar shakllanadi.

Ma'lumki, har bir pedagogik davr o'zining texnologiyalar avlodini yaratgan. Ta'lim texnologiyalarining birinchi avlodi an'anaviy metodikalardan, ikkinchi va uchinchi esa modul-blok hamda yaxlit blok o'qitish tizimi, to'rtinchi avlod integral texnologiyalardan iborat bo'lgan.

Noan'anaviy pedagogik texnologiyalarning tatbiq etilishi bugungi kunga kelib ta'lim taraqqiyoti jarayonini tubdan o'zgartirib yubordi. Bu rivojlanayotgan, shaxsiga yo'naltirilgan o'qitish, tabaqalashtirish, insoniylashtirishning ko'plab muammolarini hal qilish, o'quvchilarning o'ziga xos ta'lim istiqbolini shakllantirish imkonini beradi.

Barcha texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining anglanganligi, samaradorlik, harakatchanlik, mantiqiylik, yaxlitlik, ochiqlik, loyihalashtirilganlik; o'quvchilarning o'quv jarayonidagi mustaqil faoliyati ta'lim vaqtining 60-90%ini tashkil qilishi; shaxslashtirish kabi umumiy belgilarga xosdir. Ayniqsa, texnologiya darslari orqali o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish va bolaning mehnatga bo'lgan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi.

Ibn Sino, Farobiy, Naqshbandiy, Kaykovus, Navoiy, Termiziy kabi allomalarimiz o'z asarlarida mehnat tarbiyasini ulug'lashgan.

Hozirgi kundagi olimlarimizdan R.Mavlonova, X.Egamov, I.Choriyev, N.Shodiyev, M.Magdiyev, Sh.Sharipov, N.Muslimov va X.Sanaqulovlar ham o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlari, darslik va uslubiy qo'llanmalarida bu boradagi o'z fikrlarini bayon etganlar.

Texnologiya ta'limi o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalarni egallashlari, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlar va tafakkur tarzini rivojlantirishga qaratilgan.

Texnologiya ta'limi darslaridagi ta'lim-tarbiyaviy vazifalar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi mehnat ta'limining umumiy vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi mashg'ulot turlari jarayonida amalga oshiriladi:

- umumiy va badiiy mehnat;
- umumiy texnologiya asoslari.

Boshlang'ich ta'limning 1-4-sinf o'quvchilari qog'oz va kartonni chiziqlar bo'yicha qirg'ish va bukish hamda shu kabi operatsiyalarni bajarishni o'rganadilar. Ayni paytda ular detallarni turli usullarda birlashtirish va mustahkamlashni mashq qiladilar. Gazlama bilan ishlash bolalarning natural ipak va jun tolali materiallar, to'qimachilik sanoati mahsulotlarini bilishi, namuna, rasm, chizma va berilgan o'lchamlar bo'yicha andoza bichib olish bilan ilk bor tanishtirishni o'z ichiga oladi. Texnik modellash mashg'ulotlarida namuna, rasm va chizmalar, berilgan o'lcham, konstruktor naborining detallari yoki turli materiallarni qo'llab og'zaki tasvirlash bo'yicha texnik o'yinchoqlar, modellar va maketlar tayyorlash nazarda tutiladi.

Qishloq xo'jalik mehnati bo'yicha mashg'ulotlarda 2-sinf o'quvchilari kuzda o'quv tajriba maydonchasida o'stirilgan o'simliklarning urug'larini to'playdilar, o'tgan yil davomida maydonchada qilgan ishlariga yakun yasaydilar, maktab ko'rgazmasi uchun eksponatlarni ajratadilar. Shundan so'ng o'quvchilar o'quv tajriba maydonchasidagi o'zlariga tegishli bo'lgan yerni qishga tayyorlaydilar, ya'ni uni o'simlik qoldiqlaridan tozalaydilar, tabiiy va mineral o'g'itlar soladilar, yerni chopadilar. Bu ishlar jarayonida ular shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qiladilar.

Kuz oylarida 1-4-sinf o'quvchilari xona o'simliklarini nur va issiqlikka moslab joylashtirish bilan tanishadilar, ularga suvni to'g'ri quyish, tuproqni yumshatish, o'g'itlash, gultuvaklar hamda deraza tokchalarini yuvishni o'rganadilar. Bahorda o'quvchilar o'simliklarning qalamchalarini tayyorlash va ekish, ularni parvarish qilishni o'rganadilar. Shundan so'ng o'quvchilar ildiz olgan qalamchalarni gultuvaklarga ekadilar.

Bahorda 1-4-sinf o'quvchilari bilan ajratilgan yerda katta va mas'uliyatli ish olib boriladi. O'quvchilar o'zlariga ajratilgan yerni ekinga tayyorlar ekanlar, yerni qayta chopadilar, xaskash bilan tekislaydilar. Egat olib, qator oralarini belgilaydilar. Ishning keyingi bosqichi ildizmevalar va bir yillik dekorativ o'simliklarning nomlari bilan tanishish va ularni ekishga tayyorlashdan iborat. O'quvchilar bu o'simliklarning urug'ini sepish va ularni parvarish qilishni o'rganadilar. Bu ish jarayonida o'quvchilar madaniy ekinlar nihollarini begona o'tlardan farqlash, o'simliklarni to'g'ri sug'orish, tagini yumshatish va shu kabilarni o'rganib olishlari kerak bo'ladi.

Tabiiy material bilan ishlash alohida qiziqish uyg'otadi. o'quvchilar loy, plastilin va tabiiy materiallardan qushlar, jonivorlar, ertak qahramonlarining shakllarini yasaydilar.

4-sinfda texnologiya darslarida o'quvchilar avvalgi sinflarda egallagan malaka va ko'nikmalaridan foydalanib, xilma-xil shakllarni yasaydilar, kengroq doiradagi yangi bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. Bu malaka va ko'nikmalar ularga ishlarida yordam beradi, konstruktorlik, texnik ko'nikma va qobiliyatlar asosini rivojlantiradi, ularning politexnik bilim darajalarini kengaytiradi, o'simliklar hayoti tabiatini muhofaza qilish kabi tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi. Bu sohaning o'ziga xos muhim xususiyati o'quvchilarning kreativ faolligini rivojlantirishga qaratilganligidir. Bosh maqsad esa o'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash, keng bilimlarga ega, madaniyatli, ijodkor, tashabbuskor hamda tadbirkor shaxsni rivojlantirish hamda tarbiyalashdan iborat bo'ladi.

O‘qituvchi oldiga qo‘yilgan maqsadlar, ularni mukamallashtirish o‘quv-tarbiya jarayonining alohida bo‘g‘inlarini qayta yo‘naltirish hamda takomillashtirishni talab qiladi. Ya’ni, ta’lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning tarkibiy elementlari bo‘lgan ta’limning interfaol metodlari (noan’anaviy o‘qitish) orqali o‘qitish o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishga qulay imkoniyat yaratadi. «Noan’anaviy o‘qitish usullaridan foydalanishdan maqsad, uning afzalliklari, darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat?» degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

1. Noan’anaviy o‘qitish eng sodda, qulay usul.
2. Mustaqil fikrlashni o‘rgatadi.
3. Ko‘p tarmoqli.
4. Sodda va oson.
5. Bilimni oshiradi.
6. Vaqtdan yutiladi.
7. Qiziqarli o‘tadi.
8. Darsning samaradorligini oshiradi.
9. Dunyoqarashni kengaytiradi.
10. Tafakkurni rivojlantiradi.
11. O‘quvchilarining diqqat-e’tiborini tortadi.
12. Har bir o‘quvchi bilan individual munosabatda bo‘lishni ta’minlaydi.
13. Xotirani kuchaytiradi.
14. Izlanishga chorlaydi.
15. O‘quvchilarni o‘z ustida ishlashga chorlaydi.

O‘qitishdan ko‘zlanadigan maqsad bu davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim va ko‘nikmalarni o‘quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki o‘quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o‘quvchi malaka oshirish uchun mo‘ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina, o‘qitish muvaffaqiyatli kechdi, deb hisoblansa bo‘ladi.

Ijodkorlik fazilatini shakllantirishda o‘quvchilarning bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarida quyidagi talablarni inobatga olish lozim:

Bilim olish – asosiy dalillarni qidirish va topish, xotirada saqlay olish, tavsiflash, tanish, qayta jonlantirish, nomini aytish, izlanish, tuzilishini bilish va ko‘rsatish kabilar orqali amalga oshadi.

Tushunish – qayta so‘zlash, mohiyatini tushunish, tushuntirish, tasvirlash va boshqa usulda hamda boshqa so‘zlar bilan ta’riflay olish natijasida erishiladi.

Ishlatish (qo‘llash) – olingan bilimni boshqa sharoitlarda qo‘llash (ishlatish, yechish, tajriba o‘tkazish, qo‘llash, kuzatish, oldindan bashorat qilish, biror-bir muammoni hal qilish)ni o‘z ichiga qamrab oladi.

Tahlil (analiz) – tushunchalar orasidagi asosiy munosabatlarni aniqlash va ularning mohiyatini tushunish – soha materialini (bilim, hodisa, mashina, ma’lumot) tashkil etuvchilarga (tarkibiy qismlarga) bo‘lib chiqish va ularning har birining vazifasini tushunib olish. Oddiydan murakkabga va murakkabdan oddiyga yo‘nalishida tahlil qila olish (qismlar orasidagi munosabatlarni aniqlash, bir-biriga ulash, birlashtirish, bo‘lib chiqish, turkumlarga ajratish, guruhlariga ajratish, umumiy qonuniyatlarni topish, toifalarga bo‘lib chiqish).

Sintez – yangi narsani (bilim, predmet, mashinani) uning bir qancha qismlaridan (bo‘laklaridan) ularning xossalariidan foydalangan holda tashkil qilish (tuzish, konstruksiya yig‘ish, kombinatsiyalash, yangi fikr yaratish, yangi farazlarni taklif qilish), ularni sinashni amalga oshirish va natija asosida yangilarini mavjudlariga raqobatchi sifatida ishlab chiqish.

Baholash – erishilgan natijani aniqlash, qaror qabul qilish yoki yechim topish (baholash jarayonini amalga oshirish, hal qilish, sabab va oqibat zanjiridagi aloqalarni aniqlash, toifalarga bo‘lish va ularni aniqlash).

Xulosa qilib aytganda, tashabbuskorlik, ijodkorlik kabi fazilatlarini shakllantirish, o‘quvchilarda ishga ijodiy yondashish, o‘z-o‘zini boshqarish, ishdagi kamchiliklarni o‘z vaqtida topish, o‘z-o‘ziga talabchan bo‘lish, maqsadga intilish kabi xislatlarning namoyon bo‘lishi ularning ijodiy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

O‘quvchilarning noan’anaviy darslarda mustaqil fikrlashiga ustuvor e’tibor qaratish o‘quvchining o‘zini-o‘zi tarbiyalashiga, o‘z shaxsida ezgu ma’naviy sifatlarni shakllantirishiga omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchi o‘qituvchilar, kattalar va darsliklar ko‘magida o‘zini-o‘zi tarbiyalaydi.

Noan’anaviy darslarda mustaqil fikrlashga o‘rgatish, umuman, pedagogika, xususan, adabiy ta’limning bosh maqsadi bo‘lmish ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashga asos bo‘ladi. O‘z fikri, o‘z qarashiga ega bo‘lish komil shaxslikning muhim belgisi hisoblanadi.

Darslarda o‘quvchi shaxsini bosh qadriyatga aylantirish, ma’naviyatni shakllantirish ustuvorligini ta’minlash, bilim olish va tarbiyaga ega bo‘lish uchun bolaning o‘zini harakatga undash, unga kashf etish lazzatini uqdirish, darslarda pedagogik hamkorlik hukmronlik qilishiga erishish kabi tamoyillar ustuvorligiga erishish lozim.

Adabiyotlar:

1. Расулова З.Д. Каримова М.Н. (2020) Использование учебных инструментов в развитии творческого мышления учащихся Проблемы педагогики Научно-методический журнал 50 №5, стр.20.
2. Кулиева Ш.Х., Каримова М.Н., Давлаткулова М. Х. (2014) Организация теоретических и практических занятий в процессе подготовки учителей профессионального образования на основе системного подхода. Молодой ученый №8, стр.804-807.
3. Каримова М.Н. (2016) Метод самоуправления образованием. Молодой ученый №13, стр. 808-810.
4. Каримова М.Н. (2012) О современных методах оценки знаний и умений учащихся колледжей в личностно-ориентированной технологии обучения. Молодой ученый №7, стр.277-281.
5. Каримова М. Н. (2019) Проблемы и перспективы преподавания предмета "Технология" в общеобразовательных школах. Вестник науки и образования №2-2, (56), стр.17-19.
6. Кулиева Ш.Х., Каримова М.Н (2015) Использование современных дидактических средств в обучении специальных предметов. Педагогические науки №1, стр.84-88.
7. Каримова М.Н. (2016) Методы образования, ориентированные на деятельность и самостоятельное действие при обучении специальным предметам. Молодой ученый №13, стр. 810-812.
8. Karimova M.N (2017) Manufacture of Modern Sewing and Knitting Products, Used by Mass Demand. Eastern European Scientific Journal №3 стр.71-73.
9. Каримова М.Н. (2015) Тенденции обучения специальных предметов. Наука и образование: проблемы и тенденции развития. №1, стр 22-25.
10. Каримова М.Н. (2020) Дидактическая система дистанционного обучения в технологическом образовании Academy №12(63) стр.70-73.
11. Kulieva Sh., Karimova M. (2021). Interactive Technologies as a Means to Improve the efficiency and Quality of the Educational Process. Interactive Technologies as a Means to Improve the efficiency and Quality of the Educational Process. Vol.3, pp.182-186.
12. Juraeva N., Kulieva Sh., Juraev Kh., Karimova M., Azimova M. (2020). Interactive Technologies as a Means to Improve the Efficiency and Quality of the Educational Process. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. №24, pp.591-596.
13. Kulieva Shakhnoza, Juraev Khusniddin, Karimova Makhbuba, Azimova Mukhayo.(2020) International Journal of Psychosocial Rehabilitation Scopus 24(1) стр.591-596

BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIGIDA ART-PEDAGOGIK KUZATIB BORISH KONSEPSIYASI

Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna,
Buxoro davlat universiteti
d.sh.mirzayeva@buxdu.uz

Ushbu maqolada art-pedagogik kuzatib borish konsepsiyasining tadqiqot mavzusining mazmuni, uni modellashtirish va o‘zgartirish usullari haqidagi tushunchasi ochib berilgan qarashlar, hukmlar, g‘oyalar tizimining izchil ilmiy taqdimoti sifatida ko‘rsatilgan. Bo‘ljak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini art-pedagogik kuzatib borish konsepsiyasining terminologik asoslari mohiyati yoritilgan. "Art-pedagogik kuzatib borish", "art-pedagogik faoliyat", "art-pedagogik vositalar", "art-pedagogik o‘zaro ta’sir", "art-pedagogik jarayon", "art-pedagogik muhit" kabi tushunchalarning pedagogik jihatlari asoslangan. Art-pedagogik kuzatib borish-bu art-pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va bo‘ljak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida pedagogika universitetining o‘quv jarayoniga qo‘shilishi uchun moslashuvchan harakatlar tizimi ekanligi ko‘rsatilgan. Biz "Art-pedagogik faoliyat" ni kasbiy g‘oyalar va maqsadlarni san‘at vositasida amalga oshirish uchun buyurtma qilingan pedagogik harakatlar majmui bo‘lgan kasbiy pedagogik faoliyatning mustaqil turi sifatida ko‘rib chiqamiz. Art-pedagogik faoliyatning asosiy sohalari sifatida ta’lim makonida san‘at, pedagogika, psixologiya va inson bilimlarining boshqa sohalari imkoniyatlarini birlashtirishga asoslangan axloqiy va estetik o‘zaro ta’sir tizimini yaratish ajratib ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: art-pedagogik, modellashtirish, konsepsiya, terminologik, art-pedagogik kuzatib borish, art-pedagogik faoliyat, art-pedagogik vositalar, art-pedagogik o‘zaro ta’sir, art-pedagogik jarayon, art-pedagogik muhit.

КОНЦЕПЦИЯ АРТ-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАБЛЮДЕНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ

В данной статье понятие арт-педагогического наблюдения показано как последовательное научное изложение системы взглядов, суждений, представлений, раскрывающих сущность темы исследования, её моделирования и способов изменения. выделены основы понятия мониторинга. Обоснованы педагогические аспекты такого понятия, как «педагогическая среда». Арт-педагогический мониторинг является гибким для включения в образовательный процесс педагогического вуза с целью создания благоприятных условий для профессиональной подготовки будущего учителя. Мы рассматриваем арт-педагогическую деятельность как самостоятельный вид профессиональной педагогической деятельности, представляющий собой совокупность педагогических действий, направленных на реализацию профессиональных идей и целей посредством искусства. В качестве основных направлений арт-педагогической деятельности выделяется создание системы этико-эстетического взаимодействия, основанной на объединении возможностей искусства, педагогики, психологии и других областей человеческого познания в образовательном пространстве.

Ключевые слова: арт-педагогическое, моделирование, концепция, терминологический, арт-педагогический мониторинг, арт-педагогическая деятельность, арт-педагогические средства, арт-педагогическое взаимодействие, арт-педагогический процесс, арт-педагогическая среда.

ART PEDAGOGICAL IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF THE FUTURE TEACHER TRACKING CONCEPT

In this article, the concept of art-pedagogical support is shown as a consistent scientific presentation of a system of views, judgments, ideas that reveal the essence of the research topic, its modeling and methods of change. The foundations of the concept of monitoring are highlighted. Pedagogical aspects of such a concept as “pedagogical environment” are founded. We consider “artistic and pedagogical activity” as an independent type of professional pedagogical activity, which is a set of pedagogical actions aimed at the implementation of professional ideas and goals through art. The main directions of art pedagogical activity are the creation of a system of ethical and aesthetic interaction based on combining the possibilities of art, pedagogy, psychology and other areas of human knowledge in the educational space.

Uniqueness is primarily associated with the priority of the means used, attention was paid to the features of the concept of "Artistic and pedagogical means".

Key words: art-pedagogical, modeling, concept, terminological, art-pedagogical monitoring, art-pedagogical activity, art-pedagogical means, art-pedagogical interaction, art-pedagogical process, art-pedagogical environment.

Kirish. Art-pedagogik jarayon doirasidagi badiiy asar pedagogik mazmun va kasbiy pedagogik xarakterdagi vazifalar kontekstida idrok etish, talqin qilish, baholash obyektiga aylanadi. Art-pedagogik o‘zaro ta’sirning asosi nafaqat badiiy asar, balki darsning o‘quv materialini muhokama qilish uchun boshlang‘ich sanoq nuqta bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan alohida badiiy obraz ham bo‘lishi mumkin. Badiiy obraz-bu badiiy ijodning voqilikning eng umumiy hodisalarini ifodalovchi ilmiy tushuncha (kategoriyasi) va olimlar (ustalar) asarlarida ham, o‘quv jarayoni ishtirokchilarining asarlarida ham har qanday san’at turining badiiy matosining (Zardo‘zlik buyumlari) asosiy birligi hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, badiiy obrazlarni yetakchi art-pedagogik vosita deb atash mumkin. Alohida mikroimaj, shuningdek, makroqiyofa art-pedagogik g‘oyaning asosini tashkil qilishi mumkinligi ahamiyatga ega. O‘quv jarayoni ishtirokchilarining badiiy faoliyati art-pedagogik o‘zaro ta’sir vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Bu holda badiiy ijod jarayonining o‘zi alohida pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib, uning davomida o‘rganilayotgan mavzuni tushunish, savollarga javob topish, muammoning shaxsiy ahamiyatini aniqlash va boshqalar mavjud. Badiiy va ijodiy vazifani bajarishda ishtirokchilar turli texnika va materiallardan foydalanishlari mumkin. Bu o‘quv jarayonining barcha darajalar va tarkibiy qismlarini qamrab oluvchi tizim-maqсадga muvofiq yondashuvdir. Ko‘p pedagogik nuqtayi nazarining kelib chiqishi va strategik ravishda oliy ta’limi jarayonida pedagogik nutqni ishlab chiqish uchun pedagogik nutqni dizayn uchun konseptual asosni aniqlashga imkon beradi. Tizimni o‘pish yondashuvi uslubiy, didaktik va texnologik darajadagi barcha tarkibiy va qo‘llab-quvvatlovchi elementlarning funksional aloqasini ta’minlaydi.

Tadqiqot metodi. Pedagogika universitetining o‘quv jarayonida bo‘ljak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini art-pedagogik qo‘llab-quvvatlash.

Tadqiqot bir nechta qoidalarni o‘z ichiga olgan gipotezaga asoslanadi:

1. San’atning turli turlari va vositalarining pedagogik salohiyatidan kompleks foydalanish asosida sharoitlarni ijobiy o‘zgartirish uchun innovatsion resursga ega bo‘lgan universitet o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini art-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimi qurilishi mumkin. Ta’lim muhitini insonparvarlashtirish, pedagogik o‘zaro munosabatlarni optimallashtirish, kasb-hunar ta’limi subyektlarining ijodiy o‘zini-o‘zi amalga oshirishga qaratilgan ushbu trening. Ushbu tizim pedagogik ta’limning kasbiy va qadriyat yo‘nalishini, individual va shaxsiy yo‘nalishini va taqdimotning o‘zgaruvchanligini kuchaytirish orqali uning asl mazmunini boyitishga yordam beradi.

2. Pedagogik kadrlar tayyorlashni art-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish o‘quv jarayoniga gumanitar konseptual asosda art-pedagogik vositalar va ish shakllarini bashorat qiluvchi, o‘rnatish xarakteriga ega bo‘lgan nazariy model doirasida kiritishni taqozo etadi. Pedagogning art-pedagogik faoliyatining umumiy mantig‘i va art-pedagogik o‘zaro ta’sirning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Ushbu model o‘qituvchilar tayyorlashning universitet voqeliklari va o‘quv amaliyotining o‘zgaruvchan shartlarini hisobga olgan holda vaqt va makonda konkretlashtiriladi.

3. San’atning shaxsga ta’sir mohiyatini fanlararo har tomonlama tahlil qilish, pedagogikaning inson yaratuvchi salohiyatini integratsiyalash mexanizmlarini tushunish va art-pedagogik ta’minotning uslubiy, uslubiy va texnologik vositalarini ishlab chiqish mumkin. Pedagogik ta’lim mazmuni darajasidagi san’at, davlat standartlari asosida art-pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini, uning samaradorligi mezonlari va ko‘rsatkichlarini belgilab beradi.

4. Bo‘ljak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini art-pedagogik qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish imkoniyati quyidagi shartlar bilan belgilanadi:

- o‘qituvchining art-pedagogik yordam ko‘rsatishga tayyorligi, bu insonparvarlik kasbiy-pedagogik pozitsiyasi va kasbiy faoliyatda san’at imkoniyatlaridan foydalanishga barqaror motivatsiya, ta’lim jarayonida san’atning qonunlari va mexanizmlari haqidagi nazariy bilimlari mavjudligida namoyon bo‘ladi;

- davlat ta’lim standartlari talablari va o‘quvchilarning aniq auditoriyasi bo‘yicha diagnostika ma’lumotlarini tahlil qilish jarayonida aniqlangan san’at vositalarini o‘quv jarayoniga jalb etishning pedagogik maqsadga muvofiqligi;

- universitetning ta’lim maydonida art-pedagogik muhitni yaratish va qo‘llab-quvvatlash;

talabalarining art-pedagogik o‘zaro ta’sir holatiga qo‘shilishi uchun yengib bo‘lmaydigan ichki to‘siqlarning yo‘qligi (san’at va ijodiy o‘zini namoyon qilishga psixologik-fiziologik va ijtimoiy-psixologik tayyorlik);

Tadqiqotning natija va muhokamasi. 1.San'at universal pedagogik vosita bo'lib, ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlashning yangi turi sifatida art-pedagogik yordamni yaratishga imkon beradi, ta'lim va tarbiya mazmunini individual-shaxsiy idrok etish va qadriyatlarni tushunishga, optimallashtirish va insonparvarlashtirishga qaratilgan.Ushbu turdagi yordamni rivojlantirishning nazariy, uslubiy va uslubiy asoslari tabiatni, umumiy qonuniyatlarni, tamoyillarni, turli xil pedagogik muammolarni hal qilish uchun san'atni jalb qilish mexanizmlarini o'rganadigan yangi amaliyotga yo'naltirilgan fan sohasi sifatida art-pedagogika tekisligida yotadi.

2.Ta'lim jarayonini art-pedagogik ta'minlashning mohiyati badiiy pedagogikaning asosiy tushunchalari tizimi orqali ochib beriladi:

-art-pedagogik faoliyat kasbiy pedagogik faoliyatning mustaqil turi hisoblanadi, u kasbiy g'oyalari va maqsadlarni san'at vositalari yordamida amalga oshirish bo'yicha tartiblangan pedagogik harakatlar majmui hisoblanadi;

-badiiy pedagogik vositalar pedagogik vazifalar (san'at asarlari, o'quvchilarning badiiy ijodiyoti mahsulotlari, badiiy obrazlar) bilan integratsiyalashgan holda insonning dunyoni va o'zini idrok etishining maxsus usuli sifatida san'at sohasi bilan bog'liq barcha xilma-xil hodisa va jarayonlardir;

-art-pedagogik o'zaro ta'sir “o'qituvchi (o'qituvchi)- ta'lim mazmuni-san'at vositalari-talaba (talaba)” maqsadli rivojlanayotgan tizimda vujudga keladigan o'ziga xos munosabatlar va aloqalar majmui hisoblanadi;

-art-pedagogik jarayon - pedagogik muammolarni hal qilish va pedagogik g'oyalarni amalga oshirish uchun san'atdan foydalanishning tarkibiy qismi bo'lgan pedagogik jarayon;

-art-pedagogik muhit badiiy-pedagogik faoliyatning maqsadlari, vazifalari, tamoyillariga muvofiq tartibga solingan ta'lim makonining bir qismi;

-art-pedagogik yordam art-pedagogik faoliyatni ta'lim jarayoniga integratsiyalash bo'yicha harakatlarning moslashuvchan tizimi.

3.Muallif konsepsiyasiga muvofiq, art-pedagogik yordam deganda o'qituvchilar malakasini oshirish uchun sharoitlarni yaxshilash uchun san'atning turli xil turlarini tizimli qo'llashning innovatsion yo'lini ochadigan tarbiyaviy hodisa tushuniladi.

San'atni pedagogik qo'llab-quvvatlashning funksional maqsadi kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish va optimallashtirish, individual shaxsiy rivojlanish va o'quv jarayoni ishtirokchilarining ijodiy o'zini o'zi anglashini ta'minlash bilan bog'liq.

Art-pedagogik qo'llab-quvvatlash o'qituvchilar tayyorlashning an'anaviy shakllarini to'ldiruvchi bo'lib, ayni paytda universitet o'qituvchisi faoliyatida mustaqil yo'nalish hisoblanadi.

Yaratish va qo'llab-quvvatlash art-pedagogik yordamga qaratilgan o'qituvchilar tayyorlashning mazmun-semantik dominantlari quyidagilardir:

- shaxsga yo'naltirilgan, insonparvarlik kasbiy munosabatlarini shakllantirish;
- dunyoning ko'pligi va pedagogik voqelikni yaxlit idrok etish zarurligini anglash;
- talabalarning kasbiy va shaxsiy taqdirini o'zi belgilash;
- hodisalarning mohiyatini anglash orqali pedagogik nazariya va amaliyotni tushunish;
- kasbiy ahamiyatga ega umumiy pedagogik mahoratni rivojlantirish;
- insonparvar pedagogik o'zaro munosabatlar tajribasini o'zlashtirish;
- art-pedagogik faoliyat asoslarini egallash.

Maqsad va ilgari surilgan gipoteza tadqiqot mantig'iga mos keladigan to'rtta vazifa guruhini ajratishga imkon berdi.

Birinchi guruh vazifasi ta'limda san'atning pedagogik imkoniyatidan keng foydalanishning uslubiy asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, quyidagilarni nazarda tutadi:

-san'atning pedagogik salohiyatini aniqlash;

-turli xil san'at turlarining insonga ta'sirini kompleks tahlil qilishga, fanlararo yondashuv asosida san'at vositalari yordamida hal qilinadigan pedagogik vazifalar spektrini aniqlash;

-san'at pedagogikasi fanning yangi amaliyotga yo'naltirilgan yo'nalishi sifatida shakllantirishning tarixiy shartlarini tahlil qilish.

Ikkinchi guruh vazifasi art-pedagogik qo'llab quvvatlashning nazariy asoslarini, shu jumladan bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini art-pedagogik qo'llab-quvvatlash konsepsiyasini ishlab chiqish zarurati bilan bog'liq bo'lib, buning uchun zarur bo'lgan:

-art-pedagogik hamkorlik-tushunchasining mohiyati va mazmunini aniqlash;

-o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi tizimida art-pedagogik qo'llab-quvvatlashning o'rni va funktsiyalarini asoslash;

-bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini art- pedagogik qo'llab-quvvatlash konsepsiyasini yaratish;

-oliy pedagogik ta'lim tizimida o'qituvchi tayyorlashni art- pedagogik qo'llab-quvvatlash modelini ishlab chiqish.

Uchinchi guruh vazifalari pedagogik sikl fanlari doirasida art-pedagogik qo'llab-quvvatlashning nazariy modelini sinovdan o'tkazish bilan bog'liq bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-bo'lajak o'qituvchini tayyorlashning haqiqiy amaliyotini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini art-pedagogik qo'llab-quvvatlash mazmunini konkretlashtirish;

-pedagogik tsikl fanlari misolida art-pedagogik qo'llab-quvvatlash modelini amalga oshirish bo'yicha eksperimental ishlarni tashkil etish;

-art-pedagogik qo'llab-quvvatlash samaradorligini baholash tizimini eksperimental tekshirish.

To'rtinchi guruh vazifalari, kelajakdagi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini art-pedagogik qo'llab-quvvatlash va uslubiy qo'llab-quvvatlashni ishlab chiqish bilan bog'liq:

-o'quv jarayonini art-pedagogik qo'llab-quvvatlashning texnologik vositalari;

-art-pedagogik darsni loyihalash metodologiyasini ishlab chiqish;

-pedagogika universitetning o'quv jarayonida art-pedagogik hamkorlikni tashkil etish shartlarini aniqlash va asoslash.

Xulosa. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar ilgari surilgan gipotezaning to'g'riligini uning bir qator qoidalariga aniqlik kiritish orqali tasdiqlash imkonini beradi. San'atning tabiati va funksiyalarini fanlararo tahlil qilish san'atning turli turlari va vositalarining pedagogik imkoniyatlaridan kompleks foydalanish asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish imkoniyatlarini asoslash imkonini berdi. San'at va pedagogika, art-pedagogik faoliyat o'rtasidagi aniqlangan chuqur qarindoshlik, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'quv jarayonini rivojlantirish, tarbiyalash, kommunikativ va boshqa san'at resurslarini yangilash maqsadga muvofiqligini asoslaydi. Shaxsning kognitiv, hissiy, xulq-atvor sohalariga, inson psixikasining ratsional va intuitiv, ongli va ongsiz tomonlariga har tomonlama ta'sir ko'rsatadigan san'at sizga ko'plab pedagogik vazifalarni parallel ravishda hal qilish imkonini beradi, ishtirokchilarning ta'lim jarayoniga yaxlit qo'shilishini ta'minlaydi. Pedagogik va badiiy salohiyatni birlashtirishning tarixiy va zamonaviy tajribasini tahlil qilish badiiy pedagogikaning tabiatni, umumiy qonuniyatlarini, tamoyillarini, jalb qilish mexanizmlarini o'rganadigan pedagogika fanining mustaqil sohasi sifatida shakllanishi uchun obyektiv tarixiy va madaniy shart-sharoitlar mavjudligini aniqladi. Kasbiy-pedagogik faoliyatning mustaqil turi art-pedagogik faoliyat bo'lib, u kasbiy g'oya va maqsadlarni san'at vositasida amalga oshirishga qaratilgan pedagogik harakatlar majmui hisoblanadi. Art-pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlari sifatida o'qituvchi tomonidan o'quv jarayoni ishtirokchilarining badiiy ijodini rag'batlantirish va tashkil etish, shuningdek, integratsiyalashgan holda ta'lim jarayonida axloqiy va estetik o'zaro ta'sir tizimini yaratishni ko'rib chiqish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Александрова, Е. А. Педагогическое сопровождение старшеклассников в процессе разработки и реализации индивидуальных образовательных траекторий : дис.... д-ра пед. наук / Е. А. Александрова. — Тюмень, 2006. - 375 с.

2. Алексеева, М. Ю. Развитие творческого мышления младших школьников средствами арт-терапии : на материале обучения иностранному языку : дис. ... канд. пед. наук / М. Ю. Алексеева. - Курск, 2007. - 240 с.

3. Аметова-Давыдовская, Л. А. Эмоциональный Ренессанс. Психолого-педагогическая технология использования арт-терапии в системе художественного образования / Л. А. Аметова-Давыдовская. - Ярославль : Ремдер, 2005.-192 с.

4. Артпедагогика и арттерапия в специальном образовании / Е. А. Медведева, И. Ю. Левченко, Л. Н. Комиссарова, Т. А. Добровольская. - М. : Академия, 2001.-246 с.

5. Мирзаева, Дилфуза. "Арт педагогикаси воситасида мактабгача таълим ташкилоти болалари ижодкорлигини ривожлантириш." Общество и инновации 3.1/S (2022): 141-148.

6. Мирзаева Д. Ш. Развитие творческих способностей будущих воспитателей дошкольных учреждений // Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1408-1413.

7. Курбанова, Д. Ш. М. З. "Арт-педагогические технологии коррекции страхов у детей дошкольного возраста"

TA'LIM TIZIMIDA TRANSVERSAL KOMPETENSIYANING AHAMIYATI

Muxidova Olima Nurilloevna

Qori Niyoziy nomidagi pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning transversal kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati ko'rib chiqiladi. Rivojlanayotgan jamiyatga munosib ta'lim tizimiga muvofiq talabalarni fuqaro sifatida shakllantirishga qaratilgan transversal kompetensiyalarning tarkibiy qismlari va usullari tahlil qilinadi. Transversal kompetensiyalarning to'plami butun dunyo ta'lim tizimining diqqat markazida bo'lib, Yevropa Ittifoqi universitetlarida rivojlanish uchun zarur deb tan olingan: tanqidiy va innovatsion fikrlash, ijodiy fikrlash, raqamli savodxonlik, axborot savodxonligi, muammolarni hal qilish, jamoaviy ishlash, chet tilini bilish va boshqalardir.

Kalit so'zlar: transversal ko'nikmalar, transversal kompetensiya, XXI asr ko'nikmalari, raqamli savodxonlik, mehnat bozori.

ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСВЕРСАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

В этой статье рассматривается важность развития трансверсальных компетенций студентов в высших учебных заведениях. Анализируются компоненты и методы трансверсальных компетенций, направленных на формирование у учащихся гражданской ответственности в соответствии с системой образования, соответствующей развивающемуся обществу. Набор трансверсальных компетенций находится в центре внимания всей мировой системы образования и признан необходимым для развития в университетах Евросоюза: критическое и инновационное мышление, творческое мышление, цифровая грамотность, информационная грамотность, решение проблем, работа в команде, владение иностранным языком и т. д.

Ключевые слова: трансверсальные навыки, трансверсальная компетенция, навыки XXI века, цифровая грамотность, рынок труда.

THE IMPORTANCE OF TRANSVERSAL COMPETENCE IN THE EDUCATIONAL SYSTEM

This article discusses the importance of developing transversal competencies of students in higher education institutions. The components and methods of transversal competencies aimed at the formation of students' citizenship in accordance with the education system corresponding to the developing society are analyzed. A set of transversal competencies is at the center of attention of the entire world education system and is recognized as necessary for the development of critical and innovative thinking, creative thinking, digital literacy, information literacy, problem solving, teamwork, foreign language proficiency, etc

Keywords: transversal skills, transversal competence, skills of the XXI century, digital literacy, labor market.

Kirish

Jamiyatning jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga yangi talablarni kiritmoqda. Talabalar nafaqat taqdim etilgan ma'lumotlarni olishlari, balki atrof-muhitga muvofiq bilimlarni o'zlashtirishlari, qayta ishlashlari, rivojlantirishlari va qo'llashlari kerak.

Kelajakda millatning mavjudligi uning tabiiy boyliklari bilan emas, balki o'z xalqining raqobatbardosh qobiliyatlari bilan baholanadi. Shuning uchun hozirgi vaqtda har bir kishi XXI asr ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Masalan, kompyuter savodxonligi, chet tillarini bilish, madaniy ochiqlik kabi omillar shaxsiy rivojlanish uchun zaruriy shartlar hisoblanadi. Shuning uchun "Raqamli O'zbekiston", "Innovatsion ta'lim", "Madaniy va dinlararo totuvlik" kabi dasturlar millatimizni, xalqimizni XXI asr talablariga tayyorlash uchun olib borilayotgan tashviqotlardandir.

Davlatimiz rahbari yoshlar zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallash zarurligi, buning uchun barcha kuch va imkoniyatlar ishga solinishini har bir nutqlarida aytib o'tadilar.

Ta'lim tizimida jamiyatning yangi tamoyillari - harakatchanlik, ijodkorlik, muloqot va muloqotga javob beradigan innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish ko'zda tutilgan. Ta'limda asosiy e'tiborni ijodni rivojlantirishga, tanqidiy fikrlash, bir jamoada ishlash qobiliyatiga qaratish kerak.

O'quv jarayonida ushbu kompetensiyalar ilmiy adabiyotlarda quyidagi nomlar ostida keng qo'llaniladi: umumiy kompetensiyalar (generic competences), strategik kompetensiyalar (strategic competences) va asosiy kompetensiyalar (core competences).

Transversal kompetensiyalar - tez moslashish va faoliyatning bir sohasidan ikkinchisiga o'tish qobiliyati bo'lib, shuningdek, mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda oliy ta'limning asosiy maqsadi nafaqat jamiyatni mutaxassislar bilan ta'minlash, balki jamiyatning barcha ehtiyojlarini qondirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, mehnat bozorida moslashuvchanlik va ijodkorlikni yaratish, jamoada ishlash va mustaqil ravishda qarorlar qabul qilishni fuqarolik va kasbiy mahorati orqali hal eta oladigan madaniyatlararo bilimlarga ega mutaxassislar tayyorlash muhim masalalardandir.

Adabiyot sharhi

Rivojlanayotgan jamiyatning asosiy talablaridan biri bu talabalar orasida muloqot va bag'rikenglikni borligi asosiy talablardan biridir. So'nggi yillarda ushbu tuzilmalar transversal kompetensiyaning tarkibiy qismlari sifatida ko'rib chiqilmoqda.

"Transversal kompetensiya" tushunchasi Yevropada 1970-yillarning boshlarida paydo bo'lgan. Ushbu konsepsiya birinchi marta 1972 yilda E.Fordinning "Learning to be: The World of Education tion Today and Tomorrow" hisobotida taqdim etilgan.

Muallif ikkita asosiy mafkurani taklif qildi: "uzluksiz ta'lim "va" "o'quvchilar jamoasi " [1].

Transversal kompetensiyalar YUNESKO tomonidan ta'riflanganidek: tanqidiy va innovatsion fikrlash, shaxslararo munosabatlar, global fuqarolik, jismoniy va psixologik salomatlik. Fanlararo kompetensiya va transversal kompetensiyalar o'rtasidagi aloqalar hali ham to'liq aniqlanmagan [2].

An'anaviy kompetensiyalar - hisoblash, mantiq, savodxonlik kabi bilimlarni tushuna olish va qo'llay olish qobiliyatidir. Shu bilan birga transversal/kognitiv bo'lmagan ko'nikmalarga insonning jamiyat bilan o'zaro ta'sirini kuchaytirishga hissa qo'shadigan ijtimoiy, hissiy kompetensiyalar kiradi [3]

Claudiu Langa, transversal kompetentlik " muayyan sohadan tashqariga chiqadigan va kasbiy kompetensiyalarni mustahkamlaydigan ko'nikmalar", deydi [4].

Hollis Ashbaugh, Karla M. Johnstone (2000), De Lange, P., Jackling, B. Gut (2006) ma'lumotlariga ko'ra, transversal kompetensiyalar kasbiy kompetensiyalarni to'ldirish va mutaxassislarning ma'lum bir sohada muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar to'plamidir. [5].

Asosiy qism

Transversal ko'nikmalarning terminologiyasi va tasnifi har xil bo'lsa-da, tadqiqotlarda ko'rsatilgandek, ular birinchi navbatda insonning mehnat qobiliyatini oshiradigan ishlab chiqarish, tadbirkorlikda aks etadi. Bundan tashqari, u yana bir noyob mahorat to'plami sifatida qaraladi.

Transversal ko'nikmalar to'plami faoliyatning bir sohasidan boshqasi bilan farq qilishi mumkin. Masalan, o'qituvchilar uchun o'z sohasidagi bilimlari bu uning kasbiy ko'nikmalari, chet tilidagi nutqi, axborot va raqamli texnologiyalardan foydalana olishi bu transversal ko'nikmalardir. Boshqa tomondan, raqamli texnologiya ko'nikmalari axborot sohasi xodimlari uchun kasbiy ko'nikma sifatida qaraladi, aksincha o'qituvchilar uchun muhim transversal ko'nikmalardir. Shuningdek, transversal ko'nikmalar, ya'ni 21-asr ko'nikmalari hisoblanib ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda.


Ular tanqidiy fikrlash, yetakchilik, axborot va raqamli vositalardan foydalanish, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash qobiliyatlarini shakllantiradi. Ushbu ko'nikmalar shaxsni rivojlantirish asoslari hisoblanadi va har qanday bilim va ko'nikmalarni shakllantirishning muhim qismidir (Whittemore, 2018) [6].

Transversal ko'nikmalar-bu boshqa sohaga osongina moslasha oladigan, ma'lum bir sohada keng qo'llaniladigan va tez rivojlanayotgan qobiliyatlar to'plami. Ushbu ko'nikmalar kishilarning nafaqat o'qish yoki faoliyati davomida, balki kundalik hayotda ham samarali ishlashlari uchun zarurdir. Ushbu ko'nikmalar har qanday mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishishda asosiy rol o'ynashi bilan farq qiladi.

Quyida transversal kompetensiyaning tarkibiy qismlari berilgan:

Transversal kompetensiya, yuqorida aytib o'tilgan ko'nikmalardan tashqari, tahliliy ko'nikmalar, ijtimoiy va fuqarolik ko'nikmalari, yetakchilik va tadbirkorlik ko'nikmalari, shuningdek, global fuqarolikni o'z ichiga oladi.

YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, bu kompetensiyalar nafaqat ko'nikmalar, balki qadriyatlar va bilimlarga ham tegishli. Transversal kompetensiyalar bilishning eng murakkab kompetensiyalardan biri bo'lib, jamiyatda ta'limga qaratilgan asosiy yo'l sifatida tan olinadi. Ushbu kompetensiya mehnat bozori talablarini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi, shuning uchun ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu kompetensiya mehnat kompetensiyasi deb ham ataladi.



1-rasm. Transversal kompetensiyaning tuzilmasi

Yuqoridagi ma'lumotlarni umumlashtirib aytishimiz mumkinki, transversal kompetensiya – bu rivojlanayotgan jamiyatdagi ta'lim va fanning ko'plab sohalarini qamrab oladigan, kelajak avlodning o'z maqsadiga erishishi uchun to'g'ri va samarali zarur yo'l deb hisoblanadi. Qayd etilishicha, keyingi yillarda transversal kompetensiyaning rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Transversal ko'nikmalar kelajakdagi mutaxassislarga yagona shaxsga aylanish, shuningdek, rivojlanayotgan o'zgaruvchan jamiyat oqimiga moslashish va birgalikda o'sishga imkon beradigan qadriyatlardan biridir.

Xulosalarga ko'ra, transversal kompetensiyalar XXI asr kompetensiyalari sifatida ham keng tanilgan, shu bilan birga oliy ta'lim muassasalarining strategiyalarida ushbu kompetensiyaning shakllantirish va rivojlantirishga katta ahamiyat berilgan. Shuni hisobga olish kerak bo'lgan muammolardan biri shundaki, oliy o'quv yurtlarida "transversal kompetensiya", "transversal ko'nikmalar" tushunchalarining so'zma-so'z qo'llanilmasligi yoki transversal kompetensiyalar ko'plab tarkibiy qismlardan tashkil topganligi sababli, ba'zi qismlar e'tiborsiz qolib ketmoqda.

Shu sababli, ta'limda mavzu asosidagi kompetensiyalarni rivojlantirish yuqori darajada deb taxmin qilish mumkin. Ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri mutaxassislar o'rtasida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdir. Shuningdek, transversal kompetensiyalarni shakllantirish esa bu mutaxassislar kelajakda har qanday vaziyatda maqbul yechimni topa olishlarini ta'minlashdir.

Xulosa

O'qituvchilar ushbu malakalarni, ko'nikmalarni rivojlantirganliklariga asoslanib, ular bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ta'limidan tashqari, o'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda mehnat bozorida talab qilinadigan malakali kadrlar tayyorlashga hissa qo'shishlari lozim.

Agar shunday bo'lsa, demak, an'anaviy ta'lim tizimining raqamli texnologiya vositalari yordamida zamonaviy ta'lim usullariga murojaat qilishi, shubhasiz, jamiyat talablariga muvofiq mutaxassislarni tayyorlaydi

Shuni ta’kidlash kerakki, transversal kompetensiyaning ko’plab tuzilmalari hali o’quv tizimiga to’liq qo’shilmagan, boshqa tomondan, ba’zi tuzilmalar juda yaxshi rivojlanganligi haqida uzoq vaqtdan beri mavjud.

Binobarin, ta’lim tizimi va mutaxassislarni tayyorlash ijodiy va innovatsion fikrlash, tayanch va shaxsiy, kasbiy ko’nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, jahon mehnat bozorini zabt etishga qodir mutaxassislarni tayyorlash yo’nalishi bo’yicha qurilishi kerak.

Demak, transversal kompetensiyalar o’qituvchi va talabalar o’rtasida, shuningdek an’anaviy, noan’anaviy ta’lim shakllarida hamkorlikda ishlash natijasida shakllanadigan va rivojlanadigan ko’nikmalar hisoblanadi. Shuning uchun ham o’qituvchilar bo’lajak mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy va shaxsiy hamda transversal kompetensiyalarni shakllantirishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Lana Francesca Dreimane. European Journal of Education Studies, Том 3, Выпуск 10, 2017, p.65.
2. Amadio M. (2013). A rapid assessment of curricula for general education focusing on cross-curricular themes and generic competences or skills. Teaching and learning: Achieving quality for all”. <http://www.ibe.unesco.org/sites/default/files/resources/225939e.pdf> p.9
3. Yano, S. (2013). Mapping Transversal/Non-Cognitive Skills in Education.
4. Langa C (2015). The contribution of transversal competences to the training of the educational sciences specialists, Procedia-Social and Behavioural Sciences 180, p.7-12.
5. Nicolaescu Cristina, David Delia (2017). Professional and transversal competencies in the accounting field perceptions? Evidence from Western Romania, Studies in Business and Economics no. 12(3)/2017, p.128
6. Whittemore (2018). White paper transversal competencies essential for future proofing the workforce, p.9.
7. Мухидова О.Н. (2021). Формирование трансверсальных компетенций – приоритетная задача преподавателей высшей школы. Общество и инновации. 2, 11/С, 394–398.
8. Muhidova O.N. (2021). Transversal competences as a result of student’s modern world view formation. Current research journal of pedagogics. 3, 03 С. 64-69.
9. Мухидова О.Н. (2020). Компетенциявий ёндашув асосида бўлажак технология фани ўқитувчиларини тайёрлаш тизимини такомиллаштириш. Педагогик маҳорат Центр научных публикаций (buxdu. uz) 1/1, 57-61
10. Мухидова О.Н. (2020). Технология фани ўқитувчиларини тайёрлашда компетенциявий ёндашувлар. Педагогик маҳорат Центр научных публикаций (buxdu. uz) 2/2, 158-164.
11. Мухидова О.Н. (2022). Трансверсальные компетенции – как результат становления поэтапного, эволюционного мировоззрения студентов. Collection of scientific papers «SCIENTIA», 2022/4/1, С.73-75
12. Мухидова О.Н. (2022). Трансверсальные компетенции педагога – это проявленные его профессионально – личностных качеств. Eurasian journal of academic research. Innovative Academy Research Support Center (2022) Volume 2 Issue 5, 69-76
13. Mirjanova N.N., Muxidova O.N., Sodiqova A.H. (2022). Improving the methodology of using digital technologies in the development of professional competencies of future technology teachers. International Journal of Early Childhood Special Education Volume 14 No 1. pp. 2548-2553.

AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TALABALARDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

*Nematova Zebo Tursunboyevna, o'qituvchi,
Buxoro davlat tibbiyot instituti
nematovazebo82@gmail.com*

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish XXI-asrning har qanday o'quvchisi uchun asosiy ko'nikmalardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot birinchi kurs bakalavriat talabalari orasida autentik materiallardan foydalangan holda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu maqola, shuningdek, autentik materiallardan foydalanishning afzalliklariga va sinfda autentik materiallardan foydalangan holda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun ishlatiladigan turli usullarga qaratilgan. Ushbu tadqiqot uchun asl materiallar gazetalar, jurnallar, broshyuralar va h.k.lardan foydalanildi. Talabalar ham autentik ta'lim muhitiga ijobiy javob berishdi. Natija shuni ko'rsatdiki, turli usullar va materiallarni tanlash orqali o'quvchilarning yaxshi tushunishlari va faol ishtirok etishlariga yordam beradi, bu esa mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga olib keladi.

Kalit so'zlar: autentik materiallar, chet tili, ikkinchi til, gazeta maqolalari, risolalar, podkastlar, rasmiy yozish, ko'p so'zli iboralar, mantiqiy fikrlash qobiliyatlari.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ АУТЕНТИЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ

Развитие навыка логического мышления считается одним из ключевых навыков для любого ученика XXI века. Данное исследование направлено на развитие навыков логического мышления на аутентичных материалах у студентов первого курса бакалавриата. Это исследование также фокусируется на преимуществах использования аутентичных материалов, а также на различных методах, используемых для развития навыков логического мышления с использованием аутентичных материалов в классе. В качестве аутентичных материалов, используемых для этого исследования, использовались газеты, журналы, брошюры и т. д. Студенты также положительно отреагировали на аутентичную учебную среду. Результат заключался в том, что выборочный выбор различных методов и материалов может способствовать лучшему пониманию и активному участию учащихся, что приводит к развитию навыков логического мышления.

Ключевые слова: аутентичные материалы, иностранный язык, второй язык, газетные статьи, брошюры, подкасты, формальное письмо, многословные выражения, навыки логического мышления.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING LOGICAL THINKING IN STUDENTS THROUGH AUTHENTIC MATERIALS

Developing logical thinking skill is considered to be one of the key skills for any 21st century learner. This study aimed at developing logical thinking skills using authentic materials among the first year undergraduate students. This study also focuses on the advantages of using authentic materials and also various methods used to develop logical thinking skills using authentic materials in the classroom. The authentic materials used for this study are newspapers, magazines, brochures etc. Students also responded positively to the authentic learning environment. The result had the implication that by selectively choosing various methods and materials can promote better understanding and active participation of students that leads to the development of logical thinking skills.

Key words: authentic materials, foreign language, second language, newspaper articles, brochures, podcasts, formal writing, multi-word expressions, logical thinking skills.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi darajasi ta'limning yuqori sifatini taqozo etmoqda. Autentik materiallardan to'g'ri va tizimli foydalanish ingliz tilini o'qitish sifatini oshirishning samarali vositasi bo'lishi mumkin. So'nggi yillarda til o'quv dasturi tez o'zgarib bormoqda. Ushbu o'tishni yengish uchun biz o'quvchilarimizni shunga mos ravishda shakllantirishimiz kerak. Biz o'quvchilarimizga fantaziya, qaror qabul qilish va boshqa yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhimligini tushunishga

majburlashimiz kerak, bu ularni akademik hayotda ham, shaxsiy hayotda ham muvaffaqiyatlarga erishishiga yordam beradi. O'quv dasturida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish oliy ta'limda asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Ammo so'nggi paytlarda tez o'zgaruvchan ish joyida talabalarning ishga joylashishini oshirish uchun ushbu maqsadni amalga oshirish yanada dolzarb bo'lib qoldi. Shunday qilib, ushbu maqola autentik materiallardan foydalangan holda talabalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishimiz mumkinligini isbotlashga urinishdir. Sinfda autentik materiallardan foydalanishning asosiy afzalligi shundaki, o'quvchilar haqiqiy hayot tilini osongina o'rganishlari mumkin va bu orqali o'qituvshilar til o'rganishni yanada faol va qiziqarli qilishlari mumkin.

Asosiy qism. Pedagogik nazariya va amaliyot uchun chet tilini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning dolzarbligi ularning funksionalligidadir. Real foydalanishga e'tibor qaratishda, chunki ular tabiiy til muhiti bilan tanishish illyuziyasini yaratadi, bu esa chet tilini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosiy omilidir. Funksional autentik material ustida ishlash talabani tildan foydalanishning real sharoitlariga yaqinlashtiradi, uni turli lingvistik vositalar bilan tanishtiradi va uni nutqda ushbu vositalardan mustaqil autentik foydalanishga tayyorlaydi.

Talabalarining o'ziga kelsak, ular uchun haqiqiy materiallardan foydalanish har qanday yoshda dolzarb. Talabalar doimo tinglash, tomosha qilish, o'qish va hokazolarga qiziqishadi. Haqiqiy materiallardan foydalanish darsni yanada tushunarli, boy, jonli qiladi va shu bilan talabalarni chet tilini o'rganishga undaydi.

Mamlakatimizda hozirgi ta'lim tizimida mantiqiy tafakkur qobiliyati orqaga surilib, deyarli e'tibordan chetda qolmoqda. Uning o'rnida yodlash, eslab o'rganish, mashq qilish, amaliyot qilish va hokazolar ustunlik qiladi. Imtihonlar yodlash va mexanik qayta ishlab chiqarish orqali hal qilinadi. Talabalar uchun mo'ljallangan darsliklar faqat bir xil maqsadlarga ega bo'lgan ma'lumotlarni uzatishni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalariga ba'zi autentik materiallardan foydalanish orqali yaxshiroq erishish mumkin. Hozirgi vaqtda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish kollej yoki universitetlarning muhim o'quv vazifasiga aylandi.

Mantiqiy fikrlash qobiliyati ta'lim sohasida mashhur so'zga aylandi. Bu ko'p bosqichli jarayon bo'lib, unda talabalar yangi bilimlarni tahlil qilishlari va mulohaza yuritishlari va mavjud bilimlarga integratsiyalashuvi mumkin. Mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish usullaridan biri bu sinfda aytentik materiallardan foydalanishdir. U gazetalar, jurnallar, filmlar, broshyuralar, reklamalar, adabiyotlar va hokazolarni o'z ichiga oladi. Autentik materiallardan foydalangan holda talabalar haqiqiy hayot tajribasiga ega bo'ladilar va ular tilni chuqurroq va kengroq tushunishadilar. Bu talabalarga kundalik hayotda ishlatiladigan maqsadli tilni o'rganishga yordam beradi. “Autentik materiallar ta'limga ijodiy yondashishda qimmatli yordam beradi va maxsus ishlab chiqilgan o'quv dasturi uchun foydalanish mumkin. Ular sinf va haqiqiy dunyo o'rtasidagi ko'prikdir” [3; 53 b].

H.D. Brownning fikriga ko'ra, “Mantiqiy tafakkur har qanday mavzu, mazmun yoki muammo haqida fikr yuritish usulidir - bunda mutafakkir uni mohirona tahlil qilish, baholash va qayta qurish orqali o'z fikrlash sifatini oshiradi” [1; 23 b].

Autentik materiallardan foydalangan holda, o'quvchilar o'zlariga bo'lgan ishonchni oshiradilar va o'qituvchilar tomonidan berilgan yordam tufayli ular osonlikcha rag'batlantiradilar. Oliy ta'limda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish davr talabiga aylandi. Tadqiqotchi sifatida men turli xil haqiqiy materiallardan foydalanib, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini yaxshilashimiz mumkinligini isbotlashga harakat qilaman.

Mantiqiy fikrlash to'g'ri fikrlash tartibini ta'minlaydigan va g'oyalarni kengroq nuqtayi nazardan tahlil qilish, baholash va talqin qilishga yordam beradigan intellektual tushunchadir. Hozirgi kunda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish shaxsning butun shaxsini rivojlantirishga olib keladigan eng muhim vosita va choralardan biri sifatida belgilangan. Mantiqiy fikrlash oddiy fikrlashning kengaytmasidir. Shuning uchun mantiqiy fikrlashning boshlang'ich nuqtasi oddiy fikrlashning yakuniy nuqtasi bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, mantiqiy fikrlash normal fikrlash tugaydigan joyda boshlanadi. Mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali biz o'quvchilarni yanada mulohazakor, ijodiy va o'zlariga bo'lgan ishonchlarini oshirishlari va kelajakdagi karyeralarida ajoyib imkoniyatlarga ega bo'lishlari mumkin. Braun ta'kidlaganidek, ideal akademik ingliz tili dasturida “o'quv dasturining maqsadlari faqat lingvistik omillar bilan cheklanib qolmay, balki mantiqiy fikrlash san'atini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi”. [1; 25 b]

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Biz mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini o'rgatish orqali o'qitish jarayonini osonlashtirishimiz mumkin. Ammo biz uni batafsil ko'rib chiqsak, bu oson jarayon emas. Fikrlash tabiiy faoliyatdir va u biz dunyo bilan o'zaro aloqada bo'lganimizda sodir bo'ladi va bu ichki faoliyatdir. Mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini o'rgatish ularga yangi tajriba beradi va uzoq muddatli xotirani saqlab qolish orqali o'rganishdan uzoqlashishga yordam beradi.

Autentik materiallar - bu sinflarda ishlatiladigan odatiy materiallardan farq qiladigan materiallar. Ular ko'proq rag'batlantiruvchi, qiziqarli va o'quvchilar uchun turli xil o'rganish uslublariga qaratilgan bo'lib, barcha til ko'nikmalarini va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ishlatiladi. Ular pedagogik maqsadlarda yaratilmagan tasvirlar, yozma yoki og'zaki tillar hisoblanadi. Autentik materiallar gazetalar, jurnallar, davriy nashrlar, broshyuralar, filmlar, televizorlar bo'lib o'quv materiallari va boshqalardan farq qilishi mumkin. Agar biz sinflarda autentik materiallardan foydalansak, biz o'quvchilarimizni haqiqiy til bilan tanishtiramiz va ular turli xorijiy tillarda so'zlashuvchilarni tushunishlari mumkin. ESL/EFL o'qituvchilari foydalangan haqiqiy o'quv materiallariga ba'zi misollar keltiradi. U to'rt toifaga bo'lingan:

1. Autentik tinglash/tomosha qilish materiallari - teleko'rsatuvlar, viktorina shoulari, multfilmlar, yangiliklar roliklari, filmlar, seriallar, professional audio va lentangan qisqa hikoyalar va romanlar, radio reklamalar, qo'shiqlar, hujjatli filmlar va savdo maydonchalari.

2. Autentik vizual materiallar - slaydlar, fotosuratlar, rasmlar, bolalar rasmlari, tayoqchalar rasmlari, so'zsiz ko'cha belgilari, siluyetlar, jurnallar rasmlari, pochta markalari rasmlari, so'zsiz rasmlar kitoblari, shtamplar va rentgen nurlari.

3. Autentik bosma materiallar - gazeta maqolalari, kino reklamalari, munajjimlar haqidagi ruknlar, sport reportajlari, nekroloqlar ruknlari, maslahatlar ustunlari, qo'shiqlar matni, restoran menyulari, ko'cha belgilari, donli qutilar, konfetlar, turistik ma'lumotlar risolalari, universitet kataloglari, telefon kitoblari, xaritalar, televizor, yo'riqnomalar, komikslar, tabriknomalar, oziq-ovqat kuponlari, xabarlar va avtobus jadvallari bilan pinlar.

4. ESL/EFL sinflarida ishlatiladigan Realia (Real dunyo obyektlari) - tangalar va valyutalar, buklangan qog'ozlar, devor soatlari, telefonlar, maskalari, o'yinchoqlar va qo'g'irchoqlar, bir nechtasini nomlash mumkin. Realia ko'pincha fikrlarni juda vizual tasvirlash yoki rolli vaziyatlar uchun ishlatiladi.

Oliy ta'limda 1-bosqich talabalariga chet tilini o'rgatishda autentik matnlarni o'qish muhim rol o'ynaydi. O'qish motivatsiyasi chet tilida o'qishni o'zlashtirish orqali bilim chegaralarini kengaytirish uchun uning foydaliligi va zarurligini anglashga asoslanadi.

Lekin ba'zan talabalar haqiqiy matnni o'qiyotganda ko'p so'z, iboralarning ma'nosini tushunmaydilar va lug'atga tez-tez murojaat qilishga majbur bo'lishadi, bu esa o'qishni zerikarli qiladi va qiziqitirmaydi. Shuning uchun o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlariga mos keladigan matnlarni tanlash juda muhim va hatto zarurdir. Ammo nafaqat yosh xususiyatlarini va qiziqishlarini hisobga olish xorijiy matnni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Nafaqat yangi bilimlarni sinab ko'rish, balki ularni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradigan bunday mashqlar tizimini tanlash muhimdir.

Autentik materiallardan foydalanish chet tilini o'rganishga qiziqishni oshiradi, nutq faoliyatining barcha turlarini faollashtirishga yordam beradi, o'rganilayotgan til mamlakatlarini madaniyati bilan tanishtiradi, ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Chet tili o'qituvchilari o'z ishlarida gazeta va jurnallardagi matnlardan ko'proq foydalanadilar. Bu quyidagicha izohlanadi:

1) davriy nashrlarning matnlari haqiqiy tilni aks ettiradi va shuning uchun katta lingvistik va mavzuli xilma-xillikni ifodalaydi.

2) davriy nashrlar matnlari o'qitish uchun dolzarb ma'lumotlardan foydalanish imkonini beradi.

3) gazeta va jurnallarda dars uchun qiziqarli bo'lgan turli xil materiallarni topishingiz mumkin: maqolalar, intervyular, tarjimayi hollar, so'rovnomalar, reklamalar, komikslar, fotosuratlar, reklamalar, multfilmlar va boshqalar.

4) matbuot - jamiyat hayotini o'rganish manbalaridan biri.

Tinglashda haqiqiy materialdan foydalanish ta'limning o'rta bosqichidan boshlab joriy etilishi kerak, chunki talabalar asosiy til jihatlari bo'yicha yetarli bilimga ega va haqiqiy matnlardan foydalanish ko'proq mos keladi, chunki bu bosqichda chet tilidan foydalaniladi. Ko'proq darajada madaniyat, fan va texnikaning turli sohalarida bilim olish va chuqurlashtirish vositasi sifatida.

Ta'limning o'rta bosqichida tinglash jarayonini tashkil qilishda uning ba'zi xususiyatlarini yodda tutish kerak:

- nutq haqiqiy bo'lishi kerak;

- nutq tezligi tabiiy bo'lishi kerak;

- matnni vizual yordamsiz idrok etish bir yarim-uch daqiqadan oshmasligi kerak, vizual yordam bilan - besh daqiqa;

- eshitis tasvirini artikulyatsiya qilish orqali mustahkamlash nutqni quloq orqali idrok etish jarayonini osonlashtiradi, ayniqsa so'zning shakllangan tasviri hali mustahkamlanmagan yoki biron bir shovqin idrok etishni qiyinlashtiradigan hollarda

- xabarning boshida ifodalangan asosiy ma'lumotlar 100%, oxirida - 70%, xabar o'rtasida - 40% tushuniladi;

- axborotning ortiqcha darajasi tabiiy bo'lishi kerak.

O'quv jarayonida haqiqiy eshitish matnlari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1) o'qitish, rag'batlantirish, semantikashtirish, standartlashtirish va nazorat-tuzatishni o'z ichiga olgan ta'lim;

2) rivojlanayotgan, ya'ni xotira, diqqat, fikrlash, kutish va mexanizmlarini rivojlantirish funksiyasi shaxsiy fazilatlar o'qitish;

3) estetik fazilatlarini tarbiyalash va o'rganilayotgan til mamlakati xalqining madaniyatiga hurmatni tarbiyalash funksiyalarining birligidan iborat bo'lgan tarbiyaviy ta'sir funksiyasi.

Autentik materiallar tabiiy til muhiti bilan tanishish illyuziyasini yaratadi, bu esa chet tilini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosiy omili hisoblanadi. Ta'limning o'rta bosqichida eshitish matni sifatida qo'shiqlar, tele va radio dasturlari, ovozli badiiy matnlar, kundalik muloqot sohasidagi matnlar kabi haqiqiy eshitish materiallaridan foydalanish mumkin.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli xil autentik materiallar qo'llaniladi. Autentik materiallardan foydalangan holda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning turli usullari mavjud.

Gazeta: Gazeta uzoq vaqt davomida ta'limning muhim autentik materialiga aylandi. Quyida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun gazetaga asoslangan tadbirlar keltirilgan.

- Talabalardan sarlavhasiz turli maqolalar berib, maqolalar sarlavhasini taxmin qilishni so'rang. Ular mazmuniga qarab maqolaning sarlavhasini taxmin qilishlari va tegishli sarlavhani berishlari kerak.

- Ulardan sarlavhalarining yetishmayotgan qismini to'ldirishlarini so'rang va ulardan javoblarni topishlarini so'rang.

- Talabalardan gazetadan qiziqarli maqolani tanlashni so'rang va ularga ushbu maqoladan sakkizta tanlangan kalit so'zlarni berishni so'rang va ulardan eng qiziqarli voqeani taklif qilishni so'rang.

- Talabalardan gazetadagi maqolani umumlalashtirishni so'rang.

Tasvirlar: Til bilan tasvirlarni o'rgatish orqali biz ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini, shuningdek, vizual savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirmoqdamiz. Rasmlar talabalarga ushbu ko'nikmalarni oshirishga yordam beradi. Tasvirlar orqali mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun bir qator metodlar mavjud. Ular orasida men The Learning Network of New York Times tomonidan taqdim etilgan onlaynda bir nechta qiziqarli metodlar aniqladim. Tasvirlar orqali mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning turli usullari.

- Talabalardan rasm asosida sarlavha yozishni so'rang. O'qituvchilar o'quvchilardan rasmni ko'rsatish orqali tegishli sarlavha yozishni so'rashlari mumkin.

- Ochiq savollar bering. Biz o'quvchilarni hech qanday xulosaga yoki to'g'ri javobga olib kelmasdan, tafsilotlarni payqashga va kuzatishga yordam beradigan uchta aldamchi oddiy ochiq savolni berishimiz mumkin.

Bu rasmda nima tasvirlangan?

Sizni shunday deyishga nima majbur qildi?

Yana nimalarni ko'rishingiz mumkin?

Tasvir haqida boshqa talabalarining kuzatishlariga asoslanish

Biz ularga o'z fikrlarini baholash va bog'lashda yordam berish uchun boshqa o'quvchilarning kuzatishlariga izoh berishga undashimiz mumkin. Ushbu turdagi faoliyat talabalarga ingliz tilini o'rganish bilan birga hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Bular til o'rganiladigan darslarda oddiy vosita sifatida foydalanish o'rniga tasvirlarning ahamiyatini ko'rsatadigan misollardir.

Qisqa hikoyalar: Talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun qisqa hikoyalar o'rganilishi mumkin. Ular talabalarining madaniy ongi, motivatsiyasi va yuqori tartibli fikrlash qobiliyatlarini oshirish uchun ishlatiladigan moslashuvchan vositalardir. Turli mavzulardagi qisqa hikoyalarni o'qish talabalarga dunyoga boshqacha qarashga yordam beradi. Qisqa hikoyalar yordamida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning turli usullari quyidagilardir:

- Talabalarga qahramonlar haqida savollar bering.

- Ulardan voqealar, belgilar va maxsus xususiyatlarni tahlil qilishni so'rang.

- Hikoya nima uchun yozilganligining mantiqiy sabablarini aniqlashni so'rang.

- Ulardan muqobil harakatlarning ehtimoliy oqibatlarini yozishni so'rang.

Xulosa. Mantiqiy tafakkur talabalarining shaxsiy va kasbiy hayotida muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur bo'lgan bebaho mahorat sifatida qabul qilinadi. O'qituvchi sifatida biz past va yuqori fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun kerakli o'quv maqsadlarini yaratishda puxta va maqsadli bo'lishimiz kerak. Autentik

materiallarni tanlab o'qitish dars jarayonini yanada qiziqarli qiladi, o'quvchilar matnga faol javob beradi va muammoli vaziyatlar bilan shug'ullanishga yordam beradi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, barcha o'qituvchilar o'qituvchilik tajribasi va ilmiy darajasidan qat'iy nazar, o'z sinflarida autentik ma'lumotlarni taqdim etishga ijobiy munosabat bildirdilar.

Adabiyotlar:

1. Brown, H.D. (2004). Some practical thoughts about student-critical pedagogy. *The Language Teacher*, 28(7):23-27
2. Moparthy.B.Suresh. (2010).Teacher's beliefs about using authentic materials with special focus on newspapers: A study (Master's Thesis), The English Language Foreign Language University, Hyderabad
3. Peacock,M. (1997).The effect of authentic materials on the motivation of EFL learners. *ELT Journal*, 51(2):144-53.
4. Thinking Outside the Classroom: Developing Critical Thinking Using Authentic Materials in an ELT Classroom- Anu P & Dr. P Bhaskaran Nair
5. Huda, M. (2017). The use of authentic materials in teaching English: Indonesia teachers' perspective in EFL classes. *PEOPLE: international Journal of social sciences*, 3(2), 1907-27.
6. Jalilov J. Chet tili o'qitish metodikasi, Toshkent .2012

“TEXNOLOGIK TA’LIM” YO’NALISHI TALABALARIDA KREATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI

Quliyeva Shahnoza Halimovna,

Buxoro davlat universiteti,

Fizika-matematika fakulteti,

Elektronika va texnologiya kafedrası dotsenti

kuliyeva_shakhnoza@mail.ru

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida “Texnologik ta’lim” yo’nalishi talabalarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari masalalari keltirilgan. Bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarini tayyorlashda umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan bilim, ko’nikma va malakalarini egallayotganda kreativ qobiliyatlarni alohida inobatga olish zarur. “Texnologik ta’lim” yo’nalishi talabalarida ayniqsa “Texnologiya ta’limi metodikasi” fani bo’yicha bilimlarni shakllantirishda kasbiy va metodik tayyorgarlik muhim hisoblanadi. Shuning uchun talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish, birinchi navbatda, shaxsga yo’naltirilgan yondashuvni, emotsional-psixik kayfiyatni, faol, ijodiy tasavvurni, o’z-o’zini faollashtirish, mustaqillik, o’z-o’zini nazorat qilish, namoyon qilish, ifodalash, baholash, o’quv jarayonida ta’limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi. Bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarini tayyorlashda har ikkala ya’ni kasbiy va metodik tayyorgarlikda talabalarda kreativ qobiliyat yetarli bo’lsagina yetuk mutaxassis bo’ladi. Maqolada “Texnologik ta’lim” yo’nalishi talabalarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari haqida batafsil berilgan.

Kalit so’zlar: texnologik ta’lim, qobiliyat, kreativlik, talant, tasavvur, mexanizm, moyillik, potentsial kreativlik, operatsion mexanizm.

**МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ**

В данной статье представлены вопросы механизмов развития творческих способностей у студентов направления «Технологическое образование» в высших учебных заведениях. В подготовке будущих учителей технологии необходимо учитывать творческие способности при овладении знаниями, умениями и навыками по общеобразовательным и специальным предметам. Профессионально-методическая подготовка особенно важна для студентов направления «Технологическое образование» в формировании знаний по предмету «Методика технологического образования», поэтому развитие творческих способностей у студентов – это, прежде всего, личностно-ориентированный подход, эмоционально-психический настрой, активное, творческое воображение, самостоятельность, самоконтроль, проявление, выражение, оценка, требует применения инновационных образовательных технологий в учебном процессе. В подготовке будущих учителей технологии студенты станут зрелыми специалистами только при наличии у них достаточных творческих способностей как в профессиональной, так и в методической подготовке. В статье подробно описаны механизмы развития творческих способностей у студентов направления «Технологическое образование».

Ключевые слова: технологическое образование, способность, творчество, талант, воображение, механизм, склонность, творческий потенциал, операционный механизм.

**MECHANISMS OF CREATIVE SKILLS DEVELOPMENT IN STUDENTS OF THE
TECHNOLOGICAL EDUCATION FIELD**

This article presents the issues of mechanisms for the development of creative abilities among students of the direction "Technological education" in higher educational institutions. In the preparation of future technology teachers, it is necessary to take into account creative abilities in mastering knowledge, skills and abilities in general and special subjects. Vocational and methodological training is especially important for students of the direction "Technological education" in the formation of knowledge in the subject "Methods of technological education". Therefore, the development of students' creative abilities is, first of all, a personality-oriented approach, emotional and mental attitude, active, creative imagination, amateur performance, independence, self-control, manifestation, expression, evaluation, requires the use of

innovative educational technologies in the educational process. In the preparation of future technology teachers, students will become mature specialists only if they have sufficient creative abilities in both professional and methodological training. The article describes in detail the mechanisms for the development of creative abilities among students of the direction "Technological education".

Key words: technological education, ability, creativity, talent, imagination, mechanism, inclination, creativity, operational mechanism.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi o'zining rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni keng rivojlantirish va chuqurlashtirish yo'lidan ilgarilab bormoqda. Respublikamiz taraqqiyoti borasida sobit qadam, ustuvor ekanligi, istiqloq yo'lidan og'ishmay borayotganligi mamlakatimizning iqtisodiy siyosatini madaniy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston kelajagi bugungi avlodning har tomonlama kamol topishida, ularning kelgusida davlatni boshqara oladigan, uni har tomonlama rivojlantirishda hissa qo'shadigan, uning kelajagi haqida qayg'urib yashovchi, taraqqiyoti uchun bor bilim, kuch-qudratini sarflovchi inson qilib tarbiyalashga shakllanishiga ko'p jihatdan bog'liq. Bu borada yoshlarni turli kasblarga tayyorlash, ularga maktab dasturidan farqli ularni o'z qiziqishlari, qobiliyatlari, xohish va imkoniyatlariga qarab bilim olishlari va kasb-hunar egallashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'sib kelayotgan yosh avlod texnik ijodkorlik qobiliyatini, texnika sirlarini anglashi va shu yo'nalishda ta'lim berilsa, respublikamizda erishilgan fan va texnika yutuqlariga tayanib ish ko'rilsa, uning ildizini yanada chuqurroq tushunib kelajakda kuchli texnik mutaxassislar, fan va texnika yutuqlariga o'z hissasini qo'sha oladigan pirovardida esa shu yoshlar chet el mahsulotlari va asbob-uskunalaridan kuchliroq mashinalar yaratish qobiliyatiga ega bo'lgan, shu yo'lda xizmat qila oladigan bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvining ta'lim va tarbiya milliy shakllarini yanada rivoj topishida ham katta imkoniyatlar ochib berdi. Yosh avlodni an'analarimiz ruhida tarbiyalab hunar o'rgatilsa, ijodkorlikka yo'naltirilsa, xalqimizning urf-odatlarini, madaniyatimiz va tilimizga munosabatlar ildizi chuqurligi yanada oydinlashadi.

Texnik ijodiyotni rivojlantirishda umuminsoniy qadriyatlar doimo diqqat markazida bo'lish uni amalga oshirish uchun shaxs erkinligi va demokratiyani himoyalash har bir kishining vazifasidir.

Talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish ularning psixologik yoshi bo'yicha tavsifi, jumladan, suhbat, anketa, test, so'rovnoma va boshqa tegishli diagnostik vositalar orqali ta'lim oluvchidagi mavjud kreativ qobiliyatini tegishli tashxislash, unda mavjud bo'lgan va rivojlana boshlagan kreativ qobiliyatni, jumladan, fikrlash va ijod qilish bilan bog'liq tafakkur darajasini aniqlash zarur.

Kreativlik inglizcha "create" so'zidan olingan bo'lib "yaratish" ma'nosini bildiradi. Kreativlik ta'lim oluvchini rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson taffakuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Kreativlik ta'lim oluvchiga ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, hayotiy muammolar yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi, ya'ni berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi.

Albert Eynshteyn "Tasavvur-bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim. "Kreativlik" so'zi ilk bor 1922-yilda AQSH olimi D.Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama bilan shaxs qolipdagi, stereotip odatiy tafakkurida voz kechish qobiliyatini ta'riflagan.

M.N.Gnatko kreativlikning mexanizmlarini ikkita turga ajratib tahlil qilgan. Bular:

- potensial kreativlik - bu kreativlikning zaruriy sharti bo'lib, qanday sharoit bo'lmasin pedagoglarning kreativlikka tayyor turishi, shuning natijasida o'z g'oyalarini amalga oshirishidir;
- faoliyatdagi kreativlik - bu muayyan bir sohadagi kreativlik hisoblanadi.

Ijodiy qobiliyat yuksak kreativ rivojlanish omili bo'lib, faoliyatning turli jabhalarida, jumladan, nutqiy, yozma-ijodiy va boshqa ko'pgina turlarda ifodalanadi.

"Texnologik ta'lim" yo'nalishi talabalarida "Texnologiya ta'limi metodikasi" fani bo'yicha bilimlarni shakllantirishda kasbiy va metodik tayyorgarlik muhim hisoblanadi. Shuning uchun, talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish, birinchi navbatda, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni, emotsional-psixik kayfiyatni, faol, ijodiy tasavvurni, o'z-o'zini faollashtirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat qilish, namoyon qilish, ifodalash, baholash, o'quv jarayonida ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi.

Qobiliyatlar ruhiy-individual xususiyatlar majmui hisoblanib, mahsuldor faoliyat uchun muhim bilim, ko'nikma va malakalarni egallash imkonini beradi. Qobiliyatlar uchun faoliyat suv va havoday zarur (faoliyat uning shakllanishi va rivojlanishiga shart-sharoit yaratadi). Intellektual qobiliyat tushunchalardan foydalana bilish, mantiqiy umumlashma mulohaza yuritish mahoratini anglatadi. Talabalarning intellektual-ijodiy faoliyatga kreativ yondashuvining negizini ijodiy tasavvur tashkil etadi. Qobiliyatning yetakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishdir. Falsafiy lug'atda tasavvur (xayol) oldingi tajribadan olingan anglash va tasavvur materiallarini qayta ishlash yo'li bilan yangi obrazlarning yaratishga qaratilgan ruhiy jarayonlarni anglatadi. Ijodiy tasavvur – insonning o'z ongida obrazlar, timsollar, g'oya obyektlarini to'satdan gavdalantira olish yoki ataylab vujudga keltirish layoqati, mahsuldor tafakkur yuritishining uzviy komponentidir.

“Texnologik ta'lim” yo'nalishida talabalar umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini egallashda ijodiy tasavvurga ijodiy faoliyat natijasida obrazning tasavvur bo'yicha yaratilishi sifatida qaraladi (tafakkur, xotira va idrok uyg'unligida). Bu tasavvurning butunlay o'zgartirilishi, mavjud obyekt asosida yangi obrazlar yaratilishi, “haqiqatda mavjud borliqning yangi, o'rganilmagan, tasodifiy uyg'unlikda va aloqada aks ettirish”dir. Obrazning tasavvur bo'yicha yaratilishi turli shakllarda namoyon bo'ladi: birlashtirish, giperbolizatsiya, diqqatni qaysidir jihatga nisbatan kuchaytirish, jadvashtirish, turlarga bo'lish, ahamiyatlisini ajratib ko'rsatish. Tasavvur: sust – noreal; faol – ijodiy yaratuvchi, real-amalga oshiriladigan, orzu va xayol (faoliyat uchun motiv) bo'lishi mumkin.

Bunda, texnologik ta'lim yo'nalishida biror buyumni tayyorlashdan oldin tasavvurga ega bo'lishi, ijodiy tafakkur yuritish qobiliyati, predmet to'g'risidagi ma'lum bilimlarning mavjudligi bilan bog'liq konstruktiv-ijodiy faoliyat muhim sanaladi. Ijodiy hamda qayta tiklanadigan tasavvurni o'zaro farqlash lozim: tiklanadigan tasavvur–bu predmet obrazi (timsoli)ni uning rasmi yoki chizmasi bo'yicha tiklash jarayonidir; ijodiy tasavvur esa yangi obrazlarni mustaqil, hattoki, ma'lum kompozitsiyadagi timsollar tizimi asosida yaratishdan iborat.

Shunga ko'ra, L.S.Vigotskiy tasavvurning tajriba va voqelik bilan bevosita bog'liq bo'lgan quyidagi to'rt shaklini ajratib ko'rsatgan:

1. Ijodiy faoliyat insonning avvalgi tajribasining boyligi va rang-barangligiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Inson tajribasi qancha boy bo'lsa, tasavvur materiali shu qadar ko'p va rang-barang bo'ladi.

2. Tasavvur tajribani kengaytirish vositasi. U o'zgarlar tajribasi yoki ijtimoiy tajriba tufayli vujudga kelib, voqelik bilan aloqaning eng oliy shaklidir.

3. Ikki yoqlama namoyon bo'ladigan emotsional aloqa:

a) tasavvur emotsional omilga – tuyg'ularning ichki mantiqiga tayanadi. Bu tasavvurning subyektiv ichki in'ikosidir;

b) tasavvur tuyg'ularga ta'sir ko'rsatib, bu orqali “tasavvurning emotsional haqqoniyligi qonuni” namoyon bo'ladi.

4. Tasavvur voqelikka ko'chib, boshqa narsalarga ta'sir qila boshlaganida haqiqatga aylanadi.

Shaxsda emotsional sezgirlik, irodaviylik, shoirona romantikaga moyillik, ijodiy tafakkur, idrok qilish faolligi, qadriyatli yo'nalganlik kabi fazilatlarini shakllantiradigan badiiy-ijodiy tasavvur unda kreativlikni rivojlantirishning muhim omili sanaladi. Ijodiy tasavvur timsolli tasavvur, timsolni qaytadan rekonstruksiyalash, tubdan o'zgartirish, to'ldirish, timsolni kombinatsiyalash, yangi vaziyatlarga kiritish, retrospektiv o'ringa qo'yish, umumlashtirilgan holda his etish, qismlarini bir butun holatda narsaga birlashtirish, yangi timsolni yaratish, yangi g'oyani vujudga keltirish, yangi g'oyani amalga oshirish rejasini tuzish vositasida rivojlanadi. Talabalarining kreativ qobiliyatlari, ularning qiziqishi, istagi, ehtiyoji motivatsiyaviy omil sifatida faollashtiriladi. Ushbu jarayon samaradorligiga talaba kreativ qobiliyatini rivojlantirish mexanizmlarini har taraflama takomillashtirish orqali erishiladi. Mexanizm – tabiat qonunlariga ko'ra amal qiladigan hodisa yoki harakatlar tizimi, shuningdek, uning amalga oshishiga ko'maklashuvchi qurilma yoxud asboblardir. Talabalarda kreativlik qobiliyatini rivojlantirish mazkur jarayonni amalga oshirishga qaratilgan psixologik-pedagogik mexanizmlarni faollashtirishni talab etadi. Bunday psixologik-pedagogik mexanizmlar quyidagilardan iborat:

- motivatsion mexanizm–motivsiz, xohish-istaksiz qobiliyatlar yuzaga chiqmaydi;
- operatsion mexanizm–operatsiya (usullar) yordamida qobiliyatlar namoyon bo'ladi;
- funktsional (jarayonli) mexanizm–ruhiy jarayonlar sifati orqali qobiliyatlarning operatsion mexanizmlari amalga oshadi

- ilg'or innovatsion metodlar va vositalar.

Zamonaviy innovatsion metodlar, usul, uslub va vositalar to'g'ridan to'g'ri ta'lim oluvchi shaxsini, undagi kreativlik qobiliyatlarini rag'batlantirish va rivojlantirishga qaratilgan.

E.Torrens kreativlikni yechimlarni topishda bilimlarning yetarli bo'lasligi muammosi, qiyinchiliklar qarshidagi identifikatsiya va taxminlarning shakllanishi, yechimlarning topilish jarayoni deb qaraydi.

V. Arteymning izlanishlarida ijodkorlik uning mahsuli bo'lgan obyektga qarab baholanmaydi, deb aniq munosabat belgilanadi. Uning fikricha: «Kreativlik bilim, faoliyat va istakning uyg'unligi». Ko'rinib turganidek, kreativlik masalasi ilm-fanda asosan psixologik tushuncha (kategoriya) sifatida tahlil etilgan hamda uning bevosita inson psixikasi bilan bog'liq ekanligi e'tirof etilgan.

“Texnologik ta'lim” yo'nalishida talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish mexanizmlarni takomillashtirish o'quv jarayonida faoliyat modeli va jadvalidan foydalanishni taqozo etadi. Qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari uning darajalarini ham nazarda tutishni talab etadi. Qobiliyat darajalari ikki xil bo'lib, bular: reproduktiv daraja – bilimlarni o'zlashtirishda yuqori layoqatga ega bo'lish, tegishli ko'nikma va malakalarni egallash; kreativ daraja – bilim, ko'nikma va malakalarning betakror, yangi darajasini ta'minlashdir. Qobiliyatning vujudga kelishini belgilab beruvchi mexanizmlar quyidagi bosqichlarda takomillashtirib boradi:

1) insonga xos tug'ma layoqat belgilari (alohida tabiiy individual nerv tizimi, miya va analizatorlarning anatomik-fiziologik xususiyatlari) bilan dunyoga keladi, mazkur layoqat belgilari to'g'ridan-to'g'ri qobiliyat sanalmasa-da, ularning qulay shart-sharoitlar orqali tarbiyalab, rivojlantirib borilishi istiqbolda iqtidorli ijodkor shaxsning shakllanishida muhim poydevor vazifasini o'taydi;

2) moyillik – shaxsning muayyan faoliyat turiga intilishi va qiziqishlarida namoyon bo'ladi, ta'lim oluvchilarda o'zlari moyil bo'lgan biror faoliyat turiga nisbatan o'ta kuchli intilish kuzatiladi;

3) qulay ijtimoiy ta'sir. Har bir shaxs rivojlanish jarayonlarida biror ta'sirga kuchli berilish holatini boshdan kechiradi, biror faoliyat turini o'zlashtirishga kuchli moyillikni his qiladi (o'zlashtirish uchun sezitiv (qulay) davrlar uzoq yoki qisqa muddatli bo'lishi mumkin). Ushbu jarayonda faoliyatni o'zlashtirish shart-sharoitlarini ham nazarda tutishga to'g'ri keladi.

4) shaxsiy faollik. Shaxsning hissiy-emotsional holatida–xohish-istaklari, mehnatga moyilligi, yutuqlardan zavqlanishi, irodaviy xususiyatlari va maqsad sari intilishi kabilarda namoyon bo'ladi.

“Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarining kreativligi, bu uning ma'lum sharoitlarda har xil haqiqiy g'oyalarni izlab topish qobiliyatidir. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kreativ bo'lishi uchun kishi ko'proq kreativ insonlar bilan muloqat qilishi va hamisha izlanishda bo'lishi lozim. Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Buning uchun “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarini doimo o'z ustida tinimsiz ishlar olib borish shu bilan birgalikda kreativ insonlar bilan yaqindan suhbatlar olib borish, kreativlik qobiliyatlarini o'zida shakllantirish kerak. Bu “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarini uchun juda muhim bo'lib, kreativlik ustida ishlash ularning noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarini ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog'liq. Shuning uchun ham “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim masalalardan biri sanaladi. “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarida kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda pedagog alohida o'rin tutadi. Bu jarayonda “pedagogning roli auditoriyada kreativlik muhitini yaratishdan iborat. Vaholanki, pedagog guruhda bo'lajak o'qituvchilar o'zini erkin seza oladigan va o'z fikrlari, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Bo'lajak o'qituvchilar inson ongida yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o'rnatilgan qonun-qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollar berishda erkin harakat qilishlari kerak. Pedagog bo'lajak o'qituvchilardagi kreativlikni noodatiy g'oyalarni o'rta tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag'batlantirish orqali qo'llab-quvvatlaydi. Pedagogning bo'lajak o'qituvchilar berayotgan kreativ g'oyalarga nisbatan to'g'ri munosabati ularning mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi pedagog-talaba munosabatining muhim qismi bo'lib, bo'lajak o'qituvchilar muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Kreativ muhitda ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega pedagogni kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo'ladi. Kreativlik xarakteridagi o'quv bilish muhiti bo'lajak o'qituvchilarda ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasining rivojlanishiga olib keladi. Har bir bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi ijodkor bo'lishi va har bir dars davomida ham ijodkor bo'lishi kerak.

Xulosa. Kreativlik muayyan bosqichlarda tez sur'atlarda rivojlantirilib boriladi. “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarida kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur: 1) talabalar tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash; 2) “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarini mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish; 3) “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarini tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish; 4) “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarining qiziqishlariga e'tibor qaratish. “Texnologik ta'lim” yo'nalishi

talabalari doimo ijodkor bo'lishi kerak shundagini o'z fanining ustasi bo'ladi. Ta'lim jarayonida ham ularni kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishga shart-sharoit yaratib berish kerak.

Motivatsiya, relaksatsiya, talabalarda ijodiy izlanish mavjudligini rag'batlantirish kabi usullarni qo'llab, ularning shaxsiy faolligini oshirishga, badiiy va estetik xususiyatlarini anglashga qaratilgan darsdan tashqari mashg'ulotdagi intellektual-ijodiy faoliyatni jarayon sifatida baholab, talaba shaxsida o'quv va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish hamda uning faol, anglangan-motivatsion, aniq bir maqsadga yo'naltirilgan, ehtiyojlariga asoslangan, metodik, natijali-bashoratlangan, intellektual-ijodiy muloqotlarini ta'limning amaliy va nazariy shakllari, innovatsion metodlarni qo'llab takomillashtirish muhim.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
2. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A., Abduraxmonov SH., Abdullayeva Q.M., Gaipova N.S. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t.
3. Kuliyeva Shakhnoza, Karimova Makhbuba Interactive technologies as a means to improve the efficiency and quality of the educational process. International Journal of Human Computing Studies 3 (2), 182-186.
4. Kuliyeva SH Improving Teaching Aids In The Training Of Future Technology Teachers. International Journal of Early Childhood 14 (03), 2022.
5. El papel de las tecnologías pedagogicas modernas en la formacion de la competencia comunicativa de los estudiantes. Halimovna K.S, Nurilloevna M.O, Radzhabovna K.D, Shavkatovna R.G Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades 4 (15), 261-266.
6. Кулиева Ш.Х. Аксиологический подход в профессионально-педагогической подготовке будущего учителя Казанский педагогический журнал, 48-52.

TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH

Qahhorov Siddiq Qahhorovich,

Buxoro davlat universiteti

Fizika kafedrası professori, pedagogika

fanlari doktori

Rustamov Hakim Sharipovich,

Buxoro davlat universiteti

Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari

kafedrası o'qituvchisi

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadigan kommunikativ kompetensiyaning bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligining tarkibiy qismi bo'lgan chet tilini o'zlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu maqolaning maqsadi koreys tilini chet tili sifatida didaktik dasturiy vositalardan foydalanib, kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirishni amalga oshirishdan iboratdir. Mazkur tadqiqot davomida quyidagi xulosalar chiqarishga erishildi. Birinchidan, kommunikativ kompetensiya so'zlovchining til resurslaridan real kommunikativ sharoitlarda va ma'lum muloqot maqsadlarida foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Ikkinchidan, koreys tilni o'rganish jarayonida didaktik dasturiy vositadan foydalanishning afzalligi va samaradorligi; dasturiy vositani istalgan kompyuterga o'rnatish orqali oson va qulay tarzda foydalanishning mavjudligi va soddaligidir. Uchinchidan, Koreys tili Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarga “Koreya o'quv markazlari”da o'qitilsa-da, hanuzgacha muloqot qilish ko'nikmalarining pastligi va muloqot qilish qoidalarini bo'yicha yetarli bilimga ega emasligini ko'rsatmoqda. Didaktik dasturiy vosita talabalarining individual xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra Koreys tilini tezkor va izchil tarzda mashq qilish asosida o'rgatish, shuningdek, o'rganilayotgan tilning milliy-madaniy o'ziga xosligini o'rgatish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, pedagogika, koreys tili, didaktik dasturiy vosita, multimedia, interfaol.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ ПРИ РАЗВИТИИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

В данной статье речь идёт об овладении иностранным языком, который является составной частью профессиональной подготовки будущего специалиста коммуникативной компетентности, играющей важную роль в образовательном процессе. Целью данной статьи является реализация развития коммуникативной компетенции с помощью дидактических программных средств по корейскому языку в качестве иностранного. В ходе исследования были сделаны следующие выводы. Во-первых, коммуникативная компетенция представляет собой способность говорящего использовать языковые ресурсы в реальных коммуникативных ситуациях и для конкретных коммуникативных целей. Во-вторых, преимуществом эффективности использования дидактического программного обеспечения в процессе изучения корейского языка является доступность и простота использования программного средства легко и удобно путём его установки на любой компьютер. В-третьих, это показывает, что у студентов, изучающих корейский язык в высших учебных заведениях, по-прежнему отсутствуют коммуникативные навыки, и недостаточное знание правил общения. Дидактические программные средства позволяют быстро и последовательно обучать учащихся корейскому языку в соответствии с их индивидуальными особенностями и потребностями, а также обучать национально-культурной специфике изучаемого языка.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, педагогика, корейский язык, дидактическое программное средство, мультимедиа, интерактив.

USE OF DIDACTIC SOFTWARE IN DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS

This article deals with mastering a foreign language, which is an integral part of the professional training of a future specialist in communicative competence, which plays an important role in the

educational process. The purpose of this article is to implement the development of communicative competence with the help of didactic software in Korean as a foreign language. The following conclusions were made during the study. First, communicative competence is the speaker's ability to use language resources in real communicative situations and for specific communicative purposes.

Secondly, the advantage and effectiveness of using didactic software in the process of learning the Korean language; is the availability and ease of use of the software easily and conveniently by installing it on any computer.

Thirdly, it shows that students studying Korean in higher education still lack communication skills and insufficient knowledge of communication rules. The didactic software tool allows you to quickly and consistently teach the Korean language in accordance with the individual characteristics and needs of students, as well as teach the national and cultural specifics of the language being studied.

Key words: *communicative competence, pedagogy, Korean language, didactic software tool, multimedia, interactive.*

Kirish. Bugungi kunda o'z ona tilimiz bilan bir qatorda chet tillarini ham mukammal o'rganish kun sayin davr talabiga aylanib bormoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kommunikativ kompetensiyaning bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini tarkibiy qismi bo'lgan chet tilini o'zlashtirishni nazarda tutadi. Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha S.Yu.Godunova (tilni rivojlantirish), L.K.Salnaya (chet tili muloqotini kasbiy yo'naltirish), O. N. Fedorova (kompetentlik yondashuvda ingliz tilini o'rgatish), N.A.Gazova (ingliz tili tilida mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish), I. R.Agasiyeva (maxsus matnlarni axborotli o'qishga o'rgatish), N.V.Zemlyanskaya (og'zaki nutq darajasini shakllantirish), S.A.Gadjiyeva (og'zaki nutqning grammatik tomonlari), J. V. Ilin (ingliz tilini o'rganish jarayonida kasbiy o'z-o'zini anglash) va boshqa olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan[8]. Mamlakatimizda chet tillarini o'qitish sifatini yanada oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalari va didaktik dasturiy vositalar orqali ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari rivojlangan xorijiy mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari bilan ilmiy hamkorliklarni olib borish, ulardagi tajribalarni o'rganib, o'zimizning milliyligimizni singdirgan holda elektron darsliklar, elektron ta'lim resurslari, didaktik dasturiy va multimediali interfaol elektron o'quv majmualarini yaratishga katta e'tibor berilmoqda.

Ushbu g'oya talaba va o'qituvchi o'rtasidagi uzluksiz va ekvivalent fikr almashishi sifatida tushuniladi, bu ularning muloqotidagi to'siqlarni bartaraf etish bilan bir vaqtda, o'zaro manfaatli ijtimoiy jarayonda ishtirok etgan talabalar tomonidan chet el madaniyatini o'rganish jarayoni bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.


Muloqot- inson mavjudligining ajralmas jarayoni ekanligiga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki jamiyatda shaxsning faoliyati ajralmas muloqot jarayoniga asoslanadi.

Materiallar va metodika. Talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda didaktik dasturiy vositalardan foydalanish hozirgi globallashtiruvchi jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Xalqaro miqyosida ko'pchilikning Koreya madaniyatiga bo'lgan qiziqishining paydo bo'lishi va uning rivojlanishi tufayli koreys tilining ommabopligi butun dunyoda tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligi e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, mamlakatimizdagi ko'plab talabalar koreys tilini o'rganishga va tezkor o'zlashtirishga harakat qilishmoqda. Haqiqatan ham, xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalardan, didaktik-dasturiy va multimediali interfaol elektron majmualardan foydalanish - xorijiy tillarni o'rganish samaradorligini va sifatini yaxshilash barobarida, talabalarni xorijiy tillarga bo'lgan qiziqishini rivojlantiradi. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, kommunikativ kompetensiya tizimli va funksional tashkil etilgan ijtimoiy, psixologik, semiotik (pragmatik, semantik, grammatik-ekspressiv) qadriyatlar yig'indisi, ya'ni muloqotni qabul qilish va uning faol ishtirokini ta'minlaydigan me'yor va qoidalar to'plamidir[3].

“Kommunikativ kompetensiya” atamasi haqidagi ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda shuni aniqlash mumkinki, bu atama so'zlovchining til resurslaridan kommunikativ jarayonda va muloqotning muayyan maqsadlarida foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Kommunikativ kompetensiya inson taraqqiyoti jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadi va uning darajasi shaxsning kamolotga erishishi va o'quv jarayonlarining rolini oshirish natijasi bo'lib, davom etayotgan o'zgarishlarning aksidir[7]. Shu bilan birga, kommunikativ kompetensiyani pedagogik nuqtayi nazardan talabalarining pedagogik muloqot jarayonida o'rganadigan, mustahkamlaydigan va mashq qiladigan lingvistik vositalar to'plami sifatida aniqlash mumkin.


Shunday ekan, universitetimiz talabalari bilan hamkorlikda koreys tilini o'rgatuvchi “Koreys tilini o'rganamiz” nomli multimediali, didaktik-dasturiy vosita yaratildi[1]. Mazkur didaktik-dasturiy vositaga O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan 2019-yilda № DGU 06588 raqamli guvohnoma olingan.

Ushbu didaktik-dasturiy vosita Koreys tilini xorijiy auditoriyaga o'rgatish jarayonida talabalarga bir-biri bilan koreys tilida muloqot qilish imkoniyatini shakllantirishda hamda talabalarga koreys tilini o'rganish malakasini egallashga yordamlashadi. Shuning uchun ham talabalar o'rtasidagi muloqot o'rganilayotgan tilning milliy madaniy qadriyatlarini va an'alarini tushunishga imkon yaratadi. Koreys tili boshqa tillarga qaraganda o'zining semantikasi, sintaksisi va tuzilishiga ko'ra tubdan farq qiladi. Koreys tili alifbosini o'rganishda eng avvalo, unli, undosh harflarni va diftonglarni o'rganish, ya'ni ularning yozilishi va talaffuzini kompyuterning multimediali imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Quyida mazkur didaktik-dasturiy vositaning interfeysi keltirilgan(1-rasm).



1-rasm. Dastur interfeysi

Talabalarlarning yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda koreys tili alifbosidagi unli va undosh harflarni hamda diftonglarni yozilishini ketma-ketlik asosida zamonaviy kompyuterlarning multimediali va grafik imkoniyatlaridan foydalangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari o'rganilgan harflarni va diftonglarni talaba tomonidan o'rganganlik darajasini aniqlashda va mustahkamlashda dinamik tarzda shakllantirilgan didaktik o'yinlar orqali amalga oshiriladi(2-rasm).



2-rasm. Harflarni va diftonglarning yozilishi va talaffuz qilinishi

Koreys tilida raqam va sonlarning yozilishi hamda talaffuz qilinishini o'rgatish orqali ularning so'z boyligini oshirish hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga erishish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Raqam va sonlarning yozilishi va talaffuz qilinishi

Har bir didaktik dasturiy vosita talabalarga ma'lumot, axborot, ta'lim berish va teskari aloqalarni o'z ichiga olgan holda jozibador ta'lim interfeysiga ega bo'lishi hamda barcha zaruriy komponentlarni o'zida mujassamlashtirish darkor. Bu yerda didaktik-dasturiy vosita yangi raqamli ta'lim texnologiyasi sifatida muhim rol o'ynashi hamda ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlay olishi lozim. Albatta, zamonaviy multimedial interfaol o'qitish usullari bilan birgalikda o'qitishning an'anaviy shakllari hali ham muhim bo'lib hisoblanadi. Ammo ko'plab oliy o'quv yurtlari o'z ehtiyojlari uchun raqamli makonni o'zlashtirishga harakat qilmoqda. Masalan, O.Ya.Digtyar o'quvchilarni o'qitish jarayonida kutubxonalar va o'quv portallari imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini ko'rib chiqadi [4, 159-b.].

Bunday jarayonni shakllantirish, ya'ni didaktik-dasturiy vositani yaratish raqamli ta'lim platformasiga aylanadi. Uning salohiyati talabaning biror narsani yaratish, boshqa talabalar bilan muloqotda bo'lish yo'li bilan o'rganishi jarayonida chinakam faol va ijodiy bo'lishida namoyon bo'ladi [4].

Yuqorida ta'kidlangan didaktik dasturiy vositaning "Mavzular" bo'limini tanlash orqali: "Mevalar", "Sabzavotlar", "Ob-havo", "Raqamlar", "Ranglar", "Hayvonlar", "Kasblar" va boshqa mavzularni shakllantirish hamda mazkur mavzularga yangi so'zlarni qo'shish imkoniyatining mavjudligidan foydalanib, "Mavzular" va ulardagi so'zlar sonini kengaytirish imkoniyati mavjud. Bu esa o'z navbatida talabalarning koreys tilidagi so'z boyligini oshirish barobarida kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi(4-rasm).

Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini didaktik-dasturiy vositalardan samarali foydalanish orqali talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda koreys tilini tezkor o'rganishni amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari talabalarning fanlararo aloqadorligini va uzviyligini amalga oshirishda didaktik-dasturiy vositalarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ta'lim olishning qulayligi va samaradorligini ta'minlaydi;
- ta'limiy kompyuter o'yinlaridan foydalanish orqali o'qishga qiziqishni orttiradi;
- o'quvchilarni mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiradi;
- o'quvchilarda mustaqil ishlash va izlanish malakalarini shakllantiradi;

-ta'lim tizimi uchun joriy etilgan didaktik-dasturiy vositalardan va axborot texnologiyalaridan foydalanish asoslarini bilishi, ularni mashg'ulot jarayonida mustaqil qo'llay olish malakasiga ega bo'lishini ta'minlaydi;



4-rasm. Mavzular bo'yicha mundarija

Didaktik-dasturiy vositaning multimediasiga asoslangan interfaolli va dinamik animatsiyaga egaligi hamda koreys tilidagi so'zlarni bir necha marta talaffuz qilinishi natijasida so'zlarni tezkor o'rganish imkoniyatini yaratib beradi(5-rasm).



5-rasm. Mevalar mavzusidagi so'zlarning yozilishi va talaffuzi



6-rasm. Kasblarning nomlanishi va talaffuzi

Xulosa. Shunday qilib, koreys tilini o'rganishda talabalar nafaqat harflarni yozish, talaffuz qilish, grammatikani o'rganish, lug'at va rasmlar bilan ishlash, balki ona tilida so'zlashuvchilarni qarashlari, fikrlarini aks ettirish uchun o'z tillaridan qanday foydalanishlari, o'z jamiyatining odatlari va xatti-harakatlarini amalga oshirishda videolardan ham foydalanishi eng muhim jihati hisoblanadi. Bu ularning kommunikativ kompetensiyasini yaxshilashga va madaniy farqlar tufayli yuzaga keladigan muloqot to'siqlarini yengishga yordam beradi. Didaktik dasturiy vosita talabalarning faoliyatini tashkil etish orqali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishi va ish jarayoni haqidagi ma'lumotlarni almashish, muhokama qilish va boshqalar bilan muloqot qilish imkonini beradi.

Albatta, bunday elektron ta'lim resurslaridan va didaktik-dasturiy vositalardan foydalanish orqali talabalar o'rganilgan ma'lumotlarning 70-80 foizini xotirasida saqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. So'zlarni o'rganishda va eslab qolishda 10 dan ortiq dinamik tarzda didaktik o'yinlardan hamda kompyuterning multimediali imkoniyatlaridan oqilona tarzda foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Adabiyotlar:

1. Rustamov H.Sh., Rajabova N.S., “Koreys tilini o'rganamiz” dasturi. Toshkent 2019. № DGU 06588
2. Rustamov H.Sh., Rajabova N.S. Boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'rgatishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. “Umumta'lim maktablari ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari va yechimlari”. Tesis. Doklad. – Navoiy. –2019. B.–174–177.
3. Антонова Д. А. Цифровая трансформация системы образования. Проектирование ресурсов для современной цифровой учебной среды как одно из ее основных направлений // Вестник Пермского государственного гуманитарнопедагогического университета. 2018. № 14. С. 5–37.
4. Дигтяр О. Ю. Межкультурная коммуникативная компетенция в обучении иностранному языку в высшей школе: новые реалии // Мир науки, культуры, образования 2022. № 1 (92). С. 157–160.
5. Зубарев С. Н. Дидактический потенциал коммуникативной компетенции // Вестник РМАТ. 2015. № 1. С. 111–118.
6. Солтанбекова О. Т. Коммуникативная компетенция и ее составляющие // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. 2008. № 6. С. 40–44.

7. Троицкая Ю. В. Коммуникативная компетенция: демаркация значения // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. 2020. № 7 (150). С. 112–119.
8. Турсунов Х. Формированию коммуникативных компетенций // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. № 20. С. 189–194.
9. Чупина И. П., Зырянова Н. И. Цифровые платформы в образовательном процессе: плюсы и минусы // Журнал прикладных исследований. 2021. Т.4. № 3. С. 24–28.

AKADEMIK ERKINLIK VA MILLIY PEDAGOGIKANING O‘ZARO ALOQADORLIGI

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li,

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi,

sh.xudayberganov.urdu@mail.ru

Mazkur maqolada, global ta’lim to‘g‘risida turlicha fikrlar mavjudligi, ular bu tizimning hali shakllanmagani, ular haqidagi mulohazalar ko‘pincha gipotetik xususiyatga ega ekani ko‘rsatib o‘tilgan. Global ta’lim milliy pedagogikani, etnopedagogik tajribalarni mutlaq rad etolmaydi, chunki ularda har bir xalqning tarixiy tarbiyaviy tajribasi, shaxsning shakllanishiga samarali ta’sir etuvchi tarbiya usullari mujassamdir. Axborot texnologiya tizimlari qanchalik tezkor, ommaviy va samarali bo‘lmasin, ular milliy pedagogik tajribalar bilan uyg‘unlashganidagina ko‘zlangan natija beradi. Shuning uchun global ta’limni milliy pedagogik tajribalardan ayriqcha qarash mumkin emas, degan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. *Global ta’lim, akademik erkinlik, milliy pedagogika, inson erkinligi, akademik erkinlik, siyosiy erkinlik, bozor iqtisodiyoti.*

СООТНОШЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ СВОБОДЫ И НАЦИОНАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИИ

В данной статье представлены разные мнения о глобальном образовании, показано, что эта система не устоялась, а мнения о них часто носят гипотетический характер. Глобальное образование не может полностью отказаться от национальной педагогики и этнопедagogического опыта, поскольку они воплощают в себе исторический образовательный опыт каждого народа, образовательные методы, эффективно воздействующие на формирование личности. Какими бы быстрыми, массовыми и эффективными ни были системы информационных технологий, они дадут намеченный результат только в том случае, если будут сочетаться с отечественным педагогическим опытом. Поэтому утверждается, что глобальное образование нельзя рассматривать отдельно от национального педагогического опыта.

Ключевые слова: *глобальное образование, академическая свобода, национальная педагогика, свобода человека, академическая свобода, политическая свобода, рыночная экономика.*

THE RELATIONSHIP OF ACADEMIC FREEDOM AND NATIONAL PEDAGOGY

In this article, there are different opinions about Global Education, it is shown that this system is not settled, and the opinions about them are often of a hypothetical nature. Global education cannot completely reject national pedagogy and ethno-pedagogical experiences, because they embody the historical educational experience of each nation, educational methods that effectively influence the formation of a person. No matter how fast, mass and effective information technology systems are, they will give the intended result only if they are combined with national pedagogical experiences. Therefore, it is stated that global education cannot be considered separately from national pedagogical experiences.

Key words: *global education, academic freedom, national pedagogy, human freedom, political freedom, market economy.*

Kirish. Bugun dunyoda kechayotgan globallashuv va integratsiya ta’lim tizimini ham qamrab olgan. Aslida globallashuv va integratsiya nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga, shuningdek, ilm-fan, ta’lim, kreativ shaxsni shakllantirish, ma’rifiy ishlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ilmiy tadqiqotlarda asosan e’tibor ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga qaratilsa-da, globallashuv va integratsiya ta’lim sohasidagi jarayonlarga ham ta’sir etib, global ta’lim muhitini shakllantirmoqda. To‘g‘ri, akademik erkinlik g‘oyasi globallashuv jarayonlardan ilgari paydo bo‘lgan, ammo o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlangan globallashuv va integratsiya ta’lim tizimlarini, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarini, universitetlardagi sotsiopedagogik tajribalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida qayta tashkil etishga olib keldi. Bu jarayonga AQSh va Yevropa ta’lim tizimi, universitetlari asos qilib olindi. Natijada g‘arb ta’lim modeli global voqelik sifatida qaraladigan bo‘ldi. Xalqaro tashkilotlar tomondan ishlab chiqilgan reytinglar ilmiy ishlarga va universitetlar faoliyatiga beriladigan baholar ana shu mezonlarga muvofiq bo‘lishi tartibi shakllandi.

Asosiy qism. Xorijiy tajribalarni o‘rgangan olimlar universitetlardagi global ta’lim va akademik erkinlikni turlicha baholashadi. Ba’zi tadqiqotchilar ularni “haqiqatni izlash” kabi falsafiy konsepsiyaga

muvofoq baholash tarafdorlaridir. Global ta’lim va akademik erkinlik shunchaki bilim olish yoki bilim bershni tashkil etish emas, u insonga xos bo’lgan falsafiy voqelik “haqiqatni izlash” xohishi bilan bog’liqdir. Amerikadagi universitetlar professorlarning akademik erkinlik va *“amerika modeli”*ning jahon ta’lim tizimiga ta’siri borasidagi fikrlarini maxsus o’rgangan K.Keytning yozishicha, bu model erkin darslar o’tish, mustaqil tarzda tadqiqotlar olib borish, mavzu va muammolarni erkin tarzda muhokama qilish, har kimning fikr va e’tirozlarini eshitish, ta’lim jarayonini ochiq, demokratik qilish kabi jihatlari bilan global ta’limga ta’sir o’tkazmoqda.

Bozor iqtisodiyoti global ta’lim jarayonlariga ta’sir etib, universitetlar va OTMlarini pul topishga undadi. Natijada bozor iqtisodiyoti, pul topish bilan akademik erkinlik uyg’un qaraladigan bo’ldi. OTMlari sotsiopedagogik jarayonlarini amaliyotga integratsiyalash talabi esa ushbu yondashuvning bir shakli edi. Global ta’lim hali shakllanmagan bo’lsa-da, universitetlarning bugungi rivoji OTMlar oldiga ma’lum bir talablar qo’yayotganini ko’rmaslik mumkin emas. Bu o’rinda tobora umumiy xususiyat kasb etib borayotgan jihatlari quyidagilardir:

1) bozor iqtisodiyoti talablariga muvofoq universitetlarga o’zini o’zi mablag’ bilan ta’minlash imkonini berish;

2) ta’lim va kadrlar tayyorlashni bozor konyukturasiga muvofoqlashtirish;

3) universitetlarning dars jadvallarini, soatlar taqsimotini va qanday kasb-korga o’rgatishni mustaqil tarzda belgilash huquqini berish;

4) professor va talaba o’rtasidagi munosabatlarni tobora erkinlashtirish. Ular o’rtasidagi to’siqlarni minimallashtirish;

5) universitetning ichki (ilmiy kengash, fakultetlar kengashi) va tashqi (jamoatchilik kengashi, vasiylar va homiylar kengashi, fuqarolik jamiyati institutlari) nazoratda bo’lishiga erishish;

6) universitet va davlat hokimiyati, boshqaruv organlari bilan o’rnatiladigan aloqalar doirasi va funksiyalarni qaytadan ko’rib chiqish, o’rnatish;

7) universitetlarning xalqaro tashkilotlari va uyushmalarini, asossatsiyalarini tashkil etish orqali ular mustaqilligini himoya qilishning global mexanizmlarini yaratish.

Tadqiqotchilarning fikriga ko’ra, OTMlar bozor iqtisodiyotidan tashqarida turolmaydi, jamiyatda qaror topgan bozor demokratiyasi o’z navbatida ta’lim, ayniqsa oliy ta’lim, kadrlar tayyorlash tizimiga ta’sir etmay qolmaydi. Xalq xo’jaligi, ijtimoiy sohalarga zarur oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash bilan band OTMlar jamiyat talablaridan kelib chiqadi, har bir kadrlari ana shu talablarga yo’naltiradi. Bozor iqtisodiyoti esa kadrlardan shunchaki diplomni emas, balki real, hayotiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qila oladigan, sohaga innovatsion yondashuvlarni olib kiradigan bilimga ega bo’lishni taqozo qiladi. OTM talabaga mehnat jarayonlari, mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi, ish o’rinlarini tashkil etish texnologiyasi, mehnat jamoasini boshqarish ko’nikmasi, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, davlatning ishsizlikni bartaraf etish va ijtimoiy himoya siyosatidan xabardor bo’lish, darlomatlari va budjet mablag’lardan foydalanish, moliya bank tizimlari, soliq qo’mitalari, buxgalteriya hisobot ishlari, menejment va marketing asoslari kabilar haqida bilimlarga ega bo’lish talab qiladi.

Bozor konyukturasini avvalo mehnat bozori bilan bog’liqdir. Mutaxassislarining fikricha, mehnat bozori “mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo’lgan va band bo’lmagan qismlari va ish beruvchilar o’rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi kontraktlar (mehnat kelishuvlar) asosida “mehnatga qobiliyatlarini” xarid qilish sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, ishchi kuchiga talab va taklif o’rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko’p aspektli, o’suvchi va ochiq ijtimoiy iqtisodiy tizimchasidir. Uning vazifalari:

-ishchi kuchiga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantirish;

-bozor uslubida xo’jalik yuritishning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy mexanizmlari yordamida ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solish;

-mehnat resurslarining oqilona bandligini ta’minlashga bevosita ta’sir ko’rsatish;

-ishsizlar ish topishiga, ularning malakasi va raqobat qobiliyatini oshirishga ko’maklashish;

-ishlab chiqarish xarajatlarni qisqartirish va mehnat taqsimotini o’zgartirishdir.

Demak, OTMlar ushbu mehnat bozori konyukturasini va talablariga muvofoq kadrlar tayyorlashni amalga oshirishi lozim.

Universitetlarning dars jadvallarini va soatlar taqsimotini, kadrlar tayyorlash tizimini mustaqil o’rnatishi akademik erkinlikning eng muhim yo’nalishidir. Global ta’lim g’oyasini qo’llab-quvvatlovchi Xalqaro akademiyalar uyushmasi ikki muhim tamoyilni ilgari suradi: birinchisi, universitet ichida yoki undan tashqarida haqiqatni anqlashtirishga qaratilgan har qanday savolni kun tartibiga qo’yishda “to’liq erkinlik” ta’minlanishi; ikkinchisi, universitetlar va ilmiy tadqiqot tashkilotlari o’z a’zolarining akademik erkinligini taqiqlash hamda xodimlarining chiqishlarini ularga qarshi chora sifatida ishlatish huquqiga ega

emasligini oʻrnatishdir. Mutaxassislarning taʼkidlashicha, hanuzgacha Yevropanig aksariyat universitetlari faoliyatiga davlat aralashadi, baʼzilar esa davlat budjetidan mablagʻ oladi. OTMning ichki ishlariga hatto rektor yoki uning yordamchilarni saylashga ham davlat aralashuvi kuzatiladi. Universitetlarning barqaror ishlashi uchun uzoq muddatlarni oʻz ichiga oladigan davlat moliyalashtirishi muhim oʻrin tutadi.

Angliya universitetlarida “institutsonal avtonomiya” amal qiladi. Ushbu tamoyilga muvofiq erkinlik professorga ham, talabaga ham taalluqli boʻlib, ular oʻrtasidagi ijodiy dialog, bir-birining qiziqish va tayyorgarliklarini hisobga olishga undaydi. AQSh, Angliya, Fransiya va Germaniya kabi davlatlarda professorlarning asarlarini chop ettirish yoki ogʻzaki chiqishlariga hech qanday toʻsiq qoʻyilmagan, biroq ularda taʼlimga oid jarayonlarda milliylik, oʻziga xoslik mavjud. Masalan, Germaniyada talabalar darslarni tanlash huquqiga ega, baʼzi hollarda ular topshiriladigan imtihonlar vaqtini ham oʻzlari belgilashi mumkin. Professorlar esa dars jarayonlarini oʻzlarining ilmiy nazariy konsepsiyalariga qurishi, ularni predmetlar doirasida asoslashi mumkin. Birinchi semestrda talabalar oʻqishga majbur predmetlar bor, ikkinchi va undan yuqori kurslarda esa, ular predmetlarni erkin tanlaydilar. Bu erkinlik universitetning akademik erkinligi dorasidadir, shuning uchun talaba duch kelgan fikrni, universitetga qarshi qarashlarni targʻib etib yurmasligi lozim. Fransiya professorlar davlat xizmatchilari hisoblanadi. Ular global taʼlimni shakllantirishdan koʻra, davlat uchun zarur boʻlgan ichki ishlarni, ehtiyojlarni, talablarni bajarishga xizmat qiladilar. Ular taʼlim jarayonlarida siyosiy yoki diniy qarashlarni targʻib etmasligi, belgilangan turtiblargacha muvofiq davr oʻtishi kerak.

Global taʼlim toʻgʻrisida turlicha fikrlar mavjud, ular bu tizimning hali shakllanmaganini, ular haqidagi mulohazalar koʻpincha gipotetik xususiyatga ega ekanini koʻrsatadi. **“Global taʼlim”** degan tushunchaning oʻzi hali bahsli, uning asosiy talablari va mezonlari aniqlab olinmagan. Yan Amos Komenskiyning **“Hammani hamma narsaga va hamma narsa haqida oʻrgatish”** konsepsiyasi ana shu global taʼlimning negizini tashkil etadi. Unga koʻra har bir kishini, har bir insonni istagan narsaga, bilimga oʻrgatish mumkin, chunki barcha insonlarga bilish imkoniyatlari berilgan. Bu imkoniyatlar esa global taʼlim konsepsiyasini shakllantirishga asos boʻlib xizmat qiladi. Aynan taʼlim xalqaro integratsiya va xalqlarning bir-birlariga yaqinlashuvini taʼminlaydi, dunyoqarashlarni modernizatsiyalashga imkon beradi. Bugungi pedagogik taʼlimotlar va tajribalar umuminsoniy xarakter kasb etib, madaniyatlar va etnoslarni bir-biriga yaqin qilmoqda. Bu jarayonlar global yaqinlashuv uchun juda muhim, ammo ular pedagogikaga toʻgʻridan toʻgʻri taʼsir koʻrsatmaydi. Pedagogikada shunday omillar mavjudki, ularni faqat tashqi global taʼsir natijasi deyish qiyin. Masalan, oila tarbiyasi avvalo olaviy muhitdagi va oilada qaror topgan barqaror qarashlar, stereotiplar, tarbiya usullari, pand-nasihatlar va jazolash kabilarga tayanadi. Global taʼlim ushbu pedagogik tajribalarni eʼtiborga olavermaydi, undagi ideal gʻarbda shakllangan tartiblarni, normalar va oʻzini-oʻzi idora etish, pedtexnologiyalarga tayanadi. Etnopedagogik tajribalar bilan global taʼlim har doim ham bir-biriga muvofiq kelavermaydi. Ushbu ziddiyatni umuminsoniy qadriyatlar asosida bartaraf etish mumkin, biroq hozirgi davrda bu muammolarni hal etishga oid izlanshlar oʻtkazilayotgani kuzatilmaydi. Shaxsda ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish nafaqat pedagogik jarayonlar va texnologiyani, shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga va yoʻnalishga ega boshqa omillar (iqtisodiy, siyosiy, tarixiy tarbiyaviy, etnopedagogik)ni ham hisobga olishni taqozo etadi.

Global taʼlim milliy pedagogikani, etnopedagogik tajribalarni mutlaq rad etolmaydi, chunki ularda har bir xalqning tarixiy tarbiyaviy tajribasi, shaxsning shakllanishiga samarali taʼsir etuvchi tarbiya usullari mujassamdirlar. Axborot texnologiya tizimlari qanchalik tezkor, ommaviy va samarali boʻlmasin, ular milliy pedagogik tajribalar bilan uygʻunlashganidagina koʻzlangan natija beradi. Shuning uchun global taʼlimni milliy pedagogik tajribalardan ayriqcha qarash mumkin emas. Global taʼlim muhitida rivojlangan Osiyo davlatlari etnopedagogik tajribalarini oʻrganishni amalga oshirgan pedagogika fandari doktori, professor T.I.Ismoilovning fikricha, Malayziya, Janubiy Koreya, Indoneziya, Tailand, Singapur, Xitoy pedagogik tajribalarini, ayniqsa akademik mustaqillik prinsiplarini OTMlarga joriy etishga oid yondashuvlarni ikki guruhga klassifikatsiya qilib oʻrganish mumkin. Birinchisi substantiv mustaqillik va ikkinchisi protsedur mustaqillik. *Substantiv mustaqillikka*

- akademik va kadrlar mustaqilligi;
- taʼlim dasturlari tuzilishi;
- tadqiqotlar oʻtkazish siyosati;
- oʻqishga qabul qilish qoidalari;
- akademik xodimlarni tayinlash;
- akademik darajalarni berish kabilar kiradi.

Protsedur mustaqillikka esa

- moliyaviy mustaqilliy;
- budjet moliyalashtirilishi;

- moliyaviy menejment;
- noakademik xodimlarni tayinlash;
- tovar mollari va xizmatlarni sotib olish;
- kontraktlar tuzish kabilar kiradi.

Bizning fikrimizcha, tadqiqotchi amalga oshirgan yondashuv biz uchun ham muhim, u rivojlangan Osiyo davlatlari pedagogik tajribalarini umumlashtirishga va har birining differensial xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Buning uchun asosiy diqqatimiz har bir davlatdagi milliy pedagogik jarayonlar va to'plangan etnopedagogik tajribalarga emas, bu mutlaq boshqa mavzu, balki akademik erkinlik bilan bog'liq etnopedagogik jarayonlarga qaratilishi zarur. Milliy pedagogik jarayonlar, etnopedagogik tajribalar OTMlarga joriy etilayotgan akademik erkinlikdan keng, demak, ikkinchisi birinchisining tarkibiy qismi, bir yo'nalishi sifatida qaralishi darkor.

Ta'kidlash joizki, Malayziyaning “Oliy o'quv yurtlari to'g'risida”gi qonunining birinchi ilovasiga muvofiq mamlakatdagi OTMlar kafedralar tuzilishlari va lektorlik lavozimlarini ta'sis qilishlari mumkin, ular mustaqil ravishda o'quv dasturlari mazmunini aniqlash huquqiga ega emas. Oliy ta'lim muassasalarini akkreditatsiya qilish va o'quv dasturlari ham Oliy ta'lim vazirligining alohida huquqidir. Oliy ta'lim vazirligi bu huquqni quyi tashkilotga Malayziya malaka agentligiga topshirish orqali amalga oshiradi”. Osiyo davlatlarida OTMlarga akademik erkinlik taqdim etishga o'tish hali ko'p vaqtlarga ega emas. Milliy pedagogikadagi tartiblar OTMlarda ham ustuvorlik qiladi. Akademik erkinlikni tadbiq etish Janubiy Koreyada 1992, Malayziyada 1994, Xitoyda bu jarayonlar 1998, Fillinida 2001, Yaponiyada 2004, Singapurda 2006, Indoneziyada 2007, Avstraliyada 2008 yilda boshlangan. Hindistonda esa bu jarayonlar, to'g'rirog'i, ilmiy izlanishlarga mustaqillik berish, ularni OTMlar faoliyati bilan bog'lash o'tgan asrning oxirlarida boshlangan bo'lib. Hanuz bir aniq dastur yoki platformaga ega emas. Unda xalq pedagogikasi, an'analari va diniy tasavvurlari aralashib keladi. Global ta'limda ro'y berayotgan o'zgarishlar Hindiston OTMlarini zamonaviy ilmiy izlanishlar, ayniqsa tibbiyot va internet sohalarida jiddiy muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishga olib kelgan. Mongoliya ta'lim tizimi ham keyingi yillarda global ta'limdagi jarayonlardan chekkada qolayotgani yo'q, ularda an'anaviy xalq pedagogik tajribalari ustuvor bo'lsa da, ilmiy texnik izlanishlarga katta e'tibor berilayotganini kuzatamiz.

Janubiy Koreya universitetlaridagi akademik erkinlik talabalar va o'qituvchilarni baholash tizimi mavjudligida namoyon bo'ladi. Talabalarni baholash oraliq nazorati, yakuniy nazorat natijalari, davomat, uy topshiriqlarini bajarishi, darslardagi faolligi kabilar universitet sahifasiga kiritiladi, ular bilan istagan talaba tanishib borishi, agar biror e'tirozi bo'lsa, bahosini o'zgartirish uchun universitet apellyatsiyasiga murojaat etishi mumkin. Darslardan keyin imtihonlar tugagach talabalar o'qituvchilarni baholashi kerak. Aks holda ular qo'yilgan baholar sahifasini ochib yakuniy baholarini bilish, ko'rish imkoniga ega bo'lmaydilar. O'qituvchilar anonim tarzda o'ttizdan oshiq parametrlar asosida talabalar tomonidan baholanadi. Ikki hafta o'tgach baholar natijasi e'lon qilinadi. Universitet reytingi baland professor o'qituvchilarni saqlab qolishga, ularning baholarini obyektiv e'lon qilishga intiladi, bu tartib koreyslardagi tarixiy tarbiyaviy an'analarning uzviy qismidir. Muallimga chuqur hurmat, ehtirom nafaqat darslarning yuqori saviyada o'tilishiga, shuningdek, mavjud intellektual potentsialdan samarali foydalanishga ham imkon beradi. Zamonaviy ta'limni tarixiy tarbiyaviy tajribalar bilan uyg'unlashtirish Janubiy Koreya OTMlariga o'zga xoslik baxsh etsa-da, ularda konservativlik ham borligini ko'rmaslik mumkin emas. Professor avtoriteti ta'lim tizimida yetakchi o'rinda turadi, talaba uning ushbu avtoritetiga qarshi turolmaydi, uning baholarga kamdan kam hollarda e'tiroz bildiradi. Ta'limdagi ushbu avtokratizm akademik erkinlik tushunchasini ham nisbiy voqelikka aylantiradi, natijada dars jarayonlarida monolog usuli ustuvorlik qiladi.

Xitoy universitetlarida akademik erkinlik masalalari muhokama qilinsa-da, ularda tartib, intizomga bo'ysunish birinchi o'rinda turadi. Darslarni ma'lum bir dasturlar asosida professorlar olib boradi, biroq ma'ruzalar matni universitet, oliy ta'lim inspeksiyasi tomondan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Ilmiy tadqiqot ishlarini layoqatli xodimlar, avvalo tajribali professorlar olib boradi, ularning tavsiyalari va ishlanmalari universitetning obro'si, mavqeyi va xalqaro reytingini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Chet ellik talabalarni jalb etish OTMlarning asosiy vazifalariga kiradi. Xitoy xalq demokratik respublikasi umumiy davlat mulkini tarafdori, shu bilan birga, xususiy mulkka ham ruxsat beradi. Nodavlat OTMlari ana shu xususiy mulk talabalariga muvofiq kadrlar tayyorlashi mumkin. Bu ularga akademik va moliyaviy erkinlik beradi. Bugun Xitoy OTMlari dunyodagi eng maftunkor o'quv yurtlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xitoyda universitetlar o'rtasida sof raqobat shakllangan. Ular dunyo universitetlari reytingda yuqori natija qayd etish uchun chet davlatlardan eng yaxshi talabalar, kadrlar jalb etishga katta e'tibor qaratishadi. Xitoyda barcha talabalar ham universitetni bitira olmaydi, faqatgina talabga javob beradigan, soha bilimlarini belgilangan mezonlar asosida o'zlashtirgan talabalar o'z vaqtida bitirib diplom oladi”. Bundan tashqari, talaba yoshlarning erkin fikrlashi va izlanishlari uchun barcha shart-sharoitlar (zamonaviy jihozlangan

talabalar uylari, bepul noutbuk, va vay fay, bepul transport, dam olish maskanlari va suv havzalari, boy kutubxonalar) yaratilgan, ularning ilmiy izlanishlari professorlar tomonidan qo'llab quvvatlanadi. Erkin izlanishlar natijasida yaratilgan ilmiy innovatsion ishlanmalar universitetga daromadlar keltiradi, ular ilmiy texnik taraqqiyotga xizmat qiladi.

Xulosa. Global ta'lim to'g'risida turlicha fikrlar mavjud, ular bu tizimning hali shakllanmaganini, ular haqidagi mulohazalar ko'pincha gipotetik xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. **“Global ta'lim”** degan tushunchaning o'zi hali bahsli, uning asosiy talablari va mezonlari aniqlab olinmagan. Global ta'lim milliy pedagogikani, etnopedagogik tajribalarni mutlaq rad etolmaydi, chunki ularda har bir xalqning tarixiy tarbiyaviy tajribasi, shaxsning shakllanishiga samarali ta'sir etuvchi tarbiya usullari mujassamdir. Axborot texnologiya tizimlari qanchalik tezkor, ommaviy va samarali bo'lmasin, ular milliy pedagogik tajribalar bilan uyg'unlashganidagina ko'zlangan natija beradi. Shuning uchun global ta'limni milliy pedagogik tajribalardan ayriqcha qarash mumkin emas.

Adabiyotlar :

1. Lankford E.L. Freedom and Ourage in Art Education. // Journal of Aesthetic Education. 1994. № 28 (4). P. 54 62.
2. Kwiek M. Academe in Transition Transformations in the Polish Academic Profession. 2003;
3. Абдурахмонов Қ.Х., Холмўмиов Ш.Р. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004. 53- 54 б.
4. Глобальные проблемы человечества как фактор трансформации образовательных систем. Монография. Под общей ред. Проф. В.М.Афанасьева. Харьков, ХГУ, 2002. С. 293 301;
5. Михайлов Ф.Т. Образование как философская проблема: состояние, проблемы и перспективы.// Вопросы философии, 1995, №11.
6. Исмоилов Т.И. Олий таълим муассасалари фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш жараёнларига академик мустақиллик принципларини жорий этиш истиқболлари (ривожланган давлатлар тажрибаси мисолида). Пед. фан. докт. дисс. Чирчик, ЧДПУ, 2023. 92б.

ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРДА ФУҚАРОЛИК ПОЗИЦИЯСИ ВА КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

*Жумаев Рустам Ғаниевич,
Бухоро давлат университети
r.g.jumayev@buxdu.uz*

Мақолада ёшларда фуқаролик позициясини ривожлантиришга янги методологик асосда ёндашиб, фуқаролик позициясининг ўзига хос хусусиятларини, ижтимоий-сиёсий, иқтисодий-маънавий омиллар, шарт-шароитларни ўзаро яхлитликда талқин қилиш лозимлиги ижтимоий-педагогик зарурат эканлиги хусусида фикр юритилган. Мазкур назарий асосни давом эттириб, шахснинг психологик тузилиши, шахслараро муносабат, фаолият ва унинг таркибий қисмлари, ўз-ўзини англаш ва бу асосда ўз-ўзини ривожлантириш орқали бўлажак сиёсатшуносларнинг фуқаролик позициясини ривожлантиришида психологик омилларнинг инсон ҳаётида, айниқса, ёшларнинг ҳаётида тутган ўрни ёритилган.

Калит сўзлар: психологик хусусият, фуқаролик позицияси, ижодий тафаккур, фаолият, методика, таълим мақсади.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

В статье рассматривается необходимость подхода к развитию гражданской позиции у молодёжи на новой методологической основе и интерпретации специфики гражданской позиции, а также социально-политические, экономико-духовные факторы, условия во взаимной целостности в качестве социально-педагогической необходимости. Продолжая эту теоретическую базу, освещается психологическая структура личности, межличностные отношения, деятельность и её компоненты, самосознание и, на этой основе, роль психологических факторов в развитии гражданской позиции будущих политологов в жизни человека, особенно в жизни молодёжи.

Ключевые слова: психологическая особенность, гражданская позиция, творческое мышление, деятельность, методика, образовательная цель.

IMPROVING STUDENTS' CIVIL POSITION AND PROFESSIONAL COMPETENCE BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

The article considers the need to approach the development of citizenship among young people on a new methodological basis and interpret the specifics of citizenship, socio-political, economic and spiritual factors, conditions in mutual integrity as a socio-pedagogical necessity. Continuing this theoretical basis, the psychological structure of personality, interpersonal relationships, activity and its components, self-awareness and, on this basis, the role of psychological factors in the development of the civic position of future political scientists in human life, especially in the life of young people, are highlighted.

Keywords: psychological peculiarity, civic position, creative thinking, activity, methodology, educational goal.

Кириш. Педагогик антропологиянинг тарғиботчиси К.Д.Ушинскийнинг “Инсон тарбия предмети сифатида” номли антропологик асарида таъкидлаб ўтганидек, “Агар педагогика болани ҳар томонлама тарбияламоқчи бўлса, у аввало, болани ҳар томонлама ўрганмоғи лозим” [110,128]. Шу нуктаи назардан, бўлажак сиёсатшуносларда баркамол авлод шахсининг муҳим сифати – фуқаролик позициясини ривожлантиришни мақсад қилиб белгиланган эканмиз, муаммони педагогик асослаш билан бирга, унинг психологик омилларини аниқлаш ҳам катта илмий-назарий аҳамият касб этади. Биз бўлажак сиёсатшуносларда фуқаролик позициясини ривожлантиришни таъминлайдиган психологик омиллар хусусида сўз юритар эканмиз, аввало, психологик омиллар, яъни шахснинг билиш жараёнлари (сезги, идрок, тафаккур, хотира, хаёл, нутқ, диққат), шахснинг эмоционал-иродавий ҳолатлари (хис-туйғу, идрок, қизиқиш, майл), шахснинг индивидуал психологик хусусиятлари (мақсад, фаолият, темперамент, характер, қобилият) бўлажак сиёсатшуносларнинг шахс сифатида шаклланишида, даврнинг юксак маънавий ва ахлоқий салоҳиятли ҳамда юқори малакали мутахассис бўлишига катта таъсир кўрсатади.

Мавзуга оид адабиётларнинг танқидий таҳлили. Маълумки, олий маълумотли сиёсатшунос – бу социал индивид. У социал индивид сифатида мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиётига, маънавий-маданий ҳаётида фаол иштирок этиши лозим бўлади. Бунинг учун унда билим, ғайрат-шижоат, ижодий тафаккур, ўз фаолиятини мустақил ташкил этиш масаласи, бунёдкорлик, ташаббускорлик, ишбилармонлик, тадбиркорлик кўникмалари шаклланган бўлиши лозим.

Психологик манбаларда қайд этилишича, олий маълумот олишга тайёргарлик даври – бу талабалик даврига тўғри келади. Зеро, таникли психолог, профессор Э.Ғозиев таърифлаганидек, “Талабалик даври ўспиринликнинг иккинчи босқичидан иборат бўлиб, 17-22-25 ёшни ўз ичига олади ва ўзининг қатор бетакрор хусусиятлари ва қарама-қаршиликлари билан тавсифланади. Шу боисдан, ўспиринлик даври шахснинг ижтимоий ҳамда касбий мавқеини англашдан бошланади. Мазкур даврда ўспиринлар ўзига хос руҳий инқироз ёки тангликни бошдан кечирадilar. Жумладан, катталарнинг ҳар хил кўринишдаги (унга ёқиш ва ёқмаслигидан қатъий назар) ролларни тез суръатлар билан бажариб кўришга интилади, турмуш тарзининг янги жиҳатларига кўника бошлайди. Катта одамларнинг турмуш тарзига ўтиш жараёни шахснинг камол топиш хусусиятларига боғлиқ ички қарама-қаршиликлари келтириб чиқаради”. Бу зиддиятлар ва қарама-қаршиликлар янгида ташкил топган турмуш тарзи (мустақил яқка ҳолда яшаш), янги ўқиш фаолияти ҳолати (фан асосларини ўзлаштириши лозим), янги дўстлар, курсдошлар, илмий техникавий коммуникациялар (компьютер, ЭХМ, интернет, масофали ўқитиш ва ҳ.к.) у ёки бу кўринишда, талаба шахсига таъсир қилмай қолмайди.

Болалар ва ёшлар психологиясини тадқиқ қилган психологлар Б.Т.Ананьев, А.К.Платонов, П.В.Кузьмина, Л.И.Божович, М.Г.Давлетшин, Ғ.Б.Шоумаров, Э.Ғ.Ғозиев, В.Л.Токарева ва бошқалар олий таълим муассасаларида таълим-тарбия ишларини ташкил этиш мураккаб жараён эканлигини таъкидлайдилар. Бу, аввало, фанларни ўқитишга ўтиш билан боғлиқ бўлса, иккинчидан, бу даврда шахсий сифатлар, хусусиятларнинг жадал ўсиши билан боғлиқ бўлади. “Мазкур ёш давридаги ижтимоий-психологик ўсишнинг хусусиятларидан бири, - деб ёзади Э.Ғозиев, - ўқиш фаолиятининг онгли мотивларининг кучайишидир. Талабаларда ахлоқий жараёнларнинг ўсиши суёт амалга ошади, лекин ҳулқнинг энг муҳим шартлари мустақиллик, ташаббускорлик, топқирлик, фаросатлилиқ ва ҳоказолар такомиллашиб боради. Шунингдек, уларда ижтимоий ҳолатларга, воқеликка, ахлоқий қоидаларга қизиқиш, уларни амалга оширишга интилиш тобора кучаяди”.

Тадқиқот методологияси. Талабалик даврининг ўзига хос психологик жиҳатларидан бири шахслараро муносабатдир. Бу даврда талаба янги инсонлар (курсдошлар, ўқитувчилар, раҳбарлар)га дуч келади. Бунда шахслараро муносабатлар шахсий, предметли, информатсион ва эмоционал ҳолатдаги кўринишларда бўлади. Кўриб ўтганимиздек, шахслараро муносабатлар кўринишларнинг кенг кўламини қамраб олади. Булар талабаларнинг бир-бирини тушуниши, қабул қилиши, ёқтириши (ўзига жалб қилиш, симпатия), юриш-туришда ўз “ўрнига” эга бўлишида ифодаланади. Шу асосда, гуруҳ, жамоада шахслараро муносабатлар ва гуруҳ аъзоларининг қилишувчанлиги (физиологик ва психологик) “психологик муҳит” деб аталмиш энг муҳим ижтимоий-сиёсий ҳолатни вужудга келтиради. Бу, албатта, уларнинг шахсига, фуқаролик позициясининг ривожланишига таъсир қилмай қолмайди.

Дарҳақиқат, ижтимоий шахслараро муносабат индивиднинг ижтимоий изоляциясини келтириб чиқарадиган ҳолатда, тажрибаларда, инсоннинг гуруҳ томонидан рад этилганлиги ҳолатларида ҳам намоён бўлиши аниқланган. Шунинг учун, ўқув жараёнида оператив социометрик текшириш олиб бориш мақсадга мувофиқ. Бу эса гуруҳда, шахслараро муносабатлар тизимида ҳар кимнинг тутган ўрнини аниқлашга ёрдам беради. Гуруҳда аъзоларнинг “қабул қилинганлиги”, “ажралиб қолиши”, “рад этилиши” каби ҳолатлар, сигналлар бўлиши мумкин. Бу сигналлар аниқ психологик-педагогик аралашувни талаб этади ва фуқаролик позициясининг ривожланганлигининг қай даражадалигини кўрсатади.

Е.Лингарт ўз тажрибасида психологик шахслараро муносабатда ўзаро алоқадорликнинг икки босқичини аниқлайди. Биринчи босқич – бу “саҳна эффекти” деб номланади. Бу инсон хатти-ҳаракатини ўзини томошабинлардек тутган одамлар иштирокида амалга оширилиши билан характерланади. Иккинчи босқич – бу инсон хатти-ҳаракатининг муайян фаолиятда фаол иштирок этишлари таъсирида ўзгариши мумкинлиги билан характерланади”.

Бўлажак сиёсатшуносларда фуқаролик позициясини шакллантириш ва ривожлантириш жараёнида бу психологик жиҳатларни ҳисобга олмаслик ёки уларга таяниб иш тутмаслик ишидаги фаолликка салбий таъсир кўрсатиб, фаолият самарадорлигининг пасайишига олиб қилиши мумкинлигини тажриба кўрсатди.

Ўқув ва ижтимоий фаолиятнинг янги мазмун касб этиши, шахслараро муносабат, янги жамоа ва гуруҳдаги ҳаётнинг кескин ўзгариши – бу давр йигит ва қизларида ўз-ўзини англашнинг сезиларли даражада ўзгаришига олиб келади. Таъкидлаш жоизки, бу ўз-ўзини англаш, оддийгина ўсишдан иборат бўлмай, балки у сифат жиҳатдан ўзига хос тавсифга эга бўлади. Бу ўзгариш талаба шахсининг маънавий-психологик хусусиятини аниқ ҳаётий мақсадлар, ҳаракатлар, қизиқишлар, истак-хоҳишлар нуқтаи назаридан англаш ва баҳо бериш хусусияти билан боғлиқ бўлади. Бу эса талабада ўзининг рухий ҳаётига, ўз хатти-ҳаракати ҳамда шахсий сифатларининг ижтимоий йўналиш касб этганлигига, ўз қизиқиш ва хоҳиш-истаклари янги маъно касб этиб, талабанинг ўз хатти-ҳаракатларига, дунёқарашига, фаолияти мазмунига назар ташлаши, таҳлил қилиши, ўз ҳислари ва кечинмаларини билишга интилишининг кучайгани билан тавсифланади. Бу ўз-ўзини англашдан, талабанинг янги ҳаёт ва янги фаолият хусусиятидан келиб чиқади. Жамоадаги янги вазият, ўқув юртида бўладиган янги ҳодисалар, янги муносабатлар талабани ўз имкониятларини баҳолашга, ўзининг ақлий ва иродавий кучини ўзига қўйилаётган талаблар асосида таққослашга ва бу талабларга жавоб бера олиши ёки бера олмаслиги нуқтаи назаридан англашга мажбур қилади. Шу тариқа, талаба ўзининг кучли ва кучсиз томонларини, ўзининг устунлиги ёки ожизлигини аниқроқ англай бошлайди. Бу психологик ҳолат талабаларда фуқаролик позициясининг ривожланганлик даражасини аниқлаш учун муҳимдир.

Талабалик ёшидаги ўқувчилар мактаб ва ўрта махсус таълим муассасалари ўқувчиларидан фарқли ўлароқ ўзларида содир бўлаётган сезилар-сезилмас, аммо шахсий муҳим ўзгаришларни, шахснинг кўп қиррали муносабатларни характерловчи мураккаб шахсий-психологик сифатлар – бурч ҳисси, виждон ҳисси, мардлик ва қатъиятчилик ҳисси, ўзининг кадр-қимматини англаш ҳиссини анча аниқ англашга қодир бўладилар. Бу уларда келажакни аниқроқ тасаввур қилиш хусусиятига эгаликларини англатади ва улар ўз келажакларини аниқ баҳолашга интиладилар. Агар мактаб ўқувчилари ўзларига: “Мен келажак ҳаётга ва фаолиятга тайёрманми, қандайман?” деб савол берсалар, олий мактаб ёшидаги ўқувчилар эса: “Мен келгуси фаолиятим, касбим билан оиламга, халқимга, Ватанимга қандай наф келтираман? Мен бу ишга яроқлиманми?” деган саволни бера оладилар.

Таҳлил ва натижалар. Юқорида баён этилганлардан шундай хулоса келиб чиқадики, олий таълим ёшидаги талаба (ўспиринликнинг иккинчи даври)да талабада ўз шахси, фаолияти, хатти-ҳаракатлари тўғрисида аниқ ва тўғри, объектив тасаввур ҳосил бўлиши учун унга педагогик ёрдам кўрсатиш лозим. Бу педагогик ёрдам дўстона хусусият касб этиб, келажакда талаба имкониятларига катта ишонч билдириш, унинг шахсини ҳурмат қилган ҳолда, танқидий мулоҳазалар воситасида, хайрихоҳлик, меҳрибонлик нуқтаи назаридан бўлса, талаба ижтимоий-сиёсий ҳаётни, иктисодий-маънавий тараққиёт мазмунини тўғри англайди ва диққат эътиборга миннатдорчилик ҳисси билан қарайди. Бу ҳол уларда фуқаролик позициясини ривожлантириш учун катта имкониятлар яратади. Бу имкониятлар уларда ўзларининг маънавий психологик қиёфасини шакллантиришга қизиқишни уйғотади. Бунда мана шу қизиқиши тўғри йўналишга рағбатлантириш, талабаларда маънавий-психологик қиёфадаги ижобий сифатларни, уларга мос ижобий қаҳрамонлар, идеалларни тасаввур қилишга интилишни туғдиради. Бу идеаллар икки асосий кўринишда мавжуд бўлади. Биринчиси аниқ, конкрет кишилар (ота-она, сеvimли ўқитувчиси, ўқув юртининг ҳурматли, маънавиятли кишиси, сеvimли бадий асарнинг ёки кинофильм, телеспектаклнинг қаҳрамонлари)нинг образи бўлса, иккинчиси жамиятдаги илғор ва фаол инсонлар, меҳнакашларнинг умумлашган образларидир. Бу образлар бўлажак касбнинг ижтимоий аҳамиятини англаш, ўқиш ва яшаш мақсадини белгилаш кучаяди. Бу идеаллар талабада ўқимишли, ахлоқ-одобли, келажакнинг илғор, намунали кишиси бўлиш ҳиссини уйғотади.

“Ўқишдан асосий мақсад – яхши мутахассис бўлиб, одамларга, мамлакатга фойда келтирмоқ. Ўзининг бутун ҳаётини, меҳнатини инсонларга бағишламоқ. Ўзинг яшаётган юрт учун керакли ва фойдали киши бўлмоқ. Буюк саркарда Амир Темурнинг жанговар фаолияти ва ҳаёт йўли мен учун идеал бўлиб хизмат қилади” (Жавлон - 3-курс, 22 ёш).

“Отабек ўзининг маънавий жасорати, темирдай ирода кучи, ёрига садоқати, халқпарварлиги, тўғри сўзлаши билан менга жуда ёқади. У хон ҳузурида занжирда бўлганида ҳам, ота-онасининг ҳузурида сўроқда бўлганида ҳам фақат тўғри ҳамда аниқ гапни гапирди. Ундаги мардлик, жасорат, тўғрисўзлик, ёрига садоқат ХХI аср йигитларининг тимсоли ва улар учун идеал бўлмоғи лозим” (Сайидолим - II курс, 22 ёш).

Шу ўринда таъкидлаш лозимки, олий ўқув юртларида ўқишнинг дастлабки босқичларида ўқитувчилар ва тарбиячилар талабаларнинг маънавий-ахлоқий онги, маънавий-ахлоқий йўналишларига бефарқ бўлмасликлари лозим. Чунки талабаларнинг маънавий-ахлоқий онги унинг

ижтимоий фаоллигини таъминлайди. Натижада, талабалар демократик ҳуқуқий давлат ва фуқаролик позициясини барпо этаётган мамлакатнинг тараққиётига фаол иштирок этадиган, маънавий-ахлоқий онгни, ахлоқий категориялар, фуқаролик позицияси тушунчаларининг моҳиятини аниқ тушуниш асосида таркиб топиб, бурч, масъулият, виждон, мажбурият, шахсий ғурурлик, ўзининг кадр-қимматини англаш ва фаолиятини шу йўналишда қуришга ҳаракат кучаяди. Талабалик даврида “виждонлилик”, “ор-номус”, “ифтихор” каби ахлоқий тушунчалар анча мантиқий маъно касб этган бўлади. Мисоллар келтирамиз: “Ор-номус ҳисси – ҳар бир ёшда бўлмоғи, у бошқалар кўз ўнгига ўз обрўсини, иззат-ҳурматини сақламоғи, жамоа олдида кадр-қимматини, мавқеини кўтармоғи лозим бўлган ҳис-туйғудир. Бу ҳис ҳар бир ёшнинг хатти-ҳаракатида, дунёқарашида, ахлоқий эътиқодида, билим даражасида ифодаланиб, кишини хушомадгўйлик, беномуслик, ҳасадгўйликдан сақланишга мажбур қилади. Бу ҳис юриш-туриш, хатти-ҳаракат, мақсаднинг нуқсонсиз бўлишини, маънавий софликка интилишга ундайди. Ор-номусли йигит-қиз, жамоа, мамлакат ор-номуси учун курашадиган, ҳамиша жамоада ўз мавқеини сақлайдиган, унинг учун курашадиган бўлади” (Шаҳзоджон - II курс, 24 ёш).

“Ифтихор” – кишининг ўз меҳнати, интилишлари, мақсадга эришишини бекор кетмаганлигини, жамоа, Ватан фойдасида бўлганлигидан фахрланишини англатади. Шу билан бирга, мен ифтихорни ўз муваффақиятим, жамоадошим ёки бутун жамоанинг муваффақиятидан фахрланиш деб биламан. Шахсий фахрланиш, жамоа, ўртоқлари меҳнатидан фахрланиш бўлмоғи даркор. Акс ҳолда, у кибрни, димоғдорликни, манманликни келтириб чиқаради ва бошқалар меҳнат, муваффақиятини кўра олмаслик, шухратпарастликка олиб боради” (Жаҳонгир - 23 ёш).

Виждонли киши ўз сўзига, ваъдасида қаттиқ турадиган, дўстига, жамоасига, Ватанига хиёнат қилмайдиган инсон бўлади. Хатога йўл қўйса, уни очик тан оладиган, ўзига танқидий кўз билан қарайдиган инсон бўлади. Мен виждонли кишилар билан ифтихор қиламан” (Муштарийбону II курс, 21 ёш). Бу ҳолатлар иккинчи ўспиринлик ёшида бўлган талабаларда ўз хулқ-атвори, ахлоқий онги ва эътиқодига Ватан, халқ талаблари, эҳтиёжлари асосида қарашни, муносабатда бўлишни англатади. Бундай фикрларни, қарашларни доимо ривожлантиришга, қўпайтиришга ҳаракат қилиш ва амалга ошириш ҳар бир олий таълим мактаби ўқитувчи-профессорларининг касбий мажбуриятidir. Зеро, бу фикрлар, хулосалар асосида талабаларда Ватан ҳисси, Ватан туйғуси тарбияланиб, фуқаролик позициясининг ривожланишига асос бўлади.

Камдан кам бўлса-да, айрим йигит ва қизларда бу туйғулар салбий кўриниш ва йўналиш касб этиши ҳам мумкин. Баъзан сабр-тоқат билан қийинчиликни енгиш, қатъиятли, матонатли, мард ва меҳнатсевар бўлиш ўрнига қандай бўлмасин, ўз мақсадига эришиш учун турли йўллар билан ҳийла ишлатишга, муғомбирлик, мунофиқлик билан иш тутишга ҳаракат қилувчилар ҳам йўқ эмас. “Менинг ягона мақсадим, – деб ёзади, – Ашур исмли бир талаба (22 ёш), – диплом олиш, олий маълумотли бўлиш – қандай бўлмасин, бунга эришаман. Бунинг учун бор амалимни ишга соламан, ҳийла ишлатаман”. Бундай вазиятда гуруҳ фаоллари, гуруҳ раҳбари, ўқитувчилар ва тарбиячилар, ўқув юрти талабалар касаба уюшмаси, ёшлар иттифоқи “олдини олиш” методидан фойдаланиши лозим. “Олдини олиш” – бу талаба шахси ва фаолиятида содир бўлаётган салбий ҳолатларни аниқлаш ва уни бартараф этишга йўналтирган методдир. Бу тарбиявий жараён ва тарбиявий вазиятни шундай ташкиллаштириш лозимки, бундай ҳолатга шарт-шароит, имконият, муносабат пайдо бўладиган бўлсин. Талаба бундай ҳолатда – ўқишга, табиатга, ижтимоий ҳаётга, воқеликка эстетик муносабатда бўлиб, теварак-атрофдаги нарсалар, дўстлар, жамоадошларига гўзаллик нуқтаи назаридан қарайдиган бўлсин. Бунда ижтимоий ҳодиса, воқелик, ижобий ахлоқий-ҳуқуқий қоидаларга қизиқишни уйғотиши лозим.

Маълумки, олий таълим талабаларининг фаолияти:

- а) фан асосларини ўзлаштириш (ихтисослик, умумқасбий фанлар, танлов ва қўшимча фанлар);
- б) ўқув юртидаги маънавий-маърифий, ижтимоий-фойдали ишларда иштирок этиш;
- в) ўқув юртидаги жамоа ташкилотлари (ёшлар иттифоқи, талабалар касаба уюшмалари фаолияти ва ҳ.к.) топшириқларини бажаришдан, мустақил таълим олишдан иборат.

Буларнинг барчаси талабаларнинг мантиқий тафаккури, ижодий қобилиятлари, мустақил таълим олиш кўникмалари ва ташкилотчилик малакаларини ўстириш билан бирга, талабаларнинг шахс сифатида ривожланишларини таъминлашга ҳам хизмат қилади. Шулар билан бирга, талабаларда фуқаролик позициясини ривожлантиришда унинг фаолияти ва дунёқараши асосида шаклланадиган эътиқоди муҳим ижтимоий-педагогик аҳамият касб этади. Бу жараёнда талаба шахси ва унинг тузилиши муҳимдир. Талаба шахсининг тузилиши деганда, психология назариясида таъкидланганидек, яхлит психик жараёнлар, ўзига хос шахсий сифатлар, фаолият ва уни ташкил этувчи таркибий қисмлар тушунилади. Аниқроқ қилиб айтадиган бўлсак, индивидуал шахсий

сифатлари билиш жараёнлари (сезги, идрок, тафаккур, хаёл, хотира, нутқ, диққат), шахснинг эмоционал идоравий ҳолатлари (ҳис-туйғу, ирода), шахснинг индивидуал психологик хусусиятлари (мақсад, темперамент, характер, қобилият) ҳамда малака ва кўникма, одатлар каби таркибий қисмлардан иборат бўлади.

Албатта, талаба шахсининг ўқув фаолияти, маънавий-маърифий тадбирларда иштироки, ижтимоий фаолияти бўйича бу тузилишига таянмоқ лозим. Улар талабада фуқаролик позициясини ривожлантиришнинг муҳим омиллари ҳисобланади. Талабада шахсий сифатларининг ривожланишида фаолиятининг роли катта. У мақсад, восита, натижадан иборат. Булар бўлажак сиёсатшуносларда фуқаролик позициясини ривожлантиришда муҳим омил ҳисобланади.

Маълумки, инсон фаолияти фақат ташқи ажратувчи восита эмас, балки унинг кишиларга, жамиятга муносабатида намоён бўлиб, инсоннинг бутун хусусиятларини ифодалайди ва шаклланиб, ривожланади. Инсоннинг ҳаракати ўз-ўзича бўлмай, балки унинг бутун фаолиятини қамраб олади. Шунинг учун унинг ҳаракат ва интилишларини фаолият орқали амалга ошади. Инсон фаолиятини ижтимоий жиҳатдан ташкил этиш меҳнат тақсмотининг маҳсули сифатида ўзига хос мотивга ундайди. Инсон фаолияти ва унинг таркибига кирувчи ҳаракат (мақсад, мотив, эҳтиёж, қизиқиш, майл ва ҳ.к.) нафақат шахсий, балки ижтимоий йўналиш касб этиб жамият талабларини қондиришга йўналтирилган бўлади ва у инстинктив равишда содир бўлмасдан, шахсий эҳтиёжларни қондириш ижтимоий характер нуктаи назаридан, онгли, мақсадли, натижали моҳият касб этади. Тадқиқотимиз натижаси шуни кўрсатадики, талабаларда юқори курсларга ўтган сайин фаолиятнинг шахсий эҳтиёжга нисбатан, ижтимоий эҳтиёж йўналиши устун бўлади. Мисоллар келтирамиз: “Мен, – деб ёзади (3-курс талабаси Жалолиддин 22 ёш), – келажакда яхши агроном бўлмоқчиман. Чунки дала ва ўрмонларни, ўтлоқларни, пахтазор ва боғларни яхши кўраман. Албатта, университетнинг ўзим ўқиётган факультетини битиргач, қишлоғимга бориб боғдорчилик билан шуғулланиб тадбиркор боғбон бўламан”, ёки “Мен ёшлиқдан бошлаб педагог бўлишни орзу қилар эдим. Ниятимга эришяпман. Ҳозир 3-курс талабасиман. Мен болалар билан суҳбатлашишни, бирга сайр қилиш ва машқлар бажаришни жуда ёқтираман. Мен ўқитган, тарбиялаган болалардан Ватанга, халққа фойда келса, ўзимни бахтиёр ҳисоблаб, ўз мақсадимга эришдим, деб фахрланаман” (Мафтуна - 25 ёш).

“Мен ҳозир 4-курс талабасиман. Келажакда илмий ходим бўлиб, ўз соҳам бўйича ихтиролар, янгиликлар қилмоқчиман. Ўз ихтиром, кашфиётим билан Ватанга фойда келтириб, халқимнинг юмушини осон қилиш ниятим бор. Шу билан бирга, яхши оила раҳбари бўлишни, оиламни, болаларимни Ватанга хизмат қилишга ўргатаман ва бу билан фахрланиб юраман” (Фаррух - 23 ёш).

Кўриб турганингиздек, фаолият инсонни янги мақсад, истак сари етаклайди ва бу мақсад, истак, мотивдан иборат бўлади. Мотив – англаган ҳаракат бўлиб, инсонга ички интилиш, қизиқиш беради. Мотив интилиш сифатида ҳаракат манбаига айланади.

Мотив (лот. Moteo-ҳаракатлантираман, motiv-ундовчи сабаб) инсонни ақлий ва амалий ҳаракатга, воқеликни англашга, ахлоқий эҳтиёжларни қондиришга қаратилган майл ёки сабаб ҳисобланиб, у талабаларда ўқув маълумотларини ижтимоий-ахлоқий қоидаларни ўзлаштириш, ҳаёт мазмунини англаш, турмуш режаларини тузиш, келажак касбий фаолият йўналишини белгилашда ички туртки бўлиб хизмат қилади.

Маълумки, ҳар бир инсон бир ёш давридан, иккинчи ёш даврига ўтишида унинг анатомик, физиологик ривожланишида ўзгаришлар рўй берганидек, шахсий-руҳий ҳолатларида ҳам маълум ўзгаришлар вуҷудга келади. Ўспирин-талабалик даврининг дастлабки босқичларида янги микромуҳитнинг шароитларига кўникиш орқали, янги муҳитнинг талаблари, тартиб-қоидалари, мажбуриятларини англаш шахслараро муносабатнинг янгича кўринишини ўрнатади. Натижада, талабанинг шахсий хусусиятлари ва ижтимоий муносабатлари юксак даражада долзарбланиши ва қимматли-йўналтирувчи омилларни, хулқ-атворни бошқариш сифатидаги аҳамияти ошади. Бунда мотивнинг амалга ошиши, талабанинг шахсий муваффақияти (ўзига), жамоавий (гурухга) ва фаолиятга (топшириққа) йўналганлиги билан тавсифланади.

Инсоннинг шахсий манфаатлари ҳамма вақт ҳам жамият талаблари билан ўзаро уйғунлашмаслиги мумкин. Аммо, вазият, шароит, вақт, ватан, халқ манфаатлари нуктаи назаридан инсон ўзига ноқулай бўлганда ҳам уни ижтимоий бурч ва вазият талаби деб қабул қилади ва шу йўналишда фаолият кўрсатишга ҳаракат қилади. Инсоннинг бундай йўл тутишида унинг фуқаролик позицияси йўналтирувчи куч сифатида намоён бўлади. Инсон учун аҳамиятли шахсий нарсанинг ижтимоий моҳият касб этиши ва уни киши учун шахсий аҳамият касб этишида чуқур ички моҳият – инсоннинг ахлоқий хусусияти ёки позицияи белгиловчи роль ўйнайди. Ижтимоий аҳамиятли ахлоқий-ҳуқуқий меъёрлар шахсий сифат касб этиб, инсонга ички куч, ташаббус, кўтаринки кайфият бахш этади.


Шундай қилиб, кишилар фаолиятидаги эҳтиёжлар қизиқишлар ва майлларни келтириб чиқарадики, улар талабаларда фуқаролик позициясини ривожлантиришга олиб келади. Қизиқиш кишининг нимагадир эътибор бериши, қандайдир нарса ва ҳодисаларни билишга интилишидир. Шу асосда, фуқаролик позициясини ривожлантиришга интилиш (зарурати) майли бўлиб ҳисобланади.

Қизиқиш ва майллар ёшларнинг эмоционал ҳаёти билан маҳкам боғланган ва улар ўзаро боғлиқликда шахс фаоллигини, таъминлаб фаолиятга интилишининг манбаи бўлиб хизмат қилади. Эҳтиёж асосида вужудга келадиган қизиқишлар моддий ва маънавий бўлади. Инсон фаолиятида пайдо бўлган қизиқишни қондириш, янги қизиқишларни келтириб чиқариб, фаолиятни янги ҳаракатларга ундайди. Буни талабаларда фуқаролик позициясини ривожлантириш жараёнига ёндашишнинг ўзига хос психологик хусусиятлари деб айтиш мумкин.

Бунда фуқаролик позицияси киши юриш-туриши меъёрларининг йиғиндиси тарзида намоён бўлади. Баъзи ҳолларда образ тарзида инсон характеридаги қимматли, эътиборга молик хусусиятларни ўзида мужассамлаштириб намуна, ибрат сифатида хизмат қилади. Фуқаролик позицияси инсондаги хусусиятлар ёки ундаги мавжуд хулқ-атвор меъёрлари тариқасида эмас, балки унга етишмайдиган ёки у хоҳлаган, истаган ўзини қандай тарзда кўрмоқчилигини ифодалайди. Инсоннинг фуқаролик позицияси келажакка йўғрилган, эришиши лозим бўлган намунадир. Инсонлар ёки алоҳида бир кишидаги энг яхши хусусиятлар сифатида шахсни ёки бутун жамиятни ривожланиши, такомиллашувига таъсир қилади ва шу жиҳатидан уларни йўналтиради.

Шундай қилиб, эҳтиёж, қизиқиш ва позиция шахс турли ва кўп томонлама ҳамда ягона (яхлит) йўналганлигини ташкил этиб, инсон фаолиятининг мотивацияси (ҳаракатлантирувчи кучи) тарзида намоён бўлади. Фуқаролик позициясининг моҳияти шахснинг ўз-ўзини тартибга солиш тузилмасига ҳам боғлиқ. Талабаларда ўз-ўзини тартибга солиш эҳтиёжлари, шахсга йўналганлик, “Мен” концепциясини шакллантириб, ўз-ўзини бошқара олиш тузилмасини вужудга келтиради. Бу тузилмани қуйидаги 1-жадвалда кузатиш мумкин.

1-жадвал



Жадвалда кўзда тутилган эҳтиёжлар талабаларнинг фаоллиги ва руҳий ҳолатларини акс эттирувчи механизм сифатида, уларнинг моддий, маънавий, физиологик, ижтимоий заруриятларини ифодалайди. Бу механизмлар ўз-ўзини англашни шакллантириб, талаба шахсидаги ижобий фазилатларни ривожлантириш, салбий хусусиятларини қайта тарбиялашни назарда тутди ва шу асосда уларда фуқаролик позициясини ривожлантиришга ёрдам беради.

Шахсий йўналганлик – эса талабанинг бўлажак касбини эгаллаш йўлидаги қатъий ҳаракатлар ва фаолиятининг йиғиндисини ташкил этиб, у талаба шахсининг маънавий-ахлоқий етуклик, кизиқишлар, ижтимоий режаси, эътиқоди, дунёқараши, идеалларини изоҳлайди.

Ўспиринликнинг иккинчи даврида кизиқишлар ўсиб бориш характериға эға бўлиб, улар нафақат талабанинг ўқув фаолиятини, балки талаба моддий ва маънавий ҳаётини ҳам қамраб олиб шахсға йўналганлигини белгилайди. Шунинг учун талабанинг ижтимоий ҳаёти, билиш фаолияти, иқтисодий ҳаётининг ҳаракатлантирувчи кучи сифатида намоён бўлиб такомиллашаверади.

Хулоса ва таклифлар. Талабалик даври ёшлари учун эътиқоднинг мукаммаллашуви характерли ҳисобланиб, у талабаларда фуқаролик позициясини таркиб топтиришда муҳим омил бўлиб ҳисобланади. Зеро, эътиқод – талабанинг ўз олдига қўйган мақсадиға ишончни ифодалаб, бўлажак касбига, фан асосларини эгаллашға, ахлоқ меъёрларига риоя қилиш, оила, Ватанға бўлган садоқат, муҳаббатини мустаҳкамлайди. Шу асосда, талабада фуқаролик позициясининг риволанишиға олиб боради.

Адабиётлар:

1. Усмонбоева М.Х. Умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиларининг ҳуқуқий маданиятини шакллантириш (VIII-IX синфлар мисолида): Педагогика фан. номз. дисс. автореферати. – Т.: 2000. - 23 б.
2. Ушинский К.Д. Асарлар. Т.8. – М.: ЛПН РСФСР, ПФА нашриёти, 1950. -774 б.
3. Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Т.: “Шарқ”, 2003. - 512 б.
4. Фалсафа қисқача изоҳли луғат / Муаллифлар: М.Н.Абдуллаева., М.Абдурашидов., У.Абилов ва бошқалар.: Масъул муҳаррир: А.Жалилов. – Т.: “Шарқ”, 2004. - 384 б.
5. Фалсафа: Қомусий луғат: (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров). – Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004. -496 б.
6. Фарберман Б.Л. Илғор педагогика технологиялар.– Т.: “Фан”, 2000.-128 б
7. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. – Т.: 1993. - 224б.
8. Маҳкамов У.И. Ўқувчиларнинг ахлоқий маданиятини шакллантириш муаммолари. – Т.: Фан, 1995. – 200 б.
9. Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти. – Т.:1998. -163 б.
- 10.Ҳакимов Х.Н. Ўқувчи шахсини шакллантиришда,жисмоний ва маънавий ахлоқий тарбия интеграциялашувининг педагогик шарт-шароитлари. Пед. фанл. бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати:2019. -27 б.
- 11.Очилов М. Янги педагогик технологиялар. – Қарши, Насаф, 2000. - 80 б.
- 12.Мусурмонова О. Юқори синф ўқитувчиларининг маънавий маданиятини ривожлантиришнинг педагогик асослари: Пед.фан. д-ри...дисс. – Т. фан, 1993. ТДПИ, 1993, –364 б.
- 13.Олимов Ш. Маънавий-ахлоқий тарбия асослари. – Т.: “Фан ва технологиялар”, 2014. - 218 б.

**SHAXSLARARO MUNOSABAT TUSHUNCHASI, MAZMUNI,
MOHIYATI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI**

Dilova Nargiza Gaybullayevna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Maqolada shaxslararo munosabatlarning yuzaga kelishi, uning mohiyati, o‘ziga xosliklari, shaxslararo muloqot - odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayoni ekanligi, muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayirboshlash vositasi ekanligi, bunda munosabatning kommunikativ jihati muhimligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: shaxslararo munosabat, shaxslararo muloqot, birgalikdagi faoliyat, axborot ayirboshlash, kommunikativlik, madaniyat, qadriyat.

**ПОНЯТИЕ, СОДЕРЖАНИЕ, СУЩНОСТЬ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ
И ИХ РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕ**

В статье описываются возникновение межличностных отношений, их природа, особенности. Межличностное общение представляет собой многогранный процесс развития связей между людьми, возникающий из потребностей совместной деятельности, общение (отношения) представляет собой совместную деятельность людей, средства обмена информацией между ними, и приводится мнение о том, что коммуникативный аспект отношений имеет важное значение.

Ключевые слова: межличностные отношения, межличностное общение, совместная деятельность, информационный обмен, коммуникативность, культура, ценность.

**INTERPERSONAL RELATIONSHIP CONCEPT, CONTENT,
ESSENCE AND PLACE IN SOCIETY**

The article describes the emergence of interpersonal relations, its nature, characteristics, interpersonal communication is a multifaceted process of the development of connections between people arising from the needs of joint activities, communication (relationship) is a joint activity between people it is a means of information exchange between them, and it is said that the communicative aspect of the relationship is important.

Key words: interpersonal relationship, interpersonal communication, joint activity, information exchange, communicativeness, culture, value.

Kirish

Ma'lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday ta'lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog'liq. Ana shunday avlodgina mamlakatoldida turgan xalqning tarixiy taqdirini belgilab bera oladi. Shunga ko'ra, yosh avlodni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Yunon faylasufi Platon: “Kishilar o‘zligini bilishi uchun u o‘zining davlatini mamlakatini bilmog‘i zarurdir, ana shundagina u o‘zini ana shu davlatining jamiyatining, madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini anglab yetadi”, - deb ta'kidlaydi. Demak, kishi muayyan jamiyat va madaniyatga mansubligini bilishi va anglashi tufayli o‘zini to‘laqonli his qiladi, borligicha nomoyon etadi, jamiyat qonunlari va an‘analarini o‘zida o‘zlashtiradi, ularga amal qiladi. Shuning zamirida kishilarning individual va ijtimoiy ongi shakllanib boradi, undagi “Men” tushunchasi asta-sekin “Biz” tushunchasi tomon siljishi kuzatiladi [1].

Ma'lumki, shaxs taraqqiyotida o‘ziga xos rivojlanish bosqichlarini qamrab oladi. Aynan mazkur jarayonda shaxsda muloqotga bo‘lgan ehtiyojning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarini o‘rganish muammoning dolzarbligini belgilab beradi. Ayniqsa shaxsning ijtimoiylashuvi, shaxslararo munosabatlarga kirishish jarayonidagi muloqotdagi qiyinchiliklar hozirgi kunda psixologiya fanida qo‘yilayotgan muhim masalalardan biri ekanligi hammamizga ayon.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

Shaxslararo muloqot faqat insonlarga xos bo‘lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir -

birlariga nimanidir aytish istagi tugʻiladi.

Shaxslararo muloqot - odamlar oʻrtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bogʻlanishlar rivojlanishining koʻp qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat koʻrsatuvchilar oʻrtasida axborot ayirboshlashni oʻz ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar.

Shaxslararo muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning oʻzaro birgalikdagi harakati - nutq jarayonida faqat soʻzlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat. Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa imo-ishora bilan muloqotda boʻlamiz. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda boʻlamiz. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (oʻzaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (oʻzaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi.

Shaxslararo muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni oʻrnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir.

Har bir kishining oʻz “Men”i atrofdegilar bilan boʻladigan muloqot jarayonida shakllanadi, Shaxsning hayot yoʻllari avval oilada, bogʻcha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, yaʼni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Bizning yuksak maʼnaviy ehtiyojlarimizdan biri - bu muloqotga boʻlgan ehtiyojdir. Muloqotga boʻlgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga boʻlgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir boʻlgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz.

Muloqot tashqi taʼsirlar, namunalar asosida oʻzini oʻzi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini roʻyobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi.

Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish oʻquvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyati ham, boshqa odamlar tomonidan taqlid qilinadi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Odamlar oʻrtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida gʻayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish - oʻzini oʻzi mukammallashtirish, oʻzini - oʻzi ruyobga chiqarish, oʻzini-oʻzi boshqarish, oʻzini - oʻzi baholash, oʻziga oʻzi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosida muhim kamolot bosqichidir. Shuning uchun ichki va tashqi taqlidning tushunish hamda ularni bosqichma- bosqich egallab borish - boʻlgʻusi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir.

Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi - bu oʻzini oʻzi ortiqcha yoki past baholash tufayli oʻziga va uni qurshab turgan odamlarga notoʻgʻri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud boʻlib, asosan quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samaralar sari yetaklaydi:

1) hamkorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha aʼzolari oʻrtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish.

2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir aʼzoning qulay pozitsiyasini taʼminlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.

3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari toʻgʻrisidagi axborotni egallashga oid maxsus mashgʻulotlarni uyushtirish.

4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga moʻljallangan ishbilarmonlik oʻyinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

L. S. Vigotskiy, A. N. Leontev, A.R. Luriya, D.B.Elkonin, A. V. Zaporozes, M. I.Lisina tadqiqotlarida koʻrsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri - bu muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V.Zaporozes va M. I. Lisinalar tadqiqotlarida taʼkidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi:

1) eʼtibor va xayrixohlikka ehtiyoj paydo boʻladi;

2) kattalar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji tugʻiladi;

3) avvalgi barcha ehtiyojlarga kattalar tomonidan hurmat qilish ehtiyoji tugʻiladi;

4) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdegilar bilan oʻzaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudga keladi

Zamonaviy psixologiyada shaxs tushunchasiga turli faoliyat subyekti va obyekt sifatida doimiy ravishda murojaat etadi. “Faoliyat subyekti” tushunchasining qanday tasniflanishidan qatʼiy nazar, shaxsning atrof – muhiti, yashash sharoiti va jamiyatdagi shaxslararo munosabatlardagi faolligini oʻrganishga qaratiladi.

Psixologik tadqiqotlarda konstruktiv xulq – atvor, effektiv, samarali muloqot va faoliyat oʻrganilgan boʻlsa - da, destruktiv xulq – atvor, shaxslararo munosabatlarning buzilishi, hamkorlikdagi faoliyatning mavjud emasligi koʻplab qiziqishlar uygʻotganiga qaramay, juda kam oʻrganilgandir.

Psixologlar, psixoterapevtlar, etnograflar, sotsiologlar, faylasuflarning sa'y-harakatlari natijasida psixologiyaning yangi muloqotva muloqotdagi qiyinchiliklar psixologiyasi yo'nalishi vujudga keldi.

Zamonaviy psixologiyada hozirgi vaqtda ham muloqotdagi qiyinchiliklar muammolari o'rganib kelinmoqda. Odatda, muloqotdagi qiyinchiliklarni aniqlashda muloqotning optimal shakli bilan qiyoslanadi.

O'smirlik davrida tengdoshlari bilan muloqot yetakchi ahamiyat kasb etadi. Bu davrda, tengdoshlari bilan muloqot qilish ehtiyoji markaziy o'ringa chiqadi. Tengdoshlari bilan muloqotning samarali kechishi o'smir shaxsining shakllanishi, xulq – atvori va faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi [4].

L.I.Bojovichning fikricha, kichik maktab yoshida o'quvchilarni birlashtirish hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish orqali amalga oshirilsa, o'smirlarda buning aksi, ya'ni o'smirlar uchun muloqot va faoliyat jarayonidagi o'zaro qiziqishlarning umumiyigidir [1]. Muloqot jarayonida o'smirlarda turli hil qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin. Psixologiya sohasida muloqotdagi qiyinchiliklar deganda turli xil buzilishlar, to'liq yoki qisman muloqotga bo'lgan ehtiyojlarning qondirilmaligi, sub'ektning muloqotdan qoniqmasligiga olib keladi. O'smirlarda vujudga keluvchi muloqotdagi qiyinchiliklar o'quv jarayoniga va shaxslararo munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi.

Shaxs shakllanishiga asosiy ta'sir etuvchi omillardan biri muloqotdir. Muloqotning shaxs shakllanishidagi ahamiyatini rus psixologlaridan V.G. Anan'ev, A.A. Bodalev, Vigotskiy va boshqalar tomonidan o'rganilgan [2].

A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan “Umumiy psixologiya” darsligida muloqot ikki va undan ortiq kishilar o'rtasidagi axborot ayriboshlash, o'zaro ta'sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon sifatida e'tirof etiladi.

M.G.Davletshin muallifligida chop etilgan “Umumiy psixologiya” o'quv qo'llanmasida: “Muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilar orasidagi affektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashinishidan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishdir” – deb ta'kidlaydi.

M.G.Davletshin rahbarligida chop etilgan “Psixologiya” qisqacha izohli lug'atida quyidagicha ta'rif beriladi: “muloqot – ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro bir-biriga ta'sir etishi. Odamlar o'rtasida axborot almashish, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, o'zgalarni idrok qilish va tushunib baholash xarakteriga ega”.

Xulosa va munozara

Demak, shaxslararo muloqotga o'rgatishda o'yin va noo'yin shakllarini qo'shib olib borishning ahamiyati katta:

1. Darsga norasmiy muloqot elementlarini kiritish. Ayni paytda didaktik o'yinlardan foydalanish, ularda muloqot tashkilotchisi rolini muallim emas, o'quvchilardan biri bajarishi.

2. E'tiborni javobning ijobiy jihatlariga qaratish. O'quvchilar o'rtoqlarining javoblarini xolisona baholashga maxsus o'rgatiladi, ayni paytda mayda - chuydalargacha e'tiborni qaratib, o'rtoqlarining javoblaridagi eng muvaffaqiyatli jihatlarini ajratib ko'rsatishni o'rganish. Kamchiliklarni qanday qilib yo'qotish haqida bahslashish, ya'ni kamchilikni bitta o'quvchining o'ziga aytish orqali ta'sir qilish.

3. Insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar Sharqda o'ziga xos xususiyatga ega. Muloqot jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish - jamiyatning yangilanish davrida inson ma'naviyati va ruhiyatida ro'y berayotgan o'zgarishlarning psixologik tabiatini anglashga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Ivanov P.I., Zufarova M.Y. “Umumiy psixologiya” Toshkent: O'zbekistan faylasuflari milliy jamiyati, 2018.
2. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Toshkent: O'zbekiston. 2017
3. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. Namangan. 2015.
4. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi - Toshkent: “Noshir”, 2010.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent. 20199
6. Gamezo M.V., I.A. Domashenko. "Psixologiya atlas" - Moskva: "Prosveshchenie" 2004 yil.

SHAXS PSIXOLOGIK YETUKLIGI MUAMMOSINING UZOQ VA YAQIN XORIJ OLIMLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI

Raximova Dilbar Muxiddinovna,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Yoshlarni ilm va fanni o'zlashtirishi, ta'lim tizimida kasb-hunarni egallashi bir qatorda endi ularda o'z shaxsiy hayotlarini rejalashtirish va oila qurishga intilish hissi tarkib topa boshlaydi. Bu davrga kelib yoshlarda oilaviy munosabatlarga turli xil qarashlar paydo bo'la boshlaydi. Yoshlarni oila qurishda qoqilmay, balki yetarlicha tasavvurga ega bo'lib, oilaviy hayotga yetuk qilib shakllantirish, oiladagi deformatsiyalarni oldini olish –hozirgi zamon dolzarb muammolaridan biridir. Yoshlarni oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarining shakllanishi bevosita ularning psixologik yetukligiga bog'liq. Maqolada psixologik yetuklik muammosi jahon olimlarining talqinida ko'rib chiqiladi.

Tayanch tushunchalar: shaxs, o'smir shaxsi, psixologik yetuklik, iroda, psixik jarayonlar, psixik hodisalar, shaxs rivojlanishi, yosh davrlari, obyektiv va subyektiv ta'sirlar, mikro va makro muhit.

ИССЛЕДОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗРЕЛОСТИ ЛИЧНОСТИ УЧЁНЫМИ ДАЛЬНЕГО И БЛИЖНЕГО ЗАРУБЕЖЬЯ

В статье рассматривается освоение молодёжью знаниями и наукой, овладение профессией в системе образования, наряду с этим, у них начинает формироваться чувство планирования личной жизни и стремления к построению семьи. К этому времени у молодёжи начинают возникать различные взгляды на семейные отношения. Формирование готовности молодёжи к семейной жизни, недопущение деформаций в семье - одна из актуальных проблем современности. Формирование представлений молодёжи о семейной жизни напрямую зависит от их психологической зрелости. В статье рассматривается проблема психологической зрелости в трактовке учёных мира.

Основные понятия: личность, личность подростка, психологическая зрелость, воля, психические процессы, психические явления, развитие личности, возрастные периоды, объективные и субъективные воздействия, микро- и макроэкономическая среда.

THE STUDY OF PERSONAL PSYCHOLOGICAL MATURITY BY FAR AND NEAR FOREIGN SCIENTISTS

Mastering youth knowledge and science, mastering the profession in the education system, along with this, they begin to form a sense of planning a personal life and striving to build a family. By this time, young people begin to develop different views on family relations. The formation of young people to family life, the prevention of deformities in the family is one of the urgent problems of our time. The formation of young people's ideas about family life directly depends on their psychological maturity. The article examines the problem of psychological maturity in the interpretation of world scientists.

Basic concepts: personality, personality of a teenager, psychological maturity, will, mental processes, mental phenomena, personal development, age periods, objective and subjective influences, micro- and macroeconomic environment.

Kirish. Shaxsning psixologik yetuklik xususiyatlari haqida qadimgi yunon faylasufi Arastu (384-322) fikrlari diqqatga sazovordir. Arastu ruh va tananing o'zaro munosabati masalasiga katta e'tibor bergan. “Ruh – deydi u, – o'z tabiatiga ko'ra hukmron asosdir, tana esa tobe narsadir”. Forma materiyaga nisbatan qanday bo'lsa, ruh ham tanaga nisbatan xuddi shunday. U hayotga ma'no va yo'nalish beradi. Ruh ta'sir qiladi va harakatlantiradi, tana esa ta'sirlanadi va harakatga keladi. Arastu ruhning mohiyati va uning tana bilan o'zaro munosabati bu o'ziga xos fikrlar bilan birga, birinchi bo'lib, o'z-o'zida kuzatish mumkin bo'lgan rihiy hodisalarni tasvirlab yozgan va tasniflagan. Uning psixologik qarashlarida hozirgi zamon psixologiyasiga asos bo'lgan ko'pchilik tushunchalarni uchratish mumkin, chunonchi: tashqi beshta sezgi va sezgilar haqida, xush va noxush hislar haqida, ixtiyorsiz va ixtiyoriy jarayonlar haqida, tasavvur va assotsiatsiyalar haqida, tafakkur haqida, tushunchalar va xulosa chiqarishlar haqida ta'limot yaratdi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Shaxsning psixologik yetukligi haqida Vizantiya mutafakkirlari Ioan Damaskin (673-777-y.) ta'limotiga ko'ra so'z, aql-idrok hamda erkin irodaga ega bo'lgan inson yetuklik sari intiladi. Ayni vaqtda Damaskin ruh tanaga bog'liq: masalan, u biologik o'sishga va boshqa tashqi sabablarga qarab o'zgaradi deb ta'kidlaydi.

O'rta asr mutafakkiri Avgustin Ipponskiy (353-430-y.) birinchi bo'lib shaxsning yetukligida irodaning muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritgan. Shaxs yetukligida irodaning ustunligi haqida, ayniqsa, Duns Skott (1265-1308-y.) ning ta'limoti ham alohida o'rin egallaydi. Uning aytishicha, iroda aqldan ham yuqorida turadi.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida jamiyatning rivojlanishi munosabati bilan G'arbiy Yevropada falsafa va ilmiy tafakkur sohasida keskin burilish ro'y berdi. Fanda tajribaga asoslangan yangi oqim (empirik oqim) rivojlana boshladi. Ilmiy tafakkurda bu burilish odatda ingliz mutafakkirlari F.Bekon, Gobbs, Lokklarning, shuningdek fransuz faylasufi R.Dekartning nomi bilan bog'liq.

Frensis Bekon (1561-1625-y.) va Tomas Gobbs (1588-1678-y.) Bekon ta'limotiga ko'ra shaxsni shakllanishi va yetukligi “birinchi psixik element” (o'ziga xos psixik atom) tasavvuridir.

Bekonning tasavvurlar mexanikasi haqidagi fikrlarini boshqa bir ingliz faylasufi – Gobbs yanada mufassalroq rivojlantirdi. Gobbsning fikricha, psixik hayotning asosini go'yoki o'ziga tortuvchi, jalb qiluvchi (huzur, istak, muhabbat va ranjitadigan (og'riq, qo'rquv, nafrat) kuchlardan iborat bo'lgan ehtirolar tashkil etadi. Psixologik hodisalarning o'zi moddiy tartibdagi faktlardir. Ularning rivojlanishi nutqning rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Rene Dekart (1596-1650-y.) shaxsning psixologik yetukligi haqidagi ta'limotini o'zining “Ruh ehtirolari haqida” degan asarida bayon qilgan. Dekart sezgi, tasavvurlar, va iroda faqat insonlarga xos deb talqin qiladi. Uning fikricha, psixik va fiziologik jarayonlar parallel holda ro'y beradi.

Ingliz olimi Djon Lokk (1632-1704-y.) shaxsning psixologik yetukligi hayot tajribalaridan, xotira, farq qilish, taqqoslash, murakkab tasavvurlardan shakllanadi. Inson ongi go'yo hech narsa yozilmagan toza oq qog'oz yoki toza taxtadir, lekin tarbiyalash va hayot tajribasi bunga sezgilar orqali xohlagan narsani yozish mumkin.

Nemis psixologi I.Gerbart (1776-1841-y) ning fikricha, asosiy psixik element tasavvurlardir, qolgan barcha jarayonlar – hissiyot, iroda, tasavvurlar kombinatsiyasidan va munosabatlardan iboratdir. Ruhiy holatlar doimo o'zgarishlar holatida bo'lalilar [1].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Shaxs kishining konkret tarixiy hayot kechirish sharoitlarida, faoliyat (mehnat qilish, o'qish va hokazolar) jarayonida shakllanadi. Shaxsning shakllanish jarayonlarida guruhlarda va jamoalarda amalga oshiriladigan ta'lim va tarbiya yetakchi rol o'ynaydi. Shaxsning shakllanishi ikki xil ma'noda qo'llaniladi. Birinchisi – shaxsni shakllanishi uning rivojlanishi, ana shu rivojlanish jarayoni va uning natijasi ekanligidir. Ikkinchi ma'nosi – shaxsni maqsadga yo'naltirilgani tarzda tarbiyalash sifatidagi shakllantirish (agar shunday deb aytish aytish mumkin bo'lsa, “qolipga solish”, “yasash”, “tuzish” (A.S.Makarenko bu jarayonni “shaxsni loyihalash” deb o'rinli aytgan edi) dan iborat. Xususan, bu shaxsni shakllantirish vazifalari va usullarini ajratib olishga *pedagogik yondashuvdir*.

Jahon psixologiyasi fanida shaxsning kamoloti, uning rivojlanish to'g'risida xilma-xil nazariyalar yaratilgan bo'lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o'rganishda turlicha pozitsiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o'ziga xos yondashishga egadirlar. Mazkur nazariyalar qatoriga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, bixevioristik kabilarni kiritish mumkin. Quyida sanab o'tilgan nazariyalar va ularning ayrim namoyondalari shaxsni rivojlanishning prinsplari to'g'risidagi qarashlariga to'xtalib o'tamiz.

Shaxsning ijtimoiy kamolotga erishuviga yordam beradigan harakatlantiruvchi kuchlari va manba masalasini masalasini hal etishning ikkita yo'nalishi mavjud bo'lgan. Bu yo'nalishlar *rivojlanishning biogenetik va sotsiogenetik* konsepsiyalari nomini olgan.

Biogenetik konsepsiya inson shaxsining rivojlanishi biologik, asosan, nasliy omillar bilan belgilanishiga asoslanadi [3]. Biogenetik nazariyaning negizida insonning biologik yetilishi bosh omil sifatida qabul qilingan bo'lib, qolgan jarayonlarning taraqqiyoti ixtiyoriy xususiyat kasb etib, ular bilan o'zaro shunchaki aloqa tan olinadi xolos. Mazkur nazariyaga binoan, taraqqiyotning bosh maqsadi – biologik determinantlarga (aniqlovchilarga) qaratiladi va ularning mohiyatidan sotsial-psixologik xususiyatlar keltirilib chiqariladi.

Psixologiya tarixida biologizmning eng yuqori ko'rinishi Zigmund Freydning shaxs talqinida o'z ifodasini topgan. Uning ta'limotiga binoan, shaxsning barcha xatti-harakatlari biologik mayllar va instinktlar bilan shartlangan, ayniqsa, birinchi, u jinsiy mayliga bog'liqdir.

Sotsiogenetik yondashishga binoan, shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalaridan

kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko'ra, inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

AQSHda keng tarqalgan nazariyalardan yana bittasi – bu individual tajriba va bilimlarni egallash (mustaqil o'zlashtirish) nazariyasidir. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning hayoti va uning voqelikka nisbatan munosabati ko'pincha ko'nikmalarni egallash va bilimlarni o'zlashtirishning samarasi qo'zg'atuvchini uzluksiz ravishda mustahkamlanib borishning mahsulidir (E.Torndayk, B.Skinner).

Psixologiyada psixogenetik yondashish ham mavjud bo'lib, u psixik jarayonlar taraqqiyotining birinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Mazkur nazariyaning yirik namoyondalaridan biri – amerikalik psixolog E.Eriksondir. U shaxs rivojlanishini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o'ziga xos betakror xususiyatga egadir.

Birinchi davr – go'daklik. Ushbu davrda go'dakda ongsizlikka asoslangan tashqi dunyoga nisbatan “ishonch” tuyg'usi vujudga keladi. Buning bosh sababchisi ota-onaning mehr-muhabbati, g'amxo'rliqi va jonkuyarligini nishonasidir. Agar go'dakda ishonch negizi paydo bo'lmasa, balki borliqqa nisbatan ishonchsizlik hissi tug'ilsa, u taqdirda voyaga yetgan odamlarda mahdudlik, umidsizlik shaklida aks etuvchi xavf vujudga kelishi, ehtimol.

Ikkinchi davrda, ya'ni ilk bolalikda jonzodda yarim mustaqillik va shaxsiy qadr qimmat tuyg'usi shakllanadi yoki aksincha, ularning qarama qarshisi bo'lmish uyat va shubha hissi hosil bo'ladi. Bolada mustaqillikning o'sishi, bo'lg'usida shaxs xususiyatlariga aylanuvchi tartib va intizom, mas'uliyat, hurmat tuyg'ularini tarkib toptirishga puxta zamin hozirlaydi.

Uchinchi davr – o'yin yoshi deb atalib, 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga qamrab oladi. Mazkur davrda tashabbus tuyg'usi, qaysidir ishni amalga oshirish va bajarish maylini tarkib toptiradi. Mabodo unda xohish-istakni ro'yobga chiqarishning yo'li to'sib qo'yilsa, ushbu holatda bola o'zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur yosh davrda, ya'ni guruhli o'yin, tengqurlari bilan muloqotga kirishish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi, natijada bolaning turli rollar sinab ko'rishiga, xayoloti o'sishiga imkon yaratiladi. Xuddi shu davrda bolada adolat tuyg'usi, uni tushunish mayli tug'ila doshlaydi.

To'rtinchi davr – maktab yoshi deb nomlanib, undagi asosiy o'zgarishlar ko'zlangan maqsadga erishish qobiliyati, uddaburonlik va mahsuldorlikka intilish tuyg'usi bilan ajralib turadi. Uning eng muhim qadriyati – omilkorlik va mahsuldorlikdan iboratdir. Ushbu yosh davrining salbiy jihatlari (illatlari) ham ko'zga tashlanadi va ularning qatoriga ijobiy xislatlarni yetarli darajada bo'lmaganligi, ongning barcha qirralarini qamrab ololmasligi, muammolarni yechishda aql-zakovatini yetishmasligi, bilimlarni o'zlashtirishda qoloqligi (sustligi). Xuddi shu davrda shaxsda mehnatga nisbatan individual munosabati shakllana boshlaydi.

Beshinchi davr – o'spirinlik – o'zining betakror xislati, individualligi va boshqa odamlar bilan keskin tafovutlanishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, o'smirlik shaxs sifatida noaniqlik, muayyan rolni uddalamaslik, qat'iyatsizlik singari nuqsonlarga (illatlarga) egadir. Mazkur davrning eng muhim xususiyati “rolni kechiktirish” ning o'zgarishi hisoblanib, birmuncha taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishining daqiqasidir. Unda ijtimoiy hayotda bajarayotgan ro'llarining ko'lamini kengayadi, lekin ularning barchasini jiddiy egallash imkoniyati mavjud bo'lmaydi. Vaholanki, bu kezda o'spirin rollarda o'zini sinab ko'rish bilan cheklanadi, xolos. Erikson o'spirinlarda o'z-o'zini anglashning psixologik mexanizmlarini batafsil tahlil qiladi.

Oltinchi davr – yoshlik boshqa odamga (jinsga) nisbatan psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati (o'quvi) va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa jinsiy mayl bu sohada alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari, yoshlik tanholik va odamovilik kabi bexosiyat xususiyatlari bilan tafovutlanadi.

Yettinchi davr – yetuklik davri deb atalib, hayot va faoliyatning barcha sohalarida (mehnat, ijodiyotga, g'amxo'rlikda, nasl qoldirishda, tajriba uzatishda) mahsuldorlik tuyg'usi unga uzluksiz ravishda hamroh bo'ladi va ezgu niyyatlarning amalga oshishida turtki vazifasini bajaradi. Shuningdek, mazkur davrda ayrim jihatlarda turg'unlik tuyg'usi nuqson (illat) sifatida hukm surishi ehtimoldan xoli emas.

Sakkizinchi davr, ya'ni qarilik inson tariqasida o'z burchini uddalay olganligi, turmushning keng qamrovligi, undan qanoatlanganligi (qoniqqanligi) tuyg'ulari bilan tavsiflanadi.

E.Shpranger “O'smirlik davri psixologiyasi” nomli asarida qizlarni 13 yoshdan 19 yoshgacha, yigitlarni esa 14 yoshdan 22 yoshgacha kiritilishini tavsiya qiladi. Ushbu yosh davrida yuz beradigan asosiy o'zgarishlar E.Shpranger bo'yicha:

- a) shaxsiy “Men”ni kashf qilish;
- b) refleksiyaning o'sishi;
- c) o'zining individualligini anglash (tushunish) va shaxsiy xususiyatlarini e'tirof qilish;
- d) hayotiy ezgu rejalarining paydo bo'lishi;
Asosiy qism: Ichki ishlar organlari psixologining kasbiy kompetensiyasi – bu mutaxassisning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy kompetensiyalarining kasbning obyektiv talablariga tizimli muvofiqligi hisoblanadi. Quyida biz ichki ishlar psixologining kasbiy kompetensiyaga oid 10 ta bo‘limini ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Jumaladan:

1. Ichki ishlar psixologining kasbiy kompetensiyasi modeli mutaxassis shaxsining emotsional-irodaviy, intellektual, kommunikativ, motivatsion sifatlarini, uning o'zini o'zi anglash xususiyatlarini, shuningdek, ishbilarmonlik muloqoti, moslashuvchanlik, qaror qabul qilish kabi kasbiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari o'z-o'zini rivojlantirish, natija uchun ijtimoiy mas'uliyat, shaxslararo tushunish, kasbiy ishonch, stressga chidamlilik, xodimlarni rivojlantirish kabi xususiyatlarni ham ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

2. Ichki ishlar psixologining kasbiy malakasi modeli mutaxassisning ish profiliga qarab o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ichki ishlar vazirligining Psixologik va jismoniy terapiya markazi psixologining kasbiy kompetensiyasi, birinchi navbatda, o'z-o'zini anglash, intellektual, hissiy-irodaviy, motivatsion fazilatlarini o'z ichiga oladi mutaxassis shaxsi va qarorlar qabul qilish, natija uchun ijtimoiy mas'uliyat, kasbiy e'tiqod kabi professional kompetensiyalar hisoblanadi.

3. Ichki ishlar boshqarmasi hududiy bo'linmasi psixologining kasbiy kompetensiyasi, eng avvalo, mutaxassis shaxsining kommunikativ, emotsional-irodaviy, motivatsion, intellektual fazilatlarini hamda moslashish, shaxslararo tushunish, stress kabi kasbiy kompetensiyalarni nazarda tutadi.

4. Ichki ishlar organlarining psixologi - bu kasbiy faoliyati ichki ishlar organlari tizimini insonparvarlashtirishga va o'z xizmat faoliyati davomida u bilan munosabatlarda bo'lgan xodimlarga va shaxslarga psixologik yordam ko'rsatishga qaratilgan mutaxassisdir.

5. Psixolog uning faoliyati ko'p jihatdan shaxsga va u ishlayotgan jamoaga maqsadli ta'sir qilishini aniq bilishi kerak. Psixolog oliy ta'lim muassasasini psixologiya mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan, shuningdek oliy ma'lumotga ega bo'lgan va belgilangan tartibda psixologiya bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan (qayta tayyorlashdan) o'tgan shaxslar hisoblanadi.

6. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ta'lim muassasasi psixologining kasbiy kompetensiyasi, birinchi navbatda, o'z-o'zini anglash, mutaxassis shaxsining kommunikativ, intellektual, motivatsion fazilatlarini va o'z-o'zini anglash kasbiy kompetensiyalarni nazarda tutadi.

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarida kasbiy faoliyat jarayonida shaxsga doir psixologik talablar mavjud bo'ladi. Bu talablar uning kasbiy faoliyatini to'g'ri tashkil etish, kasbiy mahoratini oshirish maqsadida qo'yiladi.

Ichki ishlar xodimining o'z sohasiga doir qobiliyatlari bo'lishi va xodim o'z ustida ishlab qobiliyatlari, malakasini oshirishi lozim bo'ladi. Huquqni muhofaza qilish organlarini hayotdagi kasblari sifatida tanlagan fuqarolar, ishga qabul qilinguniga qadar ma'lum darajada rivojlangan fazilatlarga ega bo'lib, buni amalga oshirishni qobiliyat deb bilishadi. Huquqni muhofaza qilish organlarida qobiliyat muammosi quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. Qattiq irodaviy fazilatlar, faollik, maqsadga muvofiqlik, uyushqoqlik, mustaqillik, qat'iyatlilik, jasorat, xavf-xatarga, xavf va muvaffaqiyatsizlikka qarshilik, o'zini-o'zi safarbar qilish qobiliyati;

2. Muloqot qobiliyatlari: muloqotga kirishuvchanlik, ochiqlik, ochiqlik, xayrixohlik, tinglash qobiliyati, suhbatdoshning so'zlariga e'tibor berish, odamlarni tushunish, odamlarni o'ziga jalb qilish qobiliyati;

3. Sabr-toqat, matonat, vazminlik, o'zini tutish, o'zini tuta bilish;

4. O'ziga bo'lgan ishonch, erkin muloqot, yuqori samaradorlik;

Mazkur qobiliyatlar har bir xodimda mavjud bo'lishi va faoliyati davomida rivojlantirib borishi, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatiga ijobiy tasir etib, faoliyatni yanada aniq va adolatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar Jahon psixologlari tomonidan olib borilgan kompleks tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, tartibsiz ish vaqti, huquqbuzarlar bilan doimiy aloqada bo'lish, jinoyat va huquqbuzarliklarni bartaraf etish, uni oldini olish uchun aqliy va jismoniy kuchlarni to'liq sarf qilish zarurligi organizmning funksional zaxiralarini kamaytiradi. Ularning ruhiy va jismoniy charchashi organizmida turli salbiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bunday holatda ichki ishlar idoralari xodimlarining ruhiy sohasiga, ularning stressga chidamliligi va ekstremal sharoitlarda faoliyatga psixologik tayyorgarlikka bo'lgan yuqori talablarni belgilaydi. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari boshqa soha vakillariga qaraganda tez-tez kundalik ishlarida xodimning ruhiyatiga stressli ta'sir ko'rsatadigan qiyin va ba'zan xavfli psixologik vaziyatlarga duch kelishadi. Binobarin stress omillariga uzoq muddatli ta'sir qilishi, hayot uchun doimiy hayotiy tahdid mavjudligi, hayot uchun xavfli shikastlanish ehtimoli katta ekanligi, travmatizatsiya nafaqat kasbiy tayyorgarlik darajasiga, balki shaxsning psixologik fazilatlariga ham yuqori talablarni qo'yadi. Ekstremal sharoitlarda ishlashda psixologik tayyorgarlik juda muhim hisoblanadi.

Xodimning ruhiy holatini va harakatlarini tartibga sola olmasligi, o'zi uchun ham, boshqalar uchun ham salbiy va ko'pincha jiddiy oqibatlariga olib keladi. O'zining xatti-harakatlarini boshqara olmaslik

odamning ushbu atrof-muhit sharoitlariga ijtimoiy-psixologik moslashish qobiliyatini pasaytiradi va uning hayotiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga jiddiy to'siq bo'ladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari ish faoliyatida stressga sabab bo'luvchi ko'plab omillar mavjud. Jumladan notinch hududagi xodimlarning psixologik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan stress omillari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: Jinoyatchi shaxs bilan muloqot, jinoiy ishlarni ochish jarayonlari xizmat jarayonidagi turli to'siqlar, jismoniy va ruhiy shikastlanishlar, kasallik hayotiga xavf tug'diruvchi vaziyatlar, uyqu va bedorlikning biologik ritmini buzilishi (tunu-kun xavfsizlik zarurati); doimiy uy sharoiti yo'qligi, ta'minotning etarli emasligi (oziq-ovqat, asbob-uskunalar, qurol-yarog', o'q-dorilar); og'ir va xavfli xizmat uchun etarli darajada moddiy rag'bat bo'lmasligi, yangi muhitlarga moslasha olmaslik, sotsial munosabatlarda nizolar, hushyorlik, qattiq intizomiy muhit va boshqa holatlar stress holatlariga sabab bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, xodimlarning psixologik o'zini o'zi boshqarish texnikasi va usullarini o'zlashtirishi zamonaviy davrning o'ta dolzarb vazifasidir. Psixologik jihatidan kuchliroq, dushmanga (jinoiyatchiga) qarshi kurashni yaxshiroq bajara oladigan, nafaqat jismoniy va aqliy zaxiralarini oqilona boshqaribgina qolmay, balki psixologik holatini maqbul darajada ushlab tura oladigan xodimlar katta yutuqlarga erishadilar. Shu bois ularning faoliyatida psixologik barqarorlik muhim o'rinda turadi.

Xodimlarning salbiy omillarga qarshi kurashish uchun yangi qobiliyat va imkoniyatlarni izlashiga bo'lgan katta ehtiyoj, o'zlariga va atrofda voqelikka nisbatan ijodiy munosabat, psixologik metodlarni (individual va guruh terapiyasi, ijtimoiy-psixologik trening, meditatsiyalar va boshqalar) qo'llash, psixomotsional holatlarni tartibga solish uchun noqulay hayotiy holatlarning zararli ta'sirini engish va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari shaxsi barqarorligini shakllantirishga yordam beradi. Huquqni muhofaza qilish faoliyati yuridik xodimlarning kasbiy mahoratiga yuqori talablarni qo'yadi va bu doimiy ravishda oshib boradi. Shu bois kasbiy mahoratni shakllantirish, xodimning malakasini oshirish mutaxassisni tayyorlashdagi eng muhim vazifalardan biri bo'lib, uning yechimi kasbiy tayyorgarligining asosiy mazmuni va usullarini belgilaydi.

Xulosa: Kasbiy malaka, bilim qanchalik muhim bo'lmasin, xodim avvalambor ish jarayonida ko'nikma va malakalarni egallab borishi lozim bo'ladi. Ko'nikmalarning xususiyatlari: tezlik, aniqlik, tejamkorlik (minimal kuch va energiya sarfini hisobga olgan holda bajarish), mexaniklik (harakatlar texnikasiga e'tibor qaratmasdan ijro etish), stereotiplilik (takrorlash paytida bir xil ijro), konservatizm (o'zgarish qiyinligi), ishonchlilik (buzg'unchi omillarga qarshi kurash) kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Kasbiy mahorat - g'ayrioddiy qiyin vaziyatlarda mutaxassis tomonidan o'zlashtiriladigan muvaffaqiyatli professional harakatlarning murakkab usuli hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda harakat qilishda ulardan foydalanish uchun mutaxassisning bilim va ko'nikmalarini maxsus tayyorgarligi bilan birlashtirish, aqliy tarbiyaga tayanish lozim bo'ladi. Malakada avtomatizm elementlari mavjud, ammo umuman olganda u doimo ongli ravishda amalga oshiriladi. Malakadan farqli o'laroq mahorat tafakkurni aniq va faol ifodalaydi. Agar ko'nikmalar standart, deyarli bir xil, takrorlanadigan vaziyatlarda ishonchli va samarali harakatlarni ta'minlasa, unda mahorat - nostandart, takrorlanishda bir-biridan sezilarli farq qiluvchi mashg'ulot davomida xodimning xatosiz harakat qilishini ta'minlaydi. Ular mutaxassisning mashg'ulotlarida shunday ifodalanadiki, u vaziyatning o'ziga xosligini o'rganishi va tushunishi, unga etarli darajada qaror qabul qilishi, harakatlarning tartibi va usullarini vaziyat haqiqatiga mos kelishi uchun o'zgartirishi, maqsadga eng yaxshi erishish uchun o'zini boshqarish va kerak bo'lganda tuzatishlar kiritishga yordam beradi. Mahoratda doimo ijodkorlik elementi mavjud bo'ladi.

Uning bir qancha xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin: vaziyatning yetarliligi, mazmunliligi, egiluvchanligi, bajarilish tezligi, ishonchliligi, vaziyatga baho bera olish mavaffaqiyatni ta'minlash kabidir.

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining kasbiy va psixologik tayyorligi huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining kasbiy va psixologik tayyorgarligi bir qator tarkibiy qismlardan iboratdir.

Kasbiy psixologik bilim. Ular xodimlarining odamlar, guruhlar psixologiyasi, huquq va tartib holatiga ta'sir qiluvchi psixologik omillar va uning kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa narsalar to'g'risida zaruriy xabardorligini anglatadi. Bu asosan mavhum psixologik bilim emas, balki huquqiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan, "muammolarni hal qilishda" tushunish va mazmunli foydalanish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan "ishlaydigan" bilimdir.

Kasbiy psixologik ko'nikmalar. Bular organ xodimlarining va yuridik shaxslarning professional mutaxassislari tomonidan o'zlashtirilgan huquqni muhofaza qilish va huquqni muhofaza qilish faoliyatidagi psixologik jihatlarni amaliy ko'rib chiqish usullari. Ularning eng muhim uchta guruhi mavjud:

Analitik-psixologik ko'nikmalar - rejalashtirilgan va davom etayotgan kasbiy harakatlarda psixologik tomonni ko'rish qobiliyati, uni to'g'ri tahlil qilish qobiliyati, uning roli va harakatlarga ta'sirini

to‘g‘ri baholash qobiliyati, kasbiy psixologik asoslarni qabul qilish, to‘g‘rilash va amalga oshirish qobiliyati va qarorlari.

Taktik va psixologik ko‘nikmalar – bu taktik ahamiyatga ega bo‘lgan psixologik harakatlarning o‘zlashtirilgan usullari. Ular kasbiy psixologik bilimlarga tayanadi, lekin ular bilan chegaralanib qolmaydi va mutaxassisning huquqiy muammolarni hal qilish jarayoniga kiritilgan psixologik harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini o‘zlashtirishida, shuningdek huquqiy harakatlar samaradorligini oshiruvchi psixologik metodlardan foydalanishda ifodalanadi (kuzatuv, tekshirish, so‘roq qilish, shaxsiy tergov va boshqalar).

Texnik va psixologik ko‘nikmalar – organ xodimlarining asosiy psixologik vositalarini egallashini tavsiflaydi: nutqli, nutqsiz. O‘z ishini ustasi to‘g‘ri so‘zlarni tanlash va so‘z birikmalarini tuzish, ularni tegishli emotsional rang bilan talaffuz qilish, yuzga mos ifodani berish uchun mimikalardan foydalanish, pozitsiya va kerakli ifodalilik, o‘zini kerak bo‘lganda aqlli va bilimidan to‘g‘ri foydalana olish.

Kasbiy rivojlangan psixologik fazilatlar – kasbiy va psixologik tayyorgarlikning ushbu uchinchi komponenti huquqni muhofaza qilish organlari xodimi faoliyati uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan, ammo tajribada va o‘quv jarayonida kasbiy rivojlanishni olgan turli xil psixologik fazilatlarini (bilish jarayonlari, sezgilar, idrok tafakkur, xotira, irdok va boshqalar) o‘z ichiga oladi.

Adabiyotlar:

1. Vasilev V.L. Huquqiy psixologiya. - SPb.: Piter, 2000.
2. Romanov, V.V. Huquqiy psixologiya / V.V. Romanov. - M.: Yurist, 2006. - 588
3. Umumiy psixologiya. Ed. Petrovskiy A.V.. - M.: Ta'lim, 1986 yil.
4. Amaliy huquqiy psixologiya. Ed. Stolyarenko A.M... - M, 2008 yil
5. Elov Z.S. Psychological influence of speech disorders and the causes that cause them on the child's psyche. Academia Globe: Inderscience Research. volume 3, Issue 1, January-2022 39-42
6. Elov Z.S. O‘smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta’siri. Science and Education. №3 442-447
7. Elov Z.S. O‘smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta’siri. “psixologiya” ilmiy jurnal1, 2022. 27-29
8. Элов З.С. Суицидал хулқ шаклланишининг илмий адабиётларда ўрганилиши: назарий таҳлиллар. ЎзМУ хабарлари. 2016 269-271
9. F.F.Usmonov. Z.S.Elov.SUICIDE–AS A Global problem facing humanity. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3 (02), 349-354
10. Berdiyeva D.Sh., Elov Z.S. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. Volume 2, Issue 2 February 2022. 1003-1009
11. Elov Z.S. “Affekt holati va uning sud-psixologik ekspertizasi”. таълим ва инновацион тадқиқотлар/ 2022. 1(9) 306-311
12. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Psixologiya. Учредители: Бухарский государственный университет, 31-38.
13. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son109-115b.
14. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021yil, 4 son103-112b.
15. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Экстремал вазиятларда копинг хулқ-атвор ва стратегиялар намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021yil, 3son98-106b.



BOSHQARUV FAOLIYATIDA QAROR QABUL QILISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Tilavov Muxtor Xasan o'g'li,

Buxoro davlat universiteti

Psixologiya va sotsiologiya kafedrası o'qituvchisi

Boshqaruv jarayonida qaror qabul qilish rahbarning eng asosiy sifatlaridan biri hisoblanadi. Boshqaruv uslublaridan vaziyatga qarab foydalanish ko'nikmasini har bir rahbarda shakllantirish lozim bo'ladi. Buning uchun rahbar barcha boshqaruv uslublarini puxta egallagan bo'lmog'i talab etiladi. Fikrimizcha, bunday tadqiqotlarning o'tkazilishi boshqaruv psixologiyasi fanini yangi ma'lumotlar bilan boyitgan bo'lar edi.

Kalit so'zlar: qaror qabul qilish, xavotirlanish, boshqaruv, boshqaruv uslublari, rahbar, personal, tashkilot, boshqaruv ko'nikmalari, bilish jarayonlari, liberal, demokrat, avtoritar, individual psixologik xususiyatlar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ В УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Принятие решений в процессе управления - одно из главных качеств руководителя. Навык использования стилей управления в зависимости от ситуации необходимо будет сформировать у каждого руководителя. Это требуется для того, чтобы руководитель овладел всеми стилями управления. Мы считаем, что проведение таких исследований обогатило бы науку психологии управления новыми данными.

Ключевые слова: принятие решений, тревожность, управление, стили управления, лидер, персонал, организация, управленческие навыки, когнитивные процессы, либеральные, демократические, авторитарные, индивидуально-психологические особенности.

PSYCHOLOGICAL PECULIARITIES OF DECISION-MAKING IN MANAGEMENT ACTIVITIES

Decision-making in the management process is one of the main qualities of a leader. The skill of using management styles, depending on the situation, will need to be developed by each manager. This requires the manager to master all management styles. We believe that conducting such studies would enrich the science of management psychology with new data.

Key words: decision-making, anxiety, management, management styles, leader, staff, organization, management skills, cognitive processes, liberal, democratic, authoritarian, individual psychological characteristics.

Mavzuning dolzarbligi. Jahonda boshqaruv faoliyatini samaradorligini oshirish, rahbar xodimlarning qaror qabul qilish kompetensiyalarini takomillashtirish ishlari doim aktual muammolardan biri bo'lib kelgan. Qolaversa, zamonaviy boshqaruv uslubi, qaror qabul qilishda rahbarlarga xos xarakterologik sifatlar, boshqaruv qarorlariga quyiladigan talablar, boshqaruvning ijtimoiy-psixologik jihatlari, strategik qarorlar qabul qilishning o'ziga xosliklari, boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda uni ijrosini ta'minlashning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy asoslari kabi maslалalarning ilmiy-amaliy yechimlari, kadrlar tizimini qayta isloh qilish ishlarida qator o'zgarishlar olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Ana shu jihatdan qaralganda, mazkur dissertatsiya mavzusi o'rganilish jihatdan o'ta ahamiyatli sanaladi. Hozirga qadar, boshqaruv qarorlari muammosi qator ijtimoiy fanlar tomonidan o'rganilgan, jumladan, psixologiya, sotsiologiya, iqtisod, huquqshunoslik va pedagogika kabi fanlar, uning o'ziga xos tomonlarini kengroq tadqiq etishni davom ettirmoqda. Mazkur sohalar ichida psixologiya fani ma'lumotlari ahamiyatli sanalib, unda zamonaviy boshqaruv faoliyati hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishning ijtimoiy-psixologik jihatlari borasida, o'ta qiziqarli va ilg'or bilimlar aks etgan.

Ma'lumki, qaror qabul qilish inson faoliyatining barcha turlari uchun xos bo'lgan ijtimoiy-psixologik jarayondir. Shuningdek, qaror qabul qilish “noaniq vaziyatlarda dastlabki axborotlarni o'zgartirish asosida,

maqsad sari olib boruvchi, xatti-harakatlar izchilligini ta’minlovchi irodaviy aktdir. Bundan tashqari, qaror qabul qilish jarayoni insonning maqsadga muvofiq faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u shaxsiy hayotda har bir insonning kasb tanlash, oilaviy munosabatlarni hal qilish, dam olish va ishlash, o‘z byudjetini taqsimlash, boshqalarni boshqarish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabi harakatlarida namoyon bo‘ladi. Hozirga qadar, ushbu ilmiy tushucha haqida ko‘plab fanlarda psixologiya, sotsiologiya, falsafa, menejment kabi fanlar keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq ushbu tadqiqotlar ichida psixologiya sohasida ya’ni ijtimoiy-psixologiya yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar o‘ta muhim ahamiyatli hisoblanib, ularda qaror qabul qilishning tabiati, boshqaruv qarorlari, rahbar shaxsiga xos boshqaruv uslubi hamda qaror qabul qilish fenomeniga oid ilg‘or xorij konsepsiyalari, ijtimoiy-psixologik yondashuvlar o‘z aksini topgan. Ularni o‘rganish nafaqat psixologiya fani uchun, balki jamiyatimiz boshqaruvi uchun ham ko‘plab o‘zgarishlar va yangiliklarni olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

O.D.Volkogonovaning aytishicha, qaror qabul qilish jarayoni alohida ahamiyatga ega hodisa sanalib, u inson faoliyatining har qanday yo‘nalishida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga mazkur jarayon, fanlararo tadqiqotlarning perimetri bo‘lib, unda bir qator bilimlarning integratsiyasi yuz beradi. Bunda qaror qabul qilishga xos axborot, iqtisodiy, psixologik, mantiqiy, tashkiliy, matematik, huquqiy kabi jihatlar ajratiladi¹. Demak, qaror qabul qilish nafaqat insonning imkoniyati qolaversa, tashqi muhitning omillariga ham bog‘liq hisoblanadi.

A.G.Evlanov o‘zining “Qaror qabul qilish nazariyasi va amaliyoti” darsligida, qaror qabul qilish masalasiga alohida to‘xtalib, uni shunday ta’riflaydi: “inson o‘z ishi doirasida turli xil qarorlarni qabul qiladi yoki biror masala yuzasidan bir to‘xtamga keladi. Qaror qabul qilishning samaradorligi bu, subyektning o‘z faoliyatidan yaxshi xabardorligi bilan belgilanib, unda shaxsning motivatsiya darajasi, tavakkal qila olish qobiliyati, hayotiy tajribasi hamda aqliy imkoniyati kabilar ajratiladi”². Muallifning mulohazalaridan shuni ko‘rish mumkinki, qaror qabul qilish nafaqat hayotiy tajriba, balki sohaga oid o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanganlik darajasiga ham uzviy bog‘liqdir.

A.V.Karpovning ta’kidicha, psixologiya fanida turli xil faoliyat va sharoitlarda insonning qaror qabul qilish imkoniyati masalasi, o‘tgan asrning ikkinchi yarmida ko‘pchilik psixolog tadqiqotchilar tomonidan keng miqyosda o‘rganilgan bo‘lib, ushbu tadqiqotlar turkumiga L.S.Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, O.K. Tixomirov, T.V. Kornilova, P.K. Anoxin, Yu.M. Zabrodin, D.N. Zavalishina, V.P. Zinchenko kabi olimlarning izlanishlarini misol qilish mumkin³. Mualliflar asosan, muammoni insonning qadriyatlarini yo‘nalishi va shaxslilik sifatlarini bilan aloqadorligini tekshirib ko‘rishga harakat qilishgan.

Tadqiqotimiz davomida oliy ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan rahbarlarning shaxslilik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha bir qator metodikalardan foydalanib, tegishli empirik ma’lumotlarni qo‘llashga kiritdik. Bundan tashqari mazkur bobda rahbar kompetentligi, boshqaruv usullari, xodimlar tomonidan rahbar shaxsiga bo‘lgan munosabatlarni o‘rganishda qo‘llanilgan metodikalarning uslubiy tamoyillari, tanlangan obyektlarning psixologik tavsifini ishlab chiqish, boshqaruv usullari to‘g‘risidagi tahlillar, tadqiqotda tanlab olingan respondentlarning psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida mazkur tadqiqot uchun ishlab chiqilgan psixologik so‘rovnomma va uning natijalari haqidagi ma’lumotlar qayd etilgan. Shuningdek, Oliy ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan rahbarlarni o‘rganishda mehnat faoliyati davomiyligi bilan bog‘liq omillarini aniqlash va ular o‘rtasida korrelyatsion bog‘liqliklar masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Endi tadqiqotimizning dastlabki metodikasi hisoblangan Riks Uessmanning o‘zini-o‘zi hissiy baholash bo‘yicha rahbarlardan olingan dastlabki statistik natijalar tahliliga o‘tamiz.

1 – jadval

Riks-Uessman shkalasi bo‘yicha o‘zini-o‘zi hissiy baholash omillarining namoyon etilishi

№	Omillar	mezon	Obyektlar			
			35-40 yosh n ₁ =62		40-45 yosh n ₂ =58	
			M	S	M	S
I	Xotirjamlik Asabiylik	A	4,5	1,1	4,6	1,2
		B	6,5	2,9	5,4	2,4
II	Hissiy-ko‘tarinkilik	A	4,1	1,0	4,7	1,1

¹ Волкогонова О.Д. Управленческая психология: учебник - М.: ИД ФОРУМ: НИЦ ИНФРА-М, 2015. – С.98.

² Евланов А. Г. Теория и практика принятия решений / А.Г. Евланов. - М.: Экономика, 2005. – С.66.

³ Карпов А. В. Психология принятия решений : Монография / А. В. Карпов; Институт психологии РАН; ЯрГУ. – Ярославль, 2003. – С.103.

	Hissiy-tushkunlik	B	5,9	2,7	5,3	2,3
III	G‘ayrat-shijoatlilik Toliqqanlik	A	4,4	2,9	5,2	2,5
		B	5,6	0,6	4,8	1,3
IV	Ishonchlilik Ishonchsizlik	A	5,2	2,5	5,6	2,6
		B	4,8	1,2	4,4	1,9

Avvalo shuni ta’kidlash joizki, o‘zini-o‘zi hissiy baholash omili bo‘yicha qo‘shimcha ravishda olib borilgan kontent tahlil natijalarida rahbarlardagi mehnat faoliyati davomiyligiga ko‘ra biroz bo‘lsa-da tafvutlarning borligi seziladi. Jumladan, berilgan ochiq va yopiq savollarning javoblari va individual suhbat natijalaridagi ko‘p marta takrorlangan tushunchalarning umumiy qiymatlari tahlilida ham “adekvat” va “noadekvat” ko‘rsatkichlar xarakteri tahlil qilindi. Unga ko‘ra, 35-40 yoshli rahbarlarda eng yuqori natijalar “asabiylik” (6,5), “hissiy-tushkunlik” (5,9) hamda “toliqqanlik” (5,6) omillarida kuzatilgan bo‘lsa, eng quyi natijalar esa “hissiy-ko‘tarinkilik” (4,1), g‘ayrat-shijoatlilik (4,4) va “Xotirjamlik” (4,5) omillarida kuzatildi. 40-45 yoshli rahbarlar orasida esa eng yuqori natija “asabiylik” (5,4), “hissiy-tushkunlik” (5,3) hamda “G‘ayrat-shijoatlilik” (5,2) da kuzatildi. Umuman, Riks-Uessman uslubiga daxldor ko‘rsatkichlardagi “asabiylik”ning rahbarlarning barcha toifasiga yuqori o‘rinlarda turishi muammoli shaxslardagi notekis o‘zgarishlar, shaxsiga xos vaqtinchalik inqiroz holatining ta’siri bilan bog‘liq omillarning mavjudligini ko‘rsatadi. Olingan bu ma’lumotlar metodika mazmuniga mos oldingi ma’lumotlar tahlilining obyektivligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida barcha o‘rganilgan guruhlariga nisbatan respondentlardagi o‘zini-o‘zi hissiy baholash omillari namoyon etilishining oraliq diapazonlari aniqlanganda quyidagi holatlar yaqqol namoyon etildi.

2 – jadval

Riks-Uessman shkalasi bo‘yicha respondentlarda o‘zini-o‘zi hissiy baholash omillari namoyon etilishining oraliq diapazonlari (% hisobida)

№	Obyekt Motivatsiya	35-40 yosh n ₁ =62	40-45 yosh n ₂ =58
1.	I		
	A	40,0-63,0	33,4-50,0
	B	37,0-60,0	43,8-66,6
2.	II		
	A	48,3-66,7	40,0-60,0
	B	33,3-51,7	38,5-50,0
3.	III		
	A	46,4-66,7	43,8-70,0
	B	33,3-53,6	20,0-50,0
4.	IV		
	A	46,7-64,3	50,0-66,6
	B	35,7-53,3	33,4-50,0

Riks-Uessman shkalasidagi I^a (xotirjamlik) mezoni bo‘yicha 35-40 yoshlilar orasida 40,0 foizdan – 63,0 foizgacha, 40-45 yoshlilar 33,4 foizdan – 50,0 foizgacha bo‘lgan adekvat ko‘rsatkichlar miqdorining xarakterli ekanligi kuzatilgan bo‘lsa, aynan shu mezonga teskari bo‘lgan asabiylik I^b mezoni bo‘yicha esa 35-40 yoshlilar 37,0 – 60,0, 40-45 yoshlilar 43,8 – 66,6 oraliqidagi miqdorlar qo‘llash namoyon etildi. Demak, ushbu ko‘rsatkichlarning turli-tumanligini har bir shaxsning o‘ziga xos individual-psixologik imkoniyatlarining mavjudligi bilan izohlash mumkin. Chunki Oliy ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan rahbarlarning har bir guruhida xotirjamlik va asabiylik holatlari turli tuman darajada namoyon etiladi. Ushbu tendensiya ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi yo‘nalishlar uchun xarakterli bo‘lgan “a” (adekvat) va “b” (noadekvat) mezonlar bo‘yicha namoyon etilgan ko‘rsatkichlar miqdorida ham o‘z ifodasini topganligini alohida qayd etish mumkin (1-jadvalga qaralsin). Demak, Riks-Uessman shkalasi bo‘yicha rahbarlarda ushbu oraliq diapazonlarining tadqiq etilishi muayyan darajadagi ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi.

Demak, oliy ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan rahbarlarga psixologik xizmat ko‘rsatish qo‘llaniladigan kontent-tahlil uslubi psixologik xizmat jarayonida muayyan darajadagi o‘ziga xos ijtimoiy psixologik qonuniyatlarni va ma’lum maqsadga qaratilgan metodika talabi bo‘yicha ko‘p marta

qaytariladigan javoblar tahlilidan kelib chiqib o‘rganilishi ularning faoliyatining samaradorligini oshirishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Волкогонова О.Д. Управленческая психология: учебник - М.: ИД ФОРУМ: НИЦ ИНФРА-М, 2015. – С.98.
2. Евланов А. Г. Теория и практика принятия решений / А.Г. Евланов. - М.: Экономика, 2005. – С.66.
3. Карпов А. В. Психология принятия решений : Монография / А. В. Карпов; Институт психологии РАН; ЯрГУ. – Ярославль, 2003. – С.103.
4. Дункан Джек У. Основополагающие идеи в менеджменте. – М.: Дело, 1996.
5. Кричевский Р.Л. Если Вы - руководитель. Элементы психологии менеджмента в повседневной работе. – М.: Дело, 1988.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Asatova Barfiya Faxridinovna

Buxoro davlat universiteti Pedagogik ta’lim fakulteti

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrası stajyor-tadqiqotchisi

barfiya.asatova@mail.ru

Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari ishlar mazmuni, turlari, uni takomillashtirish metodikasi, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘quvchi yoshlarni kelajakda har tomonlama yetuk shaxs etib tarbiyalashda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan. Shuningdek, fan to‘garaklari tashkil etishda to‘garak rejasini tuzishda ahamiyat berish kerak bo‘lgan elementlar, ya‘ni to‘garak mavzularini tuzishda o‘quvchilarning yoshini, qiziqishini inobatga olgan holda tuzish kerakligi, o‘quvchilarni to‘garaklarga jalb etish usul va vositalari haqida, o‘quvchilarni bo‘sh o‘zlashtiruvchi va iqtidorli o‘quvchilar guruhiga ajratib ishlash yaxshi samara berishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tadbir, to‘garak, qiziqish, rivojlantirish, metod, boshlang‘ich sinf, kechalar, sinfdan tashqari ishlar, qobiliyat, tarbiya.

МЕТОДИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОДЕРЖАНИЯ ВНЕКЛАССНОЙ РАБОТЫ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

В данной статье речь идёт о содержании и видах внеурочной деятельности в начальных классах, методах её совершенствования, содержательной организации свободного времени учащихся, развитии творческих способностей, значении организации внеурочной деятельности в воспитании учеников младших классов, чтобы в будущем они стали зрелыми личностями. Также освещаются элементы, которым следует придавать значение при создании плана деятельности кружка при организации научных кружков, то есть тематика кружка должна создаваться с учётом возраста и интересов учащихся, методов и средств привлечения учеников в кружки. Предпочтительноразделить учеников на группу слабообучаемых и одарённых учеников.

Ключевые слова: мероприятие, кружок, интерес, развитие, метод, начальный класс, вечера, внеклассные занятия, способности, воспитание.

EXTRA-CLASS ACTIVITIES IN PRIMARY GRADES CONTENT IMPROVEMENT METHODOLOGY

This article is about the content and types of extracurricular activities in primary grades, methods of its improvement, meaningful organization of students' free time, development of creative abilities, the importance of organizing extracurricular activities in educating young students to become mature individuals in the future occupation is highlighted. Also, the elements that should be given importance in the creation of the club plan in the organization of science clubs, that is, the topics of the club should be created taking into account the age and interest of the students, the methods and means of attracting students to the clubs about, it was thought that it would be better to divide the students into the group of students with loose learning and gifted students.

Key words: event, club, interest, development, method, primary class, evenings, extracurricular activities, ability, education.

Kirish. 2022-yil 20-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir. Shu bois, birinchi navbatda, e’tiborni Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratamiz. “Najot-ta’limda, najot-tarbiyada, najot-bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”- degan nutqlarini tahlil qilar ekanmiz, endilikda ta’lim va tarbiya O‘zbekistonda eng muhim va oliy maqsadimizga aylantirishimiz

lozimligini anglashimiz mumkin. Ta’lim va tarbiyaga e’tibor berilgan yurtda yuksalish, rivojlanish, gullab yashnash va albatta, tinchlik hukmronlik suradi.

Asosiy qism. Jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida ta’lim jarayoniga qo’yilgan talablar bir xil bo’lgan emas. Chunonchi, ular jamiyat rivojlanishining qonuniyatlaridan va uning eng muhim vazifasi-yosh avlodni o’qitish hamda tarbiyalashdan kelib chiqqan. Hozirgi kunning vazifasi-o’quv jarayonini o’quvchilarda faqat reproduktiv fikrlashni emas, balki ijodiy fikrni ham shakllantiradigan yo’sinda tashkil qilishdir. Bunda boshlan’ich sinf o’quvchilari bilan tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati yuqori hisoblanadi.

Sinfdan tashqari ishlar — umumiy o’rta ta’lim maktabi o’quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi bo’lib, o’quvchilarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlar o’quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Dunyoqarashini kengaytiradi, mustaqil fikrlay oladigan yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari ishlarga o’quvchilar bilan o’tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg’ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg’ulotlar pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o’z-o’zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi. O’quvchilarning sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o’quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyohlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida ommaviy ishlar (maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, davra suhbatlari, munozara va tanlovlar o’tkazish, viktorina va ko’rgazmalar uyushtirish, tabiat qo’yniga, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqish), to’garak ishlari (o’quvchilarning turli to’garaklar, teatr, sport seksiyalari, ansambllardagi qatnashishlari), mustaqil ishlar (o’quvchilarning sinfdan tashqari o’qishi, kolleksiya to’plashi, texnika, musiqa, tasviriy san’at, chizmachilik bilan mustaqil shug’ullanishi)ni ko’rsatish mumkin.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida, ayniqsa boshlang’ich sinflarda o’tkaziladigan tadbirlar o’quvchilarni turli she’rlar, raqslar, sahna korinishi uchun yodlanadigan qahramonlar matnlari va obrazlarga kirish uchun aktyorlik mahoratlari o’quvchi yoshlar ongiga bir umrga singib boraveradi. Har qanday bilim yodlanib, rolga kirib bajarilib, his qilib, hayajonda ijro etilsa, bunday yangi bilim bolaning esida bir umrga qoladi. Buyuk siymolarimizning tavalludiga bag’ishlangan kechalarda yodlanadigan g’azallar (1-rasm), sahna ko’rinishidagi obrazlar ijrosi (2-rasm) oddiy 45 daqiqalik darsda o’sha adibning hayoti va ijodi bilan tanishishdan ko’ra ko’proq yodida qoladi.



1-rasm. “Bobur buyuk shaxs” tadbirida g’azalxonlik



2-rasm. “Bobur buyuk shaxs” tadbirida g’azalxonlik

Sinfdan tashqari ishlardan yana biri bu maktabda teatrlarni tashkil etish, ya’ni ertaklarni sahnalashtirish. Boshlang’ich sinflarda darslikda o’tilgan yoki mashhur ertaklarni sahnalashtirishdan maqsad har bir o’quvchining yashirin qobiliyatini yuzaga chiqarish, qaysidir fanlarni o’qitishda passiv bo’lgan o’quvchilarni ko’proq jalb etib, uning o’ziga bo’lgan so’nib borayotgan ishonchini qayta uyg’otib o’zini namoyish etish imkoniyatlarini yaratib berishdan iborat bo’ladi. Teatrni sahnalashtirishning ilk bosqichi o’quvchilarning yoshi, qiziqishi va asosiysi ibrat bo’la oladigan ertak yoki asarni tanlay olishdir. Keyingi

bosqichi har bir o‘quvchining qobiliyatiga qarab rollarni taqsimlash bo‘lib, bunda darslarda aktiv bo‘lmasada qandaydir qobiliyatini sinchiklab topib, shunday past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni ko‘proq jalb qilish lozim. Bundan maqsad, bunday o‘quvchilarning maktab hayotida o‘z o‘rni borligini ko‘rsatib berishdir. Qolgan tashkiliy ishlar teatr rahbarining ijodkorligi va dunyoqarashiga bog‘liq bo‘lib, aktyorlar kiyimlari, aktyorlar gramlari, har xil sahna dekoratsiyalari, jihozlar va shunga o‘xshash kichik detallarga e‘tibor bergan holda teatr namoyish etilsa, bolaning yodida bir umrga qoladigan sinfdan tashqari ish bo‘lib qoladi.(3-rasm)



3-rasm. “Zumrad va Qimmat” ertagidagi ishtirok etgan qahramonlar

O‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda fan to‘garaklarining o‘rni juda muhim. Bolaning qiziqishiga qarab, fan to‘garaklariga jalb etiladi. Boshlang‘ich sinflarda sinf rahbar odatda o‘z sinfidagi o‘quvchilarni o‘zining fan to‘garaklariga jalb etadi. “Yosh matematiklar” yoki “Ona tilim-jonu dilim” deb nomlanuvchi ona tili va matematika fanlaridan to‘garaklar tashkil etib, matematikaga qiziquvchilarni matematika to‘garagiga, ona tili faniga qiziquvchilarni ona tili to‘garagiga jalb etadi. Bu fan to‘garaklari rejasi o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishi, Davlat ta‘lim standartlariga mos bo‘lgan mavzular asosida tuzilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Ba‘zi ustozlarimiz sinfdagi o‘quvchilardan bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni alohida, iqtidorli o‘quvchilarni alohida saralab olib to‘garaklar tashkil etadilar. Bunday usulning ijobiy tomoni iqtidorli o‘quvchilarning ma‘lum bir fan yuzasidan iqtidorini yanada rivojlantirib, ular bilan yuksak natijalarga erishish mumkin. Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan alohida ishlash esa ularning bo‘shliqlarini aniqlab, ushbu bo‘shliqlar ustida ishlab ularni tengdoshlariga yetkazib olish kabi natijalarga erishish mumkin. Bunday usulning salbiy tomoni esa iqtidorli ham emas, bo‘sh o‘zlashtiruvchi ham bo‘lmagan o‘rtadagi o‘quvchilar bo‘sh qolib ketishi mumkin.

Muhokamalar va natijalar. Boshlang‘ich sinflarda fan to‘garaklarini o‘quv reja asosida tuzilgan mavzularni mustahkamlovchi topshiriqlar asosida tuzilsa, uzviylashtirilgan o‘quv dastur asosida taqvimiy-mavzuviy ish reja mavzularini o‘tish jarayonida tushunmay qolingani murakkab mavzular fan to‘garaklari rejasiga kiritilib ularni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lsa, o‘qituvchi yaxshi natijaga erishadi, deb o‘ylayman. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mana shunday to‘garak daftarlarni yaratdim. Ushbu mashq daftarlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining har bir sinfi uchun tuzilgan bo‘lib, matematikadan qo‘shimcha misol va masalalar, mantiqiy topshiriqlar (4-rasm), ona tili va o‘qish savodxonligi fanidan suhbatlashish uchun rangli rasmlar, nutq o‘stirish mashqlarini o‘z ichiga oladi(5-rasm). Asosiysi har bir mavzu maktab darsliklari mavzulari yuzasidan tuzilgan bo‘lib, ushbu mavzularni mustahkamlashga keng imkon yarata oladigan mashq daftarlari sifatida yaratildi. O‘quvchilar bilan fan to‘garaklarimda ishlar ekanman, o‘quvchilar dars davomida zo‘riqqan, bir xillikdan charchagan, uyga borib o‘ynash xayolini egallab olgan bir paytda siz fan to‘garaklarni boshlaysiz. Buning uchun avvalo o‘quvchilar bilan didaktik o‘yinlar, psixologik mashqlar o‘tkazib, to‘garakka jalb etishga harakat qilinadi. To‘garak topshiriqlarini bajarayotib yana har 20 daqiqada o‘rinlaridan turg‘izib dam olish daqiqalari o‘tkaziladi. Dars davomida mavzuni tushunishga qiynalgan o‘quvchilar bilan to‘garak mashg‘ulotlarini o‘tishda alohida shug‘ullanishga harakat qilasiz. Mavzuni yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchilar esa o‘zlari mustaqil topshiriqlarni bajaraveradi. “Takrorlash bilimning otasi”

deganlaridek, bu tarzda tuzilgan to‘garak mashg‘ulotlarni o‘tarkansiz, fanning har bir mavzusini mustahkamlashga va yaxshi natijalarga erisha olasiz.

MASHG'ULOT № 8

Sana: _____

Mavzu: Tenglamalar

1-topshiriq. Tushirib qoldirilgan sonlarni toping.

$(60 - \square) : 5 = 9$	$40 \cdot \square - \square = 100$
$\square \cdot 2 - 40 = 80$	$240 : \square + 80 = 200$
$(82 - \square) \cdot 7 = 70$	$360 : \square + \square = 200$
$(64 + 36) : \square = 25$	$80 \cdot \square - \square = 200$

2-topshiriq. Tenglamani bajaring.

$a + 80 = 3200 : 8$ $c \cdot 5 = 2190 : 3$

$a + 3010 = 2001 \cdot 5$ $540 : c = 246 : 41$

4-rasm. “Mohir hisobchi” to‘garak mashq daftaridan namuna

Sog' tinda sog'lom aql

Sana: _____

1. So'zlarni bo'g'irlarga ajratib yozing.

Vitaminlar- _____

Bakteriyalar- _____

Sabzavotlar- _____

Gigiyena- _____

Viruslar- _____

Badantariya- _____

Tozalik- _____

Iste'mol- _____

Mevalar- _____

2. Berilgan so'zlardan foydalanib, matnda tushirib qoldirilgan so'zlarni yozing: odamlar, meva, urug', vaqt, shirin, uzoq

Tarixchilar _____ sabzavotlarni ekish va o'stirishni odamzot hali tosh asridayoq o'zlashtirgan deyishadi. Avvaliga ibtidoiy odamlar shunchaki yovvoyi holda o'sib turgan _____ va sabzavotlarni iste'mol qilgan. Keyinchalik ularning _____ va danaklarini saqlab, ekib ko'paytirish orqali asta-sekin dehqonchilikka o'rganishgan. _____ o'tishi bilan esa ekilayotgan narsalarning eng yaxshilari, hosildor, _____ va dorivorlari saralanib, seleksiya jarayoni amalga oshib borgan. Shu tariqa _____ asrlar davomida odamlar sabzavotlarni biz bilgan bugungi ko'rinishga keltirdi.

5-rasm. “Savodxon bolajon” to‘garak mashq daftaridan namuna

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabga ilk qadam qo'yar ekan, ular misli oq qog'ozga o'xshaydi. Bu qog'ozga oddiy qalam bilan yoki turli rangli bo'yoqlar bilan tasvirlar chizish biz pedagoglarning pedagogik mahoratimizga bog'liq. Bugungi jadal rivojlanib borayotgan jamiyat yuksak qobiliyatli, har tomonlama ta'lim va tarbiya olgan, dunyoqarashi keng, intellektual salohiyatli kreativ insonlarga muhtoj ekan, bunday yosh avlodni o'stirib berish biz pedagoglar zimmasida ekanligini yodimizdan chiqarmasligimiz zarur.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20-dekabr 2022.
2. M.Ochilov. Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma T.: O'qituvchi. 2004-yil
3. N.Egamberdieva, Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O'zMKNT.: 2009-yil.
4. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Toshkent, 2011. 423 b.

5-6 YOSHDAGI BOLALAR UCHUN O‘YIN FAOLIYATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Safoyev Hasan Aminovich,

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
Jismoniy madaniyat kafedrası dotsenti

Ushbu maqola bola psixikasining rivojlanishida uning shaxsiy faoliyatini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalarni yechishga qaratilgan bo'lib, yoshlarni jismonan baquvvat, ma'nan yetuk tarbiyalashda jismoniy tarbiya fani ta'lim-tarbiya jarayoniga, o'quv rejalar, dasturlar, darsliklar hamda metodik adabiyotlardan samarali foydalanish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilganligi belgilab o'tilgan. 5-6 yoshdagi bolalarni o'yin faoliyatini takomillashtirish va natijalarini tahlil qilish bo'yicha xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish hamda amalda tatbiq qilish masalalariga alohida urg'u berilgan. Shuningdek, maqolada 5-6 yoshdagi bolalarning jismoniy va ruhiy holati, bajara oladigan o'yinli mashg'ulotlarning bola tarbiyasidagi o'rni va roli ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: yosh bola, yoshlar, fidokorlik, urf-odat, bilim, ko'nikma, malaka, mahorat, iroda, milliy g'urur, axloq va odoblilik, faoliyat, xatti-harakat, rollar, zamonaviy ta'lim, maktabgacha tarbiya

ХАРАКТЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ 5-6 ЛЕТ

В данной статье развитие психики ребёнка направлено на решение неотложных задач, которые необходимо выполнить для совершенствования его личностной деятельности. Выявлено, что учебники и методическая литература ориентированы на конкретную цель. Акцент сделан на углубленном изучении и практическом применении зарубежного опыта по совершенствованию игровой деятельности детей 5-6 лет и анализе их результатов. Также в статье показано физическое и психическое состояние детей 5-6 лет, место и роль игровой деятельности в воспитании ребёнка.

Ключевые слова: ребёнок раннего возраста, юность, самоотверженность, традиция, знание, умение, навык, компетенция, воля, национальная гордость, нравственность и порядочность, активность, поведение, роли, современное образование, дошкольное образование.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PLAY ACTIVITIES FOR CHILDREN 5-6 YEARS OLD

In this article, the development of the child's psyche is aimed at solving the urgent tasks that must be carried out in order to improve his personal activity. It is determined that textbooks and methodical literature are oriented towards a specific goal. Emphasis is placed on the in-depth study and practical application of foreign experiences on improving the game activity of 5-6-year-old children and analyzing their results. Also, the article shows the physical and mental condition of 5-6-year-old children, the place and role of playful activities in child education.

Key words: young child, youth, dedication, tradition, knowledge, skill, ability, will, national pride, morality and decency, activity, behavior, roles, modern education, preschool education

Kirish. Ma'lumki, bola psixikasining rivojlanishida uning shaxsiy faoliyati muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, psixika faoliyat jarayonida nafaqat namoyon bo'ladi, balki tashkil topadi. Yosh bosqichlarining almashishi yangi yetakchi faoliyatning paydo bo'lishi ta'sirida yuz beradi. Aynan har bir yosh uchun yetakchi faoliyat jarayonida bola butun shaxsiyatining tabiati – bilishi, irodasi, tuyg'ularida muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ammo bu, bola o'z rivojlanishining ma'lum bosqichida faqat bittagina qandaydir faoliyat bilan shug'ullanishini, ya'ni u yoxud kattalar bilan muloqotda bo'lishi, yoxud buyumlar bilan harakat qilishi, yoxud o'qishi va mehnat qilishini bildirmaydi [42].

Asosiy qism. 5–6 yoshli bola o'z repertuarida inson faoliyatining barcha asosiy turlariga ega bo'ladi va ularning har biri uning ruhiy rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Bolaning bu davrdagi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning maktabgacha davrdagi yoshida yetakchi faoliyati hisoblangan o'yin o'rniga navbatdagi yetakchi faoliyat almashinuvi yuz beradi va o'quv faoliyati uning o'ziga xos xususiyati bo'lib qoladi (6 yoshlilarda). T.Y.Krusevich [63] 3–7 yoshli bolalar o'yinini chuqur o'rganish asosida ularning rivojlanish darajasini ajratdi va tavsiflab berdi.

O'yin rivojlanishining birinchi darajasi:

1. Bu darajadagi o‘yinning asosiy mazmuni, birinchi navbatdagi, «ona yoki ta’limchining» bolalarga yo‘naltirilgan harakati hisoblanadi.

2. Bunda o‘yinning roli aniq bo‘ladi, lekin u harakat bilan aniqlanadi, masalan, bir bola onasini, boshqasi otasini yoki yana biri tarbiyachisini, boshqa bolalar esa bog‘cha oshpazini tasvirlaydi. Bolalar birlariga nisbatan real hayotdagidek munosabatda bo‘lmaydilar.

3. Bunda harakatlar bir xil bo‘ladi va bir qator takrorlanuvchi harakatlardan tashkil topadi (masalan, birinchi ovqatdan ikkinchi ovqatga o‘tishda ovqatlantirish).

O‘yin rivojlanishining ikkinchi darajasi:

1. O‘yinning asosiy mazmuni, xuddi avvalgi darajadagi kabi, buyumlar bilan harakatlanish bo‘lib qolaveradi.

2. Bolalarning xatti-harakatlari farqlanadi, vazifalarning taqsimlanishi seziladi.

3. Harakatlarning mantig‘i ularning real voqelikdagi ketma-ketligi bilan aniqlanadi.

O‘yin rivojlanishining uchinchi darajasi:

1. O‘yinning asosiy mazmuni roldan kelib chiqadigan harakatlarni bajarish bo‘lib qoladi, ular orasidan alohida harakatlar ajralib chiqib boshlaydi.

2. Rollar esa tasvirlab berilgan va ajratilgan. Bolalar o‘z rollarini o‘yin boshlanishidan oldin aytadilar.

3. Harakatlar mantig‘i va tavsifi olingan rol bilan aniqlanadi.

4. Harakatlar mantig‘ining buzilishi. E’tiroz bildirish, odatda, bunday bo‘lmaydi, degan bahonaga olib keladi.

O‘yin rivojlanishining to‘rtinchi darajasi:

1. O‘yinning asosiy mazmuni ularning rollarini bajaradigan boshqa bolalarga nisbatan munosabat bilan bog‘liq harakatlarni bajarish bo‘ladi.

2. Rollar tasvirlab berilgan va ajratilgan.

3. Harakatlar real mantiqni qat’iy tiklaydigan ketma-ketlikda rivojlantiriladi.

4. Harakatlar mantig‘i va qoidalarining buzilishidan voz kechish real haqiqatni bahona qilish bilangina emas, balki qoidalarining haqiqiylikni ko‘rsatish bilan ham asoslanadi.

Bizning fikrimizcha, harakatli va xalq o‘yinlari o‘yin rivojlanishining to‘rtinchi darajasiga mos keladi.

5–6 yoshda qoidalari murakkab bo‘lmagan syujetsiz «Mushuk-sichqon», «Quyonglar va bo‘rilar», «Ovchilar va quyonglar» kabi harakatli o‘yinlar soni sezilarli darajada ortadi (kichik maktabgacha tarbiya yoshidagilar bilan taqqoslaganda).

Shuni ta’kidlash muhimki, ular mazmuniga ko‘ra rol emas va o‘yin vaziyati ham emas, balki qoida va vazifalardir. «Qur’a tashlash», «To‘p maktabi», «Bekinmashoq» kabi o‘yinlarda bolalar qo‘yilgan maqsadga erishadilar. O‘yin turining rivojlanishi ko‘proq o‘yin topshirig‘ini ajratish va anglashdan iborat.

O‘yinlarni o‘tkazish jarayonida o‘zining kelib chiqishi va vazifasi bo‘yicha bir nechta turli xil o‘zaro munosabatlar paydo bo‘ladi. Bular o‘yin boshlangunga qadar vujudga kelgan nisbatan barqaror shaxslararo munosabatlardir. Ular asosida o‘yinning syujeti va mazmuni bilan bog‘liq syujetli-rolli munosabatlar yuzaga keladi va rivojlanadi: bolalar o‘z harakatlarida tasvirlayotgan qahramonlar o‘zaro munosabatlarining mazmuni va tavsifi haqidagi o‘z tasavvurlarini mujassamlashtiradilar (sotuvchi va xaridor, kapitan, matroslar va yo‘lovchilar; shifokor va bemor).

Shunday qilib, bolalar o‘z o‘yinlarida real jamoa hayotidagi yanada murakkabroq o‘zaro munosabatlarga kirishadilar, birgalikdagi o‘yinlar ta’sirida bolalarda jamoaviy xulq me’yorlari tarbiyalab boradi; keyinchalik ular bolalar tomonidan o‘yindan tashqariga ham o‘tkazilib, xulqining umumiy normalariga aylanadi. Yuqorida bayon etilganlar 5–6 yoshli bolalar milliy va harakatli o‘yinlaridan foydalanish dasturini maktabgacha ta’lim muassasasi sharoitida ishlab chiqish zarurati haqida gapirish imkonini beradi.

Bir qator mualliflarning bolaning ruhiy rivojlanishida o‘yinning ahamiyati haqidagi fikrlari qiziqish uyg‘otadi, chunki o‘yin bolalarning sevimli mashg‘ulotigina emas, u maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar faoliyatining yetakchi turi hamdir. Aynan unda asosiy yangi jihatlar, bolaning kichik maktab yoshiga o‘tish jarayoni shakllanadi.

A.M. Ochilov [2007], Y.A. Kirilov, Masharipovalar [2009] o‘zlarining tadqiqotlarida harakatli o‘yin faoliyatining o‘ziga xos turlaridan biri sifatida nafaqat sog‘liqni, funksional imkoniyatlarni mustahkamlashi, balki shaxsning fikriy bog‘lanishi va ijodiy asosini rivojlantirib, maktab haqidagi tasavvurlarini amalga oshirgan holda fikrlash faolligini orttirishini ta’kidlaganlar. Harakatli o‘yin faoliyatida bola o‘z hayotiy bilim darajasini kengaytiradi. O‘yin jarayonida bolalar sabr-bardoshli bo‘lishga, tajribaga asoslanishga o‘rganadilar, bu sifatlar bolalar va kattalarni bir-birlariga o‘z fikrlari va tuyg‘ularini oshkor etishga qodir sheriklarga aylantiradi.

A.I. Kravchuk [1999] tadqiqotlar natijalariga asoslanib, o‘zining nuqtayi nazarini aytadi. Ya’ni

anatomik — fiziologik rivojlanishning obyektiv qonuniyatlaridan kelib chiqadigan talablarga e’tiborsizlik shunga olib keladiki, harakatlanishi yetuklik darajasida bo’lmagan bolalar kelgusida kamolotga erishishga intilmaydilar, yetarli darajada rivojlanmagan bolalarda esa unga nisbatan qiziqish yo’qoladi. Shunday qilib, bunda alohida yondashuv mavjudligini ta’qidlash mumkin. Bolalar bilan tarbiya ta’lim ishidagi eng muhim psixologik-pedagogik tamoyilga muvofiq har bir bolaning barcha o’ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi zarur.

V.V. Sladkova, L.A. Shmidt, S.N. Sladkov [2007] Ismoilov T.U [2010] lardan iborat mualliflar guruhi bola uchun eng muhimi bolalar bayramlaridir, deb hisoblaydilar — bu yaxshi xayollarga berilish, yomon narsalarni unutishga imkon beradigan quvonchli hodisa. Shu bilan birga, ularning ta’kidlashicha, bayramlar bir-biridan keskin farq qiladi, bu esa tarbiyaning turlicha nuqtayi nazarlari bilan bog’liq. O’z navbatida, mualliflar nima uchundir, harakatli va milliy o’yinlarni bayram dasturiga kiritmaydilar.

B.B. Kipchanov, L. Kandalova, B. Oreshina [2008] Daniyeva [2009] kabi ayrim tadqiqotchilar ta’kidlaganlaridek, harakatli o’yin jarayonida bolalar to’g’rilik, samimiyluk, qo’llab-quvvatlash, yordam berish, baxslashishga o’rganadilar. Harakatli o’yinlarni o’tkazishda bolalar ko’pincha yetakchi hakam rollarini o’ynashlariga to’g’ri keladi, bu esa tashkilotchilikka oid bilim va malakalarning to’planishiga yordam beradi.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilganlar harakatli o’yinlar katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar harakat faolligining almashtirib bo’lmaydigan vositasi ekanligi haqida xulosa qilishga imkon beradi. Bunday o’yinlar shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo’naltirilgan turli xil metod va usullardan kompleks foydalanishning barcha imkoniyatlariga ega.

2008-yil 4-aprelda Rossiya ta’lim akademiyasida ta’lim sohasidagi strategik tadqiqotlar instituti (TSTI) ilmiy kengashining maktabgacha tarbiyaning dolzarb muammolariga bag’ishlangan kengaytirilgan yig’ilishi bo’ldi. Muhokama natijasida maktabgacha tarbiyaning ta’lim standarti loyihasini ishlab chiqishda quyidagi konseptual holatlarni asosiy qoidalar sifatida ma’qullash qarori qabul qilindi:

— maktabgacha tarbiyadarajasini Rossiya Federatsiyasi umumiy ta’lim tizimining birinchi bosqichi sifatida tavsiflash;

— zamonaviy ta’limning maqsad va vazifalari, mazmuni, shakli va metodlarini aniqlash, har bir yosh bosqichidagi o’xshash psixofizik xususiyatlarga ega bo’lgan bolalar rivojlanib boruvchi ta’limi tarkibidagi boshlang’ich ta’limning umumiy ta’lim bilan izchil bog’liqligi [N.Fedina, 2008].

Shuni ta’kidlash kerakki, Rossiya Federatsiyasida uzluksiz ta’lim tizimida maktabgacha tarbiyaning o’rni va darajasi (statusi) masalasi davlat miqyosida ko’rib chiqiladi.

Bundan, maktabgacha ta’lim muammosi nihoyatda dolzarb ekanligi haqida xulosa qilish mumkin. Shuning uchun maktabgacha tarbiya darajasi haqidagi masala qo’yilmoqda. Ushbu mavzuning paydo bo’lishi maktabgacha ta’lim taqdiri uchun tashvishlanish oqibatida kelib chiqqani kabi, vatanimiz pedagogika va psixologiya maktabining ilmiy yutuqlarini maktabgacha bolalik – maktabgacha uyushmaga tatbiq etish munosabati bilan yuzaga kelgan tashvishlanish oqibatida kelib chiqqan.

2006–2010-yillar uchun federal maqsadli dastur faqat katta maktabgacha tarbiya yoshidagi 5–7 yoshli bolalar ta’lim tizimini yaratish bo’yicha masalalarni hal qilishni nazarda tutadi [72].

Bu jihatdan Estoniya maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiyani yo’lga qo’yish qiziqish uyg’otadi. Jismoniy tarbiyani tashkil etishni yaxshilash uchun joylarga maktabgacha ta’lim respublika metodik kabineti va Respublika o’qituvchilar malakasini oshirish institutining birgalikdagi kuchi yo’naltirilgan va jismoniy tarbiya bo’yicha komissiya katta yordam ko’rsatmoqda. Komissiya tomonidan ishlab chiqilgan puxta ko’rsatmalar bolalar bog’chalarida jismoniy tarbiya bo’yicha ishlar sifatini oshirishga sezilarli hissa qo’shmoqda. Bir necha yildirki, respublikada bolalarni jismoniy tarbiya bo’yicha bazaviy maktabgacha ta’lim muassasasi faoliyat yuritmoqda. Bu maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanning yangi yutuqlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi

Ma’lumki, maktabgacha yosh — bu shaxsning rivojlanishi uchun ajoyib bosqich. Aynan ana shu bosqichda bolada atrof olam haqidagi tushuncha shakllanadi, uning aqliy va ruhiy rivojlanishi kuzatiladi, bola miyasining funksional imkoniyatlari esa 6-7 yoshgacha ayniqsa jadal rivojlanadi [S.V. Gurev, 2006].

I.P. Voloshinaning ko’rsatishicha, mashg’ulotlarni o’yin shaklida tashkil etish o’yinning, jumladan, sport o’yinlarining (futbol, xokkey, chillak va b.) elementar malakalarini egallash uchun qulay sharoit yaratadi. Jismoniy ta’lim mashg’ulotlarining o’yin shakli bolaning harakat faoliyatiga kuch baxsh etadi, unga mavzu va vazifa o’rtasida aloqa o’rnatishga yordam beradi, tashabbus va mustaqillikni rivojlantiradi, harakatlarni bir necha marta bajarish uchun sharoit yaratadi. Shuni ta’kidlash muhimki, o’yin shaklidagi jismoniy tarbiya mashg’ulotlarining dasturi 3-4 yoshli bolalar uchun ishlab chiqilgan.

Shuni ta’qidlash kerakki, 5-6 yoshidagi bolalar uchun sport yo’nalishidagi milliy va harakatli o’yinlardan foydalanishni hisobga olib, bugungi kungacha bunday dastur ishlab chiqilmagan.

Muallif I.Krinsilova [2007] bolaning qobiliyatlari va ularni rivojlantirish usullarini o'rganib chiqib, shunday xulosaga keldi:

5-6 yoshli bola tabiiy imkoniyatlarining namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi. Bu paytga kelib bola qobiliyatlarining rivojlanish ko'rsatkichlari yetarlicha yuqori darajaga yetadi, ko'pchilik bolalarda ma'lum turdagi faoliyatni aniq tanlash xususiyati kuzatiladi. Shu bilan birga, bola nafaqat sevimli ish bilan shug'ullanishga qiziqish va xohishini namoyon qiladi, balki uning natijasiga yetarlicha jiddiy va qiziqish bilan qaraydi. Agar avvalgi bosqichlarda faoliyat bola tomonidan faqat shu faoliyatning o'zi uchun boshlangan bo'lsa, endi bola ushbu faoliyat muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ko'p kuch sarflagan holda unda natijaga erishish uchun intiladi.

Bu yuqorida bayon etilgan shartni ta'minlovchi milliy va harakatli o'yinlardan foydalanishga bevosita aloqadordir.

Qoidali harakatli o'yin ongli, faol faoliyat, unda barcha o'ynovchilar uchun majburiy bo'lgan qoidalar bilan bog'liq vazifalarni aniq va o'z vaqtida bajarish orqali maqsadga erishiladi. O'yin jarayonida bolalar turli xil harakatlarni: chopish, sakrash, tirmashish, uloqtirish, ilib olishni mashq qiladilar. Ko'p miqdordagi harakatlar nafas olish, qon aylanishi va modda almashinuv jarayonlarini faollashtiradi. Bu, o'z navbatida, ruhiy faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi

G.N. Golubeva [2008] yosh o'sishi bilan o'ynamaydigan bolalar soni ortishiga e'tibor berdi, ya'ni o'rta guruhda 16% dan tayyorlov guruhi va maktabda 36% gacha. Bu nimadan dalolat beradi? Bolalarning o'ynashga xohishlari va qobiliyatlari yo'qligidan, demakki, o'yin faoliyatining rivojlanmaganidan dalolat beradi. Agar bu ma'lumotlarni D.B. Elkoninning [1999] tadqiqot natijalari bilan solishtirsak, hozirgi zamon maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'yin faoliyati darajasi XX asr tengdoshlariga nisbatan ancha pastligi ma'lum bo'ladi.

Mashhur psixolog D.V. Elkoninning [2008] ta'kidlashicha, tajribali pedagog qo'lida o'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni qayta ta'limlashning kuchli vositasi bo'lishi mumkin, bunday bolalarda atrofdagilar bilan ilgari shakllangan o'zaro munosabatlar natijasida ijtimoiy xulqning noto'g'ri shakllari paydo bo'lgan va tajovuzkorlik, odamovilik, xudbinlik, manmanlik, o'ziga yuqori yoki aksincha, haddan tashqari past baho berish, jamoadagi faoliyatga ko'nikmalarning mavjud emasligi kabi xulq shakllari yuzaga kelgan bo'ladi.

S.L. Rubinshteynning [1996] fikricha, bola o'yinlarining mavzusi qandaydir natija yoki manfaatli samaraga ega bo'lish emas, balki o'yin jarayonida u his qiladigan kechinmalardir.

O'yinning mohiyatiga psixologik baho berar ekan, A.N. Leontev [1999] bola o'yin harakatining mavzusi o'yin natijasi bilan emas, balki o'yin jarayonining o'zi bilan bog'liq. Kattalar o'yinlarida o'yin boshqa fazaga (davrga) o'tadi va aslida o'yin bo'lmay qoladi, chunki o'yinchilarning ichki mavzusi yutuq bo'ladi. Maktabgacha yoshda o'yin bolaning deyarli butun yurush-turushini qamrab oladi. Maktab yoshida o'yin va mashg'ulot, o'yin va mehnat ikki asosiy oqimni hosil qiladi, o'quvchilarning faoliyati ana shu oqimlarda kechadi. O'smirlik va o'spirinlik yoshida mehnat o'yinni tobe o'ringa o'tkazgan holda birinchi rejaga chiqadi. Nazariyaga ko'ra, o'yin mahsuldor faoliyat hisoblanmaydi va mavzu natija emas, balki jarayonning o'zi bilan bog'liq. Shu bilan birga, u yoki bu predmet bilan ilgarilab ketishning mavjud shartlaridan erkinroq. Inson o'z o'yin harakatlarini mavjud buyumlarning o'rnini bosadigan o'yin buyumlariga muvofiq jarayonlar yordamida amalga oshiradi.

O'yin jarayonlari va o'yin harakatlarining mavjud buyumga bunday nomuvofiqligi odamdagi tasavvur qilingan vaziyat natijasidir. Shuning uchun o'yin hech qachon tasavvurlardan tug'ilmaydi, aksincha, tassavur odam tomonidan o'yin faoliyati amalga oshirilayotganda yuzaga keladi O'yinning muhim jihati odam tomonidan tasavvur qilingan vaziyatda boshqa insonlarning mavjud harakatlari va ularning o'zaro bog'liqligi yoki o'yindagi rolning bajarilishini tasvirlashdir. Shuning uchun har qanday rol tegishli qoidalarga ega.

A.N. Leontev [1998] ko'rsatib o'tganidek, o'yinning rivojlanishi quyidagi qonun asosida ro'y beradi: oshkor rolli, oshkor tasavvur qilingan vaziyatli va yashirin qoidali o'yin oshkor qoidali, ammo yashirin rolli va tasavvur qilingan vaziyatli o'yinga aylanadi. O'yinni amalga oshirish jarayonida insonda ijodiy tasavvur shakllanadi. D.B. Elkonin [2008] o'yin nazariyasining markaziy bandi uning tarixiy kelib chiqishi, ya'ni yakka holda o'ynaladigan o'yinlarning guruh bo'lib, so'ngra jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlarga o'tish bosqichlari bo'lganligini aytib, u o'yin inson tomonidan bilim va malakalarni egallash jarayonlari mexanizmlarini o'ziga xos tarzda hisobga oluvchi tarbiya va tarbiya vositasidir, degan xulosaga keldi.

S.Y. Sarnina [1999] o'yinning suhbat sifatidagi o'ziga xos jihatini ajratib ko'rsatgan. O'yin-bu ehtirolar, intilishlar, g'alaba va mag'lubiyatlar suhbatidir. U muloqotning o'ziga xos usuli hisoblanadi, u odamni yangi turlardagi faoliyatning ijodkori va subyekti bo'lish vaziyatiga olib boradi.

O'yin o'qitishning an'anaviy shakllari chegaralanganligidan albatta ustun keladi, chunki qatnashchilarning mislsiz kurashini o'z ichiga oladi.

Ko‘pchilik psixolog va pedagoglarning ko‘rsatishicha, o‘yin insonga turli hayotiy vaziyatlarda o‘zining qobiliyat va mahoratlarini sinab ko‘rish, boshqa odamlar bilan aloqada bo‘lish vaziyatlarida turli buyumlarni o‘zlashtirish hissini rivojlantirishga imkon beradi.

Adabiy manbalar tahlili katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiya, ularning ruhiy va jismoniy sog‘lomligi ta’limchilarning pedagogik faoliyatida asosiy o‘rinni egallaydi, bolalar jismoniy tarbiyaning sog‘lomashtirish vazifasi esa sog‘lomashtirishning asosiy vositasi sifatida qoraladi [117].

Xulosa. O‘yin jismoniy tarbiya bo‘yicha asosiy ish turi sifatida qaralishi ko‘rsatilgan, chunki aynan u bolalarning jo‘shqin xayrixohligiga sabab bo‘ladi va tengi yo‘q hamda bebaho sog‘lomashtiruvchi omil hisoblanadi: u kuchni ishga soladi, qon aylanishini tezlashtiradi, hayotiy jarayonlarning umumiy faolligini kuchaytiradi. Shunday qilib, o‘yin sog‘lomashtiruvchi va bolaning kuchini mustahkamlovchi omil hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiya tizimida, ayniqsa, ularning sportga intilishini hisobga olgan holda milliy va harakatli o‘yinlardan foydalanish muammo bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar :

1. Мадалиев Т.А. Особенности взаимосвязи показателей физической подготовленности и физического развития у детей 5 – 6 лет. -Казакстан Республикаси билим жене тилим министрлиги. Эдистемелик курал. Шимкент 200ж.21с.
2. Lanqe Anderssen K., Rutemfranz L., Masironi R., Seliqer V. Habitual Physical Activity and Health. - Copenhagen: WHO Reg. Publ. Europ. -1992.-Series 6.
3. La Porte R.E., Canley L.A., Kinsey CM. et al. The eqidemiology of physical activity in children, colleqe students, middl - aqed men, menopansal females and monkeys H.L. Chron. Dis. - 1992. - Vol. 35, N 10. - P. 787-795.
4. Mefolam R.E., Dodson S Coneept and practices in elementany ac-tivify proqramms. - Springtiele: Thomas, 1999. - 311 P.
5. Safojev H.A. International Journal of Health SciencesEcuador ,South,Amerika volume 6/ Number 1/ April 2022 V 678-684 p
6. Safojev H.A.Involta Ilmiy Jurnal Uzbekiston:Vol. 1 –No.4 2022.–P.275-281.
7. Safojev H.A Педагогик махорат илмий-назарий ва методик журнал.– Бухоро, 2018. 1-сон, – Б.235-237.
8. Mirzayev O. S., Ravshanov B. X. Sportning voleybol turi bo‘yicha mashqlarning ketma-ketligini tashkil etish //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 4. – С. 163-166.
9. Тухтамурадова Н. А., Равшанов Б. Х. Значение гимнастики для здоровья //international scientific conference" innovative trends in science, practice and education". – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 122-126.
- 10.Safojev H. A. Technologies of education of students in the spirit of military patriotism //scope academic house b&m publishing. – 2020. – С. 8.
- 11.Сафоев Х. А. Некоторые вопросы планирования спортивной подготовки //Academy. – 2020. – №. 3 (54). – С. 82-84.
- 12.Ахмедов М. Б. Реабилитационное значение лечебной физкультуры //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 305-310.

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA BOLA NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA OILANING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TA’SIRI

Shadiyev Feruz Jaxonovich,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqiy rivojlanishiga oilaning ta'siri hozirgi paytda alohida ahamiyatga ega bo'lgan mavzudir. Ushbu muammoga ilmiy qiziqish zamonaviy oilalar o'rin olgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning murakkablashishi, bolalar va ota-onalarning jismoniy va ruhiy salomatligining yomonlashishi, ajralishlar sonining ko'payishi va oilaviy munosabatlarning buzilishi bilan bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini rivojlantirishga oilaning ta'sirini o'rganish zarurati, oilaviy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan va inson rivojlanishining oldingi bosqichlaridagi, ya'ni erta bolalik va boshlang'ich maktabgacha yoshda nutqiy rivojlanish borasida tadqiqotlar mavjud bo'lgan holda, ishlarning yetarli emasligi bilan belgilanadi. Bu esa oilaning er-xotin munosabatlariga emas, balki bola nutqining rivojlanishi kontekstida ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor berish zaruratini asoslaydi.

Kalit so'zlar: bola shaxsi, maktabgacha yosh, nutq buzilishi, oila, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy-psixologik omillar, shaxslararo munosabatlar, nutq rivojlanishi, kognitiv soha.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ СЕМЬИ НА РАЗВИТИЕ РЕЧИ РЕБЁНКА В ДОШКОЛЬНЫЙ ПЕРИОД

Влияние семьи на речевое развитие ребёнка дошкольного возраста в настоящее время имеет особое значение. Научный интерес к данной проблеме обусловлен осложнением социально-экономических условий, включающих современные семьи, ухудшением физического и психического здоровья детей и родителей, увеличением числа разводов и нарушением семейных отношений. Необходимость изучения влияния семьи на развитие речи ребёнка дошкольного возраста определяется недостаточностью исследовательских работ, связанной речевым развитием на предыдущих стадиях развития человека, то есть в раннем детстве и начальном дошкольном возрасте. Это обосновывает необходимость внимания к семейным отношениям не как между партнёрами, а к отношениям между родителями и детьми в контексте развития речи ребёнка.

Ключевые слова: личность ребёнка, дошкольный возраст, нарушение речи, семейные отношения, социально-психологические факторы, межличностные отношения, развитие речи, когнитивная сфера.

THE SOCIAL-PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF THE FAMILY ON THE DEVELOPMENT OF THE CHILD'S SPEECH IN THE PRE-SCHOOL PERIOD

The influence of the family on the speech development of a preschool-aged child is currently of particular importance. Scientific interest in this problem is due to the complication of socio-economic conditions, including modern families, a deterioration in the physical and mental health of children and parents, an increase in the number of divorces and a violation of family relations. The need to study the influence of the family on the development of speech of a preschool child is determined by the insufficiency of research papers related to speech development at previous stages of human development, that is, in early childhood and primary preschool age. This justifies the need for attention to family relations not as partners, but to the relationship between parents and children in the context of the development of the child's speech.

Key words: the personality of the child, preschool age, speech impairment, family relations, socio-psychological factors, interpersonal relations, speech development, cognitive sphere.

Kirish. Oilaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining bola nutqini rivojlantirishga ta'siri bilan bog'liq muammolar ko'pincha pedagoglar, psixologlar, defektologlar, sotsiologlarning diqqat markazidan o'rin olib, munozara mavzusiga aylanib bormoqda. Ammo shunga qaramay, mazkur muammo psixologiyaning kam o'rganilgan sohasi bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, nutq rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar soni har yili o'sib bormoqda va nutq buzilishlarining o'zi tobora murakkab shakllarga ega bo'lib bormoqda. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bolaning nutq rivojlanishidagi kechikish ota-onalar uchun katta maktabgacha yoshda aniq namoyon bo'ladi, bundan tashqari, nutqni rivojlantirishning ma'lum bir darajasi maktabgacha bo'lgan davrdagi o'qishni talab qiladi. Shu bilan birga,

ushbu yoshdagi nutqni rivojlantirishda kechikishni tuzatish mutaxassislar uchun muammo tug'diradi va uni hal qilish psixologik resurslarning maksimal hajmini, shu jumladan oilaviy resurslarni jalb qilishni talab qiladi. Xususan, oilaviy rollar va ularning taqsimlanishi, oilaning barqarorligi va muvaffaqiyati, birgalikdagi oilaviy faoliyat, nikohdan qoniqish, oiladagi hissiy munosabatlar, turmush o'rtoqlar o'rtasidagi aloqa xususiyatlari bolalar nutqini muvaffaqiyatli rivojlantirish shartlaridan biridir.

Asosiy qism. Maktabgacha bo'lgan yosh davri ko'plab aqliy funksiyalarni, shu jumladan nutqni rivojlantirishga sezgir davrdir. Bolada shu yoshda aqliy rivojlanishning qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishi undagi nutq funksiyasining qanchalik muvaffaqiyatli rivojlanishiga bog'liq. Bola nutqining rivojlanish darajasi ma'lum ma'noda uning aqliy rivojlanish darajasini aks ettiradi, shuningdek, nafaqat bolaning intellektual rivojlanishi, balki uning fe'l-atvori, hissiyotlari va shaxsiyatining shakllanishi umuman nutqqa bevosita bog'liqligini ta'kidlash uchun asos bor.

Oilaning turmush tarzi o'z tabiatida yashiringan bir qator subyektiv sharoitlarga bog'liq. Oila a'zolari, er-xotinning shaxsiy xususiyatlari, ularning qarashlari va qadriyatlarga munosabatlari oilaning turmush tarzini belgilaydi [1].

Aslida, oila turmush tarzini ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik jihatlar bir butun sifatida ifodalaydi. Oila turmush tarzining ijtimoiy-iqtisodiy jihati uning yashash sharoitlari va pul daromadlari bo'lib, ular turmush o'rtoqlarning ijtimoiy mavqeyi, ularning ma'lumot darajasi, kasbiy malakasi, shuningdek oilaning hajmi va tarkibi bilan chambarchas bog'liqdir [2].

Hozirgi vaqtda, asosan, chet elda, turli yoshdagi bolalarda nutq-til qobiliyatining individual xususiyatlarini shakllantirishda individual ijtimoiy-madaniy omillarning rolini o'rganadigan ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan [3,4,5]. Unda bir qator yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Ijtimoiy maqsadli yo'nalish bolalar nutqini rivojlantirish uchun turli xil ijtimoiy kontekstlarni o'rganish muhimligini tan oladi. Mutaxassislar boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda qator tadqiqotlar olib bormoqdalar. Xususan, ota-onalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'lumoti holati, bola va ota-ona o'rtasidagi aloqa xususiyatlarini belgilaydigan o'smirlik davri; oila tuzilishi: ko'p bolalilik va bola tug'ilishining tartib raqami, egizaklik, bolalarni erta rivojlantirish bo'yicha mutaxassislar tomonidan bolaga qo'shimcha g'amxo'rlik sifati va miqdori kabi omillarning nutqdagi interindividual farqlarning yuzaga kelishidagi roli o'rganilmoqda.

Mamlakatimizda oila xususiyatlarining bola nutqini rivojlantirishga ta'sirini o'rganishga qaratilgan sanoqli tadqiqotlar o'tkazilgan. Ularda bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlarini individual ijtimoiy omillar tomonidan shartliligi ko'rib chiqiladi. Adabiyotlarda nutq rivojlanishi bilan mavjud bo'lgan korrelyatsiyalar asosida bolalar nutqi darajasining og'zakisida aql, onaning ish bilan bandligi va ta'lim darajasi, bolaning jinsi va tug'ilish tartibi, qarindoshlarida nutq buzilishlarining mavjudligi bilan bog'liqligi o'rganilgan [7,8,9,10].

Ijtimoiy yo'naltirilgan ko'plab tadqiqotlar bolalarning ijtimoiy-madaniy sharoitlari ular nutqining sifat va miqdoriy xususiyatlarini bevosita oldindan belgilab beradi degan taxminni birlashtiradi. Ya'ni tadqiqotning uslubiy asosi bolada nutq rivojlanishining bevosita ijtimoiy aniqlanishi g'oyasi hisoblanadi.

Shartli ravishda kommunikativ deb nomlangan yana bir yo'nalish doirasida bolalar va ota-onalar o'rtasidagi aloqaning xususiyatlari va ularning bolalar nutqiga ta'siri o'rganilganligini ham qayd etib o'tmoqchimiz. Ya'ni bola nutqi rivojlanishining sifat va miqdoriy xususiyatlari, kommunikativ muhitni yaratishda ota-onalar duch keladigan qiyinchiliklar, ota - onalarning er-xotin va alohida-onalar va otalar sifatida turli xil tarbiyaviy va pedagogik usullarning bola nutqining rivojlanishiga ta'sirining roli, yosh bolaning nutqini shakllantirishning, aka va opalarning ota-onasi bilan o'zaro muloqotga kirishishining afzalliklari va kamchiliklari, bolalar fe'l-atvorining o'ziga xos xususiyatlariga onalik xatti-harakatlari hamda ona va bola munosabatlari muhim vosita sifatida ko'rib chiqilishi kabi masalalar ham tadqiq etilgan. Shuningdek, ushbu tadqiqotlarda bolada nutq rivojlanishining yuqori darajasi ota-onaning individualligi, uning yuqori akmeologik holati va ijtimoiy dunyo bilan keng aloqalariga bog'liqligi aniqlangan [9].

Yuqoridagilar shuni ko'rsatadiki, omillarning bolaning nutq rivojlanishiga ta'siri har xil. Ona tilini tezroq o'zlashtirishga yordam beradigan omillar va shartlarga quyidagilar kiritish mumkin:

- mulkdor qatlam va ziyolilarga tegishli bo'lish;
- katta aka-opalarning mavjudligi;
- ayol jinsidagi odamning bo'lishi;
- tengdoshlarning mavjudligi;
- bolaning atrofida to'g'ri adabiy nutqqa ega bo'lgan shaxslarning mavjudligi;
- kattalarning bolaga moslashtirilgan nutqi (bunday nutqning belgilari tushunarlilik, aniqlik, biroz sekinlashgan sur'at);
- boladagi birinchi mustaqil nutq ko'rinishlarining kattalar tomonidan hissiy qo'llab-quvvatlanishi;
- oilada nutqni maqsadli tarbiyalash;

- ota-onaning ma'lumoti;
 - bolalar bog'chasiga tashrifi.
- Nutqni rivojlantirish tezligini pasaytiradigan omillar va sharoitlar:
- past ijtimoiy mavqe;
 - mushak-skelet tizimining ancha erta rivojlanganligi;
 - aka-uka va opa-singillarning yo'qligi;
 - bolani o'rab turgan kattalarda nutq patologiyalarining mavjudligi;
 - bolada intellektual rivojlanishning buzilishi;
 - mahalliy lahjalarning mavjudligi.

Keyingi tadqiqotlarda esa ushbu omillar va shartlarning bolaning nutqini rivojlantirishga ta'siri aniqlangan, ularning ro'yxati o'zgartirilgan. Bunda muloqotning kamligi, mobil va aloqa vositalaridan ko'p foydalanish, virtual olamda ko'p vaqt o'tkazish, kompyuterdan ko'p vaqt va ko'p miqdorda foydalanish kabilarni ajratish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolaning nutq rivojlanishini belgilaydigan ijtimoiy-psixologik omillardan oila tizimini batafsil ko'rib chiqamiz.

Oila konfiguratsiyasi. Oilaning umumiy muhiti ona, ota, aka-uka va opa-singillarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan yaratiladi. Oila a'zolaridan birining yo'qligi bola uchun mahrumlik xavfini tug'diradi. Oila konfiguratsiyasi deganda oilaning avlod tuzilishi va miqdoriy tarkibi tushuniladi.

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, agar bolada ota ham ona ham bo'lsa (ularning axloqiy farovonligi sharti bilan), bolada nutq patologiyasining paydo bo'lishiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan asabiy ruhiy kasalliklar xavfi kamayadi.

To'liq oilada otalar onalar bilan bir qatorda bolalarning kommunikativ rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ota va onaning mavjudligi oilada bolaning normal hissiy, axloqiy va nutqiy rivojlanishi uchun juda muhim shartdir. Ota va ona bir-birini to'ldiradi. Ularning rol funksiyalari va xususiyatlari bir xil emas.

To'liq bo'lmagan oilada moliyaviy ahvol tez-tez yomonlashadi, onaning bola bilan nutqiy aloqasi kamayadi, oilaning ijtimoiy aloqalari qayta quriladi. Bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoji kuchayadi, uning hissiy holati o'zgaradi, ya'ni bolaning nutq qobiliyati ham to'liq namoyon bo'lmaydi. To'liq bo'lmagan oilada nutqni rivojlantirish jarayoni qashshoqlashadi.

Nutqni shakllantirish uchun oiladagi bolalar sonining ahamiyatini mutlaqlashtirmaslik kerak. Shunga qaramay, ba'zi mahalliy tadqiqotchilar shunday oilalar bolalari nutqinining rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlar mavjudligini ta'kidlashadi.

Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, oiladagi bolalar soni, bolaning tug'ilish tartibi, bolalarning tug'ilishi orasidagi intervallar bolaning kognitiv va shaxsiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Oilada har bir yangi bolaning paydo bo'lishi oilaning tuzilishini va oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'zgartirishi, bolalarning ota-onalar bilan muloqot uslubi va sifati o'zgarishi tabiiy. Bolalar ota-onasi bilan bir qatorda, aka va opalari bilan ham muloqot qilishadi.

Empirik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'rtacha hisobda ko'p bolali va bolalar orasidagi yosh farqi kamroq oilada bolaning nutq rivojlanishi past bo'ladi. Ko'p bolali oilalarda ota-onalar bilan aloqa ko'pincha aka-ukalar bilan aloqaga almashtiriladi. Katta oilalardagi to'ng'ich bolalar nutqni rivojlantirishda muammolarga duch kelish xavfi yuqori, chunki ularga ota-onalar bilan aloqa yetishmaydi va bundan tashqari, ushbu aloqa sifati yomonlashadi. Oiladagi bolalar sonining ko'payishi bilan ota-onalar ko'pincha avtoritar bo'lib qoladilar, jismoniy jazo choralari qo'llashga moyillik paydo bo'ladi. Aka-opalar, ota-onadan farqli o'laroq, uka-singillari uchun ancha sayoz nutq muhitini yaratadi, bu esa bolaning nutq rivojlanishiga ta'sir qiladi. Nutqni rivojlantirishda kechikish kognitiv sohada turli xil buzilishlarga olib kelishi mumkin. Oilada bolalar tug'ilishi orasidagi qisqa vaqt sabab yuzaga kelgan muloqotning yetishmasligi bolaning nutq rivojlanishiga qo'shimcha salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kichik intervalda, katta interval bilan taqqoslaganda, nutqning leksik va grammatik tuzilishining buzilishi kuzatiladi. Oilada bolalarning tug'ilish vaqti oralig'i 2-3 yil bo'lishi eng maqbul variantdir.

Mahalliy aholi orasida ko'p bolalilik omilining oilada yolg'iz farzand bo'lgan bolalarning nutq rivojlanishiga ta'sirini o'rganib, rossiyalik olim T.N. Trefilova ko'p bolali oilalar farzandlari nutqni rivojlantirishning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha yolg'iz farzandlardan orqada qolmoqda, ya'ni ketma-ket tug'ilish bolalarning nutq rivojlanishiga ta'sir qiladi degan xulosaga keldi. Nutq rivojlanishida oqsashlar ko'p bolali oilalarda, tug'ilish oralig'i aka-ukalari bilan yaqin bo'lgan bolalarda kuzatilishi aniqlandi [11].

Boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, nutqni rivojlantirishdagi farqlar bolalarning jismoniy faolligi darajasi bilan belgilanadi. Ko'p bolali oilalarda ko'pincha bolalarning harakatli va hikoya tarzidagi o'yinlar qo'llab-quvvatlanmaydi. Ko'p bolali oilalar, bir - ikki bolali oilalarga qaraganda, o'qishni o'rganishga (mos ravishda 50 va 60%) va kognitiv o'yinlarga (25 va 42%) kamroq e'tibor berishadi. T. N. Trefilova-

Karatsubning eksperimental tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ko'p bolali oilada aniqlash jarayoni qiyin, demakki, bola mukammal nutqqa ega bo'lgan shaxslarga taqlid qilishda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa nutqni rivojlantirishning barcha ko'rsatkichlarida kechikishga olib keladi [11]. Katta oilada bola turli yoshdagi bolalar bilan munosabatlarni o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu uning kommunikativ aloqalarini oshiradi va boyitadi.

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlar barcha katta oilalar uchun umumiy qoida emas, lekin shunday g'oyalar mavjud.

Ota-onalarning ta'lim darajasi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy holati.

Bola nutqini rivojlantirish ota-onalarning ta'lim salohiyati va ularning jamiyatning turli qatlamlariga mansubligi bilan bog'liq.

Oliy ma'limotga ega, madaniyatilik darajasi yuqori bo'lgan ota-onaning farzandida leksik va grammatik tizimning rivojlanish darajasi, nutqning talaffuz tomoni, soz boyligining yig'ilishi ko'pincha yosh normasiga mos keladi. “O'rta ma'lumotli” va “o'qimishli” ota-onalar bolalari bilan turlicha muloqot qilishadi. Birinchisida nutqi kambag'al, jumlar to'liq bo'lmagan tuzilishga ega, grammatik jihatdan har doim ham to'g'ri tuzilmagan, hozirgi zamon fe'llarining shakllari ustunlik qiladi. Shuning uchun ota-onalarga bolaga murakkab his-tuyg'ularni, fikrlarni yetkazish, hodisa va harakatlarning sabablarini tushuntirish qiyin. Ota-onalar qanchalik bilimdon bo'lsa, ular bolalar tomonidan o'rganiladigan murakkab til tuzilmalaridan shunchalik keng foydalanadilar.

Turli ijtimoiy qatlamlardagi bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari muammosi A. R. Luriya va uning hamkasblari tomonidan faol ishlab chiqilgan bo'lib, ular nutq reaksiyalari tabiatidagi yosh farqlari bolalarda sinfiy farqlar fonida paydo bo'lishini aniqlangan. 10-12 yoshdagi qishloq bolalari, boshlang'ich maktab (8-10 yosh) va o'spirin (13-16 yosh) yoshdagi shahar bolalari misolida turli xil ijtimoiy qatlamlardagi bolalarning nutq reaksiyalarining sifat jihatidan o'ziga xosligi ko'rsatilgan. Mualliflarning ta'kidlashicha, nutq reaksiyalaridagi farqlar umuman olganda aqliy rivojlanishdagi qandaydir oqsashlardan darak bermaydi. Afsuski, mualliflar bunday farqlarning ishonchliligini statistik baholashga oid ma'lumotlar keltirishmagan.

Boshqa tadqiqotchilarning asarlarida kuzatishlar asosida olingan quyi, yetarlicha ta'lim olmagan va nochor bolalar, ma'lumotli sinflar (ziyolilar) bolalarini taqqoslash keltirilgan. Ta'kidlanishicha, quyi sinf bolalarining so'z boyligi kam, ularning nutqi kundalik lug'at bilan cheklangan, bolalar o'z-o'zidan paydo bo'ladigan nutqda tanish va keng tarqalgan so'zlardan qanday foydalanishni bilishmaydi, ular so'zlarning leksik ma'nosini tushunishmaydi.

Qator xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy muhitning savodxonligi oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati (IIH) va ota-onaning ma'lumoti darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Shuni ta'kidlash kerakki, yuqori IIH mezoni - bu oliy ma'lumotning mavjudligi va boshqaruv sohasida mutaxassis sifatida faoliyat yuritish hisoblansa, past IIH mezoni-o'rta ta'lim, tugallanmagan o'rta ta'lim va malakasiz, yarim malakali mehnat bilan shug'ullanish yoki aholiga xizmat ko'rsatish sohasida ishlash bilan belgilanadi. Ba'zi mualliflarning ta'kidlashicha, oliy ma'lumotli ota-onalar, oliy ma'lumotga ega bo'lmagan ota-onalardan farqli o'laroq, o'z farzandlarining rivojlanishi uchun qulay rag'batlantiruvchi muhit yaratadilar [12,13,14].

Ko'plab tadqiqotlar natijalarini sarhisob qilar ekanmiz, IIH darajasi yuqori bo'lgan onalar, yoshligidan o'z farzandlari bilan ko'proq muloqot qilishadi va ularni muloqot qilishga undashadi, suhbat mavzusini uzoqroq "ushlab turishadi", ko'proq savollar berishadi, suhbat jarayonida boshqaruvchilik shakllaridan kamroq foydalanadilar degan xulosaga keldik. Ularning nutqi so'z zahirasiga boy va atrofda narsalar haqida ko'proq ma'lumotga ega. IIH darajasi yuqori bo'lgan oilalarning maktabgacha yoshdagi bolalari past IIH ga ega oilalardagi tengdoshlaridan farqli o'laroq yuqori so'z boyligiga ega bo'lib nutqda grammatik va sintaktik jihatdan to'liqroq jumalardan foydalanadilar.

Nutq muhiti. Bolaning bir so'zni o'rganishi tilning yangi shakllarini doimiy ravishda o'zlashtirish bilan birga keladi. Nutqning tuzilishi, uning xarakterli xususiyatlarini bolalar doimiy ravishda muloqot qiladigan odamlaridan qabul qilishadi. Bolaning tiliga ta'sir ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Bolalar nutqining ular yashaydigan va muloqot qiladigan odamlarning nutq shakllari va xususiyatlariga bog'liqligi juda katta. Shunday qilib, ota-onalarning nutqi savodli, aniq, ifodali bo'lishi kerak, og'zaki belgilarni aniq va to'g'ri ishlatish zarur.

Bolaning nutq rivojlanishi va uning atrofida nutq muhiti o'rtasidagi aniq bog'liqlik P. K. Kerigning tadqiqotlari bilan tasdiqlanadi. Xususan, yosh bola bilan muloqot qilish ota-onalarni o'ziga xos nutq uslubiga murojaat qilishga undashi aniqlandi, bu alohida ifodalanganlik, sekin sur'at va ma'lumotlarning qisqaligi bilan tavsiflanadi. Bu nutq ko'nikmalarini o'zlashtirishga yordam beradi. Bolaga murojaat qilgan ona va otaning nutqi o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Otalar o'z nutqlarini bolaning tushunish darajasiga moslashtirishga kamroq moyil. Ular bolaga unchalik tanish bo'lmagan so'z birikmalaridan, yanada murakkab

grammatik tuzilmalardan foydalanadilar, bu esa bolaga yuqori kognitiv talablarni qo'yadi. Shunday qilib, ota tor oilaviy muhit va tashqi dunyo o'rtasida o'ziga xos "ko'prik" bo'lib, bolaning lingvistik va amaliy tajribasini kengaytiradi.

Ba'zida nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ota-onalar kamroq gaplashishga harakat qilishadi va o'zaro tushunishni osonlashtirmoqchi bo'lib, imo-ishoralar bilan muloqot qilishni boshlaydilar. Bu bilan ular bolaning nutqi va aqliy rivojlanishiga zarar yetkazadi. Agar bola gapirmasa, unda ona va uning atrofidagi barcha odamlar u bilan iloji boricha ko'proq gaplashishlari kerak. Asta-sekin, bola nutqini yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan so'z boyligini to'playdi.

Nutq muhiti cheklangan yoki nuqsonli muhitda tarbiyalanayotgan yosh bolalar (kar va soqov ota-onalar yoki nutqida nuqsoni bo'lgan ota-onalar, kasalxonada uzoq muddat davolanish, turli xil og'ir kasalliklar tufayli ijtimoiy aloqalarni cheklash) nutq rivojlanishida orqada qolishlari ham tadqiqotlar davomida aniqlanganligini kuzatdik.

Shuni ta'kidlash kerakki, nutq aloqasining yetishmasligi bolada nafaqat nutqni rivojlantirishda, balki umuman aqliy rivojlanishda ham kechikishlar sabablaridan biridir. Bunday holatlarni nosog'lom muhitli oilalarda ko'rish mumkinki, bu yerda bolalar o'zlari bilan o'zlari qolishadi.

Bolaning ota-onasi bilan aloqalarining tabiati.

Oila ichidagi munosabatlar bolalarning nutq rivojlanishiga ta'sir qiladi. Nutq ijtimoiy, madaniy - yaqin qarindoshlar bilan muloqotda shakllanadigan yuqori aqliy funktsiya. Bola ota-onasiga taqliq qiladi, ularning yomon va yaxshi fazilatlarini qabul qiladi va ularning barchasi mustahkam o'zlashtiradi. Yosh er-xotinlar ko'pincha nutqda kichraytirish-erkalash so'zlaridan foydalanadilar. Hayotning 1-2 yilida o'rnatilgan qolgan deyarli barcha kamchiliklar uzoq vaqt, ba'zan butun hayot davomida qoladi. Ba'zi oila a'zolari (bobo-buvi, aka, opa va b.) bolalarga ko'proq ta'sir qilishi mumkin. Bunday hollarda bolalar ularning nutqi va xulq-atvorini qabul qiladilar.

Er-xotinlar o'rtasidagi shaxslararo muloqot muammolari bolalarning nutq rivojlanishida iz qoldiradi. Bolaning ilk yoshlarida ona bilan hissiy va nutqiy o'zaro ta'sirining yo'qligi yoki yetishmasligi bolada nutq va aqliy rivojlanishning kechikishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtda oilada tarbiya turining umuman bolaning nutqi va ruhiyatiga, uning xarakter xususiyatiga ta'siri to'g'risida muayyan ilmiy dalillar mavjud. Oila a'zolari bilan xavfsizlik va hissiy qulaylik tuyg'usini ta'minlaydigan iliq munosabatlar bolaning uyg'un aqliy rivojlanishi uchun zarurdir. Bolani do'stona oilada uning teng huquqli a'zosi sifatida barcha psixologik va pedagogik talablarga rioya qilgan holda, erta kognitiv, ijtimoiy, mehnatga yo'naltirilgan holda tarbiyalash har xil individual xususiyatlarga, shakllangan qiziqishlarga va olingan bilimlar hajmiga ega bo'lgan ijobiy ijtimoiy munosabat bilan xarakterni shakllantirishga yordam beradi.

Oilada nutqni rivojlantirish shartlariga, shuningdek, kattalarning to'g'ri nutqi; obyektiv muhitni tashkil etish va boyitish; javobni rag'batlantiradigan savollar berish orqali bola bilan dialog shaklidagi muloqotni tashkil etish; to'g'ridan to'g'ri hissiy aloqa va boshqalar kiradi.

Yuqoridagilardan tashqari, bolalarning nutqini rivojlantirishning eng muhim psixologik sharti ular tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatdir. Bolaning faol nutqni o'zlashtirishining boshlanishi manipulyatsiyaga, ya'ni, boshqaruvga moyil faoliyat bilan bog'liq. Asosiy vaqt davri o'yin faoliyatini rivojlantirish vaqtiga to'g'ri keladi, chunki o'yin maktabgacha yoshdagi butun davrning yetakchi faoliyati hisoblanadi.

Xulosa. Shunday qilib, yuqoridagi omillarning bola nutqining rivojlanishiga ta'sirini o'rganuvchi izlanishlarda ushbu ta'sir mexanizmi muammosi kamdan kam hollarda eslatib o'tiladi. Bizning taxminimizcha, buning misolida bolalar va ota-onalarning o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari, ayniqsa: tarbiya jarayonida himoya darajasi, bolaning ehtiyojlarini qondirish darajasi, oilada bolaga qo'yiladigan talablar soni, umuman tarbiya uslubining tabiati va boshqalar ko'rib chiqiladi. Nutq rivojlanishi tadqiqotlarining bola va ota-onaning o'zaro munosabatlari "mozaikasi" orqali olib borilishi boladagi nutq rivojlanishi jarayonini yanada aniq va boshqarilishda oson qilishi mumkin.

Shunday qilib, biz maktabgacha yoshdagi bolaning ruhiy, shuningdek, nutq rivojlanishini belgilaydigan ijtimoiy-psixologik omillardan oila tizimini o'rganib chiqdik va shu o'rinda boladagi nutq rivojlanishini uning ontogenezi kontekstida ko'rib chiqish zarur deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar:

1. Воднева А.К. Влияние образа жизни семьи на формирование личности старшеклассника : диссертация ... кандидата философских наук: 09.00.09: — Минск, 1988.

2. Левкович В.П. Особенности супружеских взаимоотношений в разнорасовых семьях // Этническая психология. Хрестоматия / под ред. А.И.Егоровой. СПб.: Речь, 2003. С. 293–298.
3. Dionne G. Genetic evidence for bidirectional effects of early lexical and grammatical development / G. Dionne, P.S. Dale, M. Boivin, R. Plomin // Child Development. – 2003. – Vol. 74. – P. 394-412.
4. Dunn J. Siblings: Love, envy, and understanding / J. Dunn, C. Kendrick // Cambridge, MA: Harvard University Press, 1982.
5. Elises J. A. Clase social y situacion dentro der frania Interaccion y efectos sobre el desarrollo del individuo / J. A.Elises, C. Gonzalez, F. Riveras, M. Crespo // Infancia y Aprendizate –1989. – № 46. – P. 37-47.
6. Мухамеджанова В.Ф. Социально-психологические особенности супружеских взаимоотношений в моно- и полиэтнических семьях, проживающих в сельской местности: автореф. дис. ... канд. психол. наук. Самара, 2006. – 24 с.
7. Муминова Л.Р. Специальная помощь детям с нарушениями развития в Узбекистане. // журнал Логопедия. № 3(9), Москва, изд. Коррекционная педагогика. 2005.
8. Nurkeldiyeva D., Taxirova S. Early Aid as an Opportunity to Prevent and Correct Developmental Disruptions: Problems and Ways to Improve. - Activities of Early Care Services in Uzbekistan - Eastern European Scientific Journal, 2018
9. Nurkeldieva D.A. Pedagogik-psixologik diagnostika. – Toshkent "Vneshinvestprom", 2019 y.
10. Хамидова М.У. Эшитишида нуксони бўлган болаларни гўдаклик, илк ва мактабгача ёшда оилада тарбиялаш ва ривожлантириш муаммо ва ечимлари. Academic Research in Educational Sciences. Vol.2., 2021.
11. Трефилова Т. Н. Особенности речевого развития у детей из многодетных семей: дис. ... канд. психол. наук / Т. Н. Трефилова – М., 1998. – 161 с.
12. Tomasello M. The development of communicative competence in twins M. Tomasello, S. Mannle, M. Barton // Revue Internationale de Psychologie Sociale. – 1989. – Vol. 2. – № 1. – P. 49-59.
13. Weber A. L. Introduction to Psychology / A. L. Weber. New York: Harper Perennial, 1991.
14. Woollett A. The influence of older siblings on the language environment of young children. Special Issue: Language and cognition in early social interaction / A. Woollett // British Journal of Developmental Psychology. 1986. – Vol. 4. – № 3. – P. 235-245.

МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ СТАРШИХ ДОШКОЛЬНИКОВ

Ниязова Ситора Давроновна,
преподаватель кафедры Дошкольного образования
Бухарского государственного университета,
научный соискатель БухГУ

В статье речь идёт о формировании основ здорового образа жизни, которая может быть организована в рамках разработанной структурной модели на основе системного, аксиологического, личностно-деятельностного подходов; необходимыми педагогическими условиями формирования основ здорового образа жизни у старших дошкольников являются: организация и насыщение видов деятельности (игры, экспериментирования, познавательной, общения) информацией об основах здорового образа жизни и формирование на этой базе эмоционально-положительного отношения к данному процессу.

Ключевые слова: гуманистический характер образования, приоритет общечеловеческих ценностей жизни, здоровый образ жизни, здоровье, моделирование, модель.

MAKTABGACHA BO'LGAN BOLALAR UCHUN SOG'LOM HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISH NAMUNASI

Maqolada sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish masalalari tizimli, aksiologik, shaxsiy-faoliyat yondashuvlariga asoslangan ishlab chiqilgan tarkibiy model doirasida tashkil etilishi mumkin; Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish uchun zarur pedagogik shartlar quyidagilardir: faoliyatni (o'yinlar, eksperimentlar, kognitiv, muloqot) tashkil etish va sog'lom turmush tarzi asoslari haqidagi ma'lumotlar bilan to'ldirish va shu asosda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, bu jarayonga hissiy jihatdan ijobiy munosabat.

Kalit so'zlar: ta'limning gumanistik tabiati, hayotning umuminsoniy qadriyatlarini ustuvorligi, sog'lom turmush tarzi, salomatlik, modellash, model.

MODEL FOR FORMING A HEALTHY LIFESTYLE FOR SENIOR PRESCHOOL CHILDREN

The article deals with the formation of the foundations of a healthy lifestyle can be organized within the framework of the developed structural model based on systemic, axiological, personal-activity approaches; the necessary pedagogical conditions for the formation of the foundations of a healthy lifestyle in older preschoolers are: organization and saturation of activities (games, experimentation, cognitive, communication) with information about the basics of a healthy lifestyle and the formation on this basis of an emotionally positive attitude to this process.

Key words: humanistic nature of education, priority of universal values of life, healthy lifestyle, health, modeling, model.

Введение. Формирование здорового подрастающего поколения - одна из главных стратегических задач развития страны. Сегодня стратегическое направление государственной политики в области поддержки и сохранения здоровья детей регламентируется и обеспечивается рядом нормативно-правовых документов. Это Закон «Об образовании» (2020 г), где определены принципы государственной политики в области образования, первым из которых является «гуманистический характер образования, приоритет общечеловеческих ценностей жизни и здоровье человека, свободного развития личности»

В настоящее время в практику работы дошкольного учреждения широко внедряются различные образовательные и оздоровительные программы, способствующие формированию здорового образа жизни у детей, организации условий для формирования здорового образа жизни.

Основная часть. Исходным для определения термина «здоровье» является определение, приведённое в Уставе Всемирной организации здравоохранения: «Здоровье является состоянием полного физического, душевного и социального благополучия, а не только отсутствием болезней и физических дефектов».

Выделяют три типа здоровья: 1) «индивидуальное здоровье» (человек, личность); 2) «здоровье группы» (семья, профессиональная группа, «страта – слой»); 3) «здоровье населения» (популяционное, общественное).

В соответствии с типом здоровья выработаны показатели, посредством которых даётся качественная и количественная характеристика.

Также выделяют здоровье психологическое, определяющее душевное, эмоциональное благополучие человека. Согласно исследованиям Л.А.Абрамян, М.И.Лисиной, Т.А.Репиной, «эмоциональное благополучие» детей дошкольного возраста можно определить как устойчивое эмоционально-положительное самочувствие ребёнка, основой которого является удовлетворение основных возрастных потребностей: биологических и социальных.

Термин «психологическое здоровье» введён И.В. Дубровиной. Он подчёркивает неразделимость телесного и психического в человеке. Обобщённый портрет психологически здорового человека – это творческий, жизнерадостный, весёлый, открытый человек, познающий себя и окружающий мир не только разумом, но и чувствами, интуицией. Такой человек берёт ответственность за свою жизнь, находится в постоянном развитии.

По мнению И.В. Дубровиной, основу психологического здоровья составляет полноценное психическое развитие ребёнка на всех этапах. Авторы утверждают, что психологическое здоровье следует рассматривать с точки зрения духовного богатства личности, ориентации на абсолютные ценности (доброту, красоту, истину).

Здоровье человека закладывается в детстве и, согласно данным научных исследований, оно обуславливается на 50% - образом жизни, на 20% - наследственностью, на 20% - состоянием окружающей среды и примерно на 10% - возможностями медицины и здравоохранения. Важное место в сохранении здоровья занимает физическая культура и спорт.

Поскольку ни одно существующее определение понятия здоровья не признаётся эталонным, о состоянии здоровья человека судят на основании объективных данных, полученных в результате антропометрических (физическое развитие), клинико-физиологических (физическая подготовленность) и лабораторных исследований, соотнесённых со среднестатистическими показателями с учётом половозрастных, профессиональных, временных, эколого-этнических и других поправок.

В настоящее время вырабатывается «метрия здоровья», т.е. количественно-качественное измерение здоровья. Выделяются до 5 уровней здоровья (рейтинг здоровья: от простого выживания до полноценной здоровой жизни (отличное здоровье)).

Определение уровня здоровья имеет большое практическое значение, т.к. позволяет решать большой спектр проблем: от профессионального отбора до назначения рационального режима двигательной активности, питания, отдыха и т.п.

К показателям здоровья населения относятся: рождаемость и смертность, инвалидизация и продолжительность жизни, заболеваемость и мертворождённость и т.д.

Здоровье человека в значительной мере зависит от существующих в обществе систем ценностей, определяющих смысл жизни. Здоровье является личной и общественной ценностью. Формирование такой установки на собственное здоровье занимается новая отрасль знания, получившая название «валеология» - наука о здоровье.

Понятие «здоровый образ жизни» однозначно не определено. П.А.Виноградов, Б.С.Ерасов, О.А.Мильштейн, В.А.Пономарчук, В.И.Столяров и др. рассматривают здоровый образ жизни как глобальную социальную проблему, составную часть жизни общества в целом.

At middle school in EFL/ESL classes it is obligatory to read extracts of novels in homereading classes. It is needed to produce effective teaching strategies to make habit of reading and running reading blogs, journals, entries to summarize critically.

The English textbooks for 8-9 grade pupils cover several short texts with exercises as making true false, matching headlines, questioning, testing to increase their critical thinking. However, they do not support deep analysis like bloom taxonomy pyramid. This means we are not working on important issue as preparing them for international testing. Eventually we need to explore additional materials to recommend for their curriculum.

The suggested sample material is based on the textbook's selected texts and employs Wallace's (2003) three-dimensional critical pattern to study the texts from a more comprehensive angle and to foster thorough comprehension. The following are introduced in the following sequence, not necessarily in any specific order. Moreover, not every text may employ any of these. Rather, based on the nature and needs of the texts, as well as the goals of the learning outcomes for each set of learners, specific activities may be selected or neglected in some situations. In order to represent how these activities could meet the requirements and goals established for these students, we have also offered some potential reactions, thoughts, and answers for each task. These are some of the answers that students at this level may potentially provide. There are many other alternative solutions, and there is no right or incorrect response. The book “Robot” by Isaac Asimov is recommended to read at this level of students. When we put into practice this recommendation, we may observe not all students read the book continuously because of unformed reading skills to them.

Research methods

There is no study design or participants per se that might be a traditional manner to this paper in a conventional framework. This research is more of a request for material designers and action researchers to provide them some creative suggestions to aid their students in understanding the reading texts. To demonstrate the multifaceted character of the exercises and their ability to accomplish a number of goals, various texts from the textbook have been chosen for this purpose. The stages outlined in the subsequent exercises are adaptable and may always be changed to fit the circumstance and the requirements of the students. The rules for critical reading released with open access at the provided example materials served as a source of inspiration for the questions used there. The rules for critical reading provided with open access at the website of the Writing Resource Centre in New York served as the basis for the questions used in the suggested sample materials. The recommended resources in this study create particular questions relating to the relevant text in each situation, unlike the broad directions for a critical reading of any text provided by the Writing Resource Centre, thus it does not alter the originality of the model. Moreover, Wallace's Model of Critical Reading is not included in the Writing Resource Center's standards, thus this study created a new model of critical reading by combining both sources with considerations for the classroom. There are several sites which aim increase their reading skill. The best one is NYC Public schools (<https://www.schools.nyc.gov/learning/subjects/literacy>) where students can find self-study materials to increase their critical reading skill.

The Suggested Resources

The section that follows provides an example of how texts having linguistic, cultural, and conceptual components could be taught. In contrast to custom, we present, illustrate, and explain each. Instead of providing a general discussion at the conclusion of the data presentation, address each dimension where it is described. As a result, each component of the critical reading model is discussed before a practical example of how it may be used to modify texts for a language school is given. To make reading this article easier, we think this exercise is helpful. The problems are likely to get more complicated if a worldwide conversation is held to rationalize all the factors given in the next section. As we have already indicated, you do not have to use these exercises in the order they appear in this article. The linguistic, cultural, and intellectual aspects of each work do not follow a logical order. To make the job for instructors using these and related resources in the classroom straightforward, it was crucial to rationally maintain all the threads distinct during discussion. (Asghar & Al-Bargi, 2014) Addressing these elements in isolation, depending on the nature of the text, learning requirements and learners' language competency is more practical and successful.

Language Focus

Fairclough (1992 b) claims that systemic linguistic analysis of texts helps readers to uncover power relations and unfavorable position of the repressed class. Readers may more easily recognize individual as well as institutional representation and comprehend the cultural content in the background of their own social context with the aid of analysis with a linguistic focus. Due to its "technical" aspect, linguistic attention may be seen as a challenging occurrence. Because they are inexperienced with these frameworks, instructors and students alike may find it difficult to analyze texts using Halliday's (1985) functional grammar or any other framework for language analysis. It is advised to start with this emphasis, nevertheless, as it does not now necessitate a thorough investigation from the perspective of functional grammar. Second, linguistic focus is important to take into account in academic settings since it provides deeper comprehension of texts from certain perspectives and is therefore more likely to enable thorough understanding of the texts.(Asghar & Al-Bargi , 2014)

Linguistic Focus on Representation

The following activity linguistically focuses on an extract “Robot” by I.Asimov. The discussion that follows the sample task explains how linguistic attention might improve reading comprehension in general. A reading with a linguistic emphasis reveals aspects of the text that were previously hidden. At a cursory reading of the book, Gloria’s mother thinks robots are unsafe for her child but Robbie rescues her child. Readers are unaware of how positively the robots have been depicted until functional grammar is used to analyze specific aspects of the power relations between the robots and people and the assignment of typical features to each robot. For instance, a quick glance at the table below reveals that the majority of adjectives for Robbie are associated with physical and emotional actions, whereas Gloria's adjectives are more closely associated with personality traits. The adjectives and verbs attributed to the two main characters, Robbie and Gloria, are listed in the second and third columns of Table 1. It's hardly an exhaustive list, though. The "Others" category, which is found in the fourth column, contains terms that are somehow connected to each noun.

Table 1. Focus on readership as indicated by linguistic features (tabular model adapted from Wallace, 2003: 109)

The language used in text			
Character	Adjectives	Verbs	other
Robbie	humanoid programmable caretaker fiercely ungrammatically subservient unhappy	To be Adheres obeys goes away from Gloria	Love Carefulness
Gloria	Depressed nervous breakdown Happy	To be Driving herself embraces	Friendship trust
Mrs. Weston	worried	To be	fear
Mr. Weston	calm	To be	calmness

Based on Table 1, it is plausible to infer that the language of this book considers technology as someone with a personality and quirks and more as a physical object. In all sampled instances, the employment of verbs suggests that the human is more powerful and autonomous than robot beings.

Despite the fact that the majority of the text is about Robot and its action, Robot's verbs are more behavioural, mental, and material in nature than those used to describe it, making it appear stronger and more active.

Comparing how the robots are portrayed at different times could be helpful for students to understand. For instance, students might examine how the narrator introduces each character, how they act , how they respond to learning of each other's sacrifice, or how they predict how each character will respond. This would provide students with a modest volume of content to compare and deeper understand the text.

As the text's goal was not to compare the human beings and technology, the qualities in Table 1 do not appear side by side in the text as they do in the table. Nonetheless, even if we examine Robot’s and Mrs.

Weston's attributes vertically as indicated in Table 2, these statements, in the context, provide understanding of the image as it is shown through the use of these words.

Conclusion

The discussion above shows that critical reading texts introduced with PISA reading sample tests causes several challenges for school pupils as having few reading classes, different level learners. The strategies of realizing texts with a linguistic, conceptual, and cultural orientation not only aids readers in understanding the world through their own schematic background, but it also gives students the tools to develop independent thought. The challenges must be solved with innovative approaches. If there is a continuous practice, there will be a desired result. The critical approach to language acquisition, according to Kumaravadivelu (2006: 70), is "about linking the word with the world." It involves realizing that language is an idea and not merely a mechanism. It involves enlarging the scope of education to include social, cultural, and political aspects of language use. In agreement with Kumaravadivelu, it may be claimed that reading a text critically equips readers with a thorough examination of the problems. According to Kumaravadivelu, reading texts critically gives readers a thorough study of the topics included in the book and aids in the development of their analytical and critical thinking abilities. These abilities eventually inspire people to evaluate language critically, question the status quo, and work toward change that will benefit the impacted individuals and communities. Morgan (1997) views schools as a crucial location for conflict. Consequently, it makes sense to use this important stage to teach pupils how to find hidden beliefs, which, according to Fairclough (1992 a), are more potent when hidden. Since it may allow students to contextualize newly learned knowledge, such a critical approach is most likely to be helpful in ESL and EFL contexts. This kind of critical approach is most likely to be helpful in ESL and EFL contexts because it may allow students to contextualize newly learned knowledge within their own world of experience and thereby aid in the construction of learning bridges between their understanding and that of the outside world.

References:

1. Fairclough, N. (1992 a). *Discourse & Social Change*. Cambridge: Blackwell Publishers.
2. Fairclough, N. (1992 b). *Language and Power*. New York: Longman
3. Halliday, M. A. K. (1985). *An introduction to functional grammar*. London: Edward Arnold.
4. Halliday, M.A.K. (1990). *An Introduction to Functional Grammar*. Melbourne: Hodder & Stoughton.
5. Isaac Asimov (1950, December) *Robot*. Doubleday science fiction. Garden City, N.Y. : Doubleday
6. I, Robot: Robbie Retrieved on <https://www.litcharts.com/lit/i-robot/robbie#summary-178697>
7. Jabreel Asghar& Abdullah Al-Bargi (2014) Teaching of Critical Reading Skills in ESL and EFL Context: A Proposal for Action Researchers Arab World English Journal ISSN: 2229-9327 AWEJ Volume.5 Number.1, 2014 Pp. 180-196
8. Kumaravadivelu, B. (2006). „TESOL methods: changing tracks, challenging trends“. TESL-EJ, 4(4), Retrieved February 25, 2014 from <http://www.editlib.org/p/91775>
9. Leaver, B. L. and Stryker, S. B., 1989. Content-Based Instruction for Foreign Language Classrooms. *Foreign Language Annals*, 2: 269-275.
10. Levine, A., Ferenz, O. & Reves, T. (2000). EFL Academic Reading and Modern Technology: How Can We Turn Our Students into Independent Critical Readers?.
11. Morgan, W. (1997). *Critical Literacy in the Classroom: the art of the possible*. London: Routledge.

**УМУМТАЪЛИМ МАКТАБ ИНГЛИЗ ТИЛИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ
РИВОЖЛАНИШИДА УЗЛУКСИЗ ДИАГНОСТИКАНИНГ АҲАМИЯТИ**

Маллаева Озода Махрамовна,
Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси,
“Ўзбек тили ва хорижий тиллар”
кафедраси катта ўқитувчиси
Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори, (PhD)
ozodamallaeva201@gmail.com

Маллаева Мавжудахон Махрамовна,
Самарқанд давлат тиббиёт университети,
“Умумий гигиена ва экология” кафедраси ўқитувчиси
Khurshedbekb@gmail.com

Ушбу мақолада бугунги кунда ёш авлодда она тилини пухта билган ҳолда яна бошқа чет тилини, хусусан, инглиз тилини чуқур ўрганиш, бу тилда бемалол мулоқот қила олиш кўникма ва малакаларини ҳосил қилиш борасидаги фикрларининг назарий ва амалий жиҳатларини ўрганилган. Дарҳақиқат, келажак авлоднинг инглиз тилини билиш компетенцияларини ривожлантириш ўқитиш сифати, халқаро андозаларга мос дарслик, методик қўлланмаларга ҳам боғлиқ. Аммо ушбу талаблар бажарилсаю, умумий ўрта таълим мактаб инглиз тили ўқитувчиларининг (кейинги ўринларда мактаб инглиз тили ўқитувчиларининг) компетентлиги давр талабларига жавоб бермаса, ислохотлардаги мақсадларга эришиб бўлмайди. Шундай экан, аввало, мактаб инглиз тили ўқитувчиларининг узлуксиз касбий ривожланишини тўғри таъкил этиш зарур.

Калим сўзлар: малака ошириш, таълим траекторияси, узлуксиз касбий ривожланиш, касбий компетентлик. кўникма ва малака чет тили ўқиш сифати, келажак авлод

**ЗНАЧЕНИЕ НЕПРЕРЫВНОЙ ДИАГНОСТИКИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ
РАЗВИТИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
ШКОЛ**

В данной статье рассмотрены теоретические и практические аспекты мыслей современного молодого поколения об изучении другого иностранного языка, в частности английского, и развитии навыков и умений свободно общаться на этом языке, при этом досконально зная родной язык. На самом деле, развитие навыков английского языка у будущего поколения зависит от качества преподавания, учебников и методических пособий в соответствии с международными стандартами. Однако при выполнении этих требований и несоответствии компетентности учителей английского языка общеобразовательных школ требованиям времени цели реформ не могут быть достигнуты. Поэтому, в первую очередь, необходимо правильно организовать непрерывное повышение квалификации школьных учителей английского языка.

Ключевые слова: профессиональное развитие, траектория обучения, непрерывное профессиональное развитие, профессиональная компетентность, новое поколение качественных навыков и квалификаций для изучения иностранного языка.

**THE IMPORTANCE OF CONTINUOUS DIAGNOSTICS IN THE PROFESSIONAL
DEVELOPMENT OF ENGLISH LANGUAGE TEACHERS OF UNIVERSITY SCHOOLS**

In this article, the theoretical and practical aspects of today's young generation's thoughts on learning another foreign language, in particular, English, and developing the skills and abilities to communicate freely in this language, while knowing their mother tongue thoroughly. In fact, the development of the English language skills of the future generation depends on the quality of teaching, textbooks and methodical manuals in accordance with international standards. However, if these requirements are fulfilled and the competence of general secondary school English language teachers (herein after referred to as school English language teachers) does not meet the requirements of the times, the goals of the reforms cannot be achieved. Therefore, first of all, it is necessary to properly organize continuous professional development of school English language teachers.

Key words: Professional development, training trajectory, continuous professional development, professional competence. The next generation of skills and competence in foreign language study quality.

Кириш.

Бугунги кунда ривожланган мамлакатлар билан иқтисодий, маданий, илмий-техникавий соҳаларда ўрнатилаётган дўстона муносабатлар хорижий тилларни мукамал ўрганишни тақозо этмоқда. Ушбу зарурат ёш авлодда она тилини пухта билган ҳолда яна бошқа чет тилини, хусусан, инглиз тилини чуқур ўрганиш, бу тилда бемалол мулоқот қила олиш кўникма ва малакаларини ҳосил қилиш, етук мутахассисларни тайёрлаш, малакасини оширишга янада долзарб вазифаларни кўймоқда.

Иқтисодий тадқиқотлар маркази ва ЮНЕСКО ҳамкорлигида ўтказилган тадқиқотлар республикамізда малака ошириш тизимидаги ижобий ўзгаришлар билан бир қаторда айрим муаммолар мавжудлигини кўрсатди: “малака оширишнинг жорий тизими, асосан билимларни аудиторияда беришга йўналтирилган. Малака ошириш институтлари ишини ташкил этишда педагогларнинг мустақил фаолиятига имкон бермайди. Малака ошириш жараёнида натижадорликка эришишга тўсқинлик қилувчи асосий омил педагоглар малакасини оширишнинг индивидуал траекториясини белгилашга йўналтирилган мослашувчан ўқув режаларининг йўқлигидир” [51; 11-6].

Дарҳақиқат, келажак авлоднинг инглиз тилини билиш компетенцияларини ривожлантириш ўқитиш сифати, халқаро андозаларга мос дарслик, методик қўлланмаларга ҳам боғлиқ. Аммо ушбу талаблар бажарилсаю, умумий ўрта таълим мактаб инглиз тили ўқитувчиларининг (кейинги ўринларда мактаб инглиз тили ўқитувчиларининг) компетентлиги давр талабларига жавоб бермаса, ислохотлардаги мақсадларга эришиб бўлмайди. Шундай экан, аввало, мактаб инглиз тили ўқитувчиларининг узлуксиз касбий ривожланишини тўғри ташкил этиш зарур.

Тадқиқот мақсадидан келиб чиқиб узлуксиз касбий ривожланиш, индивидуал таълим траекториясининг мазмун-моҳияти, ривожланган мамлакатлар олимларининг шу йўналишдаги илмий қарашлари таҳлил қилиб ўтилган. Мазкур таҳлиллар асосида мактаб инглиз тили ўқитувчиларининг индивидуал касбий ривожланиш траекториясини шакллантириш, узлуксиз касбий ривожланишини ташкил этишда диагностикани амалга ошириш йўллари кўриб чиқамиз.

Адабиётлар таҳлили

Умумтаълим мактаб инглиз тили ўқитувчиларининг касбий ривожланишида узлуксиз диагностиканинг аҳамиятини ўрганиш хусусан, Ж.Йўлдошев [16], М.Мирсолиева [13], Ғ.Х.Раҳимов [17], М.Нишонов [18], К.Зарипов [19], Б.Нуриддинов [20], А.Ибрагимов [10], З.Артикбаева [21], М.Дехканова[8], М.Жуманиёзова [22], А.Гулбоев [6], А.Асқаров [23], Д.Маматкулов [24], К.Маматкулова [14], ва бошқаларнинг тадқиқотларида илмий-назарий жиҳатдан ўрганилган МДХ олимларидан С.Бережная [25], О.Бачина [1], Р.Бакли [26], С.Богданова [3], О.Волкова [22], С.Вдовина [4], А.Гаязов [5], А.Гончарова [7]ларнинг тадқиқотлари мазмуни мустақил ёндашув асосида ўрганилган.

Методлар

Мақолани нашрга тайёрлашда умумтаълим мактаб инглиз тили ўқитувчиларининг касбий ривожланишида узлуксиз диагностиканинг аҳамияти тадқиқотнинг тарихийлик, танқидийлик, анализ, синтез методларидан фойдаланилди. Мақоланинг методологик асосини Ўзбекистон Республикаси Президент Ш.М.Мирзиёев асарлари, Фармонлари, давлатимиз раҳбарининг “Янги Ўзбекистон стратегияси” асарида баён қилинган концептуал ғоялар ташкил қилади. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Хорижий тилларни ўрганишни оммалаштиришни самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарорлари ҳамда мазкур соҳага тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда ушбу тадқиқот иши муайян даражада хизмат қилади.Шунингдек, умумтаълим мактаб инглиз тили ўқитувчиларининг касбий ривожланиши ҳақидаги фикрларини таҳлил қилиш, мустақил ҳулосалар чиқариш учун, ушбу мавзуга бағишланган монографик тадқиқотлар, республика миқёсида ўтказилган илмий амалий анжуманлар материаллари, илмий мақолалар, хорижлик олимлар асарларидан фойдаланилди. Шунингдек жамият тараққиётининг янги даврида оммавий ахборот воситалари, жумладан интернетда эълон қилинаётган, узлуксиз таълимнинг турли қирралари мазмунини очиб беришга қаратилган илмий фикрлар, Ўзбекистонлик ва хориждаги олимлар, педагоглар мулоҳазаларидан фойдаланилди.

Олинган натижалар

Инглиз тили ўқитувчиларининг касбий ривожланишида диагностика ўтказишдан мақсад уларнинг узлуксиз малака ошириш траекториясини белгилаш ва белгиланган траектория асосида малакасини ошириш орқали касбий эҳтиёжларини қондиришдир. Мана, бир неча йилдирки, малака

ошириш муассасаларининг фаолиятига танқидий баҳо берилган ҳолда янги ислохотларни амалга ошириш ғояси илгари сурилмоқда. Чунки айрим ечимини кутаётган масалалар, жумладан, малака ошириш мазмунида касбий эҳтиёжлар инobatга олинмаётганлиги, малака ошириш режали ва белгиланган вақтда амалга оширилиши шарт эканлиги, узлуксиз малака оширишга бўлган рағбатлантирувчи механизмнинг йўқлиги, малака оширишнинг барча турларидан фойдаланиш амалда механизмнинг йўқлиги, педагог қарда, қачон, қандай малака оширса ҳам унга мотивация берадиган ҳуқуқий асосланган механизмнинг йўқ эканлиги кабилар.

Амалдаги малака ошириш тартибига кўра, мактаб инглиз тили ўқитувчилари 5 йилда камида 1 марта малака оширишлари лозим эди. Дарҳақиқат, уларнинг 5 йилда 144 соатлик ўқув дастури асосида малака ошириши ва сертификат олгандан кейин уларнинг ўз устида ишламаслиги, малака ошириш курсининг амалдаги натижасини ўрганмаслик ва қайта алоқанинг деярли йўқлиги катта хажмдаги соҳага оид касбий янгиликлардан етарлича ўрганиш имкониятини чеклашга олиб келмоқда эди. Шунингдек, аудиториянинг таркиби ўртача 25 нафар тингловчидан иборат бўлса, уларнинг иш стажы ва фаолият олиб бораётган ҳудуди, ундан ташқари касбий компетентлиги ҳам турли даражада. Ушбу муаммолар малака ошириш курсига индивидуал ёндашиш, аниқ касбий эҳтиёжларидан келиб чиқилган дастурлар асосида узлуксиз малака ошириши заруратини пайдо қилди.

Муҳокама

Юқоридаги муаммолар ечими сифатида Ўзбекистон Республикаси Президентимизнинг 2020 йил 6 ноябрдаги “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонини келтиришимиз мумкин. Шунингдек, “Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорда халқ таълими тизимидаги ислохотларни янада такомиллаштириш ва илмий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш бўйича аниқ вазифалар белгилаб берилди. Жумладан, Халқ таълими вазирлиги, Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси ҳамда Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги билан биргаликда 2021 йил 1 июнга қадар халқ таълими ходимларининг малака ошириш жараёнини “ҳаёт давомида ўқиш” тамойили асосида ташкил қилиш, ходимларнинг касбий эҳтиёжларини ташхис қилиш асосида ишлаб чиқилган индивидуал ривожланиш дастурига мувофиқ малакасини ошириш тартибини амалиётга жорий этиш вазифаси юклатилди. Бундай самарали тизимни яратиш, педагог кадрлар касб малакасининг ҳақиқий даражасини ҳисобга олиб ташкил қилинадиган малака оширишни назарда тутди [14]. Бу эса, ўз навбатида:

таълим муассасалари раҳбарларининг ўз ходимлари малакасини оширишни таъминлашга бўлган масъулиятини ошириш;

педагогнинг ўз касбий маҳорати бўйича мустақил ишлаш, ўз меҳнати самарадорлигини ошириш бўйича манфаатдорлигини таъминлаш, уларни касбий маҳоратларини оширишга доир фаолиятга рағбатлантириш тизимини такомиллаштириш;

малака оширишнинг узлуксизлигига эришиш;

умумий ўрта таълим мактаблари алоҳида буюртмачи сифатида иш кўриши;

ўқув-тарбия жараёни сифатининг ички назорати ва таҳлилини ҳолисона амалга ошириш;

рейтинг тизими бўйича ҳар бир педагог касб фаолиятининг мониторингини олиб бориш ва педагогик ташхислаш;

малака оширишга бўлган эҳтиёжларини аниқлаб бориш;

педагог кадрларнинг компетентлик даражасини ўрганиш уларни табақалаштиришни тақозо этади.

Ушбу ислохотлар айнан педагогнинг ўзида мавжуд профессионализм даражасини касбий диагностика ўтказиш асосида белгилаш ва унинг давр талабларига жавоб беришига эришишга йўналтирилган аниқ мақсадли малака ошириш шакллари белгилашга қаратилган. А.Авлоний номидаги халқ таълими муаммоларини ўрганиш ва истикболларини белгилаш илмий-тадқиқот институти ташаббуси ва раҳбарлигида ҳудудий марказларда ҳам халқ таълими ходимлари учун электрон платформа яратилмоқда. Бу платформанинг вазифаси педагогларнинг узлуксиз касбий ривожланиш фаолиятини ташкил этиш, педагогнинг малака ошириши жараёнларини мониторинг қилиш ва шахсий ҳисобини юритиш имкониятини таъминловчи ягона маълумотлар базасига асосланган, таълимнинг масофавий шаклини тўлиқ жорий этиш имконини берувчи тизимнинг электрон шаклидир.

Шунингдек, халқ таълими ходимларининг узлуксиз касбий ривожланиш тизимидаги таълим олиш натижаларини баҳолашда кредит-модул тизимини жорий этиш бошланди. Унга кўра, педагог бир йилда йиғилиши лозим бўлган кредитлар (академик соатлар)нинг энг кам ҳажми назарда

тутилмоқда. Педагогларнинг малака ошириш бўйича эҳтиёжлари ўрганилади ҳамда “Узлуксиз касбий таълим” махсус электрон платформаси орқали уларнинг индивидуал касбий ривожланиш траекторияси тузилади ҳамда малака даражаси, билими, илмий-педагогик салоҳияти, иш тажрибаси, психологик тайёргарлиги ва индивидуал касбий ривожланиш траекториясига мос келадиган табақалашган малака ошириш дастурлари бўйича ўқитиш амалиёти йўлга қўйилади.

Ҳар бир педагог юқорида қайд этилган “Узлуксиз касбий таълим” платформаси орқали тақдим этилган ўқув модулларини ўзлаштириб бўлгач, платформадаги баҳолаш мезонлари орқали баҳоланади ва тўпланган кредитлар педагогнинг шахсий кабинетига жамланади. Кредитларнинг белгиланган миқдорини йиққан педагог шу йил учун малака ошириш курсини тўла ўтаган ҳисобланади ва уни тасдиқловчи ҳужжат тақдим этилади.

Демак, педагогнинг касбий эҳтиёжларига мос индивидуал касбий ривожланиш траекторияси платформа орқали аниқланади ва автоматик тарзда унинг билим олиш, ўз-ўзини ривожлантириш майдони ҳосил бўлади.

Бу, албатта яхши, механизм, лекин педагогнинг касбий эҳтиёжларидаги шундай айрим жиҳатлари мавжудки уни платформа орқали аниқлаб бўлмайди. Масалан, тадқиқот жараёнида маълум бўлдики, ҳозирда фаолият олиб бораётган инглиз тили ўқитувчиларининг асосий касбий эҳтиёжи *listening* – тинглаб тушуниш ва *speaking* – гапиришда. Бизнингча, электрон платформа орқали инглиз тили ўқитувчиларининг индивидуал таълим траекториясини шакллантириш босқичида ушбу жиҳатларни эътиборга олиш энг муҳим масала ҳисобланади. Шунини айтиб ўтиш жоизки, бошқа фан ўқитувчиларининг касбий эҳтиёжларини аниқлашдан кўра инглиз тили ўқитувчиларининг касбий эҳтиёжларини аниқлашда бир мунча мураккабликлар мавжуд. Уларнинг коммуникатив компетентлиги, ўзга тилни ўқувчиларга акцентсиз етказиб бера олиш ва улардан талаб қила олиши кўникмасига ҳам эга бўлишлари керак. Айтиш мумкинки, шундай фаолият олиб бораётган инглиз тили ўқитувчилари борки, ҳаттоки кичик матнли гапларни ҳам фақатгина интернет таржимонлари ёрдамида амалга оширади.

Шунинг учун электрон платформадан ташқари ҳам инглиз тили ўқитувчиларининг касбий фаолияти доимий диагностика қилиб боришга муҳтож. Узлуксиз касбий ривожланиш жараёнида диагностикани тез-тез амалга ошириб бориш инглиз тили ўқитувчиларининг касбий тайёргарлик даражаси, ундаги мавжуд касбий эҳтиёжларни аниқлаш ҳамда улар асосида малака оширишнинг аниқ йўналиши, мазмуни ва шаклларини белгилаш асосида керакли касбий тайёргарлик даражасини таъминлаш ва педагогнинг касбий компетентлигини давр талабларига мослаштиришга хизмат қилади.



1-расм. Касбий диагностиканинг ташкилий-педагогик алгоритми

Бу жараёнда инглиз тили ўқитувчиларининг лавозим мажбуриятларини қай даражада бажараётганликлари, мутахассислиги бўйича давлат таълим стандартлари ва ўқув режа, дастурлар,

шунингдек, таълим тизими ва ўз касбига оид, меъёрий-ҳуқуқий ҳамда ўқув-методик ҳужжатларнинг мазмун моҳиятини англаб етиши, улардаги қўйилаётган талабларни билиши, ундан ташқари дарс бериш ва аудиторияни бошқара олиш маҳорати, ўқувчиларни менталитетимизга мос тарбиялай олиш қобилияти, энг асосийси ўз-ўзини ривожлантиришга бўлган мотив, шахсий сифатлари, ўқувчилар билимини ҳолисона баҳолаш маҳорати бўйича касбий тайёргарлик даражаси аниқланади. Касбий диагностиканинг ташкилий-педагогик алгоритми қуйидагилардан иборат (2.1-расм).

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, диагностиканинг турли шакл ва усуллари орасида энг аҳамиятлиси педагогнинг ўз-ўзини касбий диагностика қила олиш кўникмасига эга бўлишидир. Чунки педагогнинг ўз-ўзини узлуксиз касбий диагностика қилиб бориши алоҳида шароит, вақт, жой, ташқи таъсирлар талаб қилмайди, ўзига нисбатан ҳолисона ёндашади, эҳтиёжларини ҳис эта олади.

Хулоса

Ҳар қандай янгиликни жорий этишдаги каби педагогларнинг узлуксиз касбий ривожланиш тизимини жорий этишда ҳам қуйидаги ўзига хос мураккабликлар мавжуд:

катта ёшдаги айрим ходимларга хос бўлган янги тизимга ўтишдаги ҳадиксираш туфайли, ўрганиб қолган ўқиш тарзини маъқул кўриш;

педагогларда мустақил таълим олиш, ўқув материалларини таҳлилий ва танқидий ўрганиш кўникма ва малакаларининг етишмаслиги;

узлуксиз касбий ривожланиш бўйича ўқув модулларини янги билимларни ўзлаштириш учун эмас, балки назорат саволларига бир амаллаб жавоб топиш орқали ўзлаштиришга ҳаракат қилиш;

ҳар бир малака ошириш йўналиши бўйича ўқув модуллари контентини яратишда малака ошириш ҳудудий марказларининг имконияти етишмаслиги.

Тадқиқот иши жараёнидаги хулосаларга кўра инглиз тили ўқитувчилари касбий фаолиятида тинглаб тушуниш, ўқиб тушуниш, ёзиш ва гапириш (Writing, reading, listening, speaking) лардан Writing – ёзув, reading – ўқишда муаммо йўқ эканлиги, аммо listening – тинглаб тушуниш ва speaking – гапириш аксарияти учун қийинчилик туғдириши, айниқса республиканинг вилоят қишлоқларида фаолият олиб бораётган инглиз тили ўқитувчиларида муаммолар етарли.

Инглиз тили ўқитувчиларининг касбий ривожланиш траекториясини шакллантиришда касбий диагностикани тўғри ташкил этиш, таълим мазмунини лойиҳалашда тингловчиларнинг касбий қийинчиликлари ва эҳтиёжларини инобатга олиш, касбий диагностикани амалга оширишда асосий фактор ташқи таъсир (субъектив) асосида педагогнинг касбий эҳтиёж ва муаммоларини аниқлаш ва унинг моҳиятини англаш, уларни қондириш йўллари топишга амалий кўмаклашиш бўлса, ўз-ўзини танқидий баҳолаш, ҳис этган ҳолда касбий фаолиятидаги камчиликларни англаш орқали касбий диагностикани амалга ошириш, малака оширишнинг барча ресурсларидан оқилона фойдаланган ҳолда узлуксиз касбий ривожланишда натижадорликка эришиш ва рағбатлантириш механизмларининг мукамал вариантини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ.

Адабиётлар:

1. Бачина О.В. Организация вариативно-модульной системы повышения квалификации педагогов дефектологического профиля. Дисс. д.пед.н. – Томбов.: 2002. – 257 с.
2. Волкова О.В. Индивидуальная образовательная траектория как инновационная модель профессионального развития учителя начальных классов. <http://academy.edu.by/files/do%20ikspres/Volkova.pdf> (мурожаат қилинган сана: 17.12.2019)
3. Богданова С.В. Вариативность повышения квалификации учителей в области новых информационных технологий.: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. -Москва: 1997. - 19
4. Вдовина С. А., Кунгурова И. М. Сущность и направления реализации индивидуальной образовательной траектории // Интернет-журнал «Наукоедение». 2013. № 6 (19). С. 1–8. URL: <http://naukovedenie.ru/PDF/40PVN613.pdf> (мурожаат қилинган сана: 17.05.2018).
5. Гаязов А. С. Индивидуальные траектории и современное образование // Система профильного обучения в школах Республики Башкортостан: Опыт, проблемы, перспективы / С. А. Гаязов. Уфа; Нефтекамск: РИО РУНМЦ, 2008. С. 26–28
6. Гулбоев А.Т., Педагогик ташхис воситасида ўқитувчилар малакасини узлуксиз ошириш. Педагогика. фан. ном. ... Дис. –Т.: 2010. - 4 б.
7. Гончарова А.С., Чумечова Р.М. Организация индивидуальной образовательной траектории обучения бакалавров // Вестник НГПУ. – Новосибирск, 2012. – №2. – С. 3-11.
8. Дехканова М.У., Касб-хунар таълими раҳбар ходимларининг малакасини ошириш
9. Зеер Э.Ф. Психологическое сопровождение профессионального становления

предпринимателей по ремесленным видам деятельности // Э.Ф. Зеер, Д.П.Заводчиков, АМ.Павлова. – Екатеринбург: “РГППУ”, 2005. – 170 с.

10. Ибрагимов А.А. Халқ таълими ходимлари малакасини ошириш тизимини кўп векторли ёндашув асосида такомиллаштириш. Педагогика фан. фал. док. ... Дис. - Т.: 2018. – 52 б.

11. Исакова О. А. Индивидуальная образовательная траектория школьника как средство достижения личностных результатов: автореф. ... канд. пед. наук: 13.00.01. СПб., 2015. 27 с.

12. Коростиянец Т.П. Технология формирования профессионально-педагогической компетентности будущих учителей математики по индивидуальным образовательным траекториям // Педагогическое мастерство: материалы V междунар. научн. конф. (г. Москва, ноябрь 2014 г.). М.: Буки-Веди, 2014. С. 258–261.

13. Мирсолиева. М.Т. Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг касбий компетентлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш. Пед. фан. док. ... дис. –Т.: 2019. – 143 б.

14. Маматқулова К.М. Умумтаълим мактаб директорларининг бошқарув самарадорлигини оширишда эҳтиёжларга асосланган малака ошириш механизмларини такомиллаштириш. Пед. фан. бўйича фалсафа док.(PhD)... дис. автореф.–Т.: 2021. –30 б.

15. Махмудов Ш.Қ., Санакулов З.И., Шайхисламов Н.З., Қаршиева Д.Э. Cluster in pedagogical education. “Science and Education” Scientific Journal October 2020 / Volume 1 Issue 7. 587-593. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/567>

16. Йўлдашев Ж.Ғ. Малака ошириш – таълим-тарбия омили – Тошкент.: Ўқитувчи, 1993. – 136 б.

17. Раҳимов Ғ.Х., Инглиз тилининг Ўзбекистонда тарқалиши (социолингвистика ва парагматик жиҳатлари).. Педагогика фан. док. ... Дисс. - Т.: 2018. – 54 б.

18. Нишонов М.Н. Повышение квалификации педагогических кадров и задачи институтов усовершенствования учителей. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. - 39 с.

19. Зарипов К.З. Педагог кадрлар малакасини ошириш давр талаби. – О. “Совет мактаби”, 1989. №4., 13-15 б.

20. Нуриддинов Б., Касб таълими ўқитувчилари малакасини оширишда фаол ўқитиш методларидан фойдаланишнинг илмий-педагогик асослари.. Педагогика фан. ном. ... Афтореферат. - Т.: 2002. – 10 б.

21. Артикбаева З.А. Малака ошириш тизимида математика ўқитувчиларининг касбий-методик кўникмаларини такомиллаштириш. Педагогика фан. ном. ... Афтореферат. - Т.: 2004. – 10 б.

22. Жуманиёзова М.. Малака ошириш жараёнида ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлашнинг педагогик асослари. Педагогика фан. ном. ... Афтореферат. - Т.: 2007. – 18-19 бб.

23. Асқаров А.Д. Халқ таълими ходимлари малакасини масофадан ошириш тизимини такомиллаштириш. Педагогика фан. фал. док. ... Дис. - Т.: 2017. – 52 б.

24. Маматқулов Д.М. Малака ошириш жараёнида умумтаълим мактаб раҳбарларининг мафкуравий компетентлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш. Пед. фан. бўйича фал. док. ... дис. –Т.: 2018. –143 б.

25. Бережная С.К. Вариативный подход к повышению квалификации педагогических работников профессиональной школы: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Ярославль: 2000. - 18 с.

26. Бакли Р., Кэйпл Дж. Теория и практика тренинга. – Питер: СПб, 2002. – 352 с.

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING TAYANCH KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Husenova Aziza Sharipovna,
Buxoro davlat universiteti
tayanch doktoranti
a.sh.husenova@buxdu.uz

Maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyasini takomillashtirish xususidagi fikrlar bayon etilgan. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga tayyorlash, o‘zaro muloqotga kirisha oladigan, o‘z fikrini har qanday sharoitda bayon eta oladigan, boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza olish ko‘nikmasini rivojlantirish, barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, tayanch kompetensiya, kompetensiya, ona tili va o‘qish savodxonligi, nutq, nutq madaniyati, o‘quvchilar, o‘qituvchi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ БАЗОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ И РОДНОГО ЯЗЫКА

В статье описаны идеи по совершенствованию базовой компетентности учащихся на занятиях по родному языку и грамотности чтения. Основной задачей уроков родного языка и чтения в начальной школе является подготовка учащихся к учебной деятельности, развитие умения общаться, выражать своё мнение в любой ситуации, чётко общаться с другими, воспитывать всесторонне развитую личность.

Ключевые слова: начальное образование, базовая компетентность, компетентность, родной язык и грамотность чтения, речь, речевая культура, учащиеся, учитель.

IMPROVING STUDENTS' BASIC COMPETENCE IN MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY LESSONS

The article describes the ideas on improving the basic competence of students in the classes of mother tongue and reading literacy. The main task of elementary school mother tongue and reading classes is to prepare students for educational activities, to develop the ability to communicate, to express one's opinion in any situation, to communicate clearly to others, and to educate a well-rounded person.

Key words: primary education, basic competence, competence, mother tongue and reading literacy, speech, speech culture, students, teacher.

Kirish. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishning maqsadi o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishdan iborat. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining tashkil etilishi o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Chunonchi, 2020-yilda qabul qilingan “Milliy o‘quv dasturi”da boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy ko‘nikmasini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilgan bo‘lib, bunda o‘qib tushunish, tinglab tushunish kompetensiyalarini shakllantirish bosh maqsad sifatida qaraladi. Bugungi kunda boshlang‘ich sinf darsliklarini yangilash sohasida olib borilayotgan islohotlardan biri O‘zbekiston ta‘lim tizimini rivojlangan mamlakatlar ta‘limi yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida tayanch kompetensiyalarni takomillashtirish o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro hamkorligiga bog‘liq metodik jarayon sanaladi. Metodik manbalarda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini integratsiyalash orqali o‘qitish tizimi murakkab jarayon bo‘lib, unda o‘quv materiallari va o‘quv topshirig‘ini bajarish jarayonida o‘qituvchining tashkil etish-boshqarish-nazorat qilish-baholash shaklidagi faoliyati yetakchi sanaladi. Shuningdek, o‘qituvchi o‘quv materialini o‘quvchilarga turli metodlar vositasida yetkazadi. Biz yuqorida ta‘kidlagan to‘rtlik tizim o‘quvchilarning bilish jarayonining faollashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch kompetensiyalar shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta‘minlab, uning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlaydi. O‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarni o‘zlashtirish asosida muvaffaqiyatli shakllanishi uning jamiyat madaniy ma‘rifiy hayotida faol ishtirok etishiga yo‘l ochadi. Jamiyatning o‘zi

shaxsni ijtimoiylashtiruvchi asosiy subyekt hisoblanadi. U har bir shaxsni o‘z qiyofasiga moslashtirish imkoniyatiga ega. Shu bilan bir qatorda jamiyat shaxsning ijtimoiylashuviga ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni jamiyatga integratsiyalash amalga oshadi. Shunga ko‘ra, shaxs jamiyatda faoliyat ko‘rsatishi uchun tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim. Har bir shaxs muloqot jarayonida o‘zi uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlarni o‘zlashtiradi.

Natijalar. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyasini takomillashtirishda, o‘quvchilarning motivlar tizimi va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Tayanch kompetensiyalar yordamida o‘quvchilar o‘zlari mansub bo‘lgan jamiyatdagi odob me’yorlari, madaniyatga oid bilimlar va qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy bilimlarni o‘zlashtiradilar. Ular o‘zlari uchun ahamiyatli bo‘lgan insonlar ya’ni o‘qituvchilari, ota-onalari, tengdoshlari bilan muloqot jarayonida muayyan qadriyatlar va madaniy-ma’rifiy yondashuvlarni egallaydilar.

Tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lgan shaxs jamiyat hayotida faol ishtirok etadi, uning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok eta olishi unda shakllangan kompetensiyalarga bevosita bog‘liq. Tayanch kompetensiyalar yordamida inson madaniy va moddiy boyliklarning mohiyatini anglaydi, uni o‘zlashtiradi, shaxslararo muloqotga kirishadi, o‘zining fuqarolik pozitsiyasini namoyon etadi, fan-texnika yutuqlarini o‘zlashtiradi va ulardan o‘z o‘rnida foydalanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilimlarni o‘zlashtirishning pedagogik va psixologik muammolari chet ellik hamda respublikamiz mutaxassislari tomonidan ko‘pgina adabiyotlarda yoritilgan. Kichik maktab o‘quvchilarining o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish muammosi V.P.Ostrogorskiy, N.A.Rubakina, M.A.Ribnikova, L.S.Vigotskiy, L.A.Mosunova, A.G.Asmolov, L.Y.Nevuyeva, A.A.Zubchenko, M.P.Voyushina, V.P.Sinenko, N.N.Svetlovskaya kabi olimlarning asarlarida o‘z ifodasini topgan. Keyinchalik ular o‘qish jarayonini qanday tashkil etish kerakligini, o‘quvchilar matn ustida ishlash shakllarini aniqladilar va tavsifladilar.

Respublikamiz pedagog va psixolog olimlaridan A.T.Boltayeva, V.Y.Sviridova, B.R.Adizov, K.Qosimova, Sh.O‘.Nurullayeva, I.M.Mirziyotov, U.A.Masharipova, Sh.U.Sariyev, Y.A.Po‘lotovalarning tadqiqotlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy qobiliyati, diqqati hamda fikrlash darajasini faol rivojlantirish masalalari o‘rganilgan [1].

Munozara. O‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish hamda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalihi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublariga oid tushunchalarni) shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrini to‘g‘ri va ravon bayon eta olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Boshlang‘ich ta’limning ona tili fani o‘quv dasturi o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzildi. Ushbu o‘quv dasturida 1-4-sinf o‘quvchilarida tayanch hamda fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko‘zda tutilgan.

Boshlang‘ich ta’limda – o‘quvchilarning savodxonligini ta’minlash, ularni og‘zaki va yozma nutqida adabiy nutq me’yorlariga rioya qilishga o‘rgatishdan iborat. Mazkur ona tili o‘quv dasturi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1. Savodga o‘rgatish va nutq o‘stirish.

2. Fonetika, grammatika, imlo va nutq o‘stirish.

Savodga o‘rgatish jarayoni tayyorgarlik va alifbe davridan tashkil topadi. Tayyorgarlik va alifbe davrida ta’lim savodga o‘rgatishning tahlil-tarkib (analitik-sintetik) tovush usulida amalga oshiriladi. Savodga o‘rgatishning tahlil-tarkib usuliga ko‘ra matndan gap, gapdan so‘z, so‘zdan bo‘g‘in va tovush, yoki aksincha, tovush > bo‘g‘in > so‘z > gap > matn uzviy aloqada butundan bo‘lakka, bo‘lakdan butunga qarab tahlil-tarkib qilinadi. Bu esa o‘quvchilar tafakkur faoliyatini ongliklik, tushunarliklik, mantiqiylik, didaktik mezonlar asosida rivojlantirish imkoniyatini vujudga keltiradi. Boshlang‘ich ta’limning ilk savodga o‘rgatish davridanoq, o‘quvchilar nutqini yangi so‘zlar hisobiga boyitishga alohida e’tibor qaratiladi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslariga quyidagicha talablar qo‘yiladi. Jumladan: **didaktik talablar:**

o‘quvchi tomonidan o‘quv materiallarining to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlash;

matnlar axborot berishga emas, balki o‘quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi;

qiziqarli, lo‘nda va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo‘lishi;

ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

ta’limning kundalik hayot va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqligini ta’minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish layoqatlari shakllantirilishiga, boshqa o‘quv fanlari bilan uzviy bog‘liqlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

rasmlar ko‘rinishidagi ilustrasiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo‘lishi;

yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, formulalar, ta’riflar va shu kabilar lug‘at ko‘rinishida ifodalangan bo‘lishi lozim.

Ilmiy-metodik talablar:

fan-texnikaning so‘nggi yutuqlarini o‘zida aks ettirishi;

o‘quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta’minlangan bo‘lishi;

o‘quv fani mavzulari o‘zbek adabiy tili qoidalariga to‘liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi;

milliy g‘oya va O‘zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo‘lmagan tegishli ilustrasiyalar bilan boyitilishi;

savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo‘lishi;

o‘quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o‘tkazishga o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo‘lishi;

bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalanishiga, sanalarni keltirishda mavhumlikka yo‘l qo‘yilmasligi;

kasb-hunarga yo‘naltirishga oid matnlar va rasmlar, izohli lug‘at, texnik ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o‘stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashirish yuzasidan topshiriqlarni qamrab olgan bo‘lishi lozim.

Pedagogik-psixologik talablar:

keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma’lumotlar, o‘quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga va amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laqonli qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

o‘quv fani mavzularining o‘quvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, ma’lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog‘liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

o‘quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o‘zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo‘lishi lozim.

Estetik talablar:

imkon darajasida yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo‘lishi;

matnlar o‘quvchiga ma’lum ijobiy hissiy ta’sirlarni o‘tkazishi va o‘quv faniga qiziqish uyg‘otishi;

bo‘lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibligi ta’minlanishi;

rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi lozim.

Gigiyenik talablar:

matn va ilustrasiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo‘lishi;

harflarning kattaligi va qog‘ozning sifati (og‘irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi).

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyasini takomillashtirish masalasi bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvning tatbiq etilishi shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning muhim xususiyatlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi [2].

Kommunikativ kompetensiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta’minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.


Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lish, badiiy va san‘at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o‘qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta‘lim fanlari orqali o‘quvchilarda shakllantiriladi [2].

Boshlang‘ich sinflarda tayanch kompetensiyalar bilan birga fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish ham kun tartibida turgan masalalardan biri sanaladi. Fanga oid kompetensiyalarning quyidagi shakllari mavjud.

1. Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish);

2. Lingvistik kompetensiya (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid).



1-pacm. Kompetensiya tushunchasi

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida tayanch kompetensiyalar o‘quvchilarga faoliyatning turli bosqichlarida o‘quv jarayonida ijtimoiy madaniy me‘yorlar, hayot uchun zarur bilimlarni integratsiyalashtirgan holda o‘zlashtirish natijasida hosil bo‘ladi. Tayanch kompetensiyalar shaxslararo va shaxsning ichki munosabatlari, nuqtai nazarlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu o‘z navbatida, tayanch kompetensiyalarning shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishi, kommunikativ munosabatlarga kirishishi, umum madaniy tajribalarni o‘zlashtirishiga ko‘maklashadi. Tayanch kompetensiyalar o‘quv jarayonining natijasi va o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta‘minlovchi pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalar qanchalik samarali shakllangan bo‘lsa, ularning ijtimoiylashuvi shu

qadar jadal kechadi. Tayanch kompetensiyalar yordamida o‘quvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarga osongina moslashadilar.

Xulosa. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida tayanch kompetensiyalarning shakllanishi o‘quvchining o‘zi egallagan bilimlarni qo‘llashi, shaxsiy tajribasiga aylantirishi bilan bog‘liq faoliyatidir. O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun muayyan strategiyalar yordamida bilimlarni tizimli, uzluksiz, izchil va integratsiyalashtirgan holda taqdim etish kerak. Bunda o‘quvchilarning o‘zlari o‘zlashtirgan bilimlarini tizimli, integratsiyalashtirgan holda amaliy faoliyatlariga tatbiq etishlari lozim.

Adabiyotlar:

1. Aslanova N. X. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni o‘qish va tushunish kompetensiyalarini shakllantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro, 2023. -46 b.
2. Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi // Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PF-5538-son Farmoni.
4. Adizov B. R., Khamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students //Ilmiy xabarnoma. – C. 69.
5. Hamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
6. Azimova I, Mavlonova K, Azimova I, Quronov S, Shokir Tursun Ona tili va o‘qish savodxonligi 1-2-qism: 1-sinf uchun darslik. – T.: “Respublika ta‘lim markazi”, 2021. – 104 b.
7. Mavlonova K, Azimova I, Quronov S, Shokir Tursun, Ro‘zmetova Z Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-2-qism: 3-sinfi uchun darslik. – Toshkent: “Respublika ta‘lim markazi”, 2022. – 144 b.
8. Mavlonova K, Azimova I, Quronov S, Shokir Tursunva boshq. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-2-qism: 2-sinf uchun darslik. – T.: “Respublika ta‘lim markazi”, 2021. – 120b
9. Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / I. Azimova [va boshq.]. -Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2021. -128 b

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH

UDK: 37:53:004.9

TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Narkulov Odil Oltinbekovich,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

narkulovodil@gmail.com,

Maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) yangi turlarini, ya'ni mobil ilovalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash yo'llari mobil ilovalar asosida o'quv jarayonini takomillashtirishda xorij olimlarining olib borgan tadqiqotlari tahlili, mobil ta'lim, mobil ilovalar ta'rifi keltirilgan. Bundan tashqari “Qattiq jismlar fizikasi” fanini o'qitishda mobil ilovalardan foydalanib, ma'ruza, laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish yaxshi samara berishi hamda mobil ilovalarning tarkibiga kiruvchi kompyuter imitatsion modellar yordamida oddiy sharoitda ko'rish imkoni bo'lmagan fizik jarayonlarning modellari orqali darslarni tushuntirish nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: AKT, mobil ta'lim, mobil ilova, qattiq jismlar fizikasi, mobil qurilma, mobil telefon, planshet, platforma, smartfon, M-learning, deformatsiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОБИЛЬНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК

В статье представлен анализ исследований, проведённых зарубежными учёными по совершенствованию образовательного процесса на основе мобильных приложений, пути интеграции в образовательный процесс новых видов ИКТ, то есть мобильных приложений, определение мобильного образования, мобильного приложения. Кроме того, приведена эффективная организация лекций и лабораторных занятий с использованием мобильных приложений при обучении физике твёрдого тела, а также использование компьютерных имитационных моделей, входящих в состав мобильных приложений, для моделирования физических процессов, которые невозможно увидеть в обычных условиях.

Ключевые слова: ИКТ, мобильное обучение, мобильное приложение, физика твёрдого тела, мобильное устройство, мобильный телефон, планшет, платформа, смартфон, M-learning, деформация.

PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE USE OF MOBILE APPLICATIONS IN THE TEACHING OF NATURAL SCIENCES

The article presents an analysis of studies conducted by foreign scientists to improve the educational process based on mobile applications, ways to integrate new types of ICT into the educational process, that is, mobile applications, the definition of mobile education, mobile applications. In addition, it is effective to organize lectures and laboratory classes using mobile applications in teaching solid state physics, as well as the use of computer simulation models that are part of mobile applications to simulate physical processes that cannot be seen under normal conditions.

Keywords: ICT, mobile learning, mobile application, solid state physics, mobile device, mobile phone, tablet, platform, smartphone, M-learning, deformation.

Kirish. Hozirgi dunyo hamjamiyati va respublikamizning boshqa mamlakatlar bilan madaniy, ta'limiy va iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning keskin o'sib borayotganligi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) o'rni beqiyosdir. Zamonaviy jamiyatda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, uning yuqori rivojlanish dinamikasi, ijtimoiy ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlash, tubdan yangi texnologiyalarni joriy etish ta'limning faol va o'z-o'zini rivojlantirishga qodir ijodiy shaxsni tarbiyalash zaruratini o'z oldiga qo'ydi. Mustaqil ravishda yangi ma'lumotlarni olish o'rganish, qaror qabul qilish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ustivor vazifalardan hisoblanadi. Respublikamizdagi ta'lim tizimini isloh qilishning dolzarb masalalaridan biri o'quv jarayonini samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan AKTning yangi turlari bilan boyitishdir. Hozirgi jamiyatda yangi gadjetlar, mobil ta'lim, mobil ilovalardan

foydalanmaslik mumkin emas. Bu o‘z navbatida talabalarning istalgan vaqt va makonda ta’lim olish imkoniyatini beradigan mobil ta’lim, mobil ilova kabi yangi texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etishni taqozo etmoqda. Ushbu zamonaviy dasturiy vositalardan o‘quv jarayonida foydalanish ta’lim sifatini yaxshilash va fanga qiziqish darajasini oshirishga yordam beradi.

Mobil telefonlarning kundalik hayotdagi o‘rning ortib borishi mobil ta’lim deb nomlangan yangi o‘qitish usulining paydo bo‘lishiga olib keldi. Shu bilan birga, mobil ilovalar mobil ta’limning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘qitish va o‘qitish sifatini oshirishda samarali hisoblanadi [1].

Mobil ta’lim (MT) - oliy ta’lim muassasasining xronotopi (yunoncha chronos – vaqt, topos - joy; tom ma’noda vaqt-makon) bilan chegaralanib qolmasdan, istalgan vaqt va makonda ta’lim olish imkoniyatini beruvchi ta’lim muhitidir. MT auditoriyada va auditoriyadan tashqarida ta’lim olish imkoniyatini beruvchi yangicha yondashuvdir. Shu bilan birga, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir klassik ta’lim jarayoni doirasida ham, virtual tarzda ham amalga oshirilishi mumkin, bu bizga auditoriyadagi an’anaviy ta’lim va auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta’limni birlashtirishga imkon beradi [2].

Hozirgi vaqtga kelib o‘quv jarayonini takomillashtirishda MTdan keng foydalanilmoqda. Bu yangi yondashuvning keng tarqalishi birinchi navbatda mobil ilovalar bilan bog‘liq, chunki ulardan istalgan vaqt va makonda foydalanish imkoniyati mavjudligidir. Mobil ilovalarning soni yil sayin ortib bormoqda [3].

Mobil telefonlar uchun cheksiz internetdan foydalanish dastlab Yaponiyada, AQShda keyinchalik Yevropa va Rossiya Federatsiyasida foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Bugungi kunga kelib mobil telefonlarning bajaradigan vazifalari 1990-yillar boshidagi kompyuterlarning bajaradigan vazifalaridan yuqori bo‘lmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, rivojlanayotgan mamlakatlarda mobil telefon, mobil ilovalarning turli xususiyatlaridan ko‘proq foydalanilmoqda [4].

Mobil ilova (MI) – ma’lum bir platforma (iOS, Android, Windows Phone va boshqalar) uchun ishlab chiqilgan smartfonlar, planshetlar, boshqa mobil qurilma va mobil telefonlarda ishlashga mo‘ljallangan dastur [5].

Mobil qurilmalar – smartfonlar, planshetlar, elektron kitoblar va telefonlarni o‘z ichiga olgan bir qator qurilmalar, ularning asosiy xususiyati hajmi va ular bajaradigan funksiyalar sonining ko‘pligidir.

Mobil telefon – mobil aloqada foydalaniladigan telefon apparati turi. Hozirgi kunda, mobil telefon klaviatura va ekranga ega bo‘lib asta-sekin kompyuter, faks apparati, telefon apparati, qaydlar kitobchasi vazifalarini bajaruvchi ko‘p maqsadli abonent tizimidir.

Platforma – kompyuterlarda, mobil qurilmalarda ishlaydigan operatsion tizim.

Smartfon – sensor ekranli mobil telefon, cho‘ntak shaxsiy kompyuterining funksional imkoniyatlari bilan to‘ldirilgan.

Planshet – qalam yoki barmoqlar yordamida displey bilan o‘zaro aloqada bo‘lishga imkon beruvchi sensor ekranli noutbuk.

Auditoriyada mobil ilovalarni ishlatishdan yoki ularni o‘quvchilarga taqdim etishdan oldin o‘qituvchi har xil turdagi mobil ilovalarni o‘quv jarayoniga qanday qo‘llash mumkinligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Mobil ilovalarni o‘quv jarayoniga qo‘llashda quyidagi shakllariga e’tibor qaratish kerak [6].

kontent ilovalari (content apps) – o‘quv materiallarini yangi ma’lumotlar bilan boyitib ko‘rgazmali shaklda taqdim etish.

amaliy ilovalar (fieldwork apps) – bu talabalarga auditoriyadan tashqarida mustaqil ta’lim olishga yordam beradi.

audio va vizual ilovalar (sound and vision apps) – bu yerda talabalar o‘qituvchining nutqini tinglashlari yoki o‘zlarining fikr-mulohazalarini yozib borishlari mumkin.

kartografik ilovalar (mapping apps) – bu talabalarga xaritalar va joylar haqida ma’lumot beradi.

ijodiy ilovalar (creative apps) – unda talabalar ijodiy ishlarini takomillashtirish hamda mobil ilovaga joylashtirish uchun o‘zlarining shaxsiy sahifalarini yaratishlari mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili

Yevropa va Amerika Qo‘shma Shtatlarida 2002-yildan buyon mobil ilovalarni ta’lim jarayonida tutgan o‘rni to‘g‘risida xalqaro konferensiyalar, davra suhbatlari, seminarlar o‘tkazilgan. Yevropada 2005-yildan beri “M-learning” xalqaro konferensiyasi doimiy ravishda o‘tkaziladi. 2002-yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan “MLearnCon” xalqaro konferensiyasida 2011-yilga kelib 600 dan ortiq ishtirokchi qatnashdi, bu esa 2010-yilga nisbatan 55% foizga ko‘p ekanligini ko‘rsatmoqda. Maqsad - ta’lim tizimida mobil ilovalardan foydalanib o‘qitish metodikasini samaradorligini oshirish bo‘lgan “MoLeNET” xalqaro konferensiyasi Buyuk Britaniyada 2007-yildan beri o‘tkazib kelinmoqda [7].

Xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilinganda masalan, J. Draksler “Current State of Mobile Learning” nomli tadqiqotida mobil ilovalar o‘quv jarayonini butunlay o‘zgartiradi deb ta’kidlaydi, chunki mobil ilovalar nafaqat materialni taqdim etish va unga kirish shakllarini

o'zgartiradi, balki bilish va ta'limning yangi shakllarini yaratishga ham hissa qo'shadi. Mobil ilovalar asosidagi ta'lim multimedia, strukturalash yoki modullilik, interaktivlik, mavjudlik kabi didaktik tamoyillarni mujassamlashtiradi. Mobil ilovalar o'quv jarayonida talabaning ishtirokini o'zgartirishi, shuningdek, masofaviy yoki aralash ta'limdan farq qiladigan, jamiyatni raqamlashtirishda rivojlanishining yangi turini tavsiflovchi ta'lim shakli ekanligini ta'kidlaydi [8].

M.Bransford, J.Duglas, D.Kelli, T.Rekkedal, S.Gedesslarning so'zlariga ko'ra elektron ta'limdan mobil ilovalar asosidagi ta'limning asosiy farqi - ma'lum bir auditoriya yoki joyga bog'liq emasligidir. Bu o'z navbatida o'quv jarayoni individuallashtiradi. S.Xargadon, S.Geddes, J.Duglas, D.Kelli, M.Bransford va boshqalar “How People Learn” nomli tadqiqotida mobil ilovalar asosida o'qitish zamonaviy pedagogikaning istiqbolli yo'nalish bo'lishini ta'kidlagan [9]. M. Kumari va S. Vikram “Mobile Learning” tadqiqotida mobil ta'limning afzalliklari haqida gapirganda, bunday mashg'ulotlar har bir talabaning qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda haqiqatan ham individual ta'lim ekanligini ta'kidlaydi. M-learning axborotdan tezkor foydalanish imkoniyatini beradi, bu esa ta'lim sifat samaradorligini oshirishi mumkinligi keltirilgan [10].

Mayara Lustosa de Oliveira va Eduardo Galembecklarning “Mobile Applications in Cell Biology Present New Approaches for Cell Modelling” nomli tadqiqot ishida AKTlarning imkoniyatidan foydalangan holda “Hujayra biologiyasi” fanidan mobil ilova tayyorlandi. Hujayra funksiyasining dinamikasini o'rganish uchun real modellar va animatsiyalardan foydalanilgan. Smartfonlar, planshetlar uchun mo'ljallangan mobil ilovalar kompyuterlar va noutbuklarda mavjud bo'lmagan imkoniyatlarini ta'minlaydi. Kontentni yuqori darajadagi interaktivlik bilan ta'minlashi mumkin hamda istalgan vaqt va makonda foydalanish imkoniyati mavjud. Mobil ilovalarda hujayra modellarining animatsiyalar orqali ko'rgazmalilikdan foydalanib mashg'ulotlar olib borilganda talabalarda eslab qolish ko'nikmalari ham shakllanib borishi keltirilgan [11].

Siobhan O'Connor ba Tom Andrewslarning “Smartphones and mobile applications (apps) in clinical nursing education: A student perspective” nomli tadqiqot ishida hamshiralik ishi yo'nalishi bo'yicha to'rt yillik bakalavriat dasturida o'qiyotgan ikki yuz nafar talabalar ishtirok etdi. Ishtirokchilarning deyarli barchasi smarfonlardan foydalanishini ta'kidlashdi, ammo talabalarning to'rtidan bir qismi klinik amaliyotda, o'quv jarayonida mobil ilovalardan foydalanishi aniqlandi. Tadqiqotda ishtirok etgan hamshiralik ishi talabalari mobil ilovalarning ko'plab afzalliklarini, masalan, o'quv materiallariga kirib ma'lumot olish osonligi, bilim va ishonchni oshirishi hamda amalda o'rganishdan tashvishlanishni kamaytirish kabilar haqida xabar berishdi. Hamshiralik ishi talabalarining mobil ilovalarni o'quv jarayoniga qo'llashdagi kamchiliklar sifatida, yomon Wi-Fi, ya'ni internetga ulanishdagi muammolarni keltirib o'tgan [12].

Michail Kalogiannakis va Stamatios Papadakislarning “The Use of Developmentally Mobile Applications for Preparing Pre-Service Teachers to Promote STEM Activities in Preschool Classrooms” nomli tadqiqot ishida STEM ni o'rgatishni erta yoshda boshlash muhim, chunki STEM ko'nikmalarini rivojlantirish o'quvchilarning STEM ga bo'lgan qiziqishini, bilimlarini oshirishi, keyinchalik kasb tanlashlarida muammoga uchramasligi hamda maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni STEMga o'rgatuvchi o'qituvchilarni mobil ilovalar asosida amaliy ko'nikmalarini oshirib borish masalalari keltirilgan [13].


S. Aravindh Kumar and C. Karthikeyanlarning “Status of Mobile Agricultural Apps in the Global Mobile Ecosystem” nomli tadqiqotida ekologlar, fermerlar va qishloq xo'jaligi mutaxassislari uchun o'quv va maslahat xizmatlarini taklif qiluvchi mobil ilovalarni loyihalash hamda ishlab chiqish zarurati mavjudligi keltirilgan. Ushbu tadqiqot turli platformalarda mavjud bo'lgan global ekotizimdagi, qishloq xo'jaligidagi muammolarni mobil ilovalar asosida o'rganish shuningdek, mobil qishloq xo'jaligi ilovalarini yaxshilash uchun ma'lum qo'shimcha kontekstlarni aniqlashga qaratilgandir [14].

María José Carreño Juan C. Castro-Alonso María José Gallardolarning “Interest in Physics After Experimental Activities with a Mobile Application: Gender Differences” nomli tadqiqotida qizlarning fizika faniga qiziqishini uyg'otish uchun bir nechta o'quv yechimlari taklif qilingan, shulardan biri o'quv jarayonida mobil ilovalardan foydalanishdir. Biroq mobil ilovalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish muammoli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin, agarda foydalanuvchilarga to'g'ri ko'rsatmalar berilmasa. Ushbu tadqiqotda biz fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini mobil ilovalar asosida o'rgatib o'rta maktab o'quvchilarining fizikaga qiziqishini oshirishdagi samaradorligini o'rgandik. Ilmiy tadqiqot sakkizta maktabdan 268 nafar (57% qizlar) o'quvchilar ishtirokida olib borildi. Fizika fanini mobil ilovalar asosida o'qitish o'g'il o'quvchilarga qaraganda qiz o'quvchilarga ko'proq ta'sir ko'rsatdi. Ushbu tadqiqotda Lab4Physics mobil ilovasidan foydalanildi [15].

Lab4Physics mobil ilovasi talabalarga fizik hodisalarni mustaqil ravishda sinab ko'rish imkonini beruvchi bir nechta yuqori sifatli tajribalarni o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotda eng ko'p “Pirate Ship”, (Qaroqchilar kemasi) “Moon Walk” (Oyda yurish) va “Skydiving” (Parashyutdan sakrash) mobil

ilovalaridan tajribalarida foydalanilgan. Misol uchun, 1-rasmda ko‘rsatilganidek, "Pirate Ship" mobil ilovasi yordamida fizik tajribalarni o‘tkazishda mobil qurilmaning akselerometridan foydalaniladi.

Akselerometr – obyektning fazoviy yo‘nalishdagi tezlanishini o‘lchovchi qurilma. Akselerometrning qo‘llanilish sohalari juda keng. Undan nafaqat mobil qurilma yoki planshetlarda, balki, noutbuk, video yozib olish (видеорегистратор), avtomobil va samolyotsozlik sohalari ham keng foydalaniladi [16].



1-Rasm. “Pirate Ship” mobil ilovasidan foydalanib laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish tartibi. Chapda “Pirate Ship” faoliyatining skrinshotlari, markazda jarayon, o‘ngda faoliyat natijasida olingan grafik


Ushbu laboratoriya mashg‘ulotida mobil qurilma ipga bog‘langan shaffof jismga solinadi. Akselerometr faollashtirilgandan so‘ng, qurilma ma‘lum bir balandlikdan tushiriladi, boshqa odam esa arqonning ikkinchi uchini mahkam ushlab turadi. Ilova qurilmaning harakatlari haqidagi ma‘lumotlarni yozib oladi va keyin bu hodisani grafigini ekranda tasvirini namoyon etadi. Lab4Physics ilovasi quyidagi xususiyatlarini o‘z ichiga oladi.

- a) o‘qituvchilar va talabalarga o‘z faoliyatini boshqarishda yordam beradigan texnologiya sifatida.
- b) talabalarga olingan natijalardan vizual ma‘lumot yaratishga imkon berish.
- c) o‘quvchilarga mobil qurilmalarida olingan ma‘lumotlarni o‘zaro almashishda raqamlashtirilgan mexanizmdan foydalanish.

Tahlil va natijalar.

Deformatsiya - qattiq jismning hajmi yoki shaklining o‘zgarishi tashqi kuch ta‘sirida uning massasi o‘zgaradi. Deformatsiya - bu tananing har qanday nuqtalari orasidagi masofa o‘zgarib turadigan jarayon. Deformatsiyaning eng oddiy turlari: taranglik, siqish, kesish, buralish, egilish. Bir o‘qli kuchlanishdagi elementar deformatsiya silindrsimon namuna cho‘zilishdir. Qo‘llashda tortish kuchi, namuna uzunligi ortadi va diametri kamayadi.

qattiq jismlarda $\nu = 0.25 \div 0.35$ oraliqda yotadi.



2-rasm. “Qattiq jismlar fizikasi” mobil ilovasida silindrsimon namunaning tashqi kuch ta‘sirida uzayish jarayonining kompyuter imitatsion modeli

Silindrsimon namunaning bir o‘qli tarangligidagi elementar deformatsiyasi - cho‘zilishdir. Tashqi kuch ta‘sirida, namuna uzunligi ortadi va diametri kamayadi. Deformatsiya odatda nisbiy birliklarda ifodalanadi.

Shunday qilib, agar namunaning boshlang'ich uzunligi L_0 , hamda tashqi kuchlar ta'sirdan keyin L_k namunaning nisbiy deformatsiyasi quyidagicha aniqlanadi:


$$\varepsilon = \frac{L_k - L_0}{L_0}$$

ε -Nisbiy deformatsiya

L_0 –namuna uzunligi, (m)

L_k –tashqi kuchlar ta'siridan keying namunaning uzunligi (m)

bitta normal va ikkita urunma tashkil etuvchilar yordamida aniqlanadi.



3-rasm. “Qattiq jismlar fizikasi” mobil ilovasida tashqi kuchlar ta'sirida jismning shakli va hajmining o'zgarishining kompyuter imitatsion modeli

Deformatsiyalangan holatni to'liq tavsiflash uchun cho'zilishlardan (qisqartirishlardan) tashqari, siljish kuchlanishlari ta'sirida sodir bo'ladigan deformatsiyalarni bilish kerak. Mexanik sinovlar vaqtida deformatsiyani xarakterlash uchun namunaning chiziqli o'lchami va siljish burchagi o'zgarishiga e'tibor qaratish kerak. Nisbiy siljish o'zgarigan burchak tangensi bilan aniqlanadi [17].

$$tg(\gamma) = \gamma = \frac{\Delta l}{h}$$

bu yerda, $tg(\gamma)$ –tangensial burchak

Δl –OX – o'qqa nisbatan qancha masofaga siljigani

h –shakl va o'lchami o'zgarigan jismning balandligi

Xulosa. Ta'lim jarayonida AKTdan foydalanishning faol shakllari materialning mazmunini chuqurroq o'rganishga, o'qitishning turli usullaridan samarali foydalanishga, o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga, o'qishdagi faollik va shaffoflik prinsipini amalga oshirishga yordam beradi. Shu asnoda “Qattiq jismlar fizikasi” fanidan tayyorlagan mobil ilovamiz ham o'zida oddiy sharoitda ko'rib bo'lmaydigan fizik jarayonlarni kompyuter imitatsion modellari joylashtirilgan. Yuqoridagi rasmlarda “Qattiq jismlar mexanikasi” mavzusi bo'yicha tayyorlangan imitatsion modellar keltirilgan. Jumladan, tashqi kuch ta'sirida jismlarning shakli va hajmining o'zgarishini talabalar bevosita mobil qurilmalarida kuzatish imkoniga ega bo'ladilar. Fizik jarayonlarni kompyuter imitatsion modellari tayyorlanib mobil ilovalar asosida ma'ruza, laboratoriya mashg'ulotlari olib borilsa, talabalarda qattiq jismlar fizikasi faniga bo'lgan qiziqishlari ortadi.

Adabiyotlar:

1. Hashemi M., Azizinezhad M., Najafi V., Nesari A. What is Mobile Learning? Challenges and Capabilities // Procedia – Social And Behavioral Sciences. 2011. № 30. P. 2477–2481.
2. Hockly N. Mobile learning // ELT J.: English Language Teaching J. 2013. № 67 (1). P. 80–84.
3. D.D. Jonas-Dwyer., C.Clark, A.Celenza, Z.S. Siddiquiларнинг “Evaluating Apps for Learning and Teaching” Intern. J. of Emerging Technologies In Learning. 2012.

4. Colley J., DeGani A., Stead G. What in the World Are You Doing with Your Mobile Phone? World Differences in the Use of Mobiles. Cambridge, 2010.
5. ПНСТ 277-2018 Российская система качества. Сравнительные испытания мобильных приложений для смартфонов, ПНСТ от 26 июня 2018 года №277-2018“. docs.cntd.ru. Qaraldi: 10.01.2023-yil.
6. Shipman K. Using apps in the classroom // Teaching Geography. 2014. № 39 (1). P. 32–33.
7. Kukulska-Hulme, Agnes (2010). Mobile learning for quality education and social inclusion. UNESCO Institute for Information Technologies in Education, Moscow, Russian Federation. URL: http://iite.unesco.org/files/policy_briefs/pdf/en/
8. Draxler J. Current State of Mobile Learning // M- Learning: Transforming the Delivery of Education and Training. 2009. URL: <http://www.aupress.ca/index.php/books/120155>
9. Bransford M., Douglas J. How People Learn: Brain, mind, experience, and school. Washington (D.C.), 2000.
10. Kumari M., Vikram S. Mobile Learning: An Emerging Learning Trend. HiTech Whitepaper. 2009, no. 11. pp. 18-29.
11. Mayara Lustosa de Oliveira va Eduardo Galembecklarning “Mobile Applications in Cell Biology Present New Approaches for Cell Modelling” Volume 50, 2016 – Issue 3
12. Siobhan O'Connor , Tom Andrews larning “Smartphones and mobile applications (apps) in clinical nursing education: A student perspective” Nurse Education Today Volume 69, October 2018, Pages 172-178
13. Michail Kalogiannakis va Stamatis Papadakis larning “The Use of Developmentally Mobile Applications for Preparing Pre-Service Teachers to Promote STEM Activities in Preschool Classrooms” Mobile Learning Applications in Early Childhood Education. 2020 Pages: 19 DOI: 10.4018/978-1-7998-1486-3.ch005
14. S. Aravindh Kumar and C. Karthikeyanlarning “Status of Mobile Agricultural Apps in the Global Mobile Ecosystem” International Journal of Education and Development using Information and Communication Technology, v15 n3 p63-74 2019
15. María José Carreño Juan C. Castro-Alonso María José Gallardolarning “Interest in Physics After Experimental Activities with a Mobile Application: Gender Differences” International Journal of Science and Mathematics Education (2022) 20:1841–1857 <https://doi.org/10.1007/s10763-021-10228-4> 1 3 http://yorituvchi.ucoz.net/news/akselerometr_nima/2017-04-18-58
16. Хахомов С. А., Семченко А. В., Никитюк Ю. В. “Физика твердого тела тексты лекций” для студентов специальности 1 – 31 04 01 «Физика». М-во образования РБ, Гомельский государственный университет им. Ф. Скорины. – Гомель: ГГУ им. Ф. Скорины, 2010. – 108 с. ISBN 978–985–439–509–8

**UMUMIY KIMYO FANIDAN ANORGANIK BIRIKMALARNING MUHIM SINFLARI
MAVZUSINI O'QITISHDA MUAMMOLI VAZIYAT METODIKASIDAN FOYDALANISH
(akademik litseylar misolida)**

Ochilova Maxbuba Kamol qizi,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
mahbuba45679@gmail.com

Maqolada ta'lim texnologiyalarini qo'llab akademik litseylarda umumiy kimyo fanini o'qitishning sifat va samaradorligi yoritilgan. Bayon etilgan ma'lumotlar o'quv jarayoniga tizimli yondashuvni qo'llash, barcha o'quv holatlarini ta'lim texnologiyalari asosida tashkillashtirish masalalari yoritilgan. O'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim-tarbiyaviy ishlarni mazmun va sifat jihatdan takomillashtirishga, talabalarda nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar shakllanishiga keng imkoniyat yaratilganligini mazkur maqolada ko'rish mumkin. Keltirilgan masalalarda nazariy ma'lumotlarni talabalarga yetkazish usul, vosita va metodlari yoritilgan, ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning alohida usul va tizimlari ochib berilgan, afzalliklari hamda samaradorlikka erishish omillari qayd etilgan. Akademik litseylarda Anorganik birikmalarning eng muhim sinflari mavzularini o'qitishni takomillashtirishda muammoli o'qitish jarayonida talabani erkin va mustaqil bo'lish boshqaruvi reproduktiv o'quv metodlariga solishtirib qaraganda qanday samaradorlikka erishish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim texnologiyalari, ta'lim-tarbiya, muammoli o'qitish, akademik litsey, anorganik birikmalarning eng muhim sinflari, kislota, oksid, talaba.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРОБЛЕМНЫХ СИТУАЦИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ
ТЕМЫ «ВАЖНЫЕ КЛАССЫ НЕОРГАНИЧЕСКИХ СОЕДИНЕНИЙ» ПО ОБЩЕЙ ХИМИИ
(на примере академических лицеев)**

В статье описывается качество и эффективность преподавания общей химии в академических лицеях с использованием образовательных технологий. Приведённая информация охватывает использование системного подхода к образовательному процессу, организацию всех учебных ситуаций на основе образовательных технологий. В данной статье видно, что использование современных педагогических технологий в образовательном процессе создало широкие возможности для совершенствования воспитательной работы по содержанию и качеству, для развития у студентов теоретических знаний, практических навыков и умений. В указанных вопросах освещаются методы, средства и способы донесения теоретической информации до обучающихся, выявляются специальные приёмы и системы использования образовательных технологий, отмечаются преимущества и факторы достижения эффективности. В совершенствовании преподавания важнейших классов неорганических соединений в академических лицеях выделены пути достижения эффективности свободного и самостоятельного управления учащимся в процессе проблемного обучения по сравнению с репродуктивными методами обучения.

Ключевые слова: образовательные технологии, образование, проблемное обучение, академический лицей, важнейшие классы неорганических соединений, кислота, оксид, ученик.

**USE OF PROBLEM SITUATION METHODOLOGY IN TEACHING THE SUBJECT OF
IMPORTANT CLASSES OF INORGANIC COMPOUNDS IN GENERAL CHEMISTRY
(as an example of academics)**

The article describes the quality and effectiveness of teaching general chemistry in academic lyceums using educational technologies. The given information covers the use of a systematic approach to the educational process, the organization of all educational situations based on educational technologies. It can be seen in this article that the use of modern pedagogical technologies in the educational process has created a wide opportunity to improve educational work in terms of content and quality, and to develop students' theoretical knowledge, practical skills and abilities. The methods, means and methods of conveying theoretical information to students are highlighted in the mentioned issues, special methods and systems of using educational technologies are revealed, advantages and factors of achieving efficiency are noted. In improving the teaching of the most important classes of inorganic compounds in academic lyceums, the ways

to achieve efficiency of the student's free and independent management in the process of problem teaching compared to reproductive teaching methods are highlighted.

Keywords: educational technologies, education, problem teaching, academic lyceum, the most important classes of inorganic compounds, acid, oxide, student.

Kirish. Bugungi kunda insoniyat jamiyati, shuningdek, mustaqil respublikamiz xalqi oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy muammolarning yechimini topish tabiiy, ijtimoiy, texnik fanlarning o'zaro aloqadorligi va o'zaro munosabatlariga bog'liq. Chunki ularning barchasi mohiyati, mazmuni, tabiati, shakli va ko'lamiga ko'ra, tizimlilik tavsifiga ega bo'lib, ularga aynan mos yondashuv yordamida tadqiq etilib, yechimi topiladi. Bu, o'z navbatida, ta'lim-tarbiya ishida ham tizimli yondashuvdan foydalanishni ko'zda tutadi.

O'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning zaruriy sharti quyidagilar: birinchidan, axborot hajmining ko'pligi, kengligi va tezda yangilanib borayotganligi; ikkinchidan, texnik taraqqiyotining tezligi, zamonaviy asbob va anjomlar tez taraqqiy qilayotganligi; uchinchidan, o'qitishning turli texnik vositalarining taraqqiy etib borayotganligi; to'rtinchidan, tashqi ta'sirlar, talabalar uchun bundanda qiziq telefon, Internet, ijtimoiy saytlar va h.k.lar mavjudligi. Bunday ta'sirlar bugungi kun darslarini zamon talabi darajasida o'tishni talab qiladi.[1]

Asosiy qism. Muammoli o'qitish jarayonida talabaning erkin va mustaqil bo'lish boshqaruvi reproduktiv o'quv metodlariga solishtirib qaraganda ancha samarali bo'ladi. Muammoli o'qitishning maqsadi talabalar bilan ishlash jarayonida ta'lim-tarbiya masalalari, muammo va savollariga javob qidirish, ularni hal etish yo'llari bilan birga yangi kimyoga oid bilimlarni o'zlashtirishni, talabalar o'quv faoliyatida muammoli dars jarayoniga oid vaziyatlar vujudga kelganda hal etish bo'yicha o'qituvchilar o'z fikrlarini berib ularda qiziqish uyg'ota olishidan iborat. Akademik litseylarda kimyo ta'lim yo'nalishi uchun Anorganik birikmalarning eng muhim sinflariga oid bo'lgan tajribalar muhim mavzulardan biri. Amaldagi tajribalarning tabiati (ko'rgazmali tajriba, amaliy ish va laboratoriya tajribalari) tajribaning murakkablik darajasi va darsda olib boriladigan muammoli topshiriqning tabiati bilan belgilanadi [2].

Ma'lumki, Anorganik birikmalarning eng muhim sinflariga oid o'tkazilgan tajribalarning aksariyati tasvirli bo'lib, faqat o'rganilgan hodisalarni tasdiqlash uchun ishlatiladi. Shu bilan birga, talabalarga nafaqat ko'rgazmali tajribalarni, balki muammoli xususiyatga ega bo'lgan tajribalarni ham ko'rsatish tavsiya etiladi, chunki ular talabalarning kognitiv faolligini faollashtirishni ta'minlaydi, mustaqil fikrlashni o'rgatadi, fanga bo'lgan qiziqishni rivojlantiradi, bilimini, ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi.

Anorganik birikmalarning eng muhim sinflari mavzulariga oid tajribani ko'rsatish jarayonida shakllanadigan muammoli savollar talabalarni:

- gipotezalarni shakllantirishga;
- nazariy masalalarni hal qilishga;
- to'g'ri xulosalar chiqarishga undaydi.

Shunday qilib, Anorganik birikmalarning eng muhim sinflari mavzularini o'qitishda muammoli tajribalardan foydalanish doimo dolzarb. Shu sababli muammoli tajribalarni o'tkazish metodologiyasini ishlab chiqish va ushbu metodologiyaaning samaradorligini tekshirish uchun pedagogik tajriba-sinov o'tkazildi. Tajriba-sinov “Kimyo” ta'lim yo'nalishida o'tkazildi.

Tajriba-sinovning bosqichlari:

- Anorganik birikmalarning eng muhim sinflari mavzularini o'rganishda muammoli tajribalar o'tkazish;

- test o'tkazish;
- anketa so'rovnomasini o'tkazish.[3]

Talabalar kislotalar bilan metallarning o'zaro ta'sirini tushuntirishda, reaksiyalariga oid tenglamalarni yozishda ko'pincha xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Bu jarayonlarni tushuntirishda tajriba natijalari evristik metod shaklida muhokama qilindi. Bunda Anorganik birikmalarni eng muhim sinflaridan kislota va oksidlar misolida yoritildi. Biz ikkita aniq misol yordamida muammoli yondashuvdan foydalangan holda tajriba-sinovlarni tashkil qilish metodologiyasini ko'rib chiqamiz.

Anorganik birikmalar xossalari o'xshashligiga qarab, bir necha sinfga bo'linadi. Bular oksidlar sinfi, asoslar sinfi, kislotalar sinfi va tuzlar sinfidir.

Oksidlar

Elementlarning kislorodli birikmalari oksidlardir. Ularning umumiy formulasi $E_x O_y$ (E – kisloroddan boshqa kimyoviy element).

Oksidlar tabiatda eng keng tarqalgan murakkab moddalardan hisoblanadi. Ularni tarkibi ikki elementdan tashkil topgan bo'lib biri kisloroddan iborat.

Kislorodning barcha elementlar bilan hosil qilgan birikmalari *oksidlar* deb ataladi.

Oksidlarning ko'pchiligi odatdagi sharoitda qattiq (metallarning barcha oksidlari; MgO, CaO, CuO va hokazo), ayrimlari gaz (metallaslar oksidlari: CO₂, SO₂, NO₂ va hokazo) va suyuq (masalan, H₂O) moddalar. Ularning umumiy formulasi E_xO_y (E – kisloroddan boshqa kimyoviy element).

Asoslar

Asosli oksidlarning gidratlari **asoslar** deb ataladi. Ular tarkibida OH gruppasi tutgani uchun ko'pincha gidroksidlar deb ataladi.

Asoslarning umumiy formulasi:

Me(OH)_n, Me — metall (yoki metall xarakteriga ega bo'lgan radikal, masalan, NH₄⁺), n — gidroksidlar soni.

Agar metallning valentligi o'zgarib bo'lsa bir necha asos hosil qilishi mumkin. Shunga muvofiq ular nomlanadi. Ayrim asoslarning tuzilishi va nomlanishi quyidagicha:

NaOH natriy gidroksid, Na—O—H

Ca(OH)₂ kalsiy gidroksid, $\begin{array}{c} \text{O—H} \\ \diagup \\ \text{Ca} \\ \diagdown \\ \text{O—H} \end{array}$

Fe(OH)₂ temir-(II) gidroksid $\begin{array}{c} \text{O—H} \\ \diagup \\ \text{Fe} \\ \diagdown \\ \text{O—H} \end{array}$

Fe(OH)₃ temir-(III) gidroksid $\begin{array}{c} \text{O—H} \\ \diagup \\ \text{Fe} \\ \diagdown \\ \text{O—H} \end{array}$

Yuqoridagi umumiy formulaga muvofiq kelmaydigan yagona asos NH₂OH — ammoniy gidroksid ma'lum. Uning tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin:

Ayrim gidroksidlar xossalriga va ishlatilishiga qarab ham alohida nomlanadi:

NH₄OH — novshadil spirti

KOH — o'yuvchi kaliy, kaliy ishqori

Ca(OH)₂ — so'ndirilgan ohak

Kislotalar deb, tarkibida vodorod atomlari va kislota qoldig'i saqlagan murakkab moddalarga aytiladi.

Kislotalar tarkibiga ko'ra, kislorodsiz (H_nE) va kislorodli (H_nEO_y) bo'ladi.

Nomlanishi: Kislotalar IYUPAK ning 1979 yilda qabul qilingan nomenklaturasiga asosan nomlanadi:

a) *kislorodsiz kislotalarning nomi-kislota hosil qilgan element nomiga* –“id” qo'shimchasi qo'shib aytiladi.

HF-florid kislota, HCl – xlorid kislota, H₂Se – selenid kislota, HCN – sianid kislota, HCSN – rodanid kislotalar;

b) *kislorodli kislotalarda element turli valentlik (yoki oksidlanish darajalari) namoyon qilsa*:

- eng past oksidlanish darajasi bo'lsa “*gipo*” old qo'shimchasi qo'shiladi;

HClO-gipoxlorid,

HBrO-gipobromit,

HJO – gipoyodid kislota deyiladi;

- o'rtacha oksidlanish darajasi bo'lsa –“*it*” qo'shimchasi qo'shib aytiladi;

H₂SO₃, - sulfid kislota,

HNO₂ - nitrit kislota,

H₃PO₃- fosfit kislota,

H₃AsO₃ – arsenit kislotalar deyiladi.

- yuqori oksidlanish darajasi bo'lsa, kislota hosil qiluvchi element nimiga –“*at*” qo'shimchasi qo'shib aytiladi;

HNO₃ - nitrat kislota,

H₂SO₄ - sulfat kislota,

HBrO₃ – bromat kislota

H₂CO₃ – karbonat kislota;

- bir element bir xil oksidlanish darajasida turli tarkibli kislotalar hosil qilsa, vodorod atomlari (aniqrog'i suv molekullari) soni kami –“*meta*”, vodorod atomlari ko'piga –“*orto*” –old qo'shimchasi qo'shib aytiladi.

HP⁺⁵O₃ – metafosfat kislota;

H₃P⁺⁵O₄ – ortofosfat kislota;

Reagentlar va jihozlar: alyuminiy Al (granular), rux Zn (granular), HCl eritmasi, fenolftalein, probirkalar.

Ishning borishi:

Ikkita raqamlangan probirkaga 3 ml.dan xlorid kislota eritmasi, 2-3 tomchi fenolftalein qo'shing va biriga Zn, ikkinchisiga Al granularlarini joylashtiring. Kichik kristallizatorga HCl eritmasidan oz miqdorda (balandligi taxminan 2 sm) quyting.

Kuzatishlar:

Rux – Zn	Aluminiy – Al
Reaksiya shiddatli ravishda, gaz ajralishi bilan boradi, fenolftalien rangini o'zgartirmaydi. $2\text{HCl} + \text{Zn} \rightarrow \text{ZnCl}_2 + \text{H}_2\uparrow$	Dastlab, reaksiya alomatlari kuzatilmaydi, keyin reaksiya shiddatli tarzda gaz ajralishi bilan boradi, fenolftalien rangi o'zgarmaydi. $6\text{HCl} + 2\text{Al} \rightarrow 2\text{AlCl}_3 + 3\text{H}_2\uparrow$

Muammo: olingan barcha metallar faol, ammo ular kislota bilan turlicha ta'sirlashadimi? Xususan, alyuminiy va rux. Ikkala metall ham metallarning aktivlik qatorida bir-biriga yaqin joylashgan, ularning standart elektrod potentsiallari qiymatlari bir-biriga yaqin

$$E(\text{Al}_3^+/\text{Al}) = -1,66 \text{ oB}, \quad E(\text{Zn}_2^+/\text{Zn}) = -0,76 \text{ oB}. [4]$$

Muammoning muhokamasi: 1-tajriba natijalaridan foydalangan holda talabalar alyuminiy yuzasida gaz pufakchalarining birdaniga paydo bo'lmashligini uning yuzasida yanada bardoshli oksid pardasi mavjudligi bilan bog'liq degan xulosaga kelishdi.

Shu bois alyuminiyning sirt yuzasidagi kuchli oksid plyonkasi alyuminiy nafaqat suv bilan o'zaro ta'sirlashganda, balki kuchli kislotalar bilan o'zaro ta'sirlashganda ham himoya qilishga imkon beradi. Oksid pardaning mustahkamligi gaz pechining alangasida alyuminiy simni isitish orqali tekshirildi. Alyuminiy Al_2O_3 kapsulasi ichida eriydi, shuning uning alyuminiy qizdirilganida oksid plyonka devorlari alyuminiyning oqib ketishiga yo'l qo'ymaydi. [4]

Tajribalardan xulosalar: Metallarning kuchlanishlar qatoriga ko'ra, vodorodgacha turgan metallar uni kislota eritmasidan siqib chiqaradi (istisno tariqasida: ishqor va ishqoriy yer metallari: ular kislotalarni erituvchi suv bilan reaksiyaga kirishadi).

Mavzu o'rganib chiqilgandan so'ng, talabalar bilimni tekshirish uchun metallarga oid mavzular bo'yicha test sinovi o'tkazildi. Tanlangan metodning samaradorligini sinab ko'rish uchun mavzuni o'zlashtirganlik darajasi (MO'D) mezonidan foydalanildi.

Pedagogik tajriba-sinov natijasi quyidagi formula bo'yicha hisoblandi:

$$\text{MO'D} = \frac{H_5 \cdot 1 + H_4 \cdot 0,64 + H_3 \cdot 0,36 + H_2 \cdot 0,36}{H} \times 100\%;$$

H_5 – bu yerda "5" bahoga baholangan talabalar soni (% da);

H_4 - "4" bahoga baholangan talabalar soni (% da);

H_3 - "3" bahoga baholangan talabalar soni (% da);

H_2 - "2" bahoga baholangan talabalar soni (% da);

H – bahoga baholangan talabalar soni (% da).

Natija 60% gacha – talabaning mavzuni o'zlashtirganlik darajasi (past).

Natija 60 dan 70% gacha - mavzuni o'zlashtirganlik darajasi (o'rtacha).

Natija 70% va undan yuqori - mavzuni o'zlashtirganlik darajasi (yuqori).

O'rganilayotgan talabalar guruhidagi o'quv natijalari quyidagi natijani ko'rsatdi:

$$\text{MO'D} = 1 \cdot 1 + 6 \cdot 0,64 + 2 \cdot 0,36 + 0,9 \times 100\% = 61,8\%.$$

Mavzuni o'zlashtirganlik darajasi o'rtacha natijani ko'rsatdi.

Ushbu muammoli o'qitish metodining samaradorligini aniqlash uchun so'rovnoma ham o'tkazildi.

Tadqiqot tahlili shuni ko'rsatdiki, so'rovnomada ishtirok etgan barcha talabalar kimyoviy tajribalarni takrorlashda vaziyatni modellashtirishga qiziqish bildirishgan. Barcha so'rovnomalarda muammoli ta'lim tizimida o'qitiladigan yangi materialni idrok etishda qiyinchiliklarga duch kelinmaganligi ta'kidlanib, talabalar ushbu darslardan yangi materialni tushuntirishda ko'proq foydalanilishini xohlashlarini qayd etdilar[6].

Sinovning dastlabki va yakuniy natijalarini taqqoslash asosida, dars davomida o'tkazilgan tajribalar natijasida talabalarda ba'zi metallarning kislotalar va ishqorlar bilan o'zaro ta'sirini, anorganik birikmalarining eng muhim sinflarini umumiy kimyoviy xossalari tushuntirish qobiliyatini rivojlantirganligi aniqlandi, bu esa ushbu mavzuni samarali o'zlashtirishga yordam berdi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot ishimiz ko'rgazmali tajriba-sinovlardagi muammoli o'qitish talabalarga ilgari olingan bilim va ko'nikmalarni faol ravishda qo'llashga imkon beradi, bilimlar darajasini,

kimyoviy hodisalarni tushunish darajasini oshirishga yordam beradi, shuningdek, muammoli va ijodiy vazifalarning aniq yechimlarida tajriba orttirishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Мамажанов Ш.А. Педагогика таълим муассасалари «Кимё ва уни ўқитиш методикаси» босқичининг тузилиши ва мазмуни.: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Фарғона: ФДУ, 2003. – 22, б.
2. Нишоналиев У.Н. Таълим стандартлари ва педагогик инновациялар – Т; // Халқ таълим. - 1999. – 6 - сон. – Б. 28 – 31.
3. Пак М.С. Методология научных исследований в области химического образования // Проблемы и перспективы развития химического образования: тез. докл. II Всерос. науч-практ конф. - Челябинск: ЧГПУ, 2006. - 24 – 27 с.
4. Парпиев Н.А., Рахимов Х.Р., Муфтахов А.Г. Анорганик кимё назарий асослари. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2000.
5. Парпиев Н.А. Анорганик кимё. -Тошкент: “Ўзбекистон”, 2003. -504 б.
6. Рўзиева Д.И., М.Х.Усмонбоева. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши. Методик қўлланма. -Тошкент: ТДПУ, 2014. 85-б

ARALASHMALAR VA ERITMALARGA DOIR MASALALARNI YECHISH BO‘YICHA METODIK TAVSIYALAR

Oltiyev Azizbek Bayramovich,
Navoiy davlat pedagogika instituti
stajyor-tadqiqotchisi

Maqolada maktab o‘quvchilarining dunyoqarashini rivojlantiruvchi, aralashmalarga doir masalalar bo‘yicha savodxonlik darajasini oshiruvchi hamda bilimlarini mustahkamlashga asos bo‘lib xizmat qiluvchi ba’zi metodik tavsiyalar keltirilgan. Konsentratsiyalari berilgan uchta aralashmadan oldindan berilgan massaga va konsentratsiyaga ega yangi aralashma hosil qilish uchun bu aralashmalardan qanday massa nisbatda olish kerakligi masalasi qaralgan. Bu masalani yechish usuli keltirilgan.

Kalit so‘zlar: aralashma, qotishma, konsentratsiya, eritma, massa ulushi, foiz, metodik tavsiya.

МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО РЕШЕНИЮ ЗАДАЧ ПО СМЕСЯМ И РАСТВОРАМ

В статье представлены некоторые методические рекомендации, развивающие кругозор школьников, повышающие уровень грамотности по вопросам смесей, служащие основой для закрепления их знаний. Рассмотрен вопрос о том, какое массовое соотношение нужно взять из этих смесей, чтобы создать новую смесь с заданной концентрацией и массу из трёх смесей с заданными концентрациями. Приведено решение этой проблемы.

Ключевые слова: смесь, сплав, концентрация, раствор, массовая доля, процент, методические рекомендации.

METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS FOR SOLVING PROBLEMS FOR MIXTURES AND SOLUTIONS

The article presents some methodical recommendations that develop the outlook of schoolchildren, increase the level of literacy on the issues of mixtures, and serve as a basis for strengthening their knowledge. The question of what mass ratio should be taken from these mixtures to create a new mixture with given concentration and mass from three mixtures with given concentrations was considered. Here is a solution to this problem.

Key words: Mixture, alloy, concentration, solution, mass fraction, percentage, methodical recommendation.

Kirish. Aralashmalar va qotishmalarga doir masalalar maktab o‘quvchilari uchun qiziqarli bo‘limlaridan biri bo‘lib, bugungi kunda STEAM tizimida ham bu turdagi masalalar dolzarbligicha qolmoqda. [1]. Abituriyentlar va maktab o‘quvchilari imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rishda aralashmalar va qotishmalarga oid masalalariga duch kelishadi. Bu mavzudagi masalalarni yechish bo‘yicha ba’zi metodik tavsiyalarni keltiramiz.

Asosiy qism. Aralashmalar va qotishmalarga doir masalalarni yechishda quyidagilarni inobatga olish lozim [2]:

1. Masalaning holatini o‘rganish. Noma'lum miqdorlarni tanlash (biz ularni x , y va hokazo harflar bilan belgilaymiz), ularga nisbatan mutanosibliklarni tuzamiz.

2. Yechim rejasini qidirish. Masalaning shartlaridan foydalanib, miqdorlar orasidagi barcha bog‘lanishlarni aniqlaymiz.

3. Rejani amalga oshirish, ya'ni topilgan yechimni loyihalash - og‘zaki shakllantirishdan matematik modelni tuzishga o‘tish. Noma'lum parametrlarni tanlab, masala shartida keltirilgan vaziyatning matematik modelini tuzamiz.

4. Olingan yechimni o‘rganish, natijani tahlil qilish.

Aralashma, qotishmaga oid masalalarni yechishda eritma va erigan moddaga diqqat qilish kerak. Aralashmalar va qotishmalarga doir masalalarni yechishda quyidagi formulalardan foydalanamiz [3]. Moddaning massa ulushi (foiz tarkibi)ni aniqlash formulasidan foydalaniladi:

$$P\% = \frac{M_1}{M} \cdot 100\%$$

bu yerda M_1 – erigan modda hajmi (massasi), M – eritma hajmi (massasi).

Olingan eritmada erigan moddaning massa ulushi quyidagi formula asosida topiladi:

$$P = \frac{M_1}{M}$$

bu yerda M_1 – erigan modda hajmi (massasi), M – eritma hajmi (massasi).

Massalari va konsentratsiyalari berilgan ikkita eritmani aralashtirishdan hosil bo‘lgan aralashmaning konsentratsiyasini topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$P\% = \frac{M_1 P_1 + M_2 P_2}{M_1 + M_2}$$

bu yerda M_1 – birinchi eritma hajmi (massasi), M_2 – ikkinchi eritma hajmi (massasi), P_1 – birinchi modda foiz konsentratsiyasi, P_2 – ikkinchi modda foiz konsentratsiyasi.

Sh.B. Farmonovanning [5] o‘quv qo‘llanmasida bu turdagi masalalarning diogonal usuli, arifmetik usuli, aralashmaning konsentratsiyasini topish formuladan foydalanish usullarini keltirib o‘tilgan. I.R Asqarov, M.A. Baxodirov, K.G‘. G‘ofirovning [2] qo‘llanmasida ham ushbu usullarda masalalarning yechimlari namuna sifatida keltirilgan. Eritmadagi ikki moddaning massalari nisbatini topish masalasi O.A.Ushakova, G.Irkutsklarning ishlarida qaralgan [6]. Biz ushbu ishda berilgan uchta aralashmadan oldindan berilgan massaga va konsentratsiyaga ega yangi aralashma hosil qilish uchun bu aralashmalardan qanday massa nisbatda olish kerakligi masalasiga to‘xtalamiz.

Bizga P_1 va P_2 foizli konsentratsiyaga ega moddalarni aralashtirganda P foizli konsentratsiyaga ega bo‘lgan M massali aralashma hosil qilish uchun ularni qanday massa nisbatda olish kerakligini aniqlash masalasi berilgan bo‘lsin.

1-usul. M_1 massali P_1 foizli konsentratsiyaga ega modda bilan M_2 massali P_2 foizli konsentratsiyaga ega moddani aralashtirganda hosil bo‘lgan aralashmaning P foizli konsentratsiyasini topishda

$$P = \frac{M_1 P_1 + M_2 P_2}{M_1 + M_2} \quad (1)$$

formuladan foydalaniladi. Bizda M_1 va M_2 lar noma’lumlardir.


$M_2 = M - M_1$, ekanligidan

$$M_1 = \frac{P_2 - P}{P_2 - P_1} M, \quad M_2 = \frac{P - P_1}{P_2 - P_1} M$$

tengliklarni topamiz

demak, $M_1 : M_2 = (P_2 - P) : (P - P_1)$ bo‘lar ekan.

2-usul. Yuqoridagi masalani yechishda quyidagi sxemadan ham foydalanish mumkin.



$|P_2 - P| = a$, $|P_1 - P| = b$ deb belgilab $\frac{M}{a+b} = k$ nisbatdan foydalanib $M_1 = ak$, $M_2 = bk$ larni topamiz bundan $M_1 : M_2 = (P_2 - P) : (P - P_1)$ ekanligi kelib chiqadi.

3-usul. Jadval usuli. yuqoridagini yechishda quyidagi jadvalni tuzish ham qulay.

	1- eritma	2- eritma	aralashma
Eritmaning massasi	M_1	M_2	$M = M_1 + M_2$
Erigan moddaning massa ulushi	P_1	P_2	P
Eritmadagi moddaning massasi	$M_1 P_1$	$M_2 P_2$	MP

Masala shartiga mos jadval.

Oxirgi satrdan $M_1 P_1 + M_2 P_2 = MP$ (1) munosabatga kelishini ko‘rishimiz mumkin.

1-masala: 24% li 150g eritma massa olish uchun 20% va 32% moddalardan qanday nisbatda olish kerak [4].


Berilganlar: $P_1 = 20\%$, $P_2 = 32\%$, $P = 24\%$, $M = 150g$ ma'lumotlardan foydalanib so'ralgan nisbatni topish uchun yuqorida ko'rsatgan uch usulimizda ko'raylik:

1) $M_1:M_2 = (P_2 - P):(P - P_1)$ dan foydalanamiz.

$$M_1:M_2 = (32 - 24):(24 - 20), \quad M_1:M_2 = 2:1$$

Demak, moddalarning massalari 2:1 nisbatda bo'lishi kerak.

2) Sxemadan usulida:



$a = 8, b = 2$ larga ega bo'lamiz va $M_1:M_2 = b:a$ dan $M_1:M_2 = 2:1$

3) Jadval usulida:

	1- eritma	2- eritma	aralashma
Eritmaning massasi	M_1	M_2	$150 = M_1 + M_2$
Eritgan moddaning massa ulushi	20	32	24
Eritmadagi moddaning massasi	$20M_1$	$32M_2$	$24(M_1 + M_2)$

$20M_1 + 32M_2 = 24(M_1 + M_2)$ dan $M_1:M_2 = 2:1$ nisbatda bo'lishi kerakligini yana bir bor ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi masalada biz ikkita turli xil konsentratsiyali moddalar massalari nisbatini topish masalasini qaradik. Endi uchta turli xil konsentratsiyali moddalarning aralashmasi berilgan bo'lsa, ularning massalar nisbatini topishni qaraymiz.

2-masala: 10%, 20% va 50% li kislotalar berilgan. Bulardan 1 l 40% li kislotaga ega bo'lishimiz uchun ularning massalari nisbati qanday bo'lishi kerak.

Berilganlar: $P_1 = 10\%$, $P_2 = 20\%$, $P_3 = 50\%$, $P = 40\%$, $M = 1 l$ ma'lumotlardan foydalanib quyidagi belgilashlarni kiritamiz.

1-kislota hajmi: $x l$

2-kislota hajmi: $y l$

3- kislota hajmi: $z = (1 - x - y)l$ ya'ni $x + y + z = 1$

Hamda aralashma konsentratsiyasi formulasiga qo'yamiz

$$\frac{10x + 20y + 50(1 - x - y)}{x + y + z} = 40,$$

bundan esa

$$y = \frac{1 - 4x}{3}, \quad z = \frac{x + 2}{3} \quad (2)$$

ekanligini ko'rish qiyin emas. So'ralgan nisbatni hosil qilsak

$$x:y:z = x:\frac{1 - 4x}{3}:\frac{x + 2}{3}$$

yoki

$$3x:(1 - 4x):(2 + x)$$

ga ega bo'lamiz. Bu yerda $x \in (0; \frac{1}{4})$ dagi ixtiyoriy son. Bundan esa y, z lar uchun

$$0 < y < \frac{1}{3}, \quad \frac{2}{3} < z < \frac{3}{4}$$

oraliqlarga ega bo‘lamiz. Olingan natijadan masala bir qiymatli yechilmasligini ko‘rish mumkin. x, y, z larning turli qiymatlarida masala yechimini topamiz.

1. $x = \frac{1}{5} (0 < x < \frac{1}{4}) l$ bo‘lganda $y = \frac{1}{15} l, z = \frac{11}{15} l$ larni topamiz hamda

$$\frac{\frac{1}{5} \cdot 10 + \frac{1}{15} \cdot 20 + \frac{11}{15} \cdot 50}{1} = 2 + \frac{4}{3} + \frac{110}{3} = 40$$

2. $x = \frac{1}{6} (0 < x < \frac{1}{4}) l$ bo‘lganda $y = \frac{1}{9} l, z = \frac{13}{18} l$ larni topamiz hamda

$$\frac{\frac{1}{6} \cdot 10 + \frac{1}{9} \cdot 20 + \frac{13}{18} \cdot 50}{1} = 10 + 10 \cdot \frac{15}{18} + \frac{13}{18} \cdot 30 = 40$$

x o‘zgaruvchining aniqlangan oralig‘ida istalgancha qiymat berib yechimlarga ega bo‘lishimiz mumkin ekan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, uchta turli xil konsentratsiyali moddalarning aralashmasi berilgan bo‘lsa ularning massalar nisbatini bir qiymatli aniqlab bo‘lmaydi.

Agar (2) tenglikdan x, z ni y ga bog‘liq ifodasini topsak

$$x = \frac{1 - 3y}{4}, \quad z = \frac{3 - y}{4}$$

hamda so‘ralgan nisbatni quyidagicha bo‘ladi

$$\frac{1 - 3y}{4} : y = \frac{3 - y}{4}$$

yoki

$$(1 - 3y) : 4y = (3 - y)$$

ga ega bo‘lamiz. bu yerda $y \in (0; \frac{1}{3})$ dagi ixtiyoriy son.

Bundan esa x, z lar $0 < x < \frac{1}{4}, \frac{2}{3} < z < \frac{3}{4}$ oraliqlarga ega bo‘lamiz. Olingan natijadan masala bir qiymatli yechilmasligini ko‘rish mumkin.

Xulosa. Kimyo fanini o‘rganishda va unga doir masalalarni bajarganda o‘quvchining kimyoviy jarayonlar haqidagi tasavvuri kengayadi, darsga faolligi oshadi, kimyoga qiziqishi rivojlanadi. Bir masalani bir necha xil usullar bilan yechish o‘quvchini mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, ayniqsa ularni bir-biri bilan taqqoslashda, o‘quvchilarga kimyoviy tushunchani shakllantirishda yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Raxmonov Sh.T. Umumiy o‘rta ta’lim kimyo kursini o‘qitishda STEAM yondashuvning samaradorligi, O‘zbekiston milliy universiteti xabarlar, 2022, №1., 158-162 B.
2. Asqarov I.R, Baxodirova M.A, G‘ofirov K.F. Kimyodan masalalar va mashqlar yechish usullari. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. -232b
3. Masharipov S., O‘irkashev I. KIMYO. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. - T:O‘qituvchi,2014
4. Toshev I.A., Ismoilov I.I.,Ro‘ziyev R.R. Anorganik kimiyodan mashq va masalalar to‘plami. T:O‘qituvchi ,2003
5. Farmonova Sh.B. “Kimyodan masalalar yechish metodikasi” T. 2020. -136b
6. Ушакова. О. А., г. Иркутск “Решение задач на смешивание и разбавление растворов” Химия. всё для учителя. № 4 (4) апрель 2011 г

ТИББИЁТ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ФИЗИКА ФАНИНИ ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТИШНИНГ ЗАРУРИЯТИ

Юнусова Раъно Файбуллаевна,

Бухоро давлат тиббиёт институти

“Тиббиётда инновацион ва ахборот технологиялари,
биофизика” кафедраси ассистенти

yunusova462@gmail.com

Ушбу мақолада ҳозирги экология бузилган нозик даврда Ўзбекистон Республикасида тиббий муаммолар, касалликларни таъхислаш, тиббиётни ривожлантиришда аниқ фанларнинг роли муаммолари ҳақида фикр юритилган. Шунингдек, ушбу мақолада тиббий физика билимини ривожлантириш учун физика техникаси, технологияси, лазер физикаси таълими ва тарбиясини стратегик дастурлар доирасида ривожлантириб боришга эҳтиёж вужудга келганлиги илмий-педагогик жиҳатдан таҳлил этилган.

Ҳар куни тиббиёт ривожланишида физиканинг таъсири тобора ошиб бораётганлиги ва тиббиёт саноати модернизация қилинаётганлиги мақолада кенг баён қилинган.

Калим сўзлар: физика, тиббиёт, илм-фан ривож, таълим, экология, лазер, когерент, радиология, модернизация, электр, электромагнит, техника, технология.

НЕОБХОДИМОСТЬ СОВРЕМЕННОГО ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ

В данной статье отражены медицинские проблемы в Республике Узбекистан, диагностика заболеваний, роль точных наук в развитии медицины в сложный период современной экологии. Также в данной статье в научно-педагогическом аспекте анализируется необходимость развития физической техники, технологии, лазерофизического образования и воспитания в рамках стратегических программ развития медицинских физических знаний.

В статье подробно рассказывается о том, что влияние физики на развитие медицины с каждым днём возрастает, и что медицинская промышленность модернизируется.

Ключевые слова: физика, медицина, развитие науки, образование, экология, лазер, когерент, радиология, модернизация, электричество, электромагнетизм, техника, технология.

THE NEED FOR MODERN TEACHING PHYSICS IN HIGHER MEDICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

This article reflects on medical problems in the Republic of Uzbekistan, diagnosis of diseases, and the role of exact sciences in the development of medicine in the delicate period of the current ecology. Also, in this article, it is scientifically and pedagogically analyzed that there is a need to develop the physics technique, technology, laser physics education and upbringing within the framework of strategic programs for the development of medical physics knowledge.

The article describes in detail that the influence of physics in the development of medicine is increasing every day and that the medical industry is being modernized.

Key words: physics, medicine, development of science, education, ecology, laser, coherent, radiology, modernization, electricity, electromagnetic, technique, technology.

Кирриш. Тиббиёт ва физика бизни кундалик ҳаётимизда доимо ўраб турган иккита соҳадир. Ҳар куни физиканинг тиббиёт ривожига таъсири тобора ортиб бормоқда, шу туфайли тиббиёт саноати модернизация қилинмоқда. Бу кўплаб касалликларни даволаш ёки тўхтатиш ва назорат қилиш имкониятини беради. Тиббиётда физикадан фойдаланиш инкор этилмайди. Дарҳақиқат, шифокорлар томонидан аниқ таъхис қўйиш учун скалпелдан тортиб энг катта мосламаларга қадар ишлатиладиган ҳар қандай асбоб, функциялар ёки физика оламидаги ютуқлар туфайли амалга оширилади. Шуниси эътиборга лойикки, физика ҳар доим тиббиётда муҳим рол ўйнаган ва бир вақтлар бу икки йўналиш ягона фан бўлган. Физика ва тиббиёт бир-бири билан чамбарчас боғлиқ бўлган фанлардандир, шунинг учун физика соҳасидаги кўплаб муҳим кашфиётлар шифокорлар томонидан қилинган - бу биринчи қарашда ғайриоддий туюлади. Масалан, 40-йилларда. XIX аср. К.

Мейер кема шифокори бўлиб, тропик минтақада сузиб юриб, иқлими иссиқ ва совуқ бўлган мамлакатлар аҳолиси ўртасида веноз қон рангидаги фарқни аниқлади. Сабаби шундаки, юқори ҳарорат туфайли танада кам иссиқлик ҳосил бўлади, натижада arterial қон камроқ оксидланади ва томирларга ўтаётганда деярли бир хил қизил рангда қолади. Моддани истеъмол қилиш ва иссиқлик ишлаб чиқариш ўртасида боғлиқлик борлиги аниқланди. Мейер тизим ва атроф-муҳит ўртасидаги энергия алмашинувиши иш ва иссиқлик шаклида кўриб чиқадиган термодинамиканинг биринчи қонунининг асоси сифатида "Ҳеч нарса ҳеч нарсадан бўлмайди" тамойилини шакллантирди. Бу тирик организмларда ферментация ва иссиқлик ҳосил қилиш соҳасида тадқиқотлар олиб борган немис физиолог Г. Гелмгольц томонидан математик жиҳатдан асосланиб, ҳаракат ва материянинг абадийлиги ва бузилмаслиги ҳақидаги диалектик материализмнинг позициясини тушунтириб берадиган, табиатнинг умумбашарий қонуни, энергияни сақлаш ва ўзгартириш қонуни асос булди [6,9].

Асосий қисм. Америкалик физик Т. Майман дунёдаги биринчи ёқут кристалли лазерни яратди. Лазер сўзи қисқартма. У бешта инглизча сўзнинг биринчи ҳарфларидан яратилган - light amplification by stimulated emission of radiation (стимуляция қилинган нурланиш билан ёруғликни кучайтириш).

Лазер технологиялари замонавий дунёда фаол қўлланилмоқда. Замонавий тиббиётнинг бирон бир маркази уларсиз амалга оширолмайди. Энг аниқ мисол - бу жарроҳлик. Лазер нурлари ёрдамида жарроҳлар ўта мураккаб операцияларни бажаришлари мумкин. Лазернинг кучли нурлари зарарли ўсмаларни олиб ташлашга имкон беради ва бу ҳатто инсон танасини кесишни ҳам талаб қилмайди. Сиз керакли частотани танлашингиз керак. Тиббиётда қўлланилган физикларнинг кўплаб ихтиролари вақт синовидан ўтган ва жуда муваффақиятли бўлган. Лазер бошқариладиган когерент нурланишни ва кўз тубининг инвазив бўлмаган коагуляциясини олиш имкониятини яратди. Россиялик олимлар Н. Г. Басов ва А. М. Прохоров, шунингдек, америкалик тадқиқотчи Ч. Таунс лазерларнинг ривожланишида катта хисса қўшди, улар бу хизматлари учун 1964 йилда Nobel мукофоти билан тақдирланган [10,85].

1970 йилда Х. Цвенг офталмологик амалиётда биринчи бўлиб ёриқ чирок билан жиҳозланган аргонли газ лазеридан фойдаланган.

Олдинда турган вазифа фото-ёрилиш эффектидан клиник фойдаланиш эди. XX асрнинг 70 йилларида итриум-алюминий-гранат лазерининг пайдо бўлиши билан фотодеструктив операцияларни бажариш мумкин бўлди: лазер иридектomiaси ва иккиламчи катаракт дисекцияси. Шунингдек, 1970 йилларда биринчи эксимер лазер пайдо бўлди, у юқори босимли газ лазери бўлиб, спектрнинг ултрабинафша қисмида ишлади. Ўша пайтда Н. Г. Басов ва ҳаммуаллифлар тўлқин узунлиги 176 нм бўлган ксенон молекулаларида биринчи эксимер лазерини тасвирлаб беришди, бу рефракцион жарроҳликда ушбу технологиянинг кенг ривожланишининг бошланишини белгилади [9,7-8].

Офталмологиядаги яна бир ютуқ 90-йилларнинг бошларида аргон лазерига нисбатан бир қатор афзалликларга эга бўлган 532 нм тўлқин узунлиги билан частотаси икки баравар кўпайган қаттиқ ҳолатдаги ЯГ -лазерининг пайдо бўлиши эди. Лазерлар ҳозирда офталмологик амалиётда кенг қўлланилишига қарамай, лазер технологиясини ривожлантиришдаги тараққиёт тўхтамайди [1,48].

Ҳозирги замон тиббиётининг ютуқлари куп жиҳатдан физика, техника ва тиббий асбобсозликдаги муваффақиятларга асосланган. Касалликларнинг табиати ва соғайиш механизми кўп ҳолларда биофизика тушунчалари асосида тушунтирилади. Шунинг учун тиббиёт олийгоҳининг талабалари 1-курсданок «Тиббий ва биологик физика» курсида физика, техник, биологик физика ва математикадан умумий ҳолда махсус билимларни эгаллайдиларки, бу фанларнинг асоси физика бўлиб, у тиббий-биологик масалаларни ҳал қилишга йуналтирилади [3,12].

Даволаш мақсадида организмга физик омиллар билан таъсир қилиш. Тиббиётда қўлланиладиган турли даволаш усуллари ичида даволашнинг физик омиллари ҳам ўрин топмоқда. Уларнинг баъзиларини курсатиб ўтамиз. Суяк синишларида фойдаланиладиган гипсли боғланишлар ёрдамида шикастланган органларни кўзгалмас ҳолатга келтирилади. Даволаш мақсадида совитиш (муз) ва иситиш (грелка) иссиқлик таъсирига асослангандир. Электр ва электромагнит таъсирлар физиотерапияда кенг қўлланилади. Даволаш мақсадида кўринадиган ва кўринмайдиган (ультрабинафша ва инфрақизил), рентген ва гамма-нурланишлар қўлланилмоқда [5,14].

Тиббиётда фойдаланиладиган материалларнинг физик хоссалари.

Биологик системаларнинг физик хоссалари. Тиббиётда ишлатилаётган боғламчалар, асбоблар, электродлар, протезлар ва ҳоказолар ташқи муҳит таъсирида ва шу жумладан биологик муҳит таъсирида ишлайди. Бундай асбобларни реал шароитда ишлатиш мумкинлигини баҳолаш учун улар тайёрланган материалларнинг физик хоссалари ҳақидаги маълумотларни, масалан, протезлар

(тишлар, томирлар, клапанлар) тайёрлаш учун механик мустаҳкамликни, кўп қаррали токланишларга чидамликни, эластикликни, иссиқлик ўтказиш қобилиятини, электр ўтказувчанликни ва бошқа хоссаларни билиш муҳимдир [8,22].

Қатор ҳолларда биологик системаларнинг яшовчанлик хусусиятларини ёки маълум ташқи муҳит таъсирларига чидамлилигини баҳолаш учун уларнинг физик хоссаларини билиш муҳимдир. Биологик объектларнинг физик хоссалари узгаришига қараб касалликларни аниқлаш мумкин бўлади. Тирик организм атроф муҳит билан ўзаро таъсирлашган ҳолдагина яшаши мумкин. У муҳитнинг ҳарорат, намлик, ҳаво босими ва шу каби физик характеристикаларининг ўзгаришларидан кескин таъсирланади. Ташқи муҳитнинг организмга таъсири факатгина ташқи фактор сифатида ҳисобга олинмасдан, ундан даволаш усули (климатотерапия ва баротерапия) сифатида ҳам фойдаланиш мумкин. Бу мисоллар шифокор атроф-муҳитнинг физик хоссаларини ва характеристикаларини баҳолай билиши кераклиги ҳақида далолат беради. Юқорида айтиб ўтилган физиканинг тиббиётда қўлланилиш усуллари *тиббиёт физикасининг* асосини — амалий физика ва биофизиканинг комплекс бўлимларини ташкил қилади. Уларда физик ҳодисалар, жараёнлар ва характеристикалар тиббиёт масалаларини ҳал қилишда қўлланилган ҳолда қараб чиқилади [6,45].

Замонавий тиббиёт турли-туман асбобларни кенг қўллашга асосланадики, бу асбобларнинг кўпчилиги физик асбоблардир. Шунинг учун тиббиёт ва биологик физика курсида асосий тиббиёт асбобларининг тузилиши ва ишлаш принциплари кўриб чиқилади.

Ҳозирги вақтда ушбу фанлар ўртасидаги кенг алоқа линияси доимий равишда кенгайиб, мустаҳкамланиб бормоқда. Жисмоний билимлар ва асбоблар қўлланиладиган тиббиётнинг ягона соҳаси йўқ.

Илмий тиббиётнинг шаклланиши табиатшунослик ва техника соҳасидаги ютуқларсиз, беморни объектив тадқиқ қилиш усуллари ва даволаш усулларисиз имконсиз бўлар эди. Физика фани ва технологиясининг ютуқлари терапия, жарроҳлик ва тиббиётнинг бошқа соҳаларида кенг қўлланилади [7,23].

Муҳокама ва натижалар. Физика касалликларни ташхислашда ёрдам беради. Рентген нурлари, ултратовуш текшируви, иридодиагностика, радио диагностика кенг қўлланилади.

✓ Радиология—бу органлар ва тизимларнинг тузилиши ва функцияларини ўрганиш ва касалликларни аниқлаш учун рентген нурланишидан фойдаланишни ўрганадиган тиббиёт соҳаси.

✓ X-нурлари кўзга кўринмайдиган электромагнит нурланишдир. Улар кўринадиган ёруғлик учун шаффоф бўлмаган баъзи материаллар орқали кириб боради. X-нурлари рентген структуравий таҳлилида, тиббиётда қўлланилади. Рентген ускуналари ёрдамида олинган расмларда касалликни дастлабки босқичларда аниқлаш ва зарур чораларни кўриш мумкин. Аммо ҳар қандай нурланиш факат маълум дозаларда хавфсиздир – рентген хонасида ишлаш соғлиқ учун зарарли деб бежиз айтилмаган [10,114].

Рентген нурларидан ташқари, бугунги кунда қуйидаги диагностика усуллари қўлланилади:

➤ Ултратовуш текшируви (юқори частотали товуш нурлари танамизни акс-садо каби текширганда ва унинг "харитасини" яратиб, меъёрдан барча оғишларни қайд етганда ўрганиш). Ултратовуш физик, физик-кимёвий ва биологик тадқиқотлар амалиётида, шунингдек тиббиётда – диагностика ва даволаш учун ишлатилади.

➤ Иридодиагностика-бу кўзнинг тўр пардасини текшириш орқали инсон касалликларини аниқлаш усули.

➤ Радио диагностикаси (радиоактив изотоплардан фойдаланишга асосланган). Шундай қилиб, ёднинг радиоактив изотоплари қалқонсимон без касалликларини ташхислаш ва даволаш учун ишлатилади.

➤ Компютер томографияси-бу объектнинг ички тузилишини бузилмайдиган қатламли ўрганиш усули бўлиб, 1972 йилда ушбу ривожланиш учун Nobel мукофотиغا сазовор бўлган Годфри Хоунсфилд ва А.Кормак томонидан тақлиф қилинган. Усул турли зичликдаги тўқималар томонидан рентген нурланишининг сусайишидаги фарқни ўлчаш ва комплекс компютерда қайта ишлашга асосланган. Ҳозирги вақтда рентген компютер томографияси рентген нурланишидан фойдаланган ҳолда одамнинг ички органларини текширишнинг асосий томографик усули ҳисобланади.

➤ Магнит-резонанс томография (МРТ) - бу ядро магнит-резонансининг физик ҳодисаси ёрдамида ички органлар ва тўқималарни текширишнинг томографик усули. Усул атом ядроларининг электромагнит реакциясини, кўпинча водород атомларининг ядроларини, яъни уларни юқори интенсивликдаги доимий магнит майдонда электромагнит тўлқинларнинг маълум бир комбинацияси билан ҳаяжонлантириш орқали ўлчашга асосланган,

➤ Лазер (оптик квант генератори) илмий тадқиқотларда, амалий тиббиётда (жарроҳлик, офталмология ва бошқалар) кенг қўлланилган. Лазерлар онкологияда қўлланилади. Уларнинг ёрдами билан улар ўсимтани малигнизациясини йўқ қилади, миёда энг мураккаб операцияларни бажаради.

Кучли лазер импульслари ажратилган тўр пардани "пайвандлайди" ва бошқа офталмологик операцияларни бажаради.

Қон кетиш операциялар пайтида ёқимсиз тўсиқдир, чунки у жарроҳлик майдонининг кўринишини ёмонлаштиради ва тананинг сувсизланишига олиб келиши мумкин. Жарроҳга ёрдам бериш учун юқори ҳароратли плазма (плазма скалпел) миниатюра генераторлари яратилган. У тўқималарни, қонсиз суякларни кесиб ташлайди. Жарроҳликдан кейин яралар тезроқ даволанади [10,114].

Физика фанининг ютуқлари физиотерапия каби тиббиёт соҳасида кенг қўлланилади. Тиббий амалиётда электротерапия электр тоқлари ва электромагнит майдонлар билан даволашда кенг қўлланилади. Инсон аъзоларини вақтинча алмаштира оладиган асбоблар тиббиётда кенг қўлланилади. Ҳозирги вақтда тиббиёт ходимлари сунъий қон айланиш мосламаларидан фойдаланадилар. Сунъий қон айланиши-бу юракнинг қон айланишидан вақтинча ёпилиши ва сунъий қон айланиш мосламаси ёрдамида танадаги қон айланишини амалга ошириш [3,86].

Жисмоний даволаш. Бу табиий ва сунъий равишда яратилган табиий омилларнинг инсон танасига терапевтик таъсирини ўрганадиган клиник тиббиёт соҳаси. Тиббиёт институтида физикани ўрганиш талабаларнинг тиббий асбоблар тамойиллари, диагностика ва терапия асосидаги физик қонунлар ҳақидаги билимларини шакллантиришга қаратилган. Лаборатория ишларининг цикли ушбу мақсадга эришишга катта ҳисса қўшади. Жумладан Электрокардиограф ишини ўрганиш" лаборатория иши электрокардиограф ишининг тамойилларини ва юрак мушак хужайралари томонидан электр потенциалини шакллантиришни ўрганишга имкон беради [10,15].

"Биологик тўқималарнинг импеданс дисперсиясини ўрганиш" иши тўқималарнинг ҳаётийлигини баҳолаш усуллари, реография асосидаги жисмоний тамойилларни ўзлаштиришдан иборат.

Лаборатория ишлари "РФ электротерапиясининг физик асослари" ва "электрон терапевтик ускуналарни ўрганиш" талабаларни физиотерапия ускуналари ва тана тўқималарига турли омиллар (юқори частотали оқимлар, электр ва магнит майдонлар, ультратовуш) таъсирининг физик тамойиллари билан таништиради.

"Эшитиш оstonасида қулоқнинг спектрал хусусиятларини олиб ташлаш" асарида товушнинг физик хусусиятлари, инсоннинг турли частотали товушларга таъсир қилиш жиҳатлари, эшитиш кескинлигини баҳолаш усуллари келтирилган.

Лаборатория ишларида суюқликнинг ёпишқоқлигини аниқлаш усуллари ҳам келтирилган. Тананинг ҳаётий фаолияти давомида суюқликларнинг (қон, лимфа) жисмоний хусусиятлари – ёпишқоқлик ўзгариши мумкин, бу тананинг ҳолати ва фаолиятига таъсир қилади. Ёпишқоқлик ўлчови касалликларни ташхислашда ишлатилиши мумкин.

Хулоса. Юқоридагилардан хулоса қилишимиз мумкинки, физика тиббиёт ва инсон саломатлиги учун муҳимдир. Шунинг учун физика тиббиёт коллежлари ва олийгоҳлари талабалари томонидан ўрганилиши ва унинг ривожланишига ҳисса қўшиши керак. Илмий тиббиётнинг шаклланиши табиатшунослик ва техника соҳасидаги ютуқларисиз, беморни объектив тадқиқ қилиш усуллари ва даволаш усулларисиз имконсиз бўлар эди. Шунинг учун физика фани техникаси ва технологиясининг ютуқлари терапия жарроҳлик ва тиббиётнинг бошқа соҳаларида, шунингдек, касалларни ташхислашда ёрдам беради.

Адабиётлар:

1. Абдужабборова У.М. Базарбаев М.И., Муллажонов И., Нурматова Ф.Б., Рахимова Х.Ж., Саидназарова И.Ш., Собиржонов А.З. Биофизика. Ташкент-2018.
2. Аверьянов Д.А., Алпатов С.А., Букина В.В. и др. Оптическая когерентная томография / Под ред. А.Г. Щуко, В.В. Малышева. – Иркутск: РИО ГУ НЦ ПХВ ВСНЦ СО РАМН, 2010. – 112 с.
3. Алексеев В.П., Кириков М.В. Вопросы методики преподавания физики. Текст лекций – Ярославль. – 2000.
4. Астахов Ю.С., Лисочкина А.Б., Шадрин Ф.Е. Диабетическая ретинопатия / Клинические рекомендации «Офтальмология 2006» / Под ред. Л.К. Мошетовой, А.П. Нестерова, Е.А. Егорова. – М.: Изд. группа «ГОЭТАР-Медиа», 2006. – С. 139–163.

5. Бухарова Т.Д., Вальвич Е.С., Драпкин М.А., Тулькибаева Н.Н., Фридман Л.М. Решение задач по физике. Психолого – методический аспект. Челябинск. 1995.
6. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 1 (2021) / ISSN 2181-1415.
7. Малышев В.В., Щуко А.Г. Оптическая когерентная томография в диагностике глазных болезней. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2010. – 128 с.
8. «Молодой учёный» . № 4 (27) . Том II . Апрель, 2011 г. «О методике преподавания физике в медицинском вузе» Семенюк Е.А. 134-ст.
9. Ремизов А.Н. Тиббий ва биологик физика. Тошкент-1992.
10. Умаров С.Х. Тиббий техника ва янги тиббиёт технологиялари. Бухоро-2014.
11. Фёрстер М., Хайман Х., Кельнер У., Атлас по ангиографии глазного дна: Пер. с англ.; Под ред. Ю.С. Астахова. – М.: МЕДпресс-информ, 2008. – 192 с.

JISMONIY MADANIYAT VA SPORT

YOSH SAMBOCHILARDA MOTIVLAR SHAKLLANISHINING PSIXODIAGNOSTIKASI

Nazarov Davron Baxtiyor o'g'li,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

2-bosqich tayanch doktoranti

O'zbekiston Respublikasi, Chirchiq shahri

Sport bilan professional shug'ullanish jarayonida sportchi maxsus sifatlar, bilim, ko'nikma va malakalar hosil qiladi. Unda harakatlar xotirasi, taktik tafakkur, vaqt va harakatni idrok qilish, yuksak irodaviy aktlarni namoyon etish, o'zini o'zi nazorat qilish, boshqarish, tahlil qilish va baholash kabi sifatlar shakllanadi. Sport mahoratining yuqori bosqichida qo'lga kiritilgan sport natijalari va yuksak unvonni saqlash va himoya qilish, jismoniy va psixologik ko'rsatkich darajasini saqlab turish xohishi, sportning ushbu turini yanada rivojlantirish istag va nihoyat mamlakat sport sharafini himoya qilish kabi xohishlar asosiy motivlar bo'lib qoladi. Bu motivlar yorqin ijtimoiy yo'nalganlik xarakterini oladi. Bunda sportchining shaxsiy motivlari ijtimoiy motivlarga bo'ysundiriladi. Mazkur holatlarni inobatga olgan holda ushbu maqolada sambo sport turi bilan shug'ullanuvchi yoshlarning motivatsiyasini o'rganish, psixodiagnostik tekshiruvni amalga oshirish va tekshiruv xulosasidan kelib chiqqan holda sport natijalarini prognozlashtirish, sportchi xulqi yoki psixikasidagi salbiy o'zgarishlarni bartaraf etish omillari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: sportchining psixologik holati, sport faoliyatida psixodiagnostika, faoliyat motivatsiyasi, sport mashg'ulotlari, mas'uliyat hissi, yosh sportchilar, sport murabbiylari.

ПСИХОДИАГНОСТИКА ФОРМИРОВАНИЯ МОТИВОВ У ЮНЫХ САМБИСТОВ

В процессе профессионального занятия спортом спортсмен формирует особые качества, знания, умения и навыки. У него формируются такие качества, как память о действиях, тактильное мышление, восприятие времени и движения, проявление высших волевых действий, самоконтроль, контроль, анализ и оценка. Основными мотивами остаются спортивные результаты, достигнутые на высоком уровне спортивного мастерства, и желание сохранить и защитить высокое звание, поддерживать уровень физической и психологической работоспособности, желание дальнейшего развития этого вида спорта и, наконец, отстаивать спортивную честь страны. Эти мотивы приобретают характер яркой социальной направленности. При этом личные мотивы спортсмена подчиняются социальным мотивам. С учётом указанных обстоятельств в данной статье освещаются факторы, способствующие изучению мотивации молодых людей, занимающихся спортом самбо, проведению психодиагностического обследования и прогнозирования спортивных результатов на основании заключения обследования, устранению негативных изменений в поведении или психике спортсмена.

Ключевые слова: психологическое состояние спортсмена, психодиагностика в спортивной деятельности, мотивация к деятельности, спортивные тренировки, чувство ответственности, юные спортсмены, спортивные тренеры.

PSYCHODIAGNOSTICS OF THE FORMATION OF MOTIVES IN YOUNG SAMBO PLAYERS

In the process of professional sports, an athlete forms special qualities, knowledge, skills and abilities. It forms qualities such as memory of actions, tactile thinking, perception of time and movement, manifestation of higher volitional actions, self-control, control, analysis and evaluation. The main motives remain the sports results achieved at a high level of sportsmanship, and the desire to preserve and defend the high rank, maintain the level of physical and psychological performance, the desire for further development of this sport and, finally, to defend the sporting honor of the country. These motives acquire the character of a bright social orientation. At the same time, the athlete's personal motives are subordinated to social motives. Taking into account these circumstances, this article highlights the factors contributing to the study of the motivation of young people involved in the sport of sambo, conducting a psychodiagnostic examination and forecasting sports results based on the conclusion of the survey, eliminating negative changes in the behavior or psyche of an athlete.

Key words: *Psychological state of the athlete, psychodiagnostics in sport activities, motivation for activity, sport training, sense of responsibility, young athletes, sports coaches.*

Kirish. Xalq shuhratini dunyoga tarannum etishda jismoniy tarbiya va sportning oʻrni beqiyosdir. Jahon miqyosidagi turli nufuzli musobaqalarda oʻzbek yoshlari erishayotgan gʻalabalar bu haqiqatni tasdiqlab turibdi. Chunki barkamol avlod-Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori va kelajak asosi hisoblanadi. Ona Vatan buyuk boʻlmogʻi uchun shu zaminda yashovchilar aqlan va jismonan sogʻlom boʻlishlari shart. Maʼnaviy va jimoniy barkamol avlodni tarbiyalash-faqat milliy ehtiyojgina emas, balki umumdavlat ahamiyatiga molik masala hisoblanib, u- koʻpmillatli Vatanimizda tugʻilib oʻsgan, tomir yoygan barcha qardosh xalqlar uchun birday ezgu maqsaddir. Soʻnggi yillarda jismoniy tarbiya va sport oʻquvchi-yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 3-noyabrda qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” PQ-414-son Qarorida aholining yosh xususiyatidan kelib chiqib, jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini ilmiy asosda oʻrganish va tavsiyalar ishlab chiqish, sport turlari boʻyicha Oʻzbekiston terma jamoalari (yoshlar, oʻsmirlar va kattalar) aʼzolarining hamda sport-taʼlim muassasalari sportchi oʻquvchi va talabalarining jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi, funksional holati, texnik-taktik va psixologik tayyorgarligini ilmiy jihatdan oʻrganish, monitoring qilish va istiqbolini belgilash ustuvor vazifalardan biri ekanligi taʼkidlab oʻtilgan. Yosh avlodni sogʻlom va maʼnaviy barkamol voyaga yetkazish muhimligi va bu borada sportning oʻrni beqiyosligi bilan birga sport murabbiylariga yaqindan yordam beruvchi yordamchi murabbiylar, pedagoglar, psixologlarning ham masʼuliyatini alohida taʼkidlash joiz. Sportchi shaxsining voyaga yetishi psixologik xususiyatlari, ularda yosh davrlari va oʻtish davrining oʻziga xosligi, shaxsiy sifatleri va faoliyat motivatsiyasini shakllantirishda muayyan psixologik yondashuvni talab etadi. Sport faoliyatini psixologik jihatdan taʼminlashda, insonni sport bilan shugʻullanishga undovchi, ragʻbatlovchi motiv muhim rol oʻynaydi. Sport faoliyatini psixologik tahlil qilish masalalari ichida psixologlar diqqatini koʻproq, sport faoliyatining motivlari masalasi jalb etadi. Bir qator tadqiqotlarda bevosita motivlar mavjudligi va ularning ahamiyatli ekanligi aniqlangan. Masalan, jismoniy mashqlarda mushaklar harakatlaridan rohatlanish, estetik zavqlanish, musobaqalarga qatnashish ishtiyoqi va h.k. Shuningdek, sport faoliyatining oʻz motivlari ham aniqlangan. Bular sogʻlom, baquvvat boʻlish, oʻzini himoya qila olish istagi, oʻzini mehnatga, jangovar harakatlarga tayyorlash, kelishgan, chiroyli qaddi-qomatga erishish va hakazolar.

Asosiy qism. Shaxs va motivatsiya, sport faoliyatida motivatsiya va uni shakllantirish muammosi jahon, yurtimiz psixologiyasida keng doirada tadqiq etilgan. Masalan jahon olimlaridan F. Perlz tomonidan geshtalt psixologiyada idrok sferasiga qoʻyilgan figura (shakl) yuzaga kelish qonuniyatini inson xulq-atvori motivatsiyasi sohasiga koʻchirdi. U ehtiyojlarni yuzaga kelishi va qondirilishini geshtaltlar shakllanish va yakunlanish ritmi sifatida koʻrib chiqqan. Perlz boʻyicha, motivatsion sfera organizmning oʻzini regulatsiya qilish tamoyili asosida oʻz funksiyasini bajaradi.[1]

V. Frankl fikricha odamlardagi fundamental motivatsiyali kuchi mazmunga intilish hisoblanadi. Odamlar nimaga yashayotganlarini tushunishlari uchun mazmunni topishlari talab qilinadi, chunki u har bir inson uchun noyob va ularning oʻzlari tomonidagina amalga oshirilishi mumkin. Agar inson oʻzidan tashqarida mazmun koʻrmasa, ekstremal vaziyatda yashash maqsadsiz, mazmunsiz va mumkin emas. A. Bandura uchta boshqaruvchi motivatsion tizimlarni ajratadi – bu: tashqi, bevosita va ichki motivatorlar (oʻz-oʻzini boshqarish) ga asoslangan tizimlar.

Tashqi motivatorlar – bu inson harakatlarini kelgusida kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi tashqi oqibatlar. U jismoniy deprivatsiya va ogʻriqni; moddiy ragʻbatni (masalan, ovqat); sensor ragʻbatlar (yoqimli/yoqimsiz hissiyotlar) ni; ijtimoiy ragʻbatlar (maʼqullash/maʼqullamaslik) ni; ramziy ragʻbatlar (pul, baho, unvon) ni; faoliyat ragʻbati (shu jumladan, ijodkorlik) ni; mavqe va hukmronlik ragʻbatlarini oʻz ichiga oladi.

Bevosita motivatorlar (bilvositalik motivatorlari) – boshqa odamlarning reaksiyalari oqibatlarini kuzatish natijasida olingan bilimlar. Boshqa odamlarning axloqini qanday taqdirlayotganlarini kuzatish kuzatuvchilarning ham oʻzlarini shunga oʻxshash tarzda tutishlari ehtimolini oshiradi. Shuni taʼkidlash zarurki, istalmagan axloqni tutib qolishning ancha samarali usuli axloqning konstruktiv alternativ shakliga oʻrgatish hisoblanadi. Umuman olganda, boshqa odamlarning axloqini kuzatish axborot beradi, hissiyot uygʻotadi, shaxsiy standartlar va bahoga taʼsir koʻrsatadi.

Ichki motivatorlar (oʻz-oʻzini boshqarish motivatorlari) – ayniqsa muhim, chunki insoniy axloq asosan vositasiz taqdirda amalga oshiriladi. Axloqning ichki standartlari ichki ragʻbat sifatida harakatlanishi mumkin. Axloqning oʻz-oʻzini boshqarishi oʻz ichiga uchta jarayonni oʻz ichiga oladi: oʻz-oʻzini kuzatish

(o‘z axloqi to‘g‘risidagi axborotni olish), baholovchi jarayon (shaxsiy standartlar nuqtayi nazaridan o‘z axloqining ijobiy yoki salbiyligini baholash) va o‘z-o‘zini boshqarish (o‘z axloqiga ta’sir). [2]

Bundan tashqari sport faoliyatida sportchi shaxsi motivlari va ularni rivojlantirish borasida jahon olimlaridan, Sobiq Chexoslovakiyada psixolog olimlar Vanek, Goshek, Svoboda, Motsak motivatsiya muammolarini ishlab chiqqan bo‘lib, ushbu masala sportchi va sport murabbiylarini psixodiagnostikadan o‘tkazish usullariga asoslangan edi.[3]

Chempion sportchilarning shaxsiy ma'lumotlarini o‘rganish, ularning sportdagi dastlabki va keyingi qadamlarini tadqiq etish, shuningdek har birining shaxsiyatidagi alohida jihatlarini o‘rganish, yengilmaslik fazilati to‘g‘ridan to‘g‘ri ulardagi motivatsiya doirasiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Chempion-sportchi motivatsiyasining o‘ziga xosligi shundaki, u “mutloq motivatsiyalangan” bo‘ladi va bu sportchi hali juda yoshligida, sportga kirib kelmasligidan avval shakllangan bo‘lib (tengdosh bolalar bilan turli o‘yinlar o‘ynaganda ham, doimo g‘olib bo‘lishga intilish, o‘z izzat nafsini yuqori qo‘yish, sha’nini yerga uruvchi har qanday xatti-harakatlarga yoki tanqidlarga keskin munosabat bildirish, boshqalarga o‘zining yetakchi ekanligini singdirish) ehtimol uning irsiy, ong ostiga singdirilgan va “g‘alaba” hissi motiv sifatida chempion sportchilar uchun bir umrga o‘zgaras bo‘lib qoladi (R.M. Zagaynov). [4]

Shu bois bugungi kunda zamonaviy sport musobaqalarida o‘zaro raqobatning kuchayib borishi, natijalarning to‘xtovsiz o‘sayotganligi sambo sporti bilan shug‘ullanayotgan yosh sportchilarning barqaror natijadorligini ta’minlashda jismoniy, texnik-taktik va shu bilan bir qatorda psixologik jihatdan tayyorlash, natijaga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etayotganligi dolzarb muammolardan biridir.

Sambo kurashining tayyorgarlik bosqichlarida trenirovka nagruzkalarining me’yorlash F.M. Po‘latov, o‘quvchilardagi kasb motivlari barqarorligiga guruhij jipslikning ta’siri N.H. Xolyigitova, sportchilarning muvaffaqiyatlarini prognoz qilishning psixologik mezonlari: yakkakurashchilar misolida Zefirova, Yekaterina Vitalievna, sportchi shaxsining gender rivojlanishi psixologiyasi Damadaeva, Anjela Sergeevna, Olimpiya zaxiralari maktabida dastlabki tayyorgarlik bosqichi uchun sambochilarni psixologik-pedagogik tanlash Xmeleva, Evgeniya Pavlovna izlanishlari tadqiqotning metodologiyasi hisoblanadi.

Tadqiqotning diagnostik bosqichida “Sport bilan shug‘ullanish motivi metodikasi”(A.V.Shaboltas) dan foydalanildi. [5] Ushbu metodika sport bilan shug‘ullanishning asosiy maqsadini aniqlashga mo‘ljallangan bo‘lib, belgilangan tasdiqlarga mos keluvchi 10 ta motiv-kategoriyalarni o‘zida jamlaydi. 1. Emotsional zavqlanish motivi (EZ) - harakat va jismoniy kuch orqali xursand bo‘lishga intilishni aks ettiradi. 2. Ijtimoiy o‘zini-o‘zi tasdiqlash (IT) sport bilan shug‘ullanish va bunda muvaffaqiyatlarga erishish maqsadi shaxsiy obro‘-e’tibor, do‘stlar va tomoshabinlar hurmatini qozonishni ifodalovchi o‘zini namoyon etishga moyillikni anglatadi. 3. Jismoniy o‘zini-o‘zi tasdiqlash (JT) - jismoniy rivojlanishga moyillik, xarakterni shakllantirishni ifodalaydi. 4. Ijtimoiy-emotsional motiv (IE) - yuqori darajadagi emotsionallik, muloqotning norasmiyligi, ijtimoiy va emotsional erkinlik sababli sport tadbirlariga bo‘lgan moyillikni ifodalaydi. 5. Ijtimoiy-axloqiy motiv (IA) - o‘z jamoasining muvaffaqiyatiga va buning uchun mashg‘ulotlarda ishtirok etishga, jamoadoshlar, trener bilan yaxshi aloqada bo‘lishga intilish. 6. Sportda muvaffaqiyatga erishish motivi (ME) - muvaffaqiyatga erishish, shaxsiy sport natijalarini yaxshilashga moyillikni ifodalaydi. 7. Sport bilish motivi (SB) – mashg‘ulotni texnik va taktik tayyorgarligining ilmiy asoslangan tamoyillari masalalarini o‘rganish istagini bildiradi. 8. Ratsional-irodaviy (rekreativ) motiv (RI) – aqliy ish (o‘tirib ishlash) natijasida harakat faolligining kamayganligini kompensatsiya qilish uchun sport bilan shug‘ullanish istagini bildiradi. 9. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish motivi (KM) - tanlangan kasbiy faoliyat talablariga tayyorgarlik ko‘rish uchun sport bilan shug‘ullanish istagi. 10. Fuqarolik-vatanparvarlik motivi (FV) - musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etish, jamoaning, shaharning, mamlakatning obro‘-sini oshirish uchun sport takomillashuviga intilishni ifodlaydi.

Metodika keltirilgan juft tasdiqlardan birini tanlashga asoslanadi. Asosiy sharti – har bir tasdiq boshqalari bilan taqqoslanadi; 10 ta motiv-kategoriyaga taqqoslash uchun 45 ta juft tasdiqlar mavjud. Shunga ko‘ra har bir motivni baholash muhokamasi 9 marta bajariladi va motivlarni, ularning ifodalanish darajasiga ko‘ra, darajalarga ajratish mumkin.

1-jadval

“Sport bilan shug‘ullanish motivi metodikasi” natijalari orasidagi umumiy korrelyatsiya. (Spirmen korrelyatsiya koeffitsiyenti bo‘yicha)

	Emotsional zavqlanish motivi	Ijtimoiy o‘zini o‘zi tasdiqlash	Jismoniy o‘zini o‘zi tasdiqlash	Ijtimoiy-emotsional motiv	Ijtimoiy-axloqiy motiv
--	------------------------------	---------------------------------	---------------------------------	---------------------------	------------------------

Emotsional zavqlanish motivi	1,000	-,318*	,289	,245	,164
	.	,046	,070	,128	,313
	40	40	40	40	40
Ijtimoiy o‘zini o‘zi tasdiqlash	-,318*	1,000	-,206	-,018	,411**
	,046	.	,201	,910	,008
	40	40	40	40	40
Jismoniy o‘zini o‘zi tasdiqlash	,289	-,206	1,000	,285	-,078
	,070	,201	.	,074	,633
	40	40	40	40	40
Ijtimoiy-emotsional motiv	,245	-,018	,285	1,000	,350*
	,128	,910	,074	.	,027
	40	40	40	40	40
Ijtimoiy-axloqiy motiv	,164	,411**	-,078	,350*	1,000
	,313	,008	,633	,027	.
	40	40	40	40	40

*. Korrelyatsiya 0.05 darajasida

**.. Korrelyatsiya 0.01 darajasida

2-jadval

	Sportda muvaffaqiyatga erishish motivi	Sport bilish motivi	Ratsional-irodaviy (rekreativ) motivi	Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish motivi	Fuqarolik-vatanparvarlik motivi
Sportda muvaffaqiyatga erishish motivi	1,000	-,118	-,268	,133	,367*
	.	,467	,094	,415	,020
	40	40	40	40	40
Sport bilish motivi	-,118	1,000	,014	,106	,176
	,467	.	,933	,516	,278
	40	40	40	40	40
Ratsional-irodaviy (rekreativ) motivi	-,268	,014	1,000	-,185	,046
	,094	,933	.	,254	,777
	40	40	40	40	40
Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish motivi	,133	,106	-,185	1,000	,190
	,415	,516	,254	.	,241
	40	40	40	40	40
Fuqarolik-vatanparvarlik motivi	,367*	,176	,046	,190	1,000
	,020	,278	,777	,241	.
	40	40	40	40	40

*. Korrelyatsiya 0.05 darajasida

Xulosa. Biz tadqiqotimiz natijalarining umumiy ko‘rinishi va korrelyatsion tahliliga tayanib, quyidagi xulosaga keldik. Motivlar ayni paytda sportchilar xatti-harakatini boshqarishda ham muhim vositadir. Shu boisdan sport murabbiylari, sport bilan shug‘ullanuvchi yoshlarni motivlarini har tomonlama sinchkovlik bilan o‘rganishlari zarur. Motivlarni bilish orqali murabbiy sportchining o‘quv va mashg‘ulotlar jarayonidagi faolligini oshirishi, uning musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishida muhim ahamiyatga ega bo‘ladigan irodaviy sifatlarini takomillashtirishi mumkin bo‘ladi. Sport murabbiysi o‘z qo‘l ostidagilarning sport bilan shug‘ullanishi motivlarini bilishi amaliy jihatdan nihoyatda muhim. Zero, motivlarni bilishi orqali murabbiy sportchining mashg‘ulotlar jarayonidagi faolligini oshirishi, uning musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishida muhim ahamiyatga ega bo‘ladigan ayrim ma’naviy va irodaviy sifatlarini takomillashtirishi mumkin bo‘ladi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, motivlar nafaqat sport bilan shug‘ullanishga undovchi omillardir, balki ayni paytda sportchilar xatti-harakatlarini boshqarishning ham eng kuchli va o‘ta muhim vositasidir.

Adabiyotlar:

1. Maxmudova D.A. Psixokorreksiya asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent -2009. 134 bet
2. Komilova N.G‘. Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi. Darslik. Toshkent -2020. 280 bet
3. Ishtayev J.M. Sport psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Chirchiq -2021. 256 bet
4. Hayitov O.E. Sport faoliyati psixologiyasi. Darslik. Toshkent -2021. 196 bet
5. Xaitov A.U. Sport psixodiagnostikasi va psixokorreksiya. Darslik. Chirchiq -2020. 344 bet

СПОРТЧИ СУБЪЕКТИВ НАЗОРАТИНИНГ ДАЪВОГАРЛИК ДАРАЖАСИГА ТАЪСИРИ

Жураев Воҳиджон Мухаммедович,
Қўқон давлат педагогика институтининг
мустақил тадқиқотчиси
vohidmuxammedovich31@gmail.com

Мақола спортчиларнинг субъектив назорати билан даъвогарлик даражасининг ўзаро боғлиқлиги масаласини эмпирик ўрганишга бағишланган бўлиб, спортчиларнинг тоифасига кўра юқори даъвогарлик ва қуйи даъвогарликка эга спортчиларнинг субъектив назорат қилиш хусусиятлари ёритилган. Юқори даъвогарликка эга спортчиларда субъектив назоратнинг интерналлик даражаси, қуйи даъвогарлик даражасида эса интерналликнинг ўрта ва қуйи даражалари ҳосили аниқланган. Бундан ташқари юқори даъвогарлик даражасида спортчиларда муваффақиятга, муваффақиятсизликка, оилавий муносабатга, шахсларaro муносабатга, натижаларга ва саломатликка интерналлик юқори эканлиги эмпирик жиҳатдан таҳлиллар асосида тасдиқланган.

Калим сўзлар: субъектив назорат даражаси, локус, назорат, интерналлик, сўровнома, умумий интерналлик, муваффақиятга интерналлик, муваффақиятсизликка интерналлик, оилавий муносабатга интерналлик

ВЛИЯНИЕ СУБЪЕКТИВНОГО КОНТРОЛЯ СПОРТСМЕНА НА УРОВЕНЬ КОМПЕТЕНЦИИ

Статья посвящена эмпирическому исследованию взаимосвязи между субъективным контролем спортсменов и уровнем претенциозности. Уровень интернальности субъективного контроля определяли у спортсменов с высокой претензией, а средний и нижний уровень интернальности у спортсменов с низкой претензией. Кроме того, эмпирически на основе анализа подтверждено, что спортсмены с высоким уровнем амбиций обладают высокой интернальностью к успеху, неудаче, семейным отношениям, межличностным отношениям, результатам и здоровью.

Ключевые слова: субъективный уровень контроля, локус, контроль, интернальность, опросник, общая интернальность, интернальность к успеху, интернальность к неудаче, интернальность к семейным отношениям.

INFLUENCE OF THE SUBJECTIVE CONTROL OF THE ATHLETE ON THE LEVEL OF COMPETENCE

The article is devoted to the empirical study of the correlation between the subjective control of athletes and the level of pretentiousness. The level of internality of subjective control was determined in athletes with high pretension, and middle and lower levels of internality in athletes with low pretension. In addition, it has been empirically confirmed on the basis of analysis that athletes with a high level of ambition have high internality to success, failure, family relationship, interpersonal relationship, results and health.

Key words: subjective level of control, locus, control, internality, questionnaire, general internality, internality to success, internality to failure, internality to family relationship

Мавзунинг долзарблиги. Спортчининг натижаларга эришиши билан боғлиқ интерпсихик ва интрапсихик омилларнинг аҳамиятига доимий равишда эътибор қаратилади. Бу спортчининг спорт мусобақаларига тайёргарлик ва шахсининг психологик имкониятлари ўртасидаги муносабати асосида белгиланади. Шахс масъулиятли вазифалар таъсирида ўзида иродавий сифатларга зарурат ҳис этади. Спортчининг мусобақада эришадиган ҳар бир натижаси юқори масъулиятли фаолият ҳисобланади. Шу сабабли ҳам спорт натижаларининг муваффақияти ва муваффақиятсизлиги сабаблари таҳлил қилинганда интерпсихик ва интрапсихик сабабларга, воқеликка ёки субъектнинг ўзига боғлаб талқин этилади. Субъектнинг фаолият натижавийлигини белгилловчи омилга ўзини ўзи назорат қилишни ҳам киритиш мумкин. Шахсининг субъектив назорати психологияда уни камолот даражасини тавсифлашга хизмат қилади. Спортчидаги субъект назоратини шахсий ресурслари манбаи сифатида

хам баҳолаш мумкин. Спорчи субъектив назорати билан даъвогарлик даражаси ўртасидаги муносабатни тадқиқотимизда ўрганишга эътибор берилди.

Тадқиқот муаммосининг методологияси. Субъекти назорат тушунчаси ва унинг амалий ўрганишда америкалик психолог Жулиан Роттернинг ғоясига таянилди [5,7,14,15]. Субъектив назорат шахснинг иродавий хусусиятини субъект сифатида ўзлаштирганлиги билан белгиланади. Бу ҳолатда шахс субъекти фаолияти учун ўзи масъул ҳисобланади, Шахс субъект сифатида ўз фаолиятини мақсадли ташкил эта олади, ютуқ ва мағлубиятлар учун имкониятларини тўғри баҳолайди. Барча натижалар учун ўзининг субъектив жавобгарлигини ҳис қилади. Ўз навбатда муаммоларни ҳал этишда имкониятларини ташкил этишни билади, уни тизимлаштиради ва зарур ўринларда муаммоларни ҳал қилишга кўмаклашади. Шахснинг субъектив назорат даражалари муаммосига доир психологияда бир қатор изланишлар олиб борилган [5, 7, 14, 15].

Айрим ҳолларда инсонлар фаолиятлари учун масъулиятни бошқаларга юклашга ва натижаларнинг салбий бўлишига ўзга кишиларни сабаб сифатида кўрсатишга мойилдирлар. Мабодо ушбу ҳолатни спортчи фаолиятига боғлайдиган бўлсак, уларда ҳам фаолияти натижалари учун масъулиятни ташқи кучларда ва шароитларда қайд қилиш, шунингдек, шахсий куч ва ғайратига, қобилятига мойилликни аниқлайдиган мезонларга боғлаш мумкин. Бу мезон спортчидаги субъектив назорат локуси (лотинча лотус ўрнашган жой ва французча. contrôle - текшириш деган маънони англатади)ни шаклланиши билан боғлаб изоҳланди [3, 10, 11,12, 16]. Спортчилар орасида ҳам ўз хулқ-атвори ва фаолияти сабабларини ташқи омилларга боғлайдиганлар учрайди. Уларда назоратнинг локаллашганлиги кузатилмайди.

Назоратни локаллаштиришнинг илмий маъносида шахснинг индивидуал фаолияти натижалари учун масъулиятни ташқи кучларда ва шароитларда қайд қилишни, шунингдек, уларнинг куч-ғайратига, қобилятига мойиллигини белгилайдиган сифатлар мажмуаси тушунилади. Назоратни локаллаштириш ташқи (экстернал) ҳамда ички интернал турларига ажратилади. Назоратни ташқи локаллаштиришга баъзи мисолларни келтирамиз: спорт мусобақасига тайёргарлик кўришдаги фаолсизликни, мағлубиятларини турлича баҳоналар билан тавсифлашга ҳаракат қилади.

- 1) шуғулланиш учун шароитларнинг етарли эмаслиги;
- 2) тренернинг спортчиларга нисбатан меҳрибон эмаслиги сабабли унинг кўл остида шуғулланишни хоҳламаганлиги;
- 3) ҳакамларнинг ноҳақлиги;
- 4) спорт мусобақаларга тайёргарлик кўришда хомийлар йўқлиги ва бошқа сабаблар.

Психологик тадқиқотлар натижаларининг кўрсатишича, назоратнинг экстернал локаллик турининг намоён бўлиши шахснинг муайян нуқсонлари ва иллатларига бевосита боғлиқдир, чунончи инсоннинг масъулиятсизлиги, ўз имкониятига ишонмаслиги, ҳадиксираши, хавфсираши, шахсий ниятини рўёбга чиқаришни пайсалга солиши ва бошқалар билан изоҳланади. Мабодо шахс ўз хулқ-атвори оқибати учун масъулиятни ўз зиммасига олса, ўз қилмиш-қидирмишларини шахсий хусусиятидан деб тушунса, бундай психологик воқелик назоратнинг интернал (ички) локаллашуви мавжудэканлигини билдиради. Назоратнинг ички локаллаштиришига хос инсонлар мақсадга эришиш йўлида масъулият ёки жавобгарликни ҳис этадилар, ўзини ўзи таҳлиллаш имкониятига эгадирлар. Ижтимоий тарбия жараёнида шахсда локаллаштиришнинг ҳар иккала (экстернал, интернал) турини шакллантириш туфайли унинг мустақкам шахсий фазилатига айлантириш мумкин [16]. Шахснинг субъектив назорати масаласи тадқиқотларда субъектив назоратнинг шаклланишига таъсир кўрсатувчи омиллар [5], шахслилик мазмунга эгалиги [7], социал хулқ-атвори тартибга солишда субъектив назоратнинг аҳамияти [14] ва педагогик мулоқотда субъектив назоратнинг ўрни [15] тадқиқ этилган. Мазкур масалани бевосита психология таълим йўналиши талабалари мисолида ўрганишга эътибор қаратилди. Тадқиқотга 66 нафар иккинчи босқич талабалар жалб этилди. Тадқиқотда психология таълим йўналиши талабаларининг субъектив назорат даражаси, шахсига хос иродавий сифатлари ҳамда фанлар бўйича ўзлаштириш кўрсаткичларининг ўзаро алоқадорлиги ўрганилди.

Тадқиқотда спортчиларлар фаолиятида субъектив назоратнинг қандай даражаларини шакллантиришга эришганлиги эмпирик ўрганилди. Бунинг учун психологик адабиётларда алоҳида ўрин олган ва тадқиқотларда кенг қўланиладиган субъектив назорат даражаси усулидан фойдаланилди [1, 2, 3, 4, 8, 9]. Тадқиқотда Ж.Роттернинг “Субъектив назорат даражаси” сўровномасининг ўзбек муҳитига мослаштирилган варианты қўлланилди [13, 87- 90-б].

Тадқиқот муаммосининг таҳлили. Дастлабки эмпирик кўрсаткичлар спортчиларда субъектив назорат шкаласи даъвогарлик даражаси юқори ва куйи даражалари бўйича умумий натижалар таҳлиliga мурожаат қилинди. Спортчилар орасида субъектив назорат даражасини ўрганишда

сўровноманинг еттига шкаласига таяниди. Шкалалар бўйича кўрсаткичлар сўровноманинг меъёрий кўрсаткичларини стенлар бўйича қийматларига таяниди. Спортчилар субъектив назоратининг эмпирик натижалари қуйидаги жадвалда (1-жадвал) келтирилган.

1- жадвал

Спортчиларнинг субъектив назорат даражаларининг шаклланганлик кўрсаткичлари

Шкалалар	Даъвогарлик даражаси юқори		Даъвогарлик даражаси қуйи		Стъюдент t-мезони
Умумий интерналлик	8,02	1,87	4,66	2,71	7,341***
Муваффақиятга нисбатан интерналлик	8,75	2,24	5,34	2,19	6,004***
Муваффақиятсизликка нисбатан интерналлик	7,58	2,42	4,47	2,47	5,365***
Оилавий муносабатларга нисбатан интерналлик	7,67	2,32	4,08	2,66	7,168***
Фаолият натижаларига нисбатан интерналлик	9,15	0,85	3,84	2,54	5,872***
Шахслараро муносабатга интерналлик	7,50	2,50	5,91	3,70	8,702***
Саломатликка нисбатан интерналлик	7,52	2,47	4,37	2,71	6,131***

Изоҳ: *- $p \leq 0,001$**

Спортчиларнинг умумий интерналлик шкаласи бўйича даъвогарлик даражаси юқори ва қуйи тоифалар ўртасида статистик тафовутни ақс эттирди (8,02 ва 1,87; 4,66 ва 2,71; $t=2,71$; $p \leq 0,001$). Даъвогарлик даражаси юқори бўлган спортчиларлар умумий назоратлик интерналликни ифодалади. Интерналликнинг юқори даражаси даъвогарлик даражасининг юқорилиги билан уйғунлашмоқда. Бу ҳолат даъвогарлик даражаси юқори спортчилар эришаётган ютуқларнинг ақсарияти ўзларининг ҳаракатлари натижаси эканлигига ишонадилар, фаолиятни бошқаришни ва унинг натижаларига жавобгарликни ҳам ўз зиммаларига олишларини ифодалайди.

Даъвогарлик даражаси қуйи спортчиларнинг умумий интерналлик шкаласи бўйича кўрсаткичлари эса (4,66 ва 2,71) паст даражани ифода этганлиги кузатилди. Эмпирик кўрсаткичлар бу тоифа спортчилар мусобокларда қўлга киритилмаган ютуқлар оқибатида ўзларининг ҳатти-ҳаракатлари ва тасодифий ҳодиса ёки атрофдагиларнинг ҳаракатлари натижасида кўриб чиқадиган муҳим воқеалар ўртасидаги боғлиқликни кўрмайдилар. Мағлубият сабабларини бошқалар билан тўлиқ боғлаб қўйишга хайрихоҳдирлар.

Ҳар иккала тоифа спортчиларнинг “Муваффақиятга нисбатан интерналлик”да (8,75 ва 2,24; 5,34 ва 2,19; $t=2,19$; $p \leq 0,001$) ҳам тафовут ақс этди. Шкаланинг хусусиятига кўра юқори даъвогарликдаги спортчиларда муваффақиятга интерналлик юқори стендан (8,75) ўрин олган, даъвогарлик даражаси қуйи спортчиларда эса ўртача стен (8,75)дан ўрин олди. Методиканинг хусусиятига кўра фақат интерналлик назорат шкаласи юқори бўлган тоифага ҳос хусусиятларни изоҳлашга тўғри келади. Улардаги эмпирик кўрсаткич ютуқлар соҳасидаги ички назорат шкаласи бўйича юқори эканлиги ҳиссий ижобий воқеалар устидан субъектив назоратнинг юқори даражасига тўғри келади. Бундай спортчилар ўзлари ҳаётларида энг яхши нарсаларга эришганликларига ва келажакда ўз мақсадларига муваффақиятли эриша олишларига ишонадилар.

Тадқиқот объектларининг “Муваффақиятсизликка интерналлик” шкалалари бўйича кўрсаткичларида юқори даъвогарликка эга спортчиларда муваффақиятсизликка интерналлик ҳам устувор ва қуйи даъвогарларда эса ўртачадан паст стенга эга бўлди (7,58 ва 2,42; 4,47 ва 2,47; $t=5,365$; $p \leq 0,001$). Ушбу ҳолатда ҳар иккала тоифага ҳос интерналлик хусусиятларини изоҳлаш лозим. Муваффақиятсизликка юқори интерналлик кузатилган спортчилар салбий натижалар ва вазиятлар устидан субъектив назоратнинг ривожланган туйғусини кўрсатади, бу уларнинг фаолиятдаги турли хил муаммолар ва муваффақиятсизликлар учун ўзини айблаш тенденциясини ифодаламақда.

Паст кўрсаткичдаги (4,47) спортчиларда эса кутилмаган ва салбий натижаларга жавобгарликни бошқа инсонларга юклашга ёки уларни омадсизлик натижаси деб баҳолашлари кузатилди.

Тадқиқоқтимиз спортчилар фаолиятига бағишланганлиги сабабли уларнинг социал

муносабатларга мойилликлари бўйича тақдим этилган айрим шкалаларнинг фақат натижаларини ўзини келтириб ўтиш билан чекланилади. Спорчиларнинг “Оилавий муносабатларга интерналлик” (7,67 ва 2,32; 4,08 ва 2,66; $t=7,168$; $p\leq 0,001$) ва “Шахслараро муносабатга интерналлик” шкалалари (7,50 ва 2,50; 5,91 ва 3,70; $t=8,702$; $p\leq 0,001$;) бўйича кўрсаткичларида ҳам анъанавий тарздаги фарқлар кузатилди. Бу ҳолатда юқори давогарлик даражасидаги спортчилар оилавий муносабатлари ва шахслараро муносабатлари ҳам жойида бўлиши учун интернал назоратга эга эканлиги ва масъулиятни ўз зиммаларига олиши кузатилмоқда.

Спортчиларда “Фаолият натижаларига нисбатан интерналлик” шкаласи бўйича ҳам ҳар иккала тоифа спортчиларнинг интерналлик бўйича кўрсаткичларида спортчиларнинг “Фаолият натижаларига интерналлик”ги олдинги шкалалар сингари (9,15 ва 0,85; 3,84 ва 2,54; $t=5,872$; $p\leq 0,001$) тафовутли ва статистик аҳамиятли кўрсаткичларни ўзида акс эттирди. Бундан кўринадики юқори даъвогарлик даражасига эга спортчилар ёки умумий ҳолатда шахсларда даъвогарлик субъектив назоратни ҳам устувор кўриниш олишига таъсир кўрсатар экан.

Спортчиларнинг спорт билан шуғулланишининг муҳимлиги ўз навбатида уларнинг асосий мақсади юқори натижаларга эришишга қаратилганлиги билан ажралиб туради. Юқори спорт натижалари спортчининг шахсий камолоти билан ўзаро боғлиқ томонлари етарличадир. Биринчидан спорт натижаларга нисбатан иштиёқининг юқорилиги, мусобақага тайёргарлик ва мусобақа жараёнини назорат қилиш, эришган натижалардан қониқиш ва мағлубиятлардан хулоса чиқаришда ҳолис бўлишларидан далолат беради. Спорт натижалардан қониқмасликда асосий сабабчиси сифатида ўзларини ҳис этади ва хатолардан хулоса чиқарадилар.

Саломатликка нисбатан интерналликни пайдо бўлиши ҳам спортчилар томонидан муҳим саналадиган омиллардан биридир. Шу сабабли ҳам уларнинг интилишида саломатлик алоҳида кўрсаткич ҳисобланади. Шунинг учун ҳам юқори даъвогарлик даражасига эга спортчиларда “Саломатликка интерналлик” шкаласи бўйича ҳам (7,15 ва 2,47; 7,37 ва 2,61; $t=1,131$; $p\leq 0,001$) куйи даъвогарликка эга бўлган спортчилардан фарқли равишда натижаларга эришганлиги кузатилди.

Айрим ҳолларда инсонларнинг спорт билан шуғулланишига асосий сабаб уларнинг саломатлигини аъло даражада бўлиши ва фаолиятини мақсадли амалга оширишига хизмат қилиши кўзда тутилади. Шу сабабли ҳам спортчиларнинг спорт ютуқларига даъвогарлиги асосий шарт бўлса-да, аммо натижаларга эришмасликлари эса ҳеч бўлмаганда уларнинг спорт саломатликка хизмат қилиши учун ҳам хотиржамликка эришишлари мумкин. Эмпирик кўрсаткичларимиз даъвогарлик даражаси юқори синалувчиларнинг доимий равишда натижаларга эришишлари фаолиятнинг қандай компонентлари бўлишидан қатъий назар юқори кўрсаткичларга эришиш иштиёқи устун эканлиги тасдиқланди. Мазкур ҳолатнинг узвий давоми сифатида юқори даъвогарликка эга спортчиларда субъектив назорат компонентлари ўртасидаги корреляцион муносабатлар ҳам ўрганилди. Бу ҳолат навбатдаги жадвалда тақдим этилди.

Юқори спорт натижаларига эришиш спорчининг даъвогарлик даражаси билан субъектив назорат хусусиятлари ўртасидаги интерпсихик боғлиқликда кузатилса, бу уларнинг устун жиҳатларидан бири ҳисобланади. Шу сабабли эмпирик натижалар таҳлиliga мурожаат қиламиз. Эмпирик кўрсаткичлар юқори даъвогарлик билан субъектив назорат даражаларининг ўзаро муносабатлари шахс психикасининг ўзига хослигини баҳолаш имконини беради.

2-жадвал

Даъвогарлик даражаси юқори спортчиларнинг субъектив назорат

даражаларини ифодаловчи шкалалар ўртасидаги корреляция кўрсаткичлар

Шкалалар	Умумий интерналлик	Муваффақиятга нисбатан интерналлик	Муваффақиятсизлик ка нисбатан интерналлик	Оилавий муносабатларга нисбатан интерналлик	Фаолият натижаларига нисбатан интерналлик	Шахслараро муносабатга нисбатан интерналлик	Саломатликка нисбатан интерналлик
Умумий интерналлик	1	0,385**	0,421**	0,327*	0,361**	0,467**	0,305*
Муваффақиятга нисбатан интерналлик		1	0,291*	0,246*	0,277*	0,338**	0,341*

Муваффақиятсизлик ка нисбатан интерналлик			1	0,301*	0,296*	0,483**	-0,111
Оилавий муносабатларга нисбатан интерналлик				1	0,444**	0,568**	0,237
Фаолият натижаларига нисбатан интерналлик					1	0,243*	0,259*
Шахслараро муносабатга интерналлик						1	0,014
Саломатликка нисбатан интерналлик							1

Изоҳ: *- $p \leq 0,001$; **- $p \leq 0,001$

Спортчиларнинг субъектив назорат даражаси шкаллари ўртасидаги корреляцияли боғланишлар кузатилди. Юқори даъвогарликка эга спортчиларнинг умумий интерналлик даражаси деярли барча таркибий жиҳатларида ўзаро алоқадорликка эга бўлди. Уларнинг муваффақиятга интерналлик ($r=0,385$; $p<0,01$) муваффақиятсизликка интерналлик билан ижобий корреляцияга эга ($r=0,348$; $p<0,01$), оилавий муносабатларга нисбатан интерналлик ($r=0,327$; $p<0,05$), фаолият натижаларига нисбатан интерналлик ($r=0,361$; $p<0,01$), шахслараро муносабатга интерналлик ($r=0,467$; $p<0,01$), саломатликка нисбатан интерналлик ($r=0,305$; $p<0,05$) бўйича ижобий корреляцияга эга бўлди. Бу эса спортчиларнинг субъектив назоратдаги интерналликни барча жабҳалари умумий интерналликни тўлиқ тасдиқлашга хизмат қилар экан. Эмпирик кўрсаткичлар спортчиларнинг фаолиятларидаги муваффақият ва муваффақиятсизликларнинг асосий сабабчиси ўзларига боғлаш хослиги ортиб борар экан. Бу эса даъвогарлик спортчиларнинг ўзини ички тартибга солишларини таъминлашга хизмат қилишини ифодаламакда.

Спортчининг муваффақиятга нисбата интерналлиги ўз навбатида муваффақиятсизликка интерналлик ($r=0,291$; $p<0,05$), оилавий муносабатларга нисбатан интерналлик ($r=0,246$; $p<0,05$), фаолият натижаларига нисбатан интерналлик ($r=0,277$; $p<0,05$), шахслараро муносабатга интерналлик ($r=0,338$; $p<0,01$), саломатликка нисбатан интерналлик ($r=0,341$; $p<0,01$). Бундан кўринадики, спортчиларнинг даъвогарлик даражасининг юқори бўлиши ҳисобида муваффақиятга интилиш ўсиб борар экан. Муваффақиятга эришишлари орқали улар спорт ютуқларини таъминлашда муваффақиятсизлик, фаолият натижасига эътиборлилик, ўз навбатида оилавий муносабатлар учун ҳам аҳамиятли, шахслараро муносабат ва саломатлик ҳам ўз навбатида муҳим омиллар бўлиб хизмат қилишидан далолат бермоқда.

Муваффақиятсизликка нисбатан интерналликнинг шаклланиши ўз навбатида спортчиларда бошқа фаолият, хусусан, оилавий муносабат ($r=0,301$; $p<0,05$), фаолият натижалари ($r=0,296$; $p<0,05$), шахслараро муносабат ($r=0,483$; $p<0,01$) билан боғлиқ муаммолардаги назоратда ҳам ўзларида жавобгарликни ҳис этишга хайрихоҳ бўлар эканлар.

Оилавий муносабатларга нисбатан интерналликнинг юқорилиги даъвогарлик даражасида ҳам устуворликни акс этишига хизмат қилмоқда. Балки бу спортчининг оила аъзоларига нисбатан ҳурмат ва оиласининг социумдаги мавқеини ошириш учун хизмат қилишидаги саъйи-ҳаракатининг ифодаси дейиш мумкин. Оилавий муносабатга нисбатан интерналликни ижобий шаклланиши спортчиларнинг фаолият натижаларига нисбатан интерналликни кучайтиришига хизмат қилиши кузатилди ($r=0,444$; $p<0,01$). Бу ҳолатга ота-онанинг фарзандига мусобақа олди муносабатлари, яъни “фарзандим сенга ишонамиз!” тарздаги мулоҳазалари таъсир кўрсатаётгандир. Ўз навбатида оилавий муносабатдаги интерналлик спортчиларнинг шахслараро муносабатларига нисбатан ҳам интерналликни ($r=0,568$; $p<0,01$) кучайтирар экан.

Юқори даъвогарли спортчиларнинг фаолият натижалари шахслараро муносабатга ($r=0,243$; $p<0,05$) ва саломатликка нисбатан интерналликни ($r=0,259$; $p<0,05$) ижобий тус олишига сабаб бўлмоқда. Спортчиларнинг юқори даъвогарликка эгаликлари уларнинг субъектив назоратларини шакллантирар экан. Бу эса спортчиларни мусобақа олди, мусобақа ва ундан кейинги руҳий кечинмаларини ижобий бўлишида муҳим ўринга эга.

Хулосалар. Қисқача тажриба натижалари асосида спортчиларнинг даъвогарлик даражаси билан субъектив назорат даражаларини муносабатини эмпирик ўрганиш натижалари қуйидаги хулосаларга сабаб бўлди:

1. Юқори даъвогарлик даражасига эга спортчиларда субъектив назорат бўйича барча интерналликлар ижобий муносабатга эга бўлар экан.

2. Спортчиларда умумий интерналликнинг қанчалик юқори бўлиши фаолиятнинг турли йўналишлари бўйича интерналликларни устуворлигини белгилар экан.

3. Юқори даъвогарлик даражасига эга спортчиларда муваффақиятга ва муваффақиятсизликка, оилавий муносабатга, фаолият натижаларига, шахслараро муносабатга ва саломатликка нисбатан интерналликни юқори бўлиши назорат даражаларининг ўзаро корреляцияларида кузатилди.

Адабиётлар:

1. Аракелов Н.Е., Лысенко Е.Е. Локус контроль и методы его исследования // Психологический журнал, 1997. - Т. 4. - №2 - С. 34 - 38.
2. Бажин Е.Ф., Голынкина Е.А., Эткинд А.М. Метод исследования уровня субъективного контроля // Психологический журнал, 1984. - Т. 5. - №3. С. 152 - 162.
3. Большой психологический словарь / Под ред. Мещерякова Б.Г., Зинченко В.П. - М.: Прайм-Еврознак, 2003 - 672 с.
4. Елисеев О.П. Локус контроля // Практикум по психологии личности. - СПб.: Питер, 2003. - С. 413 - 417.
5. Калинина А.О. Факторы, влияющие на формирование субъективного контроля / А.О. Калинина. - М.: ВЛАДОС, 2004. - 383 с.
6. Карелин А.А. Большая энциклопедия психологических тестов / А.А. Карелин. - М.: Издательство «Эксмо», 2007. - 416 с.
7. Кондаков И.М., Нилопец М.Н. Экспериментальное исследование структуры и личностного контекста локуса контроля // Психологический журнал, 1995. - Т. 16. - №1. - С. 43 - 51.
8. Ксенофонтова Е.Г. Исследование локализации контроля личности
- новая версия методики «Уровень субъективного контроля» // Психологический журнал, 1999. - Т. 20. - №2. - С. 103 - 114.
9. Маклаков А.Г. Профессиональный психологический отбор персонала. Теория и практика: Учебник для вузов / А.Г. Маклаков. - СПб.: Питер, 2008. - 480 с.
10. Немов Р.С. Психология: Словарь - справочник / Р.С. Немов. - М.: Издательство ВЛАДОС - ПРЕСС, 2003. - 304 с.
11. Платонов К.К. Краткий словарь системы психологических понятий / К.К. Платонов. - М.: Высшая школа, 2004. - 176 с.
12. Психология. Словарь / Под общ. ред. А.В. Петровского, М.Г. Ярошевского. - М.: Политиздат, 1990. - 494с.
13. Психологик таъхис методикалари мажмуаси// Тузувчилар: С.Н.Алимходжаева Ф.И.Хайдаров.- Тошкент, Ўқувчиларни касб- хунарга йўналтириш ва психологик - педагогик Республика таъхис Маркази, 2008.-132 б.
14. Чепляев В.Л. Субъективный контроль и регуляция социального поведения безработного- Режим доступа: <http://window.edu.ru>, свободный.
15. Щербак Т.Н. Субъективный контроль в педагогическом общении [электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://www.ipkpro.aaanet.ru>, свободный.
16. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. – Тошкент: “Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2010.- 542 б.
17. Juraev Voxidjon Muhammedovich, "The role of reaction in the formation of competition motivation in athletes." International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.10 (2022): 28-29.
18. Juraev Vohidjon Mukhammedovich, "Psychological Features of Competitive Motivation of Athletes." Central asian journal of literature, philosophy and culture 3.11 (2022): 312-314.
19. Jurayev Vokhidjon Mukhammedovich, "Psychological Foundations of Willpower in the Formation of Competition Motivation in Athletes." Central asian journal of literature, philosophy and culture 3.11 (2022): 315-318.
20. Arabboyev Qaxramon Toxirjonovich, et al. "The role of sport in people's health." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022)

SAN’AT

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XOR VA XORSHUNOSLIK MAVZULARINI O'QITISHNI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL QILISH

Shamsiyev Sherzod Istamovich,

Buxoro davlat universitetining pedagogika instituti

Musiq va tasviriy san'at kafedrasida o'qituvchisi

Ushbu maqolada pedagogik texnologiyalar va ularning turlari haqida, hamda dars jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar haqida fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida xor va xorshunoslik mavzularini o'qitishda foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiyalar, didaktik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya, ilg'or pedagogik texnologiyalar*

ОРГАНИЗАЦИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ХОРА И ХОРОВЫХ ПРЕДМЕТОВ В ВУЗЕ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

В данной статье описаны педагогические технологии и их виды, а также педагогические технологии, используемые в ходе урока. Также широко освещаются педагогические технологии, используемые при обучении предметам хора и хорового искусства в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: *педагогические технологии, дидактические технологии, образование, передовые педагогические технологии.*

ORGANIZING THE TEACHING OF CHOIR AND CHOIR SUBJECTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

This article describes pedagogical technologies and their types, as well as pedagogical technologies used in the course of the lesson. Pedagogical technologies used in teaching the subjects of choir and choral studies in higher educational institutions are also widely covered.

Key words: *pedagogical technologies, didactic technologies, education, advanced pedagogical technologies.*

Kirish

Mamlakatimizda yangilangan, jahon andozalariga mos keladigan ta'lim mazmuni o'z - o'zidan emas, balki ilg'or pedagog – olimlar, metodist o'qituvchilar va jahon miqyosida orttirilgan pedagogika fani yutuqlari orqali takomillashib boradi. Shu bois ham ta'limni hozirgi bosqichida uni isloh qilish vazifalari yangicha fikrlovchi, shiddatli axborot va axborot texnologiyalari, kompyuterlashgan modeli o'qitish tez rivojlanayotgan sharoitda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun mas'ul ijodkor o'qituvchilarni shakllantirish vazifasini asosiy o'ringa qo'yimoqda.

Mavjud tajribalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim mazmuni qanchalik yangilanmasin, mukammal o'quv dasturlari, darsliklar yaratilmasin, o'quv – tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining pedagogik mahorati, yangi ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirishi va ulardan ta'lim jarayonida unumli va o'rinli foydalana olishiga bog'liq bo'ladi.

Milliy dasturda ko'zda tutilganidek, zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish hamda axborot tizimi bilan ta'minlash jadal rivojlanmoqda. Fan va ta'limning moddiy, uslubiy bazasi mustahkamlanib, o'quv – uslubiy, ilmiy, innovatsion, zamonaviy vositalar mukammallashtirib o'quv jarayoniga tatbiq qilinmoqda.

Asosiy qism. Ma'lumki, didaktikaning predmeti o'rgatish, o'rganish hamda ta'lim mazmunidan iborat. Bu uchala komponentdan birortasini e'tiborda tutmaslik ta'lim mazmunini yo'qqa chiqaradi. O'rgatish ham, o'rganish ham ularning oxirgi natijasi ham ta'lim mazmuniga bog'liqdir. Ta'lim jarayonida har xil mavzularni o'ziga xos usullar bilan o'rganish uni o'ziga xosligi va mazmunidan kelib chiqadi, bu esa asosan o'rganishni tashkil etuvchi, yani o'rgatuvchiga (Pedagog o'qituvchiga) bog'liq. Har qanday fanni, shu jumladan musiqa fanini o'qitish jarayonida ham faollashtiradigan, ularni darsning faol ishtirokchilariga, mustaqil fikrlovchi mushohada qiluvchi o'z fikrlarini bildirib oluvchi o'quvchi sifatida namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratuvchi – bu o'qituvchidir. O'qituvchi o'zi va o'rganuvchi o'quvchilar uchun qulay va

qiziqarli boʻlgan oʻqitish usullari, yoʻllari, shakllari, vositalari ulardan foydalanish shart-sharoitlarini belgilaydi, ilgʻor pedagogik texnologiyalar yordamida oʻquv jarayoni samaradorligini oshirishga harakat qiladi. Shu boisdan ham pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, taʼlim texnologiyalariga oʻquv jarayonidagi eng samarali vositalar sifatida qaralmoqda. Ulardan bugungi kunda jahon pedagogikasi amaliyotida keng foydalanilmoqda. Pedagogik texnologiya hozirgi kunda eng rivojlangan mamlakatlar taʼlim tizimida boʻlgani kabi bizning respublikamizda ham taʼlim jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bogʻliq ishlarda ustuvor oʻrinni egallamoqda. Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar yaxshi xabardor boʻlishi, taʼlim jarayonida ularni qoʻllab dars oʻtishlariga muhim eʼtibor berilmoqda. Bu aynan jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlariga mos boʻlib, jamiyat taraqqiy etishi bilan taʼlim – tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari shunga mos ravishda takomillashib borishi bilan bogʻliqdir. Hozirgi sharoitda inson faoliyatining asosiy yoʻnalishlari taraqqiyotga mos maqsadlarni toʻliq amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi modelli tizimga, yaʼni taʼlimni texnologiyalashtirishga aylanib bormoqda. Shu tufayli fan sohalarining barchasida boʻlgani kabi musiqiy taʼlimda ham yangi texnologiyalarga eʼtibor kuchayib bormoqda. Taʼlim jarayonida oʻquvchilar musiqa sanʼatini butun nafosati bilan oʻrganishlari, idrok etishlari ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqa tinglash, tahlil qilish, jamoa boʻlib qoʻshiq kuylash, nazariy bilimlarni oʻzlashtirish (musiqa savodxonligi) raqsga tushish, bolalar cholgʻu asboblari chalish va musiqa ritmek joʻr boʻlish masalalarini shakllantirish musiqiy taʼlimning asosiy mazmunini tashkil etadi. Pedagogik texnologiyalarni barcha turlarida birdek qoʻllaniladigan va taʼlim-tarbiya jarayonini tadrijiy tarkib topishida va rivojlanib borishida hal qiluvchi omillar hamda tarkibiy elementlar uch xil faoliyatdan iborat boʻlib, ular soʻzlash, koʻrsatish va mashqlar bajarishdan iborat boʻlib musiqa darslariga uni tatbiq etilganda quyidagicha ketma-ketlik va bogʻliqlikda amal qiladi: va bu jarayon pedagogik texnologik oʻzagini tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari boʻlgan ushbu soʻzlash, koʻrsatish va mashqlar bajarishni texnologik jarayonning uch tarkibiy qismi sifatida tahlil qilish mumkin. Musiqa darslari jarayonida ular keng koʻlamli faoliyat sifatida namoyon boʻladiki bu oʻrinda musiqa darslarini faoliyatlar negizida tashkil etilishi bilan bogʻliq katta imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonlar bilan bogʻliq umumiy tushunchalarni jadvallar shaklida quyidagicha ifodalash mumkin.

Pedagogik texnologiyaning soʻzlash jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyati hamda ular uchun zarur boʻlgan vositalar:

Oʻqituvchi		Oʻquvchi	
Faoliyati	Vositalari	Faoliyati	Vositalari
soʻzlash; tushuntirish; savol-javob; bahs; munozara; muhokama; rahbarlik; tanbeh; ragʻbatlantirish; nazorat; ijodkorlik.	matnlar; axborot (mavzu) va u haqidagi bilim; mantiq; malaka; mahorat; dunyoqarash; nutq; intonatsiya; diksiya; artistizm; obrazlilik.	- tinglash; - oʻzlashtirish; - savol-javob; - yozib olish; - bayon qilish; - yodda saqlash; - mushohada qilish; - axborot toʻplash; va boshqalar.	motivlar; diqqat; xotira; musiqiy eshitish; qobiliyat; malaka; koʻnikma; dunyoqarash; nutq; intonatsiya; diksiya; va boshqalar.

Bu jadvaldagi har bir tushuncha va ular orasidagi bogʻliqliklar alohida tizimni tashkil qiladi. Bu yerda pedagogik texnologiya asosan psixologik omillarga, jumladan oʻqituvchining pedagogik mahorati, malakasi, oʻquvchining isteʼdodi, iroda, xotirasiga bogʻliqligiga eʼtiborni qaratish lozim.

Mashqlar bajarish jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyati va zarur vositalar.

Oʻqituvchi		Oʻquvchi	
Faoliyati	Vositalar	Faoliyati	Vositalar
mashq bajarish tartibini koʻrsatib berish; interval, akkord, uchtovushlik va hokazolarni kuylash;	topshiriqlar; cholgʻu asboblari; nota yozuvi; tarqatma materiallar; nazorat savollari;	tushunish; bajarish; takrorlash; harakatlarni bajarish; mustaqil ishlash;	tafakkur; xotira; eshitish qobiliyati; cholgʻu asboblari; qobiliyat;

ovoz hosil qilish; nafas olish, sarflash; talaffuz; intonatsiya; soz; ansamblilik; joʻrsiz kuylash.	nota daftari; uyga vazifa.	fikrlash; umumlashtirish; oʻz ijrosini nazorat qilish	mashq daftari; fortepiano turli oʻquv materiallari va hokazolar
--	-------------------------------	---	---

Mashqlar oʻzlashtirishni mustahkamlaydigan oʻquv jarayoni hisoblanadi. Mashqlar har fanda, jumladan musiqa darslarida oʻziga xos mazmunda boʻladi. Masalan, musiqa tinglash faoliyatida kuyning tonalligini oʻlchovi, tempini, xarakteri, janrini aniqlash musiqa savodxonligi faoliyatida interval va akordlarni aniqlash, intervallarni tuzish, dinamik tuslarini aniqlash, nazariy tahlil qilish, jamoa kuylash jarayonida ovoz sozlari (vokal, xor) mashqlarini kuylash asarini murakkab joylarini mashq qilish, saf intonasiya, diksiya ustida ishlash, major va minor uchtovushliklarini kuylash, joʻrsiz kuylash va h.k shular jumlasidandir.

Har bir fan (dars)ning oʻziga xos xususiyati boʻlishi tabiiydir. Musiqa oʻqitishning ham oʻziga xoslik tomonlari koʻp. Bu uning tashkiliy tuzilishi va amaliy ijrochilik bilan bogʻliq koʻrinishlarida yaqqol namoyon boʻladi. Shuning uchun darsning har bir faoliyat turida ilgʻor pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish mumkin. Darsda olib boriladigan oʻqituvchini turli faoliyat shakllari maʼruza, hikoya, tushuntirish, namoyish qilish, koʻrsatish, tinglatish, suhbat, savol – javob, jamoa boʻlib kuylash ovoz sozlash mashqlari kabilar har birining mazmun va mohiyati mavjud shart – sharoit, oʻqituvchi va oʻquvchilar imkoniyatiga muvofiq tarzda texnologiyalarni tadbiq etish mumkin. Bunda musiqa oʻqituvchisining ham oʻziga xos xususiyatlari namoyon boʻladi. Musiqa sanʼatiga muhabbat, qiziqish, darsni emotsional koʻtarinki ruhda oʻtkazish, oʻzida artistlik, rejissyorlik, dramaturglik, mahoratlarini rivojlantirib borish, bolalarni sevishtirish, ulardagi musiqiy qobiliyat va qiziqishlarni eʼtiborga olish ularni roʻyobga chiqarishga intilish, yaxshi xonandalik, cholgʻuchilik mahoratiga ega boʻlishlik shular jumlasidandir. Chunki oʻqituvchining taʼkidlab oʻtilgan xususiyatlarning oʻzi ham darsda oʻquvchilar uchun texnologik ibrat xizmat qilishi mumkin.

Agar oʻqituvchida mavjud xususiyatlar boʻlmasa har qanday pedagogik texnologiyalar ham quruq, mazmunsiz va qiziqarsiz, samarasiz boʻlib qolishi ham hech gapmas. Chunki har qanday taʼlim shakli, modeli, turi oʻqituvchining pedagogik mahorati, bilimi, malakasi va artislik iqdoriz kutilgan natijani bermasligi aniq.

Maʼlumki, musiqa oʻqituvchisi oʻquv tarbiya ishlarini baravariga olib boradi. Oʻquvchilarni musiqa sanʼati orqali tarbiyalashda oʻqituvchining yaxshi sozandalik mahorati, yaxshi ovozga ega boʻlishi nota oʻqish, turli vositalardan oqilona va oʻrinli foydalana olishi, soʻz mahorati, oʻquvchilarni qobiliyatlarini oshira bilishi muhim. Jonli ijro (cholgʻu asboblarda chalish, qoʻshiq kuylash) etilgan kuy- qoʻshiq sinfda oʻquvchilarga oʻzgacha ruhda taʼsir etadi, kayfiyatlarini koʻtaradi.

Musiqa oʻqituvchisi bulardan tashqari darslarni kuzatib borishi lozim. Doimiy kuzatishlar sababli oʻqituvchi pedagogik mahoratini oshirib boradi. U vaziyatni baholashga, oʻquvchilarni ichki tuygʻu, qiziqish va qobiliyatlarini sezishga oʻrganadi. Kuzatish birinchi sinfdan -yettinchi sinfga qadar davom etadi. Bunda qoʻllanilayotgan usul, shakl va pedagogik texnologiyalarning ham samaradorlik, qulaylik bolalar uchun qiziqarli va oʻngʻaylik jihatlari aniqlanib boriladi.


Xorshunoslik oʻziga xosligi tashkiliy tuzilishi, amaliy ijrochilik faoliyatlari, shuningdek oʻqitish usullari, ularning samaradorligini taʼminlovchi omillar, vositalar tahlili va ularni umumiy ijodiy – ijobiy jihatlarni umumlashtirish musiqa taʼlimini oʻzigagina xos boʻlgan yangi turlarini ishlab chiqish imkonini berdi. Bular ham oʻz maqsadi va bajaradigan vazifasi mazmun va mohiyatiga koʻra pedagogik texnologiya boʻlib, ularni musiqa mashgʻulotlariga tadbiq etish yaxshi natija bermoqda. Bunday darslar oʻquvchilarda yaxshi kayfiyat, joʻshqinlik, koʻtarinki ruh va intilishni kuchaytirmoqda.

Bu darslarning har biri oʻz tuzilishi, vazifasi, maqsadi va metodik asoslariga egadir. Mana shu aytib oʻtilganlarning oʻziga ham musiqa darslarini oʻz tabiatiga koʻra yangi – yangi oʻziga xos va zamonaviy interfaol usullardan foydalanishida keng imkoniyatlariga ega ekanligini koʻrsatadi va yana bir -bor oʻrinda musiqa oʻqituvchisining zukkoligi, mahorat, tajribasi va qanday texnologiyalardan, qanday faoliyat mavzularini oʻtishda, pedagogik shart –sharoit va oʻquvchilarning qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlashi va qoʻllashi hal qiluvchi yahamiyat kasb etadi.

Masalan, konsert darslarini oʻquvchilarda sahna madaniyatini shakllanishiga, oʻzlarini koʻpchilik oldida koʻrsatish, yaxshi imkoniyatlarini namoyish etish, oʻzini artistlardek tutish xislatlarini oʻsishiga, viktorina darslari oʻquvchilarda topqirlik, izlanuvchanlik, tez fikrlash, eslab qolish qobiliyat va koʻnikmalarini rivojlanishiga, bahs – munozara darslari ham oʻquvchilarni mustaqil fikrlash, hozirjavoblik, mavzu va masalalarga ijobiy yondoshish, nutqlarini teranlashib borishiga ijobiy taʼsir etadi.

Quvnoqlar va zukkolar darsida o`quvchilar o`zlarining topqirlik, zukkolik, xushyorlik, maqsad sari intilish kabi sifatlarini namoyish etadilar.

Ular qatoriga hozirgi kunda ilg`or, tashabbuskor o`qituvchilar tomonidan keng qo`llanilayotgan quyidagi texnologik darslarni alohida ko`rsatishimiz mumkin:



1-rasm. Texnologik darslarning tavsifi

Tahlil darsida musiqa savodi, musiqa tinglash, qo`shiq kuylash jarayonlarida o`tilgan asarlarni muvommatal tahlil qilishga e`tibor qaratiladi, bunda o`quvchilarni nazariy savodxonlik malakalari muhim rol o`ynaydi.

Xulosa. O`yin darslari juda xilma – xil shakllarda o`tkazilishi mumkin. Masalan, musiqiy cholg`ular mavzusini o`tganda o`quvchilarga turli xildagi musiqa cholg`u asboblari surati solingan kartochkalar beriladi. O`qituvchi magnitofon yordamida biror bir milliy cholg`u asbobida ijro etilgan musiqani eshittiradi. O`quvchilar o`z navbatida musiqiy asar qanday cholg`u asbobida ijro etilganligini qo`llaridagi kartochkalar orqali ko`rsatadilar. Eng faol qatnashgan va topqir o`quvchilar baholanadilar va rag`batlantiriladilar. Viktorina, konsert, bahs – munozara, kuyni top kabi darslar o`quvchilarning nazariy va amaliy o`zlashtirgan bilimlariga asoslangan holda o`tkaziladi. Dars – sayohat esa ijodiy jamoalarga, turli madaniy – ma`rifiy tadbirlarga yoki bo`lmasa video tasma yordamida tabiat qo`yniga, shaharlarga musiqiy sayohat tarzida uyushtiriladi.

Musiqa darslarini tshkiliy tuzilishi va shakllariga ko`ra yana keng qo`llaniladigan quyidagi turlarini ham ko`rsatib o`tish mumkin:

- ♪ Tashkiliy darslar;
- ♪ Aralash darslar;
- ♪ Dominantali (darsdagi biron bir faoliyat turi qo`shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodxonligi, musiqiy ijodkorlik boshqalaridan ustunroq bo`ladi) darslar;
- ♪ Kontrol – tekshiruvchi darslar;
- ♪ Umumlashgan darslar;
- ♪ Intervyu darslar;
- ♪ Himoya darslari;
- ♪ Yakunlovchi darslar.

Adabiyotlar:

1. Шамсиев Ш. И., Солиев А. А. Основы хорового пения на уроках музыки //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 55-57.
2. Шамсиев Ш. И. Молодой специалист учитель музыки, как руководитель хорового коллектива в общеобразовательной школе //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 540-545.
3. Шамсиев Ш. И. Новые подходы к подготовке молодых специалистов учителей музыки, разработка уроков музыки //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 528-533.
4. Shamsiev S. I. The role of folk songs in educating student's role of folk songs in student education //International Journal on Integrated Education. – 2021. – Т. 4. – №. 2. – С. 76-78.
5. Shamsiyev S. I., Ramazonov S. R. O. G. L. Boshlang'ich sinflarda vokal-xor malakalarini shakllantirish va rivojlantirish uslublari //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 377-381.
6. Shamsiyev S. I. Shukhratjon Rakhimjon OGLI Ramazonov Methods of formation and development of vocal-choral skills in primary schools //Scientific progress. – 2021. – №. 5.
7. Шамсиев Ш. И., Солиев А. А. Развивайте навыки чтения музыки во время пения //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 92-95.
8. Shamsiyev S. Iqtidorli o'quvchilarning musiqiy ijodkorlik faoliyati //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.
9. Шамсиев Ш. И. Голос и эмоция–психология вокала //актуальные вопросы психологии, педагогики, философии ххi века. – 2020. – С. 358.
10. Shamsiev S. I., Mosinova D. S. Educating students in aesthetic spirit through choir works //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 453-455.
11. Shamsiyev S. I. Choir Performance in European Countries Emergence //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 347-350.
12. Шамсиев Ш. И. Формы организации музыкального общения //Вестник науки и образования.– 2020. – №. 21-2 (99). – С. 71-74.
13. Istamovich S. S. et al. Development, Appearances and Types of Choral Art in Central Asian Countries //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 73-75.
14. Алаева, З. М. (2021). Роль национальных инструментов в музыкальном образовании начальных классов. Проблемы науки, 66.
15. Алаева З. М. Регулирование и интерактивное планирование музыкального воспитания и образования для начальных классов //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1259-1264.
16. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Интерпретация методов музыкального воспитания и образования дошкольника." Science and Education 3.4 (2022): 1253-1258.
17. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Методические рекомендации по развитию ритмических навыков младших школьников." Science and Education 3.4 (2022): 1246-1252.
18. Алаева З. М. Шаг с подскоком в детском хореографии. Методические трудности педагога хореографа при выполнении шага с подскоком //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1239-1245.
19. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Дискретность ритмических движений. Ритмика в начальной школе хореография." Science and Education 3.4 (2022): 1233-1238.
20. Алаева З. М. Использование Арт-Педагогических Технологий В Развитии Музыкальных Способностей Студентов //Central Asian Journal of Arts and Design. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 6-9.
21. Axmadov N. Психологические механизмы реабилитации процесса дезадаптации у подростков //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
22. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Садокат Руслановна Шамсиева Кошик тушунчаси ва унинг инсон ҳайотида тутган о'рни ҳамда хонандалик йджрочилиги тариқи." Научный прогресс 5 (2021).
23. Аллаева, Зарнигор Махмудовна. "Эстетическое воспитание дошкольников с помощью песен и танцев." Наука, техника и образование 2-1 (77) (2021): 69-72.
24. Alayeva Zarnigor Maxmudovna, and Sadoqat Ruslanovna Shamsiyeva. "Qo'shiq tushunchasi va uning inson hayotida tutgan o'rni hamda xonandalik ijrochiligi tarixi." Scientific progress 1.5 (2021): 336-342.
25. Alayeva Zarnigor. "Pedagogik mahorat: Pedagogik mahorat." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 1.1 (2021).

MA’NAVIYAT VA TARBIYA

TALABALARDA OILAVIY QADRIYATLARGA IJOBIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Axmedov Aminjon Amrullayevich,
Buxoro davlat universiteti stajyor tadqiqotchisi

Ushbu maqolada talabalarning oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan pedagogik shartlarning bajarilish tartibi, ahamiyati yuzasidan nazariy fikr yuritilgan. Maqolada oilaviy qadriyatlarning umummilliy prinsiplari yaxlit tarzda ochib berilgan bo‘lib, o‘qituvchining talabalar bilan ishlash jarayonida qo‘llashi lozim bo‘lgan pedagogik tavsiyalar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik diagnostika, pedagogik kuzatish, umummilliy asos, psixologik so‘rov, obyekt va subyekt munosabati, oilaviy qadriyat.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ ПОЗИТИВНОГО ОТНОШЕНИЯ К СЕМЕЙНЫМ ЦЕННОСТЯМ

В данной статье сформулировано теоретическое мнение о важности выполнения педагогических условий, направленных на формирование положительного мировоззрения учащихся в отношении семейных ценностей. В статье целостно раскрыты национальные принципы семейных ценностей, а также выражены педагогические рекомендации, которыми должен пользоваться педагог в процессе работы со студентами.

Ключевые слова: педагогическая диагностика, педагогическое наблюдение, национальный признак, психологическое обследование, объектно-субъектные отношения, семейная ценность.

PEDAGOGICAL CONDITIONS OF DEVELOPING POSITIVE ATTITUDES TO FAMILY VALUES IN STUDENTS

In this article, a theoretical opinion is made on the importance of the fulfillment of pedagogical conditions aimed at forming a positive worldview of students in relation to family values. The national principles of family values are revealed in the article in a holistic way, and the pedagogical recommendations that the teacher should use in the process of working with students are expressed.

Key words: pedagogical diagnosis, pedagogical observation, national basis, psychological survey, object and subject relationship, family value.

Kirish. Bugungi kunda ta’limning shiddat bilan rivojlanib borayotgan ekanligini ilmiy-ijodiy sohalarida olib borilayotgan islohotlar asosida sezish mumkin. Talabalarning oilaviy qadriyatlarini kamol toptirish hamda ularning dunyoqarashida oila va oilaviy qadriyatlarning ahamiyati katta ekanligi anglashiladi. Psixologik nazariyalarning metodik jihatdan birlashuvi ijtimoiy prinsiplilikni taqozo etgan holatda oilaviy qadriyatlarning ijobiy munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik shartlari ham mavjud bo‘lib, ularning tub mohiyati asosan, talabalarda qadriyatlarimizga bo‘lgan hurmat, ishonch kabi pokiza tuyg‘ularni shakllantirishdir. Shuni aytish mumkinki, qadriyatlarning oilaviy tamoyillar asosida badiiy did, estetikaga xos tarzda rivojlanishi talabalarning kundalik hayoti, ro‘zg‘or tutishi, so‘zlashuv odobi va urf-odatlarimizda yaqqol namoyon bo‘ladi. Pedagogik va ijtimoiy tadqiqotlarga ko‘ra, yosh xususiyatidan kelib chiqib fikrlash doirasi mufassal kengaygan, “Oila qadriyati” tushunchasining asl mohiyatini teran anglab yetadigan talabalarni shaxsiy rivojlantirish individual ta’limning asosiy g‘oyalardan biridir.

Talabalarning dunyoqarashidan kelib chiqqan holatda ularda oilaga nisbatan pedagogik kategoriyalar mutanosibligida oila qadriyatlarining shakllanishida yuzaga keladigan holat va vaziyatlarga to‘g‘ri yondashish lozim. Shu ma’noda muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning fikrlari ahamiyatlidir. “Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan” [1].

Asosiy qism. Haqiqatan ham, talaba-yoshlarda insonparvarlik va vatanparvarlik, oilaviy qadriyatlarga hurmat va ehtirom ko‘rsatadigan yosh avlodni tarbiyalash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi deyish mumkin.

Oilaga nisbatan hurmat, uning har bir a'zosini ardoqlash kabi tuyg'ularning shakllanishi go'daklik chog'idanoq oila obyekti va subyekti bo'lgan kishilar bilan bevosita aloqador tarzda namoyon bo'ladi. Bugungi kunda talabalar o'rtasida oila rishtalarida qadriyatlarining o'rni va ahamiyatini aniqlashda va qolaversa, obyektiv jihatdan shakllantirishda obyektiv jihatdan mavjud ehtiyojlar talabalar o'rtasida yuzaga keladigan ijobiy yoki salbiy munosabatlarning ham to'liq shakllanishida asos va vazifa bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu holatning normal tarzda tadqiq etilishi talabalar o'rtasida oilaning o'rni, qadriyatlarining qadriyat qimmati kabi tushunchalarning ahamiyatlilik darajasini inobatga olish lozim. Talabalarda oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari bir necha kontekstlarda namoyon bo'ladi.

Ular quyidagicha:

1. Oila va oila qadriyatlari tushunchalarining ahamiyati yuzasidan aniqlik kiritish hamda psixologik, pedagogik jihatdan targ'ib qilishda oila qadriyatlarining boshqa qadriyatlardan farqli jihatlarini aniqlash;

2. Pedagogik jihatdan oila qadriyatini shakllantirishda yaxshi natijalarga erishish bo'yicha boshlang'ich bilimlarning to'planishi;

3. Oilaviy qadriyatlarining prinsipli tarzda shakllanishining mohiyati, sababi, asoslari hamda anglab yetish davri;

4. Ota onaning oilaviy qadriyatlarni shakllantirishda o'rnini belgilash va bu borada pedagogik qonuniyatlarning ma'lum yondashuvlar va tamoyillarga hamohang tarzda yuzaga kelishida ichki gipotexlarning obyekt bilan o'zaro aloqadorligini inobatga olish;

5. Oilalarda qadriyatlarining bajarilish texnikasi, qadriyatlarni bajarish samaradorligining funksional vazifalari bilan yaqindan tanishish va boshqalar.

O'qituvchi va murabbiylarning pedagogik yondashuvlari natijasida talabalarda oilaviy qadriyatlarining ijobiy darajasini rivojlantirishda o'ziga xos pedagogik shartlarning ham ahamiyati katta. Bu borada amalga oshirilgan tadqiqot ishlari va ilmiy-nazariy axborotlar bilan yaqindan tanish bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Oila qadriyatlarining ijobiyligini oshirishda qator prinsiplarga tayangan holatda ish ko'rish bilan birga pedagogik shartlarning ham bajarilish texnikasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

a) talabalarining oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik shartlari yuzasidan mavjud axborotlarning o'qituvchi tomonidan mufassal o'rganishi lozim. Ushbu jarayonning tahlil qilish asosidan yuqori ko'rsatkichlarga erishish mumkin ekanligini inobatga olgan holatda, oila qadriyatlarini shakllantirishda mavjud tajribalarga suyanan holatda ish tutish ham yaxshi samara beradi. Ayni ushbu qadriyatlar orqali talabalarining so'zga chechanlik qobiliyati va qolaversa erkin fikrlash texnikasining ham jadal tarzda rivojlanishi talabalar o'rtasida iqtidorli talabalarining ajralib qolishiga olib keladi.

Milliy va oilaviy qadriyatlarining ahamiyatini teran anglagan, ularning amaliyoti bilan bevosita shug'ullanuvchi iqtidorli talabalargina Vatanimizning taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi. Bu borada oila va oilada qadriyatlarining o'rni katta bo'lsagina mustaqil fikrlaydigan, individual tarzda rivojlangan raqobatbardosh kadrlar yetishib chiqadi, deyish mumkin. "Bilimli, iqtidorli bola nafaqat o'zining, balki xalq, millatning ham kelajagini belgilaydi. Iqtidorli yoshlar O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining hamda uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi [2]

Bu o'qituvchining ilmiy izlanishi, shu bilan birgalikda sinov va tajribalardan o'tgan tadqiqotlarning dars jarayoniga ilova qilishi lozim bo'ladi. Asosiy ravishda, nazariy qarashlarning ilmiy adabiyotlar asosida tahiliy jarayonini amalga oshirish va qolaversa, umumiy tajribalarning yagona jamlanmaga birlashtirilishi ham o'ziga xoslikni yuzaga keltiradi. Shuni unutmaslik kerakki, oilaviy qadriyatlarining pedagogik metodologiyasini talabalarining ijobiy dunyoqarashini shakllantirishda shaxs va individuallik tushunchalarining munosib targ'ib etilishi lozim. Individual tarzda talabalarining mavjud sun'iy muhitda tushunchalar tamoyillariga asoslangan holatda bilim olishi oila va o'quv yurtining munosabatlar subyektida namoyon bo'lib, individuallik jihatidan ushbu muhitning ahamiyati katta.

Oilaviy qadriyatlarining ijobiy ekanligini ochib beruvchi tajribadan o'tgan tadqiqotlarning o'qituvchi tomonidan talabalarga namoyish etilishida pedagogik shart-sharoitlarga tayanish, munosabatlarda subyektiv jihatdan eng oliy qadriyatlarga ijtimoiy munosabatlarni aniqlash ham yaxshi samara beradi. "Qadriyatlar ham muhimdir, chunki ular himoya, yo'l-yo'riq, mehr va qo'llab-quvvatlash manbayi sifatida poydevor yaratadi.

Oilaviy qadriyatlarni singdirish bolalarni kelajakda zararli qarorlar qabul qilishdan himoya qilishi va yo'naltirishi mumkin, chunki ular to'g'ri va noto'g'ri tuyg'usini o'rgatadi. Ular munosabatlarga qo'shilishi va mulohazalar, xatti-harakatlar va ota-onalik uslublariga ta'sir qilishi mumkin. Biz qilayotgan ishlarning aksariyati va turli vaziyatlar va mavzularga qanday munosabatda bo'lishimiz bizning qadriyatlarimiz natijasidir".[3]

Oilada yuzaga keladigan ijtimoiy-madaniy sharoit talabalarning tushunchalar tahlilini yaxshi anglab yetishida real voqelikdagi manzara bo‘lib xizmat qiladi. Talabalar bilan ishlash jarayonida oilaviy qadriyatlarni shakllantirish modelining tub mohiyati bu boradagi pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq tarzda amalga oshiriladi. Bunda talabalarning eksperimentlar o‘tkazishi, tadqiqotning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ahamiyatini ham anglash yaxshi samara beradi. O‘qituvchining mana shunday faoliyatini ta‘minlab berishda kishilik jamiyatimizning har bir fuqarosi sidqidildan xizmat qilmog‘i kerak. Bir so‘z bilan aytganda, talabalarning yosh xususiyatlari, pedagogik imkoniyatlarini yaxshi anglagan holatda ularning o‘zaro statistik usullar, amalga oshirishda yaxshi samara bergan usullar bilan yana ishlash kabilar talabalarda oilaviy qadriyatlarga ibobiy munosabatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlaridan biri sifatida amalga oshirish ham maqsadga muvofiqlikni yuzaga keltiradi.

Haqiqatan ham, talabalarning oilaviy qadriyatlarga subyektiv munosabati ikki xil tarzda namoyon bo‘lishi mumkin. Ular quyidagicha:

1. Ochiqdan ochiq tarzda;
2. Yashirin tarzda.

O‘qituvchi oilaviy qadriyatlarning ijobiy tomonlarini tushuntirish davomida talabalarning xarakteri, yosh xususiyatiga, kayfiyatiga monand tarzda yondashadi. Bu esa yaxshi samaradorlikni ta‘minlab beruvchi metod vazifasini o‘taydi. Talabalar bilan ishlashishning shartlari ichida eng ahamiyatli jihatlardan biri shudir. Bunda talabalarning erkin fikrlashiga yo‘l ochish, normal va sog‘lom muhitning yaratilishiga yordam berish yaxshi samaradorlikni yuzaga keltiradi.

b) oilaviy qadriyatlarning ijobiy xususiyatlarni oshirish hamda talabalarga tushuntirish davomida eksperimental tadqiqot ishlari bilan ishlashi ham muhim hisoblanadi. Talabalarning yosh xususiyatiga ko‘ra ularga so‘rovnomalar berish orqali ularning oilaviy qadriyatlarga nisbatan xulosaviy fikrlarini bilish mumkinligi anglashiladi. Kishining hayoti va ish faoliyatida qadriyatning mutanosib tarzda uzviyligini ta‘minlash pedagogik modellashirish asosida yuzaga kelib, sotsiologik yoki psixologik so‘rovlar asosida talabalarning oilaviy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, siyosiy-axloqiy qadriyatlar haqidagi tushunchalari bilan o‘rtoqlashish lozim.

Qadriyatlar haqidagi ko‘zqarashlar hamda ular orasida oilaviy qadriyatlarning asosiy vazifada birlashishi talabalarda shaxsiy fikrning shakllanishida turtki bo‘ladi. Sotsiologik, psixologik so‘rovlarda oilaviy qadriyatlarni ijobiy tomonlari yoki salbiy tomonlari, ularning farqli jihatlari kabilar bosh bo‘g‘in vazifasini bajarib talabalarning oilaviy qadriyatlar yuzasidan bilimlariga, dunyoqarashlariga pedagogik diognostika qo‘yiladi. Demak, talabalarda oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishning pedagogik shartlaridan biri sotsiologik, psixologik so‘rovlar o‘tkazish hamda pedagogik diagnostika kabilarning ahamiyati katta ekanligi anglashiladi.

Oilaviy qadriyatlarning bosh negizi oila a‘zolariga hurmatda bo‘lish, ularni e‘zozlash kabi tuyg‘ular hamohangligida namoyon bo‘ladi. “Oila a‘zolaridagi sevgi - bu oilaning muhim qadriyatidir va agar siz ushbu tuyg‘uni saqlab qolishni istasangiz, oilangizga ularni sevrishingizni eslatib turing. Sevgi haqida gapirish faqat so‘zlar emas, balki, choy ichish va sovuq qish oqshomida suratga tushish, sham yorug‘ida kechki ovqat, oilada sayr qilish”.[4] Oilaviy qadriyatlar mana shunday oddiy kundalik yumushlar natijasida ham shakllanib boradi deyish mumkin.

Talabalarning oilaviy qadriyatlar haqidagi boshlang‘ich bilimlarini mustahkamlash, ularda hayotiy tajribalarning ilk bosqichlarini yaratish, o‘qituvchi tomonidan berilgan ko‘nikmalar, bilim salohiyati tufayli o‘quvchilarda xulosaviylikni yuzaga keltirish ham muhim jarayonlardan biri sanaladi.

Bunda o‘qituvchining pedagogik mahorati talabalarga faqatgina oilaviy qadriyatlarning ijobiy xususiyatlari yuzasidan bilim beribgina qolmay, ularning yakka, jamoaviy tarzda izlanishlari uchun ham sharoit yaratish kerak. Bu kabi holatlarda o‘quvchilarda individual tarzda xulosaviylik yuzaga kelib boshlang‘ich bilimlar, orttirilgan bilimlar jamlanib, oilaviy qadriyatlar haqida shaxsiy ko‘zqarashning shakllanishiga yordam beradi. Haqiqatan ham, talabalarning mustaqil tarzda orttirgan bilimi laboratoriya mashg‘ulotlarning ahamiyatli ekanligini yuzaga keltiradi. Ushbu pedagogik shartlarning yuzaga kelishida qidiruv, nazariya kabi bosqichlarning o‘ziga xos xususiyatlarni keng ahamiyat kasb etadi.

d) talabalarda oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlaridan yana biri pedagogik kuzatishdir. “Milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan saqlab kelayotgan milliy urf-odatlarimiz, an‘analarimiz (bola tarbiyasidan ota onadan tashqari, buvi-buva, qarindosh-urug‘, mahallaning ham ta‘siri) bu borada katta ahamiyatga ega. Lekin ba‘zan oilaning tarbiyaviy vazifasining susayishi va targ‘ibot-tashviqot ishlarining kamligi natijasida oila a‘zolari xulqida yomon odatlarning paydo bo‘lishi tashvishlanarli holatlardan biridir”.[5]

Talaba-yoshlarni hayotga tayyorlashda ularning odobi, yurish-turishi kabi komponent birliklarning barchasi oilaviy qadriyatlarda namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchining talabalari bilan amalga oshirgan amaliy mashg‘ulotlari va qolaversa, oilaviy qadriyatlarning ijobiy xususiyatlarini yanada oshirishda umumlashtirish, tahlil qilish, sharhlashdan oldingi vazifalardan biri bu pedagogik kuzatishdir. Talabalar o‘rtasida dastlab oilaviy qadriyat tushunchasiga talabalar tomonidan shaxsiy fikr va mulohazalar bildirish so‘ngra ular uchun o‘z tajribalarini orttirish yoki tajribalaridan foydalangan holatda o‘z oilaviy sharoiti, yaqinlari davrasida ko‘rgan, kechirgan oilaviy qadriyatlari haqida atrofdagi boshqa talabalarga ham axborotlar bera boshlaydi. Pedagogik kuzatish mana shunday jarayonlarda talabalarining amalga oshirayotgan ishlarini bevosita kuzatish, ularni baholash, fikrlash qobiliyati va shaxsiy dunyoqarashi bilan yaqindan tanishishga yordam berishi bilan xarakterlanadi.

Aynan, talabalarining muayyan mavzu yuzasidan bilim ko‘rsatkichlari yaxlit tarzda pedagogik metodlar asosida hamda birgina kuzatish asosida ham aniqlanishi mumkin. O‘qituvchi talabalarining individual fikrlash qobiliyatini oshirish uchun talabalarga oilaviy qadriyatlar mavzusida yoki ushbu mavzuga mutanosib keluvchi voqea-hodisalar bilan, muammoli vaziyatlar bilan bog‘liq savollar berishi mumkin.

Ushbu holatga talabalarining obyekt-subyekt tarzda yondashib mavjud bilimlariga tayangan holatda fikr yuritishi yoki o‘qituvchining yo‘naltirishi natijasida yangi bosqichlarni egallashi o‘qituvchi tomonidan kuzatib boriladi.

Misol uchun: mavzu tariqasida kundalik masalalar, maishiy turmush yoki voqea-hodisalarning oilaviy jarayonda qay tartibda namoyon bo‘lishi kabi holatlarni o‘rtaga tashlash oqibatida ularning gipotezaga mos fikrlash qobiliyatini yuzaga keltiradi. Talabalarining oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijodiy dunyoqarashini shakllantirish jarayonida o‘qituvchi materiallarni qo‘llash metodologiyasidan hamda turli xil usullardan kompleks tarzda foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Ushbu jarayonda quyidagilar ahamiyatli hisoblanadi:

- qo‘llaniladigan usullarning ishonchliligi;
- usullardan kompleks foydalanish;
- qadriyatlar tushunchasining boshlang‘ich funksiyasi;
- amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazish;
- pedagogik kategoriyalarda namoyon bo‘lishi;
- pedagogik diagnostikaning shakllanishi;
- axborot va manbalar tahlili;
- pedagogik kuzatuv texnikasi;
- psixologik so‘rovnomalar;
- oilaviy qadriyatni shakllantirish;
- qidiruv va nazariya texnologiyasi;
- pedagogik suhbat texnologiyasi;
- yakdillik va umumiylik xossalari va boshqalar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabalar bilan ishlash davomida ularga oila haqida ma’lumot berish, oila a’zolarining kundalik hayotdagi o‘rni va rolini yaxshi anglab yetish, oilaga va oila a’zolariga subyektiv jihatdan yondashishda qadriyatlarning ahamiyatini unutmaslik lozim. Oiladagi qadriyatlarning rivojlanishida hamda farzandlarga namuna bo‘lishda, ota- onaning o‘rni katta bo‘lib, oilada pedagogik savodxonlik, qadriyatlarga hurmat kabi tuyg‘ularning shakllanishiga keng urg‘u berish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda pedagogik shartlar asosida talabalarining ijobiy dunyoqarashiga sabab bo‘luvchi holat va vaziyatlarning mufassal o‘rganilishi natijasida oilaviy qadriyatlarga nisbatan ko‘zqarash o‘zgarib bormoqda.

Oilaning ijtimoiy ahvoli, milliy turmush shakli natijasida shakllangan oilaviy qadriyatlar kelajakda ana shu tajribaning yaqqol guvohi bo‘lgan farzandlar uchun foyda keltiradi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashryoti, 2022
2. Abdullayeva M.M Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida iqtidorli bolalarni erta aniqlash va rivojlantirishning samarali metodlari.// Zamonaviy ta’lim. 2015
3. Xayrullayeva Marjona Xayrulla qizi. “Oilada milliy qadriyatlarni shakllantirish”. “Science and education” Scientific Journal. 2022
4. Islomov Sherzodbek Dilshodovich “Oila va qadriyat”. Academic Research in Educational Sciences. 2022
5. Shoumarov G. B., Haydarov I.O, Sog‘inov N.A, Akromova F.A, Solihova G., Niyozmetova G. “Oila psixologiyasi”. Akademiya litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent - 2008

ISLOM TA'LIMOTIDA BARKAMOL INSON SHAXSINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

Nabiyev Muhrodbek Bobirovich,

*Turon Zarmed universiteti Boshlang'ich ta'lim,
Pedagogika va psixologiya
kafedrasi o'qituvchisi*

Mazkur maqolada islom ta'limotining inson kamolotiga nechog'liq kerakligi, uning asrlar davomida shakllanib kelgan ba'zi bir metodlari sharhlab o'tilgan. Islom dinining muqaddas sanalmish Qur'on va hadislardan misollar keltirilib, hozirgi zamonaviy psixologiya hamda klassik psixologiyaning ayrim nazariyalarining shaxs haqidagi g'oyalari va ularning ijobiy hamda salbiy kamchiliklari bilan o'zaro taqqoslangan. Xususan shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarida islom ta'limotining qanday ta'siri borligi, jamiyatdagi ba'zi bir muammolarning yechimlari ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birgalikda bugungi kunda shaxs kamolotiga putur yetkazuvchi ba'zi bir islomiy mulohazalar alohida yoritib ko'rsatilgan.

Kalit o'zlar: shaxs, islom, halol luqma, sotsiogenetik yondashuv, ehtiyojlar iyerarxiyasi, barkamol shaxs, komillik, inson huquqlari, muloqot, ehtiyoj, demokratik jamiyat.

РОЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК СОВЕРШЕННОЙ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В ИСЛАМСКОМ УЧЕНИИ

В данной статье рассматривается значение исламского учения для совершенствования человека и некоторые его методы, формировавшиеся на протяжении веков. Также приводятся примеры из Священного Корана и хадисов ислама, а также сравниваются представления современной психологии и некоторых теорий классической психологии о личности и их положительных и отрицательных недостатках. В частности, показано влияние исламского учения на социально-психологические характеристики человека и решения некоторых проблем в обществе. При этом выделяются некоторые исламские соображения, которые сегодня вредят совершенству человека.

Ключевые слова: человек, ислам, халяльная пища, социогенетический подход, иерархия потребностей, целостная личность, совершенство, права человека, общение, потребность, демократическое общество.

THE ROLE IN THE FORMATION OF THE SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF A PERFECT HUMAN PERSON IN ISLAMIC TEACHING

This article discusses the importance of Islamic teachings for the improvement of man and some of its methods that have been formed over the centuries. Examples are also given from the Holy Quran and the hadiths of Islam, and the ideas of modern psychology and some theories of classical psychology about personality and their positive and negative shortcomings are compared. In particular, the influence of Islamic teachings on the socio-psychological characteristics of a person and the solution of some problems in society is shown. At the same time, some Islamic considerations are highlighted that today harm the perfection of man.

Keywords: man, islam, halal food, sociogenetic approach, hierarchy of needs, integral personality, perfection, human rights, communication, need, democratic society.

Kirish. Bugungi mustaqil O'zbekiston sharoitida shaxsning qadr-qiymati, obro'yi va uning sha'nini ulug'lash davlat siyosatining bosh ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu so'zlarning amaliy isboti sifatida 2022-yil "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirilgan ishlar hamda yilning davomi o'laroq joriy 2023 – yilni esa "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilish ham bunga misol bo'la oladi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 26-yanvar kuni O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini belgilash hamda uni joriy yilda amalga oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishida ... Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz. Inson

qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz. Bu maqsadga erishish uchun esa dunyodagi noyob demokratik tuzilma bo'lgan mahalla instituti imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning vakolatlarini yanada kengaytirish, pirovard natijada mahallani jamiyatimizning hal qiluvchi bo'g'iniga aylantirish vazifasini o'z oldimizga qo'ymoqdamiz. Mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi. Mahalla obod bo'lsa, butun mamlakat obod bo'ladi, – dedi Prezident. Bu so'zlarning isboti o'laroq asosiy pirovard maqsadimiz, “Xalq davlat manfaatlarini uchun emas, davlat xalq manfaatlarini uchun” degan bosh g'oya yotadi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 - yil 19- sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72 – sessiyasida .Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorda qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat etadi. Markaziy Osiyo Uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyandalarning islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman. Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra islom dinida Qur'oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan "Sahihi Buxoriy"ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan. Bu ulug' zotning g'oyat boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, ma'rifatiy islom to'g'risidagi ta'limotini keng yoyish maqsadida biz Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildik. Toshkentda tashkil etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati ham shu maqsadga xizmat qiladi. Bugungi sessiya ishtirokchilariga BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolutsiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilmoqchiman. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat. Ushbu rezolutsiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan. Xonimlar va janoblar! O'zbekiston hech qanday blokka qo'shilmaslik maqomini saqlab qolgan holda, ochiq muloqotga tayyordir. Biz barcha sheriklarimiz bilan tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdormiz. Biz mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi inson, uning ehtiyoj va manfaatlarini ta'minlashdan iborat bo'lgan eng muhim ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning hal qiluvchi sharti aynan shunda mujassam, deb bilamiz.

Asosiy qism. Insonning tashqi dunyoviy faoliyatidagi xatti-harakatlar, o'z navbatida ichki yuksak axloqiy-ma'naviy dunyo talablari bilan uyg'un bo'lishi joiz. Odam hayotining ontogenezi mobaynida mazkur uyg'unlikka erishishi muayyan qiyinchiliklar bilan kechadi. Chunki, xato qilish inson shaxsini hamisha ta'qib etadi, inson shaxsi shu orqali faoliyat va xususiyatlarni dinamik ravishda egallab boradi va bundan esa inson chuqur ruhiy bezovtaliklar, dard, qiyinchiliklarga yo'liqishidan oldin, es-hushini g'aflat mag'lub etmasligi uchun har bir narsa, voqea va faoliyatning qadr-qiymatini to'g'ri baholay oladigan mezonni shakllantirishni talab etadi. Mana shu mezon asrlar davomida shakllangan islom dinida bevosita yoritilgan bo'lib, har bir inson o'zining mukammalligi, barkamolligi yo'lida to'g'ri sof e'tiqodiy qarashlar bilan tarbiyalansa, aniq maqsadlariga erishadi.

Islom dini tichlik, poklik, birdamlik, tarbiya dini bo'lishi bilan bir qatorda, insonni kamolotga yetaklaydigan, uni ma'nan, ruhan, ijtimoiy, jismonan tarbiya etadigan hamda kamolga yetkazadigan va shu bilan birga bu g'oyalarini butun dunyoga tarannum etadigan dindir. Azaldan ikki daryo oralig'ida joylashgan Movarounnahr o'lkasi aynan islom tufayli sharaf topdi. Bu yurt ne ne buyuklarni tarbiya etdi. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Imom Nasoiy, Al- Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Ibn sino, Beruniy, Mahmud Zamaxshariy, Al- Farg'oniy, Abduholiq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahror Valiy, Alisher Navoiy va yana bir qator aniq fanlar, ijtimoiy, diniy-falsafiy sohalarga sezilarli hissa qo'shgan bobokalonlarmiz o'tgan. Bularni barchalarining hayotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, aynan sof islomiy aqida bilan tarbiyanlanganini ko'ramiz. Barkamol shaxs bo'lib yetganini ko'ramiz. Doimo to'g'ri so'z, ishida halol yondashadigan va yurt ravnaqiga hissa qo'shadigan shaxs sifatida kamol topgan insonlar hisoblanishadi. Sof islomiy aqidalarga tayanib ish ko'radigan haqiqiy musulmon shaxsi hech qanday salbiy tushuncha va muammolarga duch kelmaydi.

Muqaddas dinimizda 5 ta asosiy bosh maqsad ko'zda tutilgan bo'lib: Inson

- Hayoti
- Aqli
- Dini
- Nasli

- Mol-mulkini muhofaza etish hisoblanadi.

Bundan tushunish mumkinki, islom insonlarni har tomonlama yuksalishga, odob-axloqqa, barkamol shaxs bo'lib yetilishiga zamin yaratib beradigan din hisoblanadi. Nima uchun aynan inson huquqlari deyilyapti. Chunki aynan haq-huquqi poymol bo'lgan jamiyatda shaxsning komillikka, barkamollikka yetishishi amri mahol hisoblanadi. Bu g'oyalar jahon psixologlarining ham diqqat markazida hisoblanib, xususan eng kichik nazariyalardan biri sifatida “Ehtiyojlar iyerarxiyasi” muallifi Abraham Maslou ta'kidlaydiki, “Men mutlaqo aminmanki, odam faqat non bo'lmagan sharoitda non bilan yashaydi”, deb tushuntirib, shu bilan birgalikda Maslou. “Ammo non ko'p bo'lsa va oshqozon doimo to'q bo'lsa, insonning intilishlari nima bo'ladi?” Yuqori ehtiyojlar paydo bo'la boshlaydi va bizning tanamizni fiziologik ochlik emas, balki yuqori darajadagi ehtiyojni qondirish hissi boshqaradi. Bir ehtiyoj qondirilsa, boshqalari paydo bo'ladi, undanda yuqori va yuqori. Shunday qilib, asta-sekin, bosqichma-bosqich, inson o'z-o'zini rivojlantirish zarurati paydo bo'ladi - ehtiyojlarning eng yuqorisi” deb barkamollikka yetishishning o'ziga xos yo'li sifatida ehtiyojlar misolida tushuntirib ketgan. Inson o'zining eng kichik sanalgan fiziologik ehtiyojlaridan tortib toinki: ochlik, tashnalik va boshqalar; Xavfsizlik / himoya ehtiyojlari: qulaylik, yashash sharoitlarining doimiyligi va yaxshiligi; Ijtimoiy ehtiyojlar: boshqalar tomonidan qabul qilinish, ijtimoiy aloqalar, muloqot, mehr, boshqasiga g'amxo'rlik va o'ziga e'tibor kabi xususiyatlarning birgalikdagi faoliyati; O'z-o'zini hurmat qilish/Ego: boshqalardan hurmat, tan olish, muvaffaqiyat va yuqori baholarga erishish, ko'tarilish kabi ehtiyojlar; Ma'naviy: bilim, o'zini namoyon qilish, o'zligini kashf etish, o'zini o'zi aniqlash, o'zini namoyon etishgacha bo'lgan ehtiyojlarni sanab o'tgan bo'lib, bular eng sodda ko'rinishi sifatida tahlil etsak, islom ta'limotida har bir qarash alohida e'tirof etilgan. Islom insonning tug'ilishdan tortib, to barkamollikka yetishgacha bo'lgan yo'lni ta'riflab, bir necha oson va foydali yo'llarni ko'rsatadi. Islomda yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuning uchun ham yoshlar tarbiyasini qachondan boshlash kerak degan savolga oila qurishdan oldin, ya'ni onasini (yoki otasini) tanlashdan avval deb javob beriladi. Ulamolarimiz ta'kidlab aytishadiki, farzand hali dunyoga kelmay turib, uning kimlar orqali dunyoga kelishi mumkinligiga e'tibor berishni aytishadi. Bo'lg'usi ona yoki ota tug'ilajak farzand tarbiyasining zohiriy asoschilaridir. Chunki farzand tug'ilganida uning tabiati sof holda tug'iladi va qaysi muhitda tarbiya ko'rib, o'sib ulg'aysa, o'sha muhitdan ta'sirlanadi. Uning sog'lom, yetuk, barkamol shaxs bo'lib yetishishi uchun qo'lidan kelgancha barcha imkoniyatlarni ishga soladi. Undan so'ng bir yaxshi ustozga berib, ilm olishi uchun imkoniyat va sharoit yaratib beradilar. Alloh amr etgan farzlarni uni yosh imkoniyatidan kelib chiqib tarbiya etadi. Komil shaxs bo'lib shakllanishiga yordam beradilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Har bir tug'ilgan go'dak Islom fitratida (ya'ni sof tabiatda) tug'iladi. Ota-onasi uni yo yahudiy yoki nasroniy yoki majusiy qiladi”, – deb marhamat qilganlar. Agar ota-ona diyonatli bo'lsa, farzandini ham diyonatlik qilib tarbiyalaydi. Ko'p jihatdan farzandning tarbiyasida onalarning ta'siri katta bo'ladi. Bo'lajak ona ham o'z farzandining bo'lajak otasini tanlashi lozim. Bunda ham bo'lg'usi otaning dinu diyonati, axloq va odobiga qaraladi. Ibn Moja Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilib, quyidagi hadisni keltiradilar: “Ayollarga ularning chiroyi uchungina uylanmang, ularning chiroyi halokatga ketkazishi mumkin, molu davlatlari uchun ham uylanmang, balki shu molu davlatlari tug'yonga solishi mumkin, lekin dindorlariga uylaninglar, albatta, qora cho'ri bo'lsa ham dindorlari afzal”.

Kishi o'z farzandlarini ularning go'daklik chog'laridan boshlab tarbiyalashi, odob berishi lozim. Ma'lum yoshga yetgach, ba'zi narsalarni bolaga qabul qildirish qiyin bo'ladi. Chunki ma'lum bir faoliyatdan keyingi faoliyatga o'tadi. Masalan o'yin faoliyatidan, o'qish faoliyatiga so'ng mehnat faoliyatiga. Hatto ota-ona bolasining o'yin faoliyatiga, kimlar bilan, nima bilan o'ynayotganini bilishi lozim. Arzimas deyilgan bir nojo'ya xatti-harakat bolaning kamol topishiga salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Psixologiyada shaxsning shakllanishiga oid bir necha nazariyalar bo'lib, ularning ba'zilari haqida fikr yuritsak, sotsiogenetik nazariyaga binoan, shaxs bo'lib shakllanishining asosiy qoidalaridan biri shaxslararo jamiyatda birga bo'lish hamda ular bilan muloqotda bo'lishdir. Aynan shaxs bo'lib shakllanishning bosh qoidalaridan biri shaxslararo muloqotda bo'lish hisoblanadi. Imom Termiziydan rivoyat qilingan hadisda “Nabiy sollallohu alayhi vasallam dedilar: Insonlar bilan aralashib yurib, ularning ozorlariga sabr qiladigan musulmon insonlarga aralashmaydigan va ularning ozorlariga sabr qilmaydigan musulmondan yaxshiroqdir”. Islom dinida odamlarning ozoriga ko'nib yashash mo'minlikning bir belgisidir deyilgan. Ya'ni ozorlagan insoningdan qoch yoki uni kechirma deyilmagan, aksincha ularni boricha qabul qil deyilgan. Sotsiogenetik yondashishga binoan, shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko'ra, inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi. Shaxs — alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot

ob’yekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. U o’ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, o’zini o’zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aql idrok, tafakkur ob’yekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig’i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin. Bu so’zlardan shuni tushunish mumkinki, shaxs bo’lib shakllanishda yoki mukammallikka erishish uchun shaxslararo munosabat bo’lishi lozim.

Psixologiyada ba’zi bir nazariyalar o’zining qadr-qiymatini yo’qotib, zamon talablariga javob bermasligini ko’rsatadi. Misol uchun biogenetik qonuniyat organning taraqqiyoti nazariyasini tashviqot qilganda hamda antidarvinchilarga qarshi kurashda muayyan darajada tarixiy rol o’ynagan. Biroq individual va tarixiy taraqqiyoti munosabatlarini tushuntirishda qo’pol xatolarga yo’l qo’ygan. Jumladan, biogenetik qonunga ko’ra, shaxs psixologiyasining individual taraqqiyoti (ontogenez) butun insoniyat tarixiy taraqqiyotining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi, degan g’oya yotadi. Nemis psixologi V.Shternning fikricha, chaqaloq (yangi tug’ilgan bola) hali u odam emas, balki faqat sut emizuvchi hayvondir, u olti oylikdan oshgach, psixik taraqqiyoti jihatidan faqat maymunlar darajasiga tenglashadi, ikki yoshida esa oddiy odam holiga keladi, besh yoshlarda ibtidoiy poda holatidagi odamlar darajasiga yetadi, maktab davridan boshlab ibtidoiy davrni boshidan kechiradi, kichik maktab yoshida o’rta asr kishilar ongiga va nihoyat yetukli davrdagina (16—18 yoshlarda) u hozirgi zamon kishilarining madaniy darajasiga erishadi. Bu nazariya hozirda deyarli ishlatilmaydi. Sababi bugunki kun bu nazariyaning noto’g’ri ekanligini isbotlab berdi. G’arb psixologiyasining ideologiyasi insonni qaysidir jonzotga o’xshatib yoki qaysidir jonzotlar ustida qilingan tajribalarga asoslanib, xulosa chiqarishi, inson zotini hayvonga tenglashtirishiga olib keladi. Bu esa islom ideologiyasiga mutlaqo zid. Islom ta’limotining muqaddas sanalmish Qur’oni Karimning Isro surasi 70 -oyatida Darhaqiqat, (Biz) Odam farzandlarini (aziz va) mukarram qildik va ularni quruqlik va dengizga (ot-ulov va kemalarga) mindirib qo’ydik hamda ularga pok narsalardan rizq berdik va ularni O’zimiz yaratgan ko’p jonzotlardan afzal qilib qo’ydik.” hamda Tiyn surasi 4- oyatda Batahqiq, Biz odamni eng yaxshi suvratda yaratdik. O’n to’rt asrdan biyon insoniyat uchun, insoniylik, bag’rikenglik, tolerantlik sifatida ko’rilayotgan, hamda e’tirof etilayotgan islom dining mavqeyi beqiyos.

Barkamollikka ta’sir etadigan yana bir qoida bu luqмага (taom) e’tibor berish hisoblanadi. Islom halol sanagan taomlarni yeyishni, aksinchasini esa yeyishni man qilgan hisoblanib, hech bir ish bir hikmatsiz emasligini asoslab beradi. Halol taomlar bilan bir qatorda, qanday yo’llar bilan topilganiga ham alohida e’tibor beradi. Deylik non halol ammo u og’irlab olib kelingan bo’lsa undan istemol qilish joiz sanalmaydi. Islomda halol luqma va halol taomlarga juda katta e’tibor beradigan dindir. Bu xususta muqaddas sanalmish Qur’oni Karim va Hadisi shariflarda juda ko’p oyat va hadislar kelgan bo’lib, inson o’zining hayotini soflik, poklik, ozodalik, halollik ustiga qurishi kerakligini bot-bot tushuntiradi. Agarda bu ishlarga loqaydlarcha e’tibor berilsa, oxiri yaxshilik bilan tugamasligini, gunohkor bo’lishini ta’kidlaydi. Islomning asosiy ruknlaridan biri sanalmish namoz(ibodat)ning ham qabul bo’lishi uchun uning tomog’idan halol luqma o’tishi lozimligi Hadisi shariflarda quyidagicha bayon qilingan. Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilini: “Rasululloh sollallahu alayhi vasallamning huzurlarida “ Ey odamlar. Yer yuzidagi narsalardan halol-poklarini yenglar” oyatini tilovat qilindi. Shunda Sa’d ibn Abu Vaqqos turib:

“Ey Allohning Rasuli, duo qiling, Alloh meni duosi qabul bo’ladiganlardan qilsin”, dedi. Shunda Nabiy sollallahu alayhi vasallam:

“Ey Sa’d, taomingni halol qil, duosi qabul bo’ladigan bo’lasan. Muhammadning joni qo’lida bo’lgan Zot bilan qasamki, bir banda harom luqmani qorniga tashlasa, uning amali qirq kungacha qabul qilinmaydi. Qaysi bandaning go’shti haromdan va ribodan o’ssa, unga do’zax munosibdir”, dedilar. Ehtimol bir luqma arziyasdek tuyular, ammo uning asorati qirq kungacha inson tanasidan ketmas ekan. Bu yerda har kim o’zining halol mehnati ortidan kun ko’rishga, birovlarining qo’liga qarab qolmaslikka, birovdan biror narsa tama qilmaslikka targ’ib qilingan. Bundan ko’rinib turibdiki, muqaddas islom dinimizning inson ongi, shuuriga nechog’lik ijobiy ta’sir etishi, uning komil shaxs bo’lib yetilishiga xizmat qilishiga amin bo’lamiz.

Xulosa. Islom ideologiyasi bugungi kunga qadar inson shaxsi kamoloti uchun eng ko’p ishlar qilgan din hisoblanadi. Inson shaxsini naqadar azizligini, uning bu dunyodagi har bir nafasi bejizga olinmasligini, har bir ishning bir hikmati borligi, barcha ishlarni odamiylik nuqtayi nazaridan kelib chiqib, yondashishini ko’rishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Иймон. – Т.: << Hilol-Nashr>> 2020. – 368 б
2. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Ҳалол очик-ойдиндир, ҳаром очик-ойдиндир . – Т.: << Hilol-Nashr>> 2022. – 168 б

3. Қосимов Убайдулло Ахрорович. Тасаввуф психологияси шахс тараққиётида муҳим омил. – Т.: “IJOD-PRESS” 2019. – 192 б.
4. Эргаш Ғозиев. Умумий психология. – Т.: <<Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти>> 2010. – 544 б.
5. Эргаш Ғозиев. Онтогенез психология. – Т.: <<Noshir>> 2010. – 360 б.
6. Bobirovich, N. M. . (2022). Ilk o'spirinlik davrida shaxs shakllanishining psixofiziologik asoslari va shaxslararo munosabatlar. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 2(12), 68–71. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5047>
7. Muhrodbek Bobirovich Nabiyev (2021). Ilk o'spirinlik davrida shaxslararo munosabatlar shakllanishining psixologik asoslari. Scientific progress, 2 (6), 1146-1149.
8. Inoyatovna, M. D. . (2022). The main pedagogical principles of education and development of gifted students. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 2(12), 64–67. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5046>
9. Холикова, М. К. К. (2021). Важные аспекты эстетического воспитания школьников в духе национальных ценностей. European research, (1 (38)), 73-75.
10. Holikova, M. K. Important aspects of aesthetic education of schoolchildren in the spirit of national values.
11. Sodiqova A.H., "Didactic opportunities for development of special competencies in students of technological education" // Finland, Helsinki international scientific online conference "Sustainability of education socio-economic science theory" October 7 th 2022. Finland, Helsinki -P. 175-180.
12. Akramov, A. (2021). Psychological mechanisms and determinants of maintaining human health. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 8(8).
13. Akramov, A. (2021). Физическая культура в системе социальной психологической защите с населением. центр научных публикаций (buxdu. uz), 8(8).
14. Akramov, A. (2021). Sharq allomalarining milliy sport o'yinlari to'g'risidagi ilmiy fikr va qarashlari. Pedagogik mahorat, 250.
15. Shavkatovich, A. A. (2020, December). Moral education in the mind of the young generation psychological mechanisms of formation. In Конференции.
16. Madina, X. (2023). Ranglarning inson ruhiyatiga ta'siri va estetik tarbiyani rivojlantirishdagi roli. ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 3(1), 296-299.
17. Холикова, М. Важные аспекты эстетического воспитания школьников в духе национальных ценностей. european research Учредители: Олимп, (1), 73-75.

TALABALARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Safoyev Husen Aminovich,

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Ushbu maqolada talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jonajon vatanimizni ko‘z qarochig‘idek himoya qilish, uni asrash-avaylash to‘g‘risidagi zamonaviy tushunchalarni, dunyoqarashni, mazkur masala bo‘yicha shaxsiy e‘tiqodlarini shakllantirish va mustahkamlab borish, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning ma‘naviy-ruhiy tayyorligini oshirish borasidagi ta‘lim-tarbiya jarayonini yanada kuchaytirish bo‘yicha amalga oshirilishi kerak bo‘lgan dolzarb vazifalarni yechish masalalariga qaratilgan bo‘lib, talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirishning metodologik asoslariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimining asosiy yo‘nalishlari va uni amalga oshirish, shuningdek, harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishlarni yanada kuchaytirish yuzasidan hozirgi dolzarb vazifalar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mazmun-mohiyati belgilab o‘tilgan.

Shuningdek, maqolada talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta‘lim muassasalari, oila, ishjtimoiy muhitning ta‘siri hamda foydali jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik tuyg‘usi, harbiy ta‘lim, ijtimoiy-siyosiy, Vatan ravnaqi, vatan, harbiy vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik, urf-odat, bilim, ko‘nikma, malaka, mahorat, iroda, milliy g‘urur, axloq va odoblilik, saxovat, jasorat.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ

В данной статье рассматриваются актуальные задачи, которые должны быть реализованы по дальнейшему укреплению образовательно-воспитательного процесса по подготовке молодёжи к военной службе, повышению её морально-психологической готовности, формированию и укреплению современных представлений о защите, сохранении Родины как зеницы ока, формированию и укреплению мировоззрения, личных убеждений по данному вопросу. Особое внимание уделяется методическим основам совершенствования процессов воспитания учащихся в духе военного патриотизма.

Основные направления системы военно-патриотического воспитания студентов и текущие актуальные задачи по её реализации, а также дальнейшему усилению работы по организации и проведению мероприятий военно-патриотической направленности определяют содержание военно-патриотического воспитания.

В статье также анализируется влияние и полезность образовательных учреждений, семьи, социальной среды в воспитании студентов в духе военного патриотизма.

Ключевые слова: чувство патриотизма, военное воспитание, общественно-политическое, развитие родины, Отечество, военный патриотизм, верность, самоотверженность, традиции, знания, умения, навыки, мастерство, воля, национальная гордость, нравственность и порядочность, щедрость, мужество.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION OF STUDENTS

This article discusses the urgent tasks that should be implemented to further strengthen the educational process of preparing young people for military service, increase their moral and psychological readiness, form and strengthen modern ideas about the protection, preservation of the Motherland, the formation and strengthening of worldview, personal beliefs on this issue. They are focused on the issues being solved, special attention is paid to the methodological foundations of improving the processes of educating students in the spirit of military patriotism.

The main directions of the system of military-patriotic education of students and the current urgent tasks for its implementation, as well as the further strengthening of the work on the organization and conduct of military-patriotic activities, the content of military-patriotic education is determined.

The article also analyzes the influence and usefulness of educational institutions, families, and the social environment in educating students in the spirit of military patriotism.

Key words: *sense of patriotism, military education, socio-political, development of the motherland, Fatherland, military patriotism, loyalty, dedication, traditions, knowledge, skills, will, national pride, morality and decency, generosity, courage.*

Kirish. Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish yo'nalishlari orasida vatanparvarlik tarbiyasi hamda uning tarkibiy qismi bo'lgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi alohida o'rin egallaydi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi insonni tarbiyalash yo'nalishlaridan biri bo'lib, tegishli keng qamrovli ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni hamda o'quv-tarbiya jarayonini o'z ichiga oladi. Bu masalalar ilmiy jihatdan pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, tibbiyot, ma'naviyat asoslari, tarix, falsafa, tegishli harbiy mutaxassislik fanlari, Qurolli Kuchlarning asosiy me'yoriy hujjatlari va ular faoliyatining hamda Vatanimiz mudofaasining asosiy tamoyillari, matematik statistika, mantiq va boshqa bir qator fanlar tomonidan o'rganiladi. Ushbu fanlarning har biri harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'liq masalalarni o'z tadqiqot yo'nalishlari va usullari bo'yicha o'rganib, tegishli xulosalarni chiqaradi va tavsiyalarini beradi. Ular harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining metodologik asoslarini tashkil qiladi.

Bunday metodologik asos harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ilmiy tamoyillarini, rivojlanish yo'nalishlarini, samarali shakl va usullarini hamda istiqboldagi vazifalarini zamonaviy ilmiy xulosalarga muvofiq belgilashga xizmat qiladi. Bunda harbiy- vatanparvarlik tarbiyasi va harbiy mutaxassislar tayyorlash masalalari bo'yicha umumiy va harbiy pedagogika va psixologiya, sotsiologiya, tibbiyot, ma'naviyat asoslari, tarix falsafa, matematik statistika, mantiq, tegishli harbiy mutaxassislik fanlari hamda boshqa fanlarning ilmiy xulosalariga va me'yoriy-huquqiy talablarga asoslaniladi.

Asosiy qism. O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha tizimini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Ommaviy axborot vositalari, internet tizimidagi ma'lumot oqimlari hamda jarayonlarning sabablari noaniqligi yosh avlodning fikran sobit, axloqan yetuk, jismonan baquvvat bo'lishini talab qilmoqda. Globalizm, “dunyo odami” tushunchalari butun bir avlodlarni o'z tarixidan, axloqiy va ma'naviy burchlardan mosuvo qilishga, kelajak haqida qayg'urmaslikka-umuman insonning shaxs sifatidagi maqomini yo'q qilishga qaratilgan g'oyalarni ma'lum ma'noda mujassamlashtiradi.

Vatanparvarlik insonning fuqaro hamda muayyan jamiyat a'zosi sifatidagi eng buyuk burchi bo'lib, oilaga sadoqat, kelajakka ishonch, tarixga hurmat, bugungi kuniga e'tibor, atrofdagi insonlar manfaatlarini hisobga olish, haqni nohaqdan ajrata olish kabi xislatlarni jamlaydi. Istalgan qo'shin, jamiyatda vatanparvarlik tuyg'usi kamolga yetmas ekan, uning ixtiyoriga eng zamonaviy qurol berilganda ham foydasi bo'lmaydi. Shuning uchun ham Vatan himoyasida, avvalo, inson omili yetakchi o'rinda turadi.

Yoshlarning harbiy hayot, jismoniy tarbiya bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etishida qog'ozbozlik, yuzakilik va sustkashlikka yo'l qo'yish katta xato ekanligi ta'kidlandi. Shuning uchun talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha pedagogik texnologiyalar hamda hozirgi zamon talablariga mos dasturlar ishlab chiqish bugungi kunning kechiktirib bo'lmas muhim vazifalardan biriga aylandi.

Ta'lim to'g'risidagi qonunda belgilangan vazifalarning to'laqonli amalga oshirishga erishish ham yoshlarda vatanparvarlik sifatlarini va fidoyilik xususiyatini shakllantirishda muhim omil bo'ladi. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda yoshlarda harbiy-vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish va ijtimoiy maydonga vatanparvarlikni targ'ib qilishning samarali mexanizmlari ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi, bu borada texnik va texnologik vositalarning imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish tizimi yo'lga qo'yildi. Misol uchun, yoshlarda fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyatini shakllantirish maqsadida turli harbiy-sport musobaqalari, ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda. «Mustaqillik», «Amir Temur», «Jaloliddin Manguberdi» ordenlari, «Jasorat», «Sodiq xizmatlari uchun», «Mardlik» medallari ta'sis etildi. Ayniqsa, yoshlarda harbiy vatanparvarlik hissini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Harbiy akademik litseylarga «Temurbeklar maktabi» nomi berilishi fikrimizning yorqin dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni bilan “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dasturning yettinchi yo'nalishi «Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish» qilib belgilanganligi harbiy vatanparvarlikni chinakam e'tiqodga aylantirish bo'yicha amalga oshirilishi kerak bo'lgan asosiy vazifalar belgilab o'tilgan.

Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo’lib ulg’ayishi yo’lida zamonaviy, ilg’or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo’llab-quvvatlash, ma’naviy yetuk, jismonan sog’lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga bo’lgan e’tibor qancha kuchli bo’lsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo’ladi. Shu bois jamiyatimizning faol qatlami sifatida e’tirof etiluvchi yoshlarga “muammo” deb emas, balki yurt ravnaqini ta’minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaralmoqda. Natijada bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat’iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda.

Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimining asosiy yo’nalishlari va uni amalga oshirish, shuningdek, harbiy-vatanparvarlik yo’nalishidagi tadbirlarni tashkil etish va o’tkazish bo’yicha ishlarni yanada kuchaytirish yuzasidan hozirgi dolzarb vazifalar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mazmun-mohiyatini belgilaydi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning tarkibiy qismi bo’lgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mazmun-mohiyati - yoshlarda Vatanni himoya qilish, uni asrash to’g’risidagi zamonaviy tushunchalarni, dunyoqarashni, mazkur masala bo’yicha shaxsiy e’tiqodlarini shakllantirish va mustahkamlab borish, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning ma’naviy-ruhiy tayyorligini oshirishga yordam beruvchi ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarni o’z ichiga oladi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosi, avvalo, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdir, bu jarayonda milliy qadriyatlar hamda milliy mafkura asosiy poydevor bo’lib xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va jarayoni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarga bog’liq bir qator omillarga tegishli ma’lumotlar bilan boyitilishi lozim bo’lib, ular quyidagilardir:

- mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonidagi inson, ya’ni shaxs rolining o’sishi;
- uning mamlakat mudofaasidagi ahamiyati;
- harbiy xizmatni tashkil etishdagi tub o’zgarishlar;
- zamonaviy qurolli kurashlar shakl va usullarining takomillashuvi va boshqalar.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy yo’nalishlari sifatida quyidagilarni alohida ko’rsatib o’tish lozim:

- Vatanga, mukaddas zaminga e’tiqod;
- Prezidentga, hukumatga, harbiy kasamyod va jangovar bayroqqa, harbiy birodarlikka sadoqat;
- Ota-onaga, xalqqa muhabbat;
- ajdodlarga, ular qoldirgan madaniy, ma’naviy-ma’rifiy merosga, milliy qadriyatlar va an’analarga hurmat;
- harbiy intizom, harbiy axloq va odob;
- Vatandan, milliy qahramonlardan faxr-iftixor qilish;
- o’z kuchiga ishonch, harbiy hushyorlik va ehtiyotkorlik, doimiy ravishda jangovar tayyorgarlikni va harbiy mahoratni oshirishga intilish;
- har qanday qiyinchilikka tayyor turish, sabr toqat, matonat va jasorat;
- tinchlik davrida va jang maydonida aql-zakovat, epatchilik, fidoyilik, tadbirkorlik, jismoniy barkamollik kabilarni tashkil etadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yuqori darajasi ularni harbiy xizmatga tayyorlashdan iborat bo’lib, bu jarayonning asosiy yo’nalishlari quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- ma’naviya -axlokiy va ruhiy (psixologik) tayyorgarlik;
- huquqiy-siyosiy tayyorgarlik;
- harbiy-texnik tayyorgarlik;
- amaliy-jismoniy tayyorgarlik.

Harbiy ta’lim olish hamda harbiy xizmat jarayoni yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Harbiy ta’lim Qurolli Kuchlar va qo’shin turlari uchun kadrlar tayyorlash jarayonidan iborat. Harbiy ta’limning mazmuni hozirgi harbiy fan va harbiy san’at taraqqiyoti bilan uzviy bog’liqlikda rivojlanib bormoqda.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish va yaxshi natijalarni qo’lga kiritish uchun talaba-yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini ko’tarish, ularda harbiy-vatanparvarlik tuyg’ularini yanada rivojlantirish lozim. Buning uchun oliy ta’lim muassasalari, mahallalar va oilalar hamkorligida turli xil tadbirlar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda talaba-yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining turli

shakllarini maqsadli qo‘llash ta’lim jarayonida kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Buning uchun oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayonida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining sinovdan o‘tgan qator shakl va metodlaridan unumli foydalanish zarur. Ular quyidagilar:

Talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid bu kabi shakl va metodlarni keng ko‘lamda olib borish, jamiyatdagi turli psixologik qatlamlar, yosh guruhlari o‘rtasidagi tafovutlar va farqlanishlarni bartaraf etadi. Buning natijasida talaba-yoshlarda harbiy-vatanparvarlik hissi samarali ta’minlanadi.

Shuning uchun ham oliy ta’lim muassasalarida harbiy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri – talaba-yoshlar ongi va qalbida Vatan himoyachilari shuurida milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, unda kelajakda jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini topishi uchun amaliy-hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish orqali ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga faol kirishishlariga imkon yaratishdan iborat.

Shu nuqtayi nazardan, oliy ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiya jarayonida talabalarga nafaqat harbiy yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha bilim berish, balki egallagan bilim va malakalarini amaliyotga tatbiq etish, ulardan kelajakda milliy armiyamiz safida xizmat qilish davrida foydalana olish kompetensiyalarini qo‘llay olishga o‘rgatish ham oliy ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida harbiy ta’lim berish tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta’lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish ustuvor masala bo‘lib, hukumat tomonidan qo‘yilgan bu sohada vazifalar ijrosini ta’minlash muhim amaliy ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilarni samarali amalga oshirish taqozo qilinadi:

- oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan harbiy ta’lim tizimining barcha bosqichlarida fanlarni o‘qitish ketma-ketligi va uzluksizligini ta’minlovchi yagona harbiy ta’lim konsepsiyasini yaratish;

- o‘qitish va tarbiyalash jarayonlarini uyg‘unlashtirish, bo‘ljak vatan himoyachilarini nafaqat bilimli, balki ma’naviy, axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish bo‘yicha ta’sirchan pedagogik choralarni ishlab chiqish, oliy ta’lim muassasasi faoliyatiga ulardagi talabalarning harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalanganlik darajasidan kelib chiqqan holda baho berish, buning uchun, eng avvalo, talabalarning bilim darajasini belgilovchi davr talablariga mos mezonlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- Vatanimizni turli diniy-ekstremistik tashkilotlar, g‘oyalar, turli axborot xurujlari ta’siridan himoyalash, buning uchun talaba-yoshlarda harbiy-vatanparvarlik, o‘z oilasi, kasbi va yurtiga sadoqat, uning taqdiriga daxldorlik tuyg‘ularini tarkib toptirish;

- oliy ta’lim muassasalarida harbiy ta’limni amalga oshirish jarayonida sog‘lom ijodiy muhitni yaratish, bunda ilg‘or innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish orqali harbiy-vatanparvarlik ta’lim-tarbiyasining sifatini yangi bosqichga ko‘tarish, talaba-yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

- Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda talabalarni harbiy-vatanparvarlik – ona yurt mustaqilligi, ozodligi, obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi va himoyasi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib yashash, xalqning ornomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g‘ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdir. Bugungi yoshlar Vatan manfaati, qadr-qimmati, taqdiri, istiqloli, istiqboli, ona yurtga muhabbat tuyg‘usini qancha chuqur anglasalar, shunchalik ularda harbiy-vatanparvarlik tuyg‘usi yuksak bo‘ladi.

Talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida o‘zbek xalqining qadimiy tarixi va madaniyati, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib avlod bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi”ning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarda harbiy vatanparvarlikni tarbiyalash faqatgina Vatanni sevish yoki yaxshi ko‘rish bilan cheklanmaydi, balki mavjud ma’naviy va jismoniy imkoniyatlarini to‘liq safarbar qilgan holda Vatanni himoya qilish, asrash va ravnaq toptirishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Qurolli Kuchlarning umumharbiy nizomlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Buning natijasida oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari muntazam ravishda tizimli va ilmiy asosda tashkil etiladi.

Talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi quyidagilardan iborat:

- oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarga ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga molik qadriyatlar, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan o’quv mashg’ulotlari ko’lamini kengaytirish;

- ommaviy va harbiy vatanparvarlik ishlarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni amalga oshirish.

- Oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun quyidagi diniy va ma’naviy tarbiya metodlarini qo’llash ta’lim jarayonida kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi:

- talaba-yoshlar ongi milliy ruh va iftihar tuyg’ulari bilan sug’orilgan badiiy kompozitsiyalar, film va roliklar, ko’rsatuv va teleloyihalar;

- milliy va etnik ishlanmalar;

- yurtimizning tarixiy qadamjolariga doimiy ekskursiyalar;

- Vatan himoyachilari bilan uchrashuvlar, ochiq muloqotlar;

- talaba-yoshlarni muqaddas Islom dini olamida mashhur bo’lgan buyuk allomalar Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, az-Zamaxshariy, Moturudiylarning ilmiy merosiga qiziqtirish orqali ularda harbiy vatanparvarlik hissini shakllantirish.

- oliy ta’lim muassasalarida yuqoridagi ma’naviy tadbirlar muntazam ravishda o’tkazib borish orqali talaba-yoshlarning nafaqat bo’sh vaqtlarini unumli tashkil etishlari, balki ularni shu vatan, shu yurt uchun fidoiy inson bo’lib voyaga yetishishlari uchun xizmat qiladi.

- Talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ularning yosh va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olish muhim hisoblanadi. Shuningdek, ularda o’ziga ishonch, o’z xulqini yaxshilash motivlarini quyidagicha shakllantirish mumkin:

- yoshlarning o’z xulq-atvorlarini o’zlari baholashga o’rgatish;

- yoshlarda o’zlariga nisbatan ishonch hissini shakllantirish;

- oilada farzandlar oldiga qo’yilgan vazifalarni bajarishda erishgan yutuqlarini rag’batlantirish;

- yoshlarga tarbiya berishning optimal strategiyasini aniqlash;

- yoshlarga mustaqil faoliyat (o’qish, o’yin, mehnat, xobbi va qiziqishlari)ni tanlash uchun imkoniyat berish.

- O’zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligi manfaatlaridan kelib chiqqan holda, mafkuraviy tahdidlar o’ta xatarli va nozik tus olgan sharoitda aholi, ayniqsa, yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga yo’naltirilgan targ’ibot ishlarining dolzarb yo’nalishlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- har-bir talaba-yoshda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish, mavjud ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarni to’g’ri baholash, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqara olish qobiliyatini shakllantirish;

- talaba-yoshlarga darslar va darsdan tashqari vaqtlarda kuchayib borayotgan mafkuraviy tahdidlarga nisbatan doimo sergak, ogoh va hushyor bo’lib yashashni o’rgatib borish;

- yoshlarda milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, davlat va jamiyat manfaatlariga sadoqat, or-nomus, uyat va andisha kabi axloqiy tuyg’u va tushunchalarning ma’no-mazmunini chuqur anglab yetishi va amal qilishiga erishish;

- yoshlar faoliyatida beparvolik va loqaydlikning oldini olish, ularda hushyorlik va jonkuyarlikni tarbiyalash, mamlakat taqdiriga daxldorlik tuyg’usini kamol toptirish kabilar.

Xulosa. Oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirish bilan bir qatorda, ular qalbida Vatanning mard posbonlari, yurtning jasur farzandlariga bo’lgan havas va ishonchni mustahkamlash, “Men – Vatan himoyachisiman” degan g’urur va iftixor tuyg’ularini singdirish, yoshlar qalbi va ongida mustaqil Vatanimiz xavfsizligi uchun mas’ullik, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga daxldorlik tuyg’usi, harbiy tayyorgarlik, sergaklik, botirlik, yurt sha’nini himoya qilish, askarlik burchini shakllantirishda milliy qahramonlarimiz jasoratining o’rni beqiyosligini alohida ta’kidlash lozim.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Yangi O’zbekiston strategiyasi. – T.: O’zbekiston, 2021.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoni. <https://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-oliy-talim-tizimini-2030-yilgacha-riv-09-10-2019>.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-sonli Qarori. – T., 2018. www.lex.uz; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.02.2018. 09/18/140/0816-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan vatan himoyachilariga bayram tabrigi 14.01.2017-yil
5. “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida” gi Nizom, 2014 y.
6. Mamurov U.I., Junaydullayev M.A.. “Harbiy vatanparvarlik nazariyasi” Darslik. 1-qism. Buxoro “Durdona” nashriyoti. 2021-y.
7. Mamurov U.I. “Harbiy qismlarda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar uslubiyoti” Darslik. Buxoro “Kamolot” nashriyoti. 2022-y.
8. Mamurov U.I., Valiyev A.A.. “Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi” uslubiy qo‘llanma. - Toshkent: Ziyo nur” nashriyoti, 2021y.

O'ZGARUVCHAN TA'LIM SHAROITIDA HARBIY RAHBARNING TARBIYA TAMOYILLARI

Samadov Abdulaziz Ashurovich,

Buxoro davlat pedagogika instituti

Harbiy ta'lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikli dotsenti

Ushbu maqolada Harbiy rahbarning tarbiya tamoyil yo'llari va samaradorligi haqida yoritilgan. Harbiy rahbarning tarbiya tamoyillari deganda tarbiya jarayonining qonuniyatlaridan kelib chiqadigan, tarbiya jarayonining mazmuniga, metodlariga va uni tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talablarni ifodalovchi, boshlang'ich (asos bo'lgan) qoidalarni tushuniladi. Ular tarbiya jarayonining xususiyatlarini aks ettiradi. Tarbiya tamoyillariga pedagoglar tarbiyaviy vazifalarni hal etishda amal qiladilar. Tarbiyaning tamoyilari deb yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va talablarni milliy qadriyat ruhida tarbiyalashning mazmuni, mohiyati va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oyalar va qoidalar yig'indisiga aytiladi.

Kalit so'z: tarbiya, ta'lim, ma'lumot, rivojlanish, ruhiy tayyorgarlik, mustaqil tarbiya, mustaqil ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, keng dunyoqarash; yuksak axloqiylik; bilimdonlik, zukkolik va ziyolilik; yuksak muomala madaniyati, so'zlashish odobi; o'ziga nisbatan talabchanlik, izlanuvchanlik.

ПРИНЦИПЫ ВОСПИТАНИЯ ВОЕННОГО ЛИДЕРА В УСЛОВИЯХ ИЗМЕНЯЮЩЕГОСЯ ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье описаны принципы и эффективность обучения военачальников. Принципы воспитания военачальника означают исходные (основные) правила, вытекающие из закономерностей воспитательного процесса, выражающие основные требования к содержанию, методам и организации воспитательного процесса. Они отражают особенности образовательного процесса. Воспитательных принципов придерживаются педагоги при решении воспитательных задач. Принципы воспитания представляют собой совокупность основных идей и правил, определяющих важнейшие требования к содержанию, характеру и направленности воспитания в духе национальных ценностей, вытекающих из цели воспитания подрастающего поколения.

Ключевые слова: воспитание, образование, информация, развитие, умственная подготовка, самостоятельное воспитание, самостоятельное образование, знания, умения, навыки, широкий кругозор, высокая нравственность, знания, интеллект и разум, высокая культура общения, манера речи, требовательный к себе, ищущий.

PRINCIPLES OF EDUCATION OF A MILITARY LEADER IN CHANGING EDUCATIONAL CONDITIONS

This article describes the principles and effectiveness of military leader education. The principles of education of a military leader mean the initial (basic) rules that arise from the laws of the education process, express the main requirements for the content, methods and organization of the education process. They reflect the characteristics of the educational process. Educational principles are followed by pedagogues in solving educational tasks. The principles of education are a set of basic ideas and rules that determine the most important requirements for the content, nature and direction of education in the spirit of national values, arising from the purpose of educating the young generation.

Keywords: Education, information, development, mental training, independent upbringing, independent education, knowledge, skills, broad outlook; high morality; knowledge, intelligence, high culture of communication, manners of speaking; self-demanding, searching.

Kirish. Tarbiya - yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama o'stirish, uning demokratik ongi va xulq-atvorini tarkib toptirish jarayonidir. Yosh avlodni tarbiyalash masalalari doimo mustaqil jamiyatimizning diqqat markazida turadi.

Har bir mustahkam fan o'zining predmeti va metodologik asoslariga egadir. Jumladan, «Pedagogika» ham fan sifatida shakllanib, o'zining predmetiga ega bo'ldi. «Pedagogika» ham fan sifatida tarbiya tizimini, jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida hayotga bog'lab boradi.

Shu sababli tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash lozim, chunki tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib jamiyatni, uning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin.

Tarbiya ta’lim berish bilan mustahkam aloqada bo‘lgan holda, o‘ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta’lim va tarbiya yagona jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o‘xshash emas. Ta’lim va tarbiyaning birligi, avvalo, ularning maqsadining umumiyligidan iborat. Bir butun pedagogik jarayonida ta’lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishdek mas’uliyatli vazifani bajaradi.

Tarbiya jarayoni o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan mustahkam bog‘langan. O‘z-o‘zini tarbiyalash harbiylarning o‘z shaxsini o‘zgartirishiga qaratilgan faoliyatidir. O‘z-o‘zini tarbiyalash to‘g‘ri tarbiya berish bilan birga sodir bo‘ladi va ayni vaqtda to‘g‘ri tarbiya natijasi hisoblanadi. Tarbiya jarayonida askarlar o‘zlarini tarbiyalaydilar, kamolga yetkazadilar, o‘z ustlarida mustaqil ishlaydilar, o‘z harakatlarini, shaxsiy sifatlarini ijobiy tomonga o‘zgartirishga harakat qiladilar. O‘z-o‘zini tarbiyalash harbiylarning o‘zida muayyan fazilatlarini o‘stirishga qaratilgan ongli intilish, iroda kuchini ishlatish jarayonidir.

O‘z-o‘zini tarbiyalash shaxsda tanqidiy qarash paydo bo‘lishi bilan boshlanadi. Ammo bunda tanqidiy mulohaza boshqalar xulqiga, o‘rtoqlarining faoliyatiga nisbatan emas, balki o‘z xulqi va xarakteriga, o‘z bilim va o‘zlashtirishiga nisbatan bo‘lsagina o‘z-o‘zini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunda harbiylarda o‘zini idora qilish, o‘z harakatlari va qilmishlarini nazorat qilish, tahlil qilish imkoniyati shakllanib boradi. O‘z-o‘zini tarbiyalashda muvafaqqiyatga erishish uchun askar o‘zining xulqini to‘g‘ri baholash qobiliyatini o‘stirish, o‘zi uchun axloqiy ideal tanlash istagini vujudga keltirish kerak.

Tarbiya tamoyillariga pedagoglar tarbiyaviy vazifalarni hal etishda amal qiladilar. Tarbiya tamoyillariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

Birinchi talab-majburiylik (ya’ni, tarbiya tamoyillari shunchaki maslahat yoki tavsiya bo‘lmasdan, ular muqarrar ravishda pedagogik amaliyotga tatbiq etilishini talab qiladi);

Ikkinchi talab-komplekslilik (ya’ni, tarbiya tamoyillari tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida bir vaqtning o‘zida, frontal holda qo‘llaniladi, ularning ketma-ket, alohida qo‘llanishlariga yo‘l qo‘ymaslik kerak);

Uchinchi talab-baravar qimmatlilik (ya’ni, tarbiya tamoyillari umumiy va asosiy qoidalar sifatida eng qimmatli, baravar bo‘lib, ularning orasida asosiy va ikkinchi darajali prinsiplar bo‘lmaydi).

Tarbiya tamoyillari «*tayyor retseptlar*» «*universal qoidalar*» emas, pedagoglar ulardan foydalanganlarida avtomatik tarzda yuqori natijalarni birdangina olmaydilar.

Tarbiya tamoyillarining talablari umumiy, ammo, har bir ofitser o‘z bilimi, tajribasi, mahoratiga tayanib, ulardan ijodiy foydalanadi.

Har bir ishning o‘ziga xos bir qator muhim qonun-qoidalari mavjudki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Jumladan:

- tarbiyaning ilmiyligi;
- tarbiyaning ongliligi;
- tarbiyada ishonitirish;
- tarbiyaning hayot va harbiy faoliyat bilan bog‘liqligi;
- tarbiyaning insonparvar va demokratik xarakteri;
- tarbiyada vijdon, iroda, qat’iylilik va ishonch;
- tarbiyada intizom, axloq va burch uyg‘unligi;
- tarbiyaning yakka va umumiy xarakteri;
- jamoada ijobiy namuna;
- jamoada va jamoa orqali tarbiya.

Tarbiyaning ilmiyligi:

Mustaqil O‘zbekistonimizda ayni kunlarda ta’lim-tarbiya jarayonini hozirgi davr talabiga javob berishga va ularni yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda xususan tarbiyaning ilmiy sifatida, demokratik nuqtayi nazardan tashkil qilishda katta ahamiyat bermoqda. «Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» sharaflilik nomida yozgan Prezidentimizning asari shahodat beradiki, yoshlarimiz dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish uchun chet ellarda ta’lim-tarbiya olish va ularning ta’lim tizimimizda ilmiy nuqtayi nazardan ommalashtirish bu harbiylarni sog‘lom fikr va yuqori darajali ilmlarga tayyor qilishdan iborat.

Qadimgi Yunonistonning mashhur faylasuflari Suqrot, Aflotun, Arastu, Demokrit va boshqalar o‘z g‘oyalariga ham jiddiy e’tibor berganlar.

Tarbiya-bu harbiylar hayotida hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot-dunyoqarashni, insoniy e’tiqod, burch va mas’uliyatni, ofitserlar shaxsiga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarini yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo‘lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo‘ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi va o‘zining qoidalarini alohida belgilaydi.

Tarbiyada izchillik juda muhimdir. Tarbiyachi avloddan tarbiyalanuvchilardan biror narsani talab qilib, soʻngra oʻzining bu talabini unutib qoʻysa yoki oʻzi bu talabga xilof ish tutsa, bu hol tarbiyaga juda yomon taʼsir qiladi.

Qurolli Kuchlarda harbiylar oʻz lafziga sobit boʻlmogʻi kerak. Masalan: ofitser ertaga harbiy kiyimlaringizni tozalashni va tartib tarzini koʻraman deb vaʼda berdimi, albatta bajarishi shart. Yoki agar qoʻlostidagilar bilan biron mavzuda bahs-munozara oʻtkazmoqchi boʻlsa, bu masala ilmiy nuqtayi nazardan asoslangan boʻlishi kerak. Ofitser biror tarbiyaviy tadbir uyushtirishni harbiylarga vaʼda qilib, sal orada vaʼdasini esdan chiqarib qoʻysa, harbiylar bunday ofitserga ishonmay qoʻyadilar. Har bir ofitserni soʻzi bilan ishi bir boʻlishi kerak.

Harbiylarda tarbiyaviy taʼsir koʻrsatishda izchillikka rioya qilish, muammoni avvalicha davom ettirish va bir xil talab qoʻyish muvaffaqiyat qozonishning eng muhim shartlaridan biri boʻlib hisoblanadi. Afsuski, amalda baʼzan harbiy qoʻmondonning talablarini qoʻllab-quvvatlaydigan emas, balki harbiylarga teskari taʼsir koʻrsatadi. Harbiylar orasida ham hamma vaqt bir xilligi taʼminlanavermaydi. Tarbiya uzoq muddatli, murakkab jarayon boʻlib, unda harbiy qoʻmondon va yashash muhit, jamoatchilik, taʼlim muassisalari va boshqalar taʼsir yetkazadi. Shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik boʻlishiga rioya etish, bu tarbiya zanjirini buzmaslik, harbiylarni tarbiyalanganlik darajasini tarbiya usullari va tamoyillarini oʻz vaqtida aniqlab olish juda muhimdir.

Tarbiya ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda u bir chinor daraxtidir. Ammo undan farqi shundaki, agar chinor shoxasini kessangiz qaytadan koʻkarishi mumkin, ammo tarbiya tamoyilini bir sohasini olib tashsangiz tarbiya oʻz mohiyatini yuqotadi. Shu nuqtayi nazardan tarbiyaga ilmiylik asosda tashkiliy ishlar olib borish kerak.

Tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarini chuqur oʻrganish talab qiladiki, tarbiya jarayonining muayyan rivojlanishi uchun sharoit yaratuvchi sabab va oqibat oʻrtasidagi muhim, zarur ichki aloqalarning ifodasi sifatida namoyon boʻladi.

Tarbiyaning ilmiyligi bu bevosita tarbiyaga ilmiy tomondan yondashilgan holda, tarbiyani qonuniyatlarini ilmiy jihatdan ochib berish, tarbiyani yoʻnaltirishning yangi usullarini takomillashtirishni ham talab qiladi.

Ilmiy-axloqiy normalarni egallash jarayonida harbiylarda yoshlarda aqliy, axloqiy tarbiya, dunyoqarash, eʼtiqod tarkib topadi, maʼnaviy saviyasi yanada oʻsib rivojlanadi.

Tarbiyaning ilmiyligi hozirgi kunda taʼlim kabi eng dolzarb masaladir. Chunki, tarbiyani ilmiyligini yoʻqotsa yoshlar tarbiyasi va tarbiya bevosita oʻz izidan chiqib ketadi. Lekin Sharq mutafakkirlari tarbiyaning ilmiyligida boy maʼnaviy-madaniy meroslarga egadirlar. Bular hozirgi tarbiya jarayoniga bevosita uygʻunlashtirilib olib borilmoqda.

Harbiy vaziyatlarda ilmiylik asosida yoʻl tuta olishni tarbiyalash. Har bir harbiy xizmatchi oʻz gʻoyasiga bogʻliq muammolarni toʻgʻri hal qilmogʻi, yutuqlarni esa keyingi xatolarni sodir etmasligi shart deb bilish kerak. Harbiy vaziyatlar, yaʼni jangovar holatda tinchlik vaqtida eng oqil va toʻgʻri yoʻlni tanlamogʻi darkor. Xizmat faoliyatini oladigan boʻlsak quyidagi holatlarda:

- ✧ Xizmatini yoki harbiy qismini oʻzboshimchalik bilan tashlab ketmaslik;
- ✧ Oʻz vatanini himoyasi va uning taraqqiyoti oldida oʻz burchini unutmaslik;
- ✧ Xizmatini namunali bajarish va xizmatdan boʻyin tovlamaslik;
- ✧ Xizmatda oʻrnatilgan tartib-qoidalarini buzmaslik, ularga qatʼiy va aniq rioya qilish;
- ✧ Oʻzining qurolli Kuchlari jangchisi burchini teran anglash;
- ✧ Har doim oʻzini jismoniy va aqliy chiniqtirib borishi zarur;
- ✧ Jangovar vaziyatlarda esa u quyidagilarni hisobga olgan holda toʻgʻri va eng aniq yoʻlni tanlamogʻi lozim;

- ✧ Jangda oʻz vatanini kichik bir boʻlagi boʻlishi lozim, har bir kishining hayotini yanada shirinroq va baxtliroq qilish uchun bir tomchi qonini ham ayamasklik;

Jangda nafaqat oʻzini, balki oʻz doʻstini himoya qilishi va ularni har qanday sharoitlarda tashlab ketmaslik, oʻz doʻstiga sodiqligini shunday vaziyatlarda koʻrsatish uning insoniy jangchilik burchidir.

Tarbiyaning ongilligi:

Tarbiyaning mazmuni, shakl va tamoyillari harbiylarning saviyasiga qarab turli guruhlarda har xil boʻladi. Tarbiyaning tamoyillariga qaraganda tarbiyaning ongilligi harbiylarning bilim, koʻnikma va malakaga qay darajagacha erishishni har tomonlama ijtimoiy-siyosiy jihatlardan aniqlaydigan tamoyildir. Ong va xulq-atvorning birligi: ong faoliyatda vujudga keladi, shakllanadi va namoyon boʻladi. Tushunchalar, mulohazalar, baholashlar, eʼtiqodlarning majmui sifatida ong ofitserning xulq-atvori va xatti-harakatlarini yoʻnaltiradi va bir vaqtning oʻzida oʻzi ham xulq-atvor va faoliyatning taʼsiri ostida shakllanadi. Tarbiyada

ong va faoliyat birligiga erishish harbiylarning faoliyati va muomalasi asosida ularni hayotini tashkil qilish, amaldagi o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish tufayli vujudga keladi.

Har bir ofitserda shaxsni ko'ra bilish kerak. Ofitserning qo'l ostidagilari qanday bo'lmasin unga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi, uning barcha xatti-harakatlariga sabr-toqatli bo'lmog'i lozim. Ammo hurmatni o'z me'yori bo'lib, unga oqilona, ongliy ravishda talab qo'yish va munosabatda bo'lishi lozim.

Harbiylarga oqilona talab qo'yish uning maqsadga muvofiqligi, tarbiya jarayonining ehtiyojlaridan kelib chiqishi, tarbiya vazifalariga mosligi, harbiylar tomonidan zaruriyat sifatida qabul qilinishini anglatadi.

Ayrim harbiy xizmatchilar o'zlarining ongliligi, saranjom-sarishtaliligi, intizomlilik, fahm-farosati, aktivligi bilan ofitser va jamoaning ishonchi va hurmatiga sazovor bo'ladilar. Ayrimlari esa, intizomsizligi va be'mani qiliqlari bilan tezda «tanilib» qoladilar.

Harbiy bilim yurtlarida ofitserlar qo'l ostidagilarni orzu havas bilan bilim yurtga kelishini nazarga olib, bu intilishlarini mustahkamlashi, ishini va xulqini baholashda avval yaxshi, ijobiy tomonlarini ta'kidlab, keyin kamchiliklarini yo'qotish yo'lini ko'rsatishi lozim.

Harbiylarni tarbiyalashda aql bilan ish ko'radigan mohir ofitserlar o'z tarbiyalaridagi askarlarning shaxsiy fazilatlarini juda yaxshi biladilar va bundan keyin uning xulqida nimalarga erishmoqchi ekanliklarini aniq tasavvur etadilar. Tarbiyada ana shu maqsadni amalga ilmiy nuqtayi nazardan oshirish uchun bola xulqidagi ijobiy sifatlarga suyanib ish tutadilar. Natijada askar o'z vazifalarini yanada yaxshi bajarishga, ofitserlarning hurmatini qozonishga, ishonchini oqlashga intiladi. Faoliyat jarayonida hosil bo'lgan malaka, bilish va odatlar axloq normalariga rioya qilishini yengillashtiradi. Demak, tarbiyachi harbiylar shaxsining eng tez rivojlanadigan davri-kursantlik yillarida uning ongiga turli-tuman faoliyat (o'qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o'yin, sport) yordami bilan maxsus ta'sir etishi muhimdir. Aks holda xulq normalari, ijtimoiy axloq talablari yaxshi tushunilmay qolishi natijasida shaxs ijtimoiy munosabatlarda barqaror, tasodifiy ta'sirga beriluvchan bo'lib qolishi mumkin. Tarbiya jarayonida harbiy xizmatchilarning ongliligi emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim.

Haqiqatan ham, mustaqillik barkamol inson uchun bebaho qadr-qimmatimizni tiklash, o'zligini chuqurroq anglash, unutmayotgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni hayotga tatbiq etish, shu yurtning fuqarosi ekanligidan fikrlanish, ona tilining sohibi bo'lish kabi baxtni ato etadi. Mustaqillikning maqsadi, mohiyati va vazifalarini harbiylar ongiga singdirishi komil ofitserni voyaga yetkazish, xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirishini talab qiladi.

Avvalo shuni ta'kidlashimiz kerakki, biz eski sho'rolar zamonidan qolgan ta'lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan va sartaqlardan hali-beri to'liq qutulganimiz yo'q. Bugungi kunda mutaxassis kadrlar tayyorlash, ta'lim va bilim berish tizimi hayotimizda bo'layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talablari bilan yaqindan bog'lanmaganligi har tomonlama sezilmoqda. Ofitserga o'ziga xos zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga zamonaviy bilim berishi bu hayot muammosi bo'lib, shuni nazarda tutish lozimki, har bir tarbiyachilarni o'zini malakasini, kasbiy bilimini yuqori darajaga ko'tarishimiz lozim. Ta'lim-tarbiya islohoti va uning ongliyligi haqida gapirar ekanmiz, uning mazmuni lo'nda qilib aytganda: *«Bizga bitiruvchilar emas, harbiy ta'lim-tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak»*.

Demokratik jamiyatda ofitser, umuman har bir harbiylar erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bola erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak, ammo bilim o'z yo'lga mustaqil fikrlash ham katta boylikdir.

Xulosa. Ofitserni o'z fikriga ega bo'lishi uchun mustaqil fikrlash g'oyalarni ular ongiga singdirishimiz lozim. Shundagina kelajak ofitser har tomonlama yetuk, barkamol inson bo'lib yetishadi. Harbiylarni tarbiyalashda axloqiy ong va axloqiy tuyg'ularni shakllantirish emas-ularni ma'naviy munosabatlarda namoyon bo'ladigan faoliyatining har xil turlariga jalb etishi lozim.

Axloqiy ongni tarbiyalash-harbiylarni Vatanga, jamiyat va mehnatga o'ziga va ofitser munosabatini anglab olishga qaratilgan axloqiy tuyg'ularni tarbiyalash hisoblanadi.

Yuqoridagi sifatlari ofitserlar ma'naviyatini tashkil etadi. Harbiylar ma'naviyati ongli ravishda hayotga mujassamlashtirilgan bo'lishi lozim.

Ong osti har bir ofitserning taqdiri, yo'li, oliy maqsadi va ezgu niyatlar asosidagi hayot modeli hisoblanadi. Ong osti va ong uyg'unligi vijdon yordamida amalga oshiriladi.

Ong osti - dunyoviy va hayotiy haqiqat asosidagi ofitser shaxsiy faoliyatining ma'naviy-ruhiy yo'li.

Ongli faoliyat – jamiyat hayotining bosh mezonidir. Bizga meros bo'lib qolgan ta'lim-tarbiya tizimining ma'lum bir qismi bilan bir qatorda uni eng nomaqbul tomoni shundan iborat ediki, harbiylarni

o‘quv jarayonida mustaqil va erkin fikrlashga yo‘l qo‘ymasliklar qaysi o‘quv yurtini bitiruvchilarini bilimi emas, balki ularni avvalgi soxta g‘oyalarini hisobga olish edi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH. M.. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘ hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019 y.
2. Mirziyoyev SH. M.. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2020 y.
3. Karimov I. A. Milliy armiyamiz – mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2003 y
- a. Karimov A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz». Toshkent, «O‘zbekiston», 2000 y.
4. Karimov A. «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». Toshkent, «O‘zbekiston», 1997 y.
5. Karimov A. «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir». Toshkent, «O‘zbekiston», 1996 y.
6. «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlari». Toshkent, «O‘zbekiston», 1996 y.
7. Azizxo‘jayev A. «Davlatchilik va ma‘naviyat». Toshkent, «Sharq», 1994 y.
8. Abu Iso Termiziy Sahihi. Termiziy. «Tanlangan Hadislar». Toshkent, 1993 y.
9. Avloniy A. «Turkiy guliston yoxud axloq». Toshkent, «O‘zbekiston», 1994 y.
10. Abduraxmanov Sh.N. «Harbiy raxbar mahorati». Buxoro, «Kamolot» 2022y.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ МАДАНИЯТ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ТИЗИМИ

*Усманова Феруза Саидахмедовна,
Самарқанд давлат университети докторанти*

Ушбу мақолада олий таълим муассасаларида талабаларнинг маданият компетентлигини ривожлантиришнинг педагогик имкониятларини аниқлаш, ривожлантириш стратегияларини белгилашнинг педагогик-иқтисодий зарурияти тўғрисида фикр юритилган. Шунингдек, талабаларнинг маданият компетентлигини ривожлантиришнинг педагогик тизимини ривожлантириш масалалари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: маданият компетентлиги, педагогик имкониятлар, миллий ғоя, демократик давлат, ёшлар маданияти.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ВУЗА

В данной статье рассматривается педагогическая и социальная необходимость определения педагогических возможностей развития культурной компетентности студентов в высших учебных заведениях, определение стратегии развития. Также освещены вопросы разработки педагогической системы развития культурологической компетентности студентов.

Ключевые слова: культурная компетентность, педагогические возможности, национальная идея, демократическое государство, молодёжная культура.

PEDAGOGICAL SYSTEM OF CULTURAL COMPETENCE DEVELOPMENT OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

This article discusses the pedagogical and social need to determine the pedagogical opportunities for the development of students' cultural competence in higher educational institutions, the definition of a development strategy. The issues of developing a pedagogical system for the development of cultural competence of students are also highlighted.

Key words: cultural competence, pedagogical possibilities, national idea, democratic state, youth culture.

Кириш. Бизнинг мамлакатимиз жаҳон ҳамжамиятига қўшилиш, демократик давлат қуриш борасида Президентимиз томонидан асослаб берилган тараққиёт йўли — “Учинчи Ренессанс” миллий ғоя сифатида амалга оширилмоқда. Ренессанс - уйғониш демакдир. Яъни илмий уйғониш, маданият ва маърифатни англаш ва шу аснода асрларга тенг йўللари ҳақларида босиб ўтмоқ демакдир. Бу жараёни бошлаб бериш, унинг пойдеворини қўйиш камдан-кам инсонларга насиб этган. Бунинг учун аввало, миллатни севиш ва инсонпарварлик туйғуси бўлиши керак.

Абу Наср Фаробийнинг бир ҳикмати бор, “Инсоний ҳислатлар тўрт қисмга бўлинади: назарий фазилятлар, тафаккур фазилятлари, яралма (ҳаёт жараёнида вужудга келувчи) фазилятлар ва амалий санъат (касб) фазилятлари”. Ўзбекистондаги янги Уйғониш маданияти ва маърифати ҳам айтиш мумкин, шу тамойилга асосланганини, эзгу ниятлар амалга ошаётганини англаш эса янада шижоат бахш этади. Ш.М.Мирзиёев томонидан Учинчи Ренессанс даврини қуриш учун ёшларимизнинг маданияти, маънавияти, уларнинг таълим ва тарбиясини янада юксалтириш учун ислохотларимиз қўлаи ва самарасини янада ошириш зарурати таъкидланди. Айнан, шунинг учун Президентимизнинг Олий Мажлисга қилган мурожаатномасида қуйидаги фикрларни қўйиш мумкин: “Биз ўз олдимиизга мамлакатимиизда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этишдек улуғ мақсадни қўйган эканмииз, бунинг учун янги Хоразмийлар, Берунийлар, Ибн Синолар, Улуғбеклар, Навоий ва Бобурларни тарбиялаб берадиган муҳит ва шароитларни яратишимиз керак. Бунда, аввало, таълим ва тарбияни ривожлантириш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, илм-фан ва инновацияларни тараққий эттириш миллий ғоямиизнинг асосий устунлари бўлиб хизмат қилиши лозим. Ушбу мақсад йўлида ёшларимииз ўз олдига катта марраларни қўйиб, уларга эришишлари учун кенг имкониятлар яратиш ва ҳар томонлама қўмақ бериш – барчамиз учун энг устувор вазифа бўлиши зарур. Шундагина фарзандларимииз халқимиизнинг асрий орзу-умидларини рўёбга чиқарадиган буюк ва қудратли кучга

айланади. Шу мақсадда “Янги Ўзбекистон – мактаб оstonасидан, таълим-тарбия тизимидан бошланади”, деган ғоя асосида кенг кўламли ислохотларни амалга оширамиз”[1].

Янги Ўзбекистонда халқимизнинг маданий-маънавий тараққиётига кенг йўл очилди, миллий мерос моҳиятини англашгина эмас, шу билан бирга уни ривожлантириш учун имкониятлар яратилди. Жуда кўплаб илмий, бадиий, тарихий, фалсафий асарлар, қадимий кўлёзмалар кетма-кет қайта нашр қилинмоқда. Ноёб тарихий ёдгорликларни сақлаш ва таъмирлаш ишлари бошланган. Буюк алломалар томонидан яратилган ва ҳар хил сабаблар билан республикадан ташқарига ташиб кетилган, миллий бойлик, ўзбек халқининг миллий ифтихори бўлган санъат асарларини, қимматли кўлёзмаларни излаб топиш, ўз она-ватанига қайтариш чора-тадбирлари кўрилмоқда: “Ноёб тарихий ёдгорликларни сақлаш ва таъмирлаш, ўзбек халқи яратган ва миллий бойлик бўлган санъат асарларини излаб топиш, уларни Ўзбекистонга қайтариш маданий қадриятимизнинг муҳим бўлагини ташкил қилади. Бу миллий бойлик бизга ота-боболаримиздан мерос бўлиб қолган. Бинобарин, биз ҳам уни кўз қорачиғидай асрашимиз ва фарзандларимизга мерос қилиб қолдиришимиз керак”

Ёш авлод маданияти ва маънавиятининг юксалтириш масалалари бугунги таълим жараёнининг марказий қисмида турганлиги маънавий тарбиянинг ижтимоий-педагогик зарурият эканлигини намоён этмоқда. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияларида ўзининг мустақил фикрига ва позицияга эга, ақлзаковатли, креатив фикрлайдиган маданият компетенцияси юксак бўлган ёш авлоддани тарбиялашга катта эътибор қаратилган. Чунки бугунги глобаллашув жараёнида инновацион таълим сингари тушунчалар орасида “маданият компетенцияси” тушунчаси ҳам муҳим аҳамиятга эга. Чунки инсон омили орқали амалга ошириладиган ҳар бир жараёнда қачонки маданият юқори бўлсагина самарадорлик ва натижавийлик мавжуд бўлади[3].

Маданиятнинг шаклланиши аввало оиладига тарбия муҳитидан бошланади. Фарзанд тарбиясининг тўғри йўналтирилиши, унинг хулқ-атвори, ўзини тутиши, билим олишини назорат қилиш, қизиқишларини инобатга олиш, миллий урф-одат, анъаналар, қадриятлар, аجدодлар мероси билан таништириш ва улар билан фахрланишга ўргатиш каби тарбия воситасида маданият компетентлигини ривожлантиришнинг асосий омилларидан ҳисобланади. Талабаларнинг маданият компетенциясини ривожлантиришда қуйидагиларга эътибор қаратиш муҳим ҳисобланади:

- талабаларда миллий ғурур туйғусини шакллантириш;
- миллий анъаналар ва урф-одатлар, унитилмас қадриятларни эгаллашга ўргатиш;
- аждодалар меросига бўлган эътибор ва қизиқишни уйғотиш;
- миллий қаҳрамонлар шахси ва улар амалга оширган маънавий ишлар билан яқиндан таништириш;
- Ватан тақдири, юрт келажагига дахлдорлик ҳиссини уйғотиш.

Бугунги таълим жараёнида талабаларнинг маданият компетентлигини ривожлантиришнинг педагогик имкониятларини аниқлаш, ривожлантириш стратегияларини белгилаш педагогик-ижтимоий зарурият сифатида юзага чиқмоқда. Маданиятнинг юксалиши илм асосида амалга оширилади. Буюк ҳадисшунос олим Имом Бухорийнинг “Саҳиҳ ҳадислар” асарида Пайғамбаримиз Муҳаммад с.а.в “Илмдан ўзга нажот йўқ ва бўлмади ҳам” деган ҳадислари келтирилган бўлиб, демакки инсоният тараққиётида илмнинг, маданиятнинг ўрни бекиёсдир. Бугунги кунда ҳам маданият компетентлигини шакллантириш, уни ривожлантириш масалаларига бағишланган кўплаб тадқиқотлар, илмий изланишлар амалга оширилмоқда. Бу изланишларда маданият тушунчасига таъриф бериш, ёшларда маданият компетентлигини шакллантиришга аҳамият қаратиш каби масалалар изоҳланмоқда.

Талабаларнинг эгаллаган билимлари, тарбияси, дунёқараши, ахлоқий ҳатти-ҳаракатларига кўра унда шаклланган маданият компетентлигининг шаклланганлик даражаси белгиланади. Шахс маданият компетентлигининг таркибий тузилишини қуйидагича ифодалаш мумкин:

- ахлоқий маданият. Оилада таркиб топган тарбиявий муҳит натижасида шаклланади. Ўқувчиларда ахлоқий маданият шакллансагина улар ўз оила аъзолари билан ўзаро яхши муносабатга кириша олиши, ота-онани ҳурмат қилиши, оиласини қадрлаши, ўз уйи, яқинлари учун қайғуриши, кўни-кўшни, маҳалладошлари, синфдошлари, ўқитувчилари билан ўзаро ҳурмат, самимиятга асосланган мулоқотни амалга ошириши мумкин. Шахс маданиятининг энг юксак даражаси бу ахлоқий кўникмаларни эгалланганлиги билан тавсифланади.

- маънавий маданият. Агар ахлоқий маданият шахснинг ички олами, эътиқоди, қадриятларини ифода этса, маънавий маданият шахснинг мавжуд билимлари, оилада ва жамиятдаги фаолияти натижасида эгаллаган тажрибаси, миллий менталитети, ҳаёти фаолияти давомида шаклландиган маданият даражаси ҳисобланади. Шахснинг ўзини тутиши, ҳатти-ҳаракатлари, сўзлаш, муомала,

кийиниш одоби, касбий этикаси, атроф-муҳит, табиат, ҳайвонот олами билан тўғри муносабатни йўлга қўйиш кабилар маънавий маданиятнинг таркибий элементлари ҳисобланади.

- қадриятли маънавият. Шахс маданияти ахлоқий ва маънавий жиҳатдан ривожланган шахсда қадриятли маънавият даражалари шакллана бошлайди. Ватанни севиш, ўз яқинларини қадрлаш, инсонпарварлик, бунёдкорлик, масъулиятли бўлиш, миллий урф-одат ва анъаналарни ҳурмат қилиш, аждодларимиздан қолган моддий-маданий ҳамда маънавий меросга эга қилишга, келажак авлодга етказишда ўз ҳиссасини қўшишга интилиш каби жиҳатларнинг шаклланиши шахс маданиятининг қадриятли маънавият даражасига кўтарилганлиги англатади. Айнан қадриятли маънавият даражасини эгаллаган талабаларда ўз аждодларига, миллий қаҳрамонларига ҳурмат, уларнинг ўз халқи фарованлиги, юртининг тинчлиги йўлида қилган мардликлари, жасоратидан фахрланиш ҳисси кучайди ва улардай ҳаракат қилишга бўлган интилишлари шакллана бошлайди [2].

Ҳар қандай маданият жамиятнинг таркибий қисми бўлиб, у инсоннинг яшаши, фаолиятини, умуман, жамиятдаги ўрнини белгилашга ёрдам беради. Маънавий маҳсули бўлган маданий қадриятлар инсон учун шахсий моҳият ва мазмун касб этиб, инсон у орқали бошқалар билан, бутун жамият билан муносабат ўрнатади. Қадриятлар жамиятга манзур бўладиган ахлоқ мезонлари яратилишида инсонга ёрдам беради. Шахс билан жамиятнинг ўзаро муносабатлари турли тарихий даврларда турлича бўлган, шунга қарамай, шахс маданияти жамият маданиятини белгилайди, айти пайтда шахс маданияти муайян бир жамиятнинг маданий муҳитида шаклланади. Ҳар бир жамият шахс маданиятини камол топтиришда қадриятларини меъёрлаштиради ва шахснинг маънавий эҳтиёжларини таъминлайди [4].

Бугунги кунда маданиятни, маданият компетенциясини ривожланиш босқичларини, унинг жамиятдаги тутган ўрнини ўрганувчи бир қатор фанлар мавжуд. Шулардан энг асосийлари: ижтимоий фалсафа, социология, этнология, этнография, маданий ва ижтимоий антропология, маданиятшунослик, маданият социологияси ва маданият фалсафаси. Ушбу ижтимоий фанларнинг барчаси эмпирик маъумотларни тўплаш ва анализ қилиш орқали турли жамият ва даврларга тегишли бўлган маданиятларни бир-бирига нисбий равишда ўрганади. Улар ўртасидаги фарқни ва чегарани аниқлаш мушкул масалалардан биридир. Шу кунга қадар бу фанларни ўрганиб келаётган олимлар, асосан, ушбу фанларнинг яратилишида сабабчи бўлган турли мактаб ва йўналишларга асосланган ҳолда уларни бир-биридан ажратиш келмоқдалар.

Маданият ҳодисасини ўрганувчи ижтимоий фанларнинг барчаси унга ўз тадқиқот объекти ва предмети нуктаи назарларидан келиб чиқиб ёндошсаларда, лекин улар ўртасидаги фарқлар бугунги кунгача ҳам нисбатан мавҳумлигича қолмоқда.

Маданиятшунослик маданиятнинг вужудга келиш сабаби ва шарт-шароитларини, тараққиёт қонунияти ва ривожланиш тенденциясини ягона бир тизим сифатида ўрганиш, унинг вазифалари ва тузилишини аниқлаш каби мужассамлашган илмий изланишлар олиб бориш билан шуғулланади. Турли соҳаларда (фалсафа, илоҳиёт, этика, эстетика ва ҳоказо) илмий асарлар яратган олимларнинг маданиятга нисбатан, унинг қонуниятлари ва ривожланиш тенденциясига нисбатан берган баҳолари мажмуини ўрганиш ҳам маданиятшунослик вазифаларидан биридир.

Хулоса. Кундалик ҳаётда “маданият” атамасини қўллар эканмиз, онгнинг олий маҳсуллари бўлган санъат, адабиёт, мусиқа, рассомлик кабиларни назарда тутамиз. Социологияда маданият тушунчаси инсон томонидан яратилган ва яратилаётган барча фаолиятлар маҳсули тарзида тушунилади.

Маданият социологияси - инсон фаолиятининг ранг-баранг маҳсуллари таркибий ҳамда мазмуний жиҳатидан тадқиқ этиб, унинг тараққиёт тенденцияларини ижтимоий тизим ҳамда ижтимоий институтларга боғлиқ равишда ўрганувчи фандир. Маданият социологиясининг предмети, мақсад ва вазифалари, услуб ва ҳажмига бериладиган баҳо ҳам ўзгариб борапти. Эндиликда, маданият сотсиологияси жамиятдаги маданият кўринишларини, унинг жамиятда қабул қилинган меъёрларга мос равишда ривожланиш даражасини ва жамият структурасига боғлиқ ҳолда қанчалик ўсаётганини ўрганишнинг ўзи етарли бўлмай қолди. Энди маданият социологияси юқорида санаб ўтилган вазифаларни бажариш билан биргаликда, ўз олдига социомаданий ўзгаришларнинг асл сабабларини ва уларнинг амалга ошиш йўллари, қонун-қоидаларини топиш ҳамда анализ қилишни мақсад қилиб қўймоғи лозим. Барча ижтимоий фанлар қатори маданият социологияси фанининг ҳам асосий муаммоси инсон ҳисобланади. Зеро, маданият - бу инсон яратган нарсалардир. Маданият социологияси инсоннинг олам билан фаол муносабатини ва бу муносабатлар унинг ҳаёт тарзида намоён бўлишини ўрганади.

Адабиётлар :

1. Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. № 276. 30.12.2020.
2. Сафарова Р.Г, Джураев Р.Х. Ўқувчи-ёшларни “оммавий маданият” ҳуружларидан ҳимоя қилишнинг назарий-методологик асослари. Т.: - Тафаккур қаноти. 2016 – 400 б.
3. Олимов Ширинбой Шарофович, Сайфуллаева Нигора Закиралиевна Основные принципы развития духовно-нравственного мировоззрения у студентов // Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования. 2015. №5 (10).
4. Олимов Ш. Ш. Духовно-нравственные факторы узбекской этнопедагогике //ББК 74.48 Р 76. – С. 85.
5. Madaniyat sotsiologiyasi [Text]: o‘quv qo‘llanm a/ M. Bekmurodov, N . Yusupova; mas’ul muhar.: M. Quronov; taqrizchilar: N. Aliqoriyev [va boshq];
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-m axsus ta’lim vazirligi. -Toshken t: Yangi nashr, 2010.- 144 bet.
7. Тарбия. Энциклопедия. Тошкент- 2010. 516-бет.

O‘QUVCHI YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MAKTAB VA OILANING AHAMIYATI

Abduraxmanov Sherzod Nazarbayevich,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Harbiy ta’lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik
sikli boshlig‘i, katta o‘qituvchi

Maqolada maktab va oilada avvalo, o‘quvchilar, farzandlarning umumiy ta’lim-tarbiyasi jarayonida vatanparvarlik tarbiyasi amalga oshirilishi mohiyati haqida so‘z yuritilgan.

Vatanparvarlik tarbiyasi tizimida oila o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Oilada, avvalo, farzandlarning umumiy ta’lim-tarbiyasi jarayonida vatanparvarlik tarbiyasi amalga oshiriladi. Bo‘lajak Vatan himoyachisini tarbiyalashda yoshlarning turmush tarzini vatanparvarlik tuyg‘usi va u bilan bog‘liq intilishlarga muvofiq ravishda tashkil etish lozim. Bunga erishish uchun esa oila, mahalla va o‘quv-tarbiya muassasalarining mazkur yo‘nalishda o‘zaro hamkorlikdagi harakatlari talab qilinadi. Bundan tashqari o‘rta umumta’lim maktabida fanlarni o‘qitish jarayonida va darsdan tashqari tadbirlarda o‘quvchilarning vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha umumiy tayyorgarligi hamda chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash fanini o‘qitish jarayonida boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik amalga oshiriladigan tadbirlarning ahamiyatlariga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlari: Vatan, vatanparvarlik, muhabbat, xavfsizlik, madaniyat, xizmat qilish, Vatanga muhabbat, himoya qilish, xotira, an‘ana, milliy qadriyatlar, maktab ma’muriyati, nizom, vatanparvarlik, tarbiya, vatanparvarlik ta’lim, oila, ota-ona, oilaviy urf-odatlar, hurmat.

ЗНАЧЕНИЕ ШКОЛЫ И СЕМЬИ ПРИ ВОСПИТАНИИ УЧАЩЕЙСЯ МОЛОДЁЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА

В статье говорится о сущности патриотического воспитания в школе и семье, прежде всего, в процессе общего воспитания учащихся и детей.

Особое место в системе патриотического воспитания занимает семья. В семье, в первую очередь, осуществляется патриотическое воспитание в процессе общего воспитания детей. В воспитании будущего защитника Отечества необходимо организовать образ жизни молодежи в соответствии с чувством патриотизма и связанными с ним стремлениями. Для этого семья, махалля и образовательные учреждения должны работать вместе в этом направлении. Кроме того, обращается внимание на общую подготовку учащихся к патриотическому воспитанию в ходе преподавания предметов и внеурочной деятельности, а также на значение мероприятий начальной военной подготовки в ходе обучения науке подготовки молодежи к военной службе.

Ключевые слова: Родина, патриотизм, любовь, безопасность, культура, служение, любовь к Родине, защита, память, традиции, национальные ценности, администрация школы, устав, патриотическое воспитание, патриотическое воспитание, семья, родители, семейные традиции, уважение.

EDUCATING YOUNG STUDENTS IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM IMPORTANCE OF SCHOOL AND FAMILY

